



# ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI

1

O'QITUVCHILAR UCHUN  
METODIK QO'LLANMA

*O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi  
nashrga tavsiya etgan*

*Yangi nashr*



UO'K 37.016:811.512.133(072)

KBK 74.268.1ya72

81.2

O 58

*Tuzuvchilar:*

**Iroda Azimova, Klaraxon Mavlona, Sa'dullo Quronov,  
Shokir Tursun, Nilufar Hakimova, Husnora Baxtiyorova**

*Xalqaro ekspert:*

**Lannuzzi Susan**

*Taqrizchilar:*

**S. Tajbenova** – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, Nukus davlat pedagogika instituti dotsenti.

**N. Nurmatova** – Toshkent shahridagi 273-maktab o'qituvchisi.

**N. Paxritdinova** – Toshkent shahri Yashnobod tumanidagi 67-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi.

Ona tili va o'qish savodxonligi 1 Metodik qo'llanma [Matn]: o'qituvchilari uchun metodik qo'llanma / I. A. Azimova [va boshq.]. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2021. – 128 b.

ISBN 978-9943-7743-6-0

UO'K 37.016:811.512.133(072)

KBK 74.268.1ya72

81.2

*Respublika maqsadli kitob jamg'armasi  
mablag'lari hisobidan chop etildi.*

*Original maket va dizayn konsepsiysi  
Respublika ta'lim markazi tomonidan ishlandi.*



## M U N D A R I J A

Kirish.....	4
Mening oilam .....	10
Kun tartibi .....	18
Bolalarning sevimli bayramlari.....	24
Yashil sayyora .....	32
Mo'jizaviy hasharot .....	40
Uy hayvonlari.....	45
Foydali sabzavotlar.....	52
Xotiram kuchli bo'lsin desangiz .....	59
Oq terakmi, ko'k terak?.....	66
Ertakdag'i qahramon .....	73
Birinchi kitobim .....	83
Mehmon bo'lish yaxshi-da! .....	91
She'r bo'ladigan so'zlar .....	98
Sanamalar .....	106
Oy yerdan kattami? .....	112
Siz buni bilasizmi? .....	118
O'quv yili oxirida takrorlash.....	125

## KIRISH

Ona tili va o'qish savodxonligi fanini o'qitishda asosiy e'tibor o'quvchida tilga doir to'rt ko'nikma: o'qib tushunish, tinglab tushunish, nutq so'zlash va yozish hamda grammatik savodxonlikni shakllantirishga qaratiladi.

Boshlang'ich ta'larning savod o'rgatish bosqichi yakunlangach, ona tili va o'qish savodxonligi darslari boshlanadi hamda 4-sinf yakuniga qadar izchil davom ettiriladi.

Ona tili va o'qish savodxonligi fanini o'qitishda quyidagi tamoyillarga tayaniladi:

1. Ta'lif berishda kommunikativ yondashuvga asoslaniladi, ya'ni tilning muloqot vazifasi birlamchidir. Shuningdek, faoliyatga yo'nalgan yondashuv, ongli yondashuv, kashfiyotchilik yonda-shuvi, farqli va tanqidiy yondashuv kabilar e'tiborda bo'lishi lozim.

2. Tilni amaliyotda qo'llash, ya'ni matnni o'qish orqali ham grammatika, ham uning qo'llanishi o'rgatish ko'zda tutiladi.

3. Grammatik savodxonlik doirasida o'quvchining so'z boyligini oshirish, so'zlarning ma'no nozikliklari, farq va o'xshashliklarini his qilish va anglab yetish, bexato talaffuz qilish va yozish, so'zlarni bog'lab gap, gaplardan esa matn tuza olish, birikmalardagi ma'noviy va grammatik, matndagi mantiqiy xatoliklarni topish va tuzatish, o'zgalar fikrini to'g'ri anglash, bir fikrni turli shaklda ifodalash, uzilgan fikrning davomini tiklash kabi qator mantiqiy operatsiyalarni bajarish, nutq vaziyatini to'g'ri baholash va til imkoniyatlaridan unga mos ravishda foydalanish ko'nikmlarini shakllantirish va malakasini o'stirishga e'tibor qaratiladi.

4. O'qish savodxonligi doirasida o'quvchida to'g'ri, tez, ongli, ifodali o'qish malakalarini shakllantirish, ularni oddiy kitob o'quvchidan chuqur mulohaza yurituvchi, ijodkor kitobxon darajasiga ko'tarish; o'qish orqali tevarak-atrof, borliq haqidagi bilimlarini kengaytirish, ularning dunyoqara-shini boyitish; tafakkurida elementar adabiy tushunchalarni shakllantirish; har qanday uslubdagagi matnni o'qish va uni anglash, tanqidiy va kreativ fikrlash ko'nikmasini egallash nazarda tutiladi.

5. Barcha uslubdagagi turli sohalarga oid matnlar bilan tanishish barobarida mashq va topshiriqlar orqali fanlararo integratsiya amalga oshiriladi.

6. O'quvchining o'qib, eshitib tushunish, og'zaki va yozma nutq malakasini umumiy holda rivojlantirish maqsadida ularning har biriga alohida e'tibor qaratiladi.

7. Video va audiomateriallar orqali yozma ko'nikma bilan birgalikda og'zaki nutqni rivojlantirish ko'zda tutiladi. Videomaterial tilning qanday vaziyatda qo'llanayotgani haqida to'liq tasavvur bersa, audiomaterial ularning ohangini yaxshi o'zlashtirishga, ularning turli o'zgarishlari qanday ma'no anglatishini tushunishga yordam berishiga e'tibor qaratilgan.

8. Badiiy matn ustida ishlash jarayonida o'quvchilarning yosh xususiyatlari, qiziqishlari, tilning ifoda imkoniyatlarini tushunishi va his eta olishi, "so'zni hazm qila olish" darajalari e'tiborga olinadi.

9. Ta'lif jarayonida o'quvchilarning voqeа-hodisalarini kuzatish, anglash, qiyoslash, analiz va sintez qilishga o'rgatish orqali ijodiy tafakkuri, fikrlash doirasi shakllantirib boriladi.

10. Har bir mashg'ulot tilni o'zlashtirishning tabiiy laboratoriysi sifatida tashkil etiladi.

Mazkur "O'qituvchi kitobi"da ona tili va o'qish savodxonligi fanidan o'tilayotgan nutqiy mavzular doirasida qanday malaka talablari qo'yilgani, bunda qaysi jihatlarga e'tibor berish lozimligi, mashq va topshiriqlarni bajarish bilan bog'liq metodik yo'l-yo'riqlar, darsni qanday texnologiya asosida tashkil etish bo'yicha amaliy tavsiyalar beriladi.

Mashq daftarida darslikda ishora qilingan, maxsus belgi bilan ajratilgan topshiriqlar bajarib boriladi. O'quvchilar daftarga yozishlari, chizishlari, bo'sh o'rnlarni to'ldirishlari, o'qib va tinglab tushunish, matn tuzish bilan bog'liq topshiriqlarni bajarishlari hamda rasmlarni bo'yashlari mumkin.



## DARSLIKDAGI BELGILAR IZOHI



**O'qish** belgisi darslikda berilgan matnni o'qishga ishora qiladi.



**Savollarga javob berish** belgisi darsda savol-javob, babs-munozaralar vaqtiga kelganidan xabar beradi.



**Mashq daftariga yozish** belgisi o'quvchi daftarida ishlanadigan mashqlar oldidan berilgan.



**Audiomatnni tinglash** belgisi kelgan o'rinnlarda o'quvchilarga shu mavzuda berilgan audiomatn eshittiriladi.



**Qoida bilan tanishish** – qoidalar oldidan berilgan belgi.



**Qiziqarli mashg'ulot** belgisi bilan berilgan topshiriq rasm chizish, bo'yash, yasash yoki loyiha tuzishga doir qiziqarli mashg'ulot bo'lishi mumkin.



**Partadosh bilan bajarish** o'quvchi o'z partadoshi bilan birgalikda bajaradigan mashq va topshiriqlarni anglatadi.



**Rasmga e'tibor berish** belgisi rasmlli topshiriqlar oldidan beriladi.



**Quvnoq musobaqa** sinfda musobaqa uyushtirish nazarda tutilgan topshiriqlar oldidan berilgan.



**Topshiriqni bajarish** belgisi mustasno holatlarda qo'llangan topshiriqlarni nazarda tutadi.

Mazkur metodik qo'llanmada darslarni rejada ajratilgan soatlarga muvofiq tashkil etish bo'yicha tavsiyalar, darslikdagi mashq, topshiriqlarning yechimi hamda matn, rasm, chizmalar ustida ishslashga oid metodik ko'rsatmalar berilgan.

### 1-SINF O'QUVCHISIGA ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI FANIDAN QO'YILADIGAN MALAKA TALABLARI

OG'ZAKI NUTQ	
MO'D.OTO'S.1.ON.1	suhbat jarayonida birinchi sınıf darajasiga mos mavzular yuzasidan adabiy talaffuz qoidalariga rivoja qilgan holda ravon so'zlay oladi;
MO'D.OTO'S.1.ON.2	kichiklar, tengdoshlari hamda kattalar bilan suhbat hamda muhokama jarayonida muloqot odobiga (bir-birini hurmat qilish, so'zga chiqishni hurmat bilan so'rash, mavzu yoki matn yuzasidan navbat bilan gapirish) rivoja qiladi;
MO'D.OTO'S.1.ON.3	suhbat yoki muhokama jarayonida boshqalarning fikriga munosabat bildira oladi;
MO'D.OTO'S.1.ON.4	suhbat yoki muhokama jarayonida aniqlashtirish uchun savollar bera oladi;
MO'D.OTO'S.1.ON.5	sinf darajasiga mos she'rlarni yoddan, ifodali hamda ravon aytib bera oladi;
MO'D.OTO'S.1.ON.6	sinf darjasiga mos mavzu hamda holatlarda rasm, shaxs, narsa va hodisalarini tasvirlab bera oladi;
MO'D.OTO'S.1.ON.7	sinf darjasiga mos matnlarni o'qib / tinglab bo'lgach, uning asosiy mazmunini aytib bera oladi.
MO'D.OTO'S.1.ON.8	avvaldan berilgan mavzu yuzasidan bilimlariga tayangan holda kichik taqdimot o'tkaza oladi.

TINGLAB TUSHUNISH	
MO'D. OTO'S.1.TT.1	birinchi sinf darajasiga mos matnlarda voqea-hodisa, shaxs, narsa yoki joy haqidagi ma'lumotlar so'zlovchi tomonidan ochiq ifodalanganda savollarga javob bera oladi;
MO'D. OTO'S.1.TT.2	dialog yoki suhabat jarayonida so'zlovchining o'zgarganini anglay oladi;
MO'D. OTO'S.1.TT.3	so'zlovchi nutqidagi ohangga tayanib so'roq, darak, buyruq hamda his-hayajon gaplarni farqlay oladi;
MO'D. OTO'S.1.TT.4	sinf darajasiga mos badiiy yoki informativ matnni tinglagach, uning asosiy mazmunini aytib bera oladi;
MO'D. OTO'S.1.TT.5	sinf darajasiga mos badiiy yoki informativ matnni tinglash jarayonida voqea-hodisa sodir bo'layotgan makon hamda zamon haqida taxmin qila oladi, taxminlarini asoslab bera oladi.

YOZMA NUTQ	
MO'D.OTO'S.1.YN.1	bosh va kichik harf shakllarini biladi hamda to'g'ri yoza oladi;
MO'D.OTO'S.1.YN.2	asosiy husnixat qoidalariiga amal qilgan holda yoza oladi;
MO'D.OTO'S.1.YN.3	fikr ifodalashda nuqta, vergul, so'roq hamda undov belgilarini to'g'ri qo'llay oladi;
MO'D.OTO'S.1.YN.4	tinish belgilari hamda imlo qoidalariiga amal qilgan holda 15–20 ta so'zdan iborat diktant yoza oladi;
MO'D.OTO'S.1.YN.5	o'zining hamda oila a'zolarining shaxsiy ma'lumotlarini (ismi, familiyasi, manzili) yoza oladi;
MO'D.OTO'S.1.YN.6	turli maqsadlarda (tasvirlash, savol-javob, hikoya qilish) 3–5 ta gapdan iborat matn tuzib yoza oladi;
MO'D.OTO'S.1.YN.7	berilgan rasm, matn asosida shaxs yoki ma'lum voqea-hodisani tasvirlab 2–3 ta gapdan iborat matn tuzib yoza oladi;
MO'D.OTO'S.1.YN.8	sinf darajasiga mos matnlarni rasmlar bilan boyita oladi;
MO'D.OTO'S.1.YN.9	tug'ilgan kun hamda bayram tabriknomasini yoza oladi.

O'QIB TUSHUNISH	
MO'D.OTO'S.1.O'T.1	kitobning muqovasi, sahifaning yuqori hamda pastki qismlari, sahifa raqami bo'lishini, chapdan o'ngga qarab o'qilishini, yozuv va tasvirlar ma'no anglatishini, yozuvlar bosma hamda yozma shaklda bo'lishini tushunadi;
MO'D.OTO'S.1.O'T.2	harflar hamda tovushlarni o'zaro moslashtira oladi;
MO'D.OTO'S.1.O'T.3	alohida yoki matn tarkibida kelgan sinf darajasiga mos so'zlar hamda birikmalarni (tanish, notanish) to'g'ri o'qiy oladi;
MO'D.OTO'S.1.O'T.4	sinf darajsiga mos badiiy hamda informativ matnlarni ravon hamda ifodali o'qiy oladi;
MO'D.OTO'S.1.O'T.5	sinf darajasiga mos matndagi notanish so'zlar ma'nosini aniqlash uchun lug'atdan (darslik oxiridagi yoki bolalar uchun chiqarilgan boshqa) foydalana oladi;
MO'D.OTO'S.1.O'T.6	sinf darajasiga mos badiiy hamda informativ matnlarda ochiq ifodalangan ma'lumotlar (qahramonlar, faktlar, detallar)dan savol berilganda javob beradi hamda javobini asoslay oladi;
MO'D.OTO'S.1.O'T.7	sinf darajasiga mos matndagi ko'rsatmalarga (3 bosqichli) amal qila oladi;
MO'D.OTO'S.1.O'T.8	sinf darajasiga mos badiiy hamda informativ matnlardagi voqealar ketma-ketligini to'g'ri belgilay oladi;
MO'D.OTO'S.1.O'T.9	kun tartibi aks etgan jadvalni tushuna oladi;
MO'D.OTO'S.1.O'T.10	taqvimdan foydalanim tug'ilgan kun hamda bayramlarni belgilay oladi;
MO'D.OTO'S.1.O'T.11	sinf darajasiga mos matn hamda tasvirlarni o'zaro moslashtira oladi;
MO'D.OTO'S.1.O'T.12	matnning ma'lum qismini o'qib, uni mantiqan davom ettira oladi;



MO'D.OTO'S.1.O'T.13	sinf darajasiga mos badiiy hamda informativ matnlarning mazmuni haqidagi savollarga javob berib, javoblarini asoslay oladi.
---------------------	---

### LINGVISTIK KOMPETENSIYA

MO'D.OTO'S.1.LK.1	tovushlarni taniydi, ularni harflarga moslashtira oladi, tovushlarni qo'shib so'z hosil qila oladi, tovushlar joylashuvini o'zgartirib yoki tovushni olib tashlab yangi so'z hosil qila oladi;
MO'D.OTO'S.1.LK.2	bo'g'lnlarni taniydi, ularni qo'shib so'zlarni talaffuz qila oladi, bo'g'lnlarni birlashtirib, joylashuvini o'zgartirib yoki bo'g'inni olib tashlab yangi so'z hosil qila oladi;
MO'D.OTO'S.1.LK.3	qofiyadosh so'zlarni taniydi va ayta oladi;
MO'D.OTO'S.1.LK.4	sinf darajasiga mos matnlardagi notanish so'zlarning ma'nosini aniqlaydi va nutqida qo'llay oladi;
MO'D.OTO'S.1.LK.5	sinf darajasiga mos sodda so'z birikmalari, maqol, ibora hamda tasviriy ifodalarning ma'nosini aniqlay oladi;
MO'D.OTO'S.1.LK.6	gaplardagi birinchi so'zlar hamda ismlarni bosh harf bilan yoza oladi;
MO'D.OTO'S.1.LK.7	sinf darajasiga mos sodda gaplarning egasi va kesimini farqlay oladi;
MO'D.OTO'S.1.LK.8	sinf darajasiga mos matnlarda gaplarning darak, buyruq, so'roq hamda his-hajyon ohangida ekanini aniqlay oladi;
MO'D.OTO'S.1.LK.9	bo'g'in ko'chirish qoidalarni amalda qo'llay oladi;
MO'D.OTO'S.1.LK.10	narsalarning hamda shaxslarning nomini bildirgan so'zlarni ajrata oladi;
MO'D.OTO'S.1.LK.11	asosiy husnixat, imlo, bo'g'in ko'chirish hamda tinish belgilari qoidalariiga amal qilgan holda gaplar hamda kichik matnlar tuzib yoza oladi.

### Qo'shimcha izohlar

**I. Milliy o'quv dasturi (MO'D)dagi malaka talablari bilan mosligi.** Bunda har bir dars mohiyatidan kelib chiqqan holda jadval ko'rinishida malaka talablari ajratib berilgan. Jadvalda quydagi qisqartmalardan foydalanilgan:

OTO'S – ona tili va o'qish savodxonligi.

ON – og'zaki nutq.

YN – yozma nutq.

LK – lingvistik kompetensiya.

**II. Har bir nutqiy mavzu boshida uning maqsadi berilgan.**

**III. Har bir darsning boshida uning maqsadi berilgan.**

**IV. Vosita.**

**V. Dars jarayoni.**

Dars jarayoni uch qismidan iborat: kirish, asosiy qism va xulosa.

Kirishda mavzuga o'quvchini olib kirish uchun yo'riqnomalar berilgan bo'lib, buni qat'iy xulosa sifatida qabul qilish kerak emas, ya'ni bu tavsiyaviy xarakterga ega.

Asosiy qismda mavzu mohiyatini ochishga qaratilgan savollar, mashq va topshiriqlar ustida ishlashga oid metodik tavsiyalar berilgan.

Xulosa qismida o'quvchilarni rag'batlantirish va baholash, darsni xulosalash, keyingi mavzuga o'tishga qaratilgan tavsiyalar keltirilgan.



"Google play"dan "Savodxon 2" ilovasini yuklab oling. Mazkur ilovada darslikning qo'shimcha manbalari: audiomatnlar, videolavhalar va ona tilini o'zlashtirishga qaratilgan qiziqarli o'yinlar berilgan.

# O'QUVCHILARNI BAHOLASH

## YUZASIDAN TAVSIYALAR

### 1. Baholash turlari

**Shakllantiruvchi** – o'quvchilar kutilgan natijaga erishgan yoki erishmaganini kuzatish.

**Xulosalovchi** – o'quvchilarning kutilgan natijaga qanchalik darajada erishganligini xulosalash.

### 2. Xulosalovchi baholash

Ta'lif jarayonining ma'lum bir muhim bosqichida (masalan, modul yoki fan oxiri, semestr yoki chorak, o'quv yili oxiri, ta'limning bir bosqichi nihoyasi yoki ta'limning keyingi bosqichiga o'tishdan oldin) o'quvchining ta'limiylarini qaydarajada erishganligini o'lchash jarayoni.

Xulosalovchi baholash deganda yakuniy imtihonlar, bitiruv yoki qabul imtihonlari, standartlashtirilgan testlarni tushunamiz.

### 3. Shakllantiruvchi baholash

#### 3.1. Shakllantiruvchi baholashning asosiy maqsadlari:

– muntazam ravishda sinfda o'quvchini baholab borish orqali u qaysi bilim, ko'nikma, malaka yoki kompetensiyalarni yaxshi o'zlashtirayotgani yoki o'zlashtirmayotgani, nimalar usida ishlashi kerakligi haqida ma'lumot beriladi;

– biror mavzu oxirida nazorat ishi olish orqali o'qituvchi o'quvchilarning shu mavzuni qay darajada o'zlashtirganliklari, qanday xatolarga yo'l qo'yayotganlari haqida ma'lumot olishi va zarur bo'lsa, o'tilgan mavzuga yana qaytishi mumkin;

– o'qituvchi o'quvchilarning boshlang'ich bilim darajasini aniqlash maqsadida test o't-kazishi va olingan ma'lumotlar asosida keyinigi qadamlarni rejalashtirishi yoki o'quvchilarni guruhlarga ajratishi mumkin.

Shakllantiruvchi baholash kuzatish vositasi, xulosalovchi baholash esa aniq baho bilan tugaydigan jarayondir. Bu ikki baholashning farqini tushunish uchun biz umumta'lif maktablaridagi baholashga bo'lgan munosabatimizni o'zgartirishimiz lozim. Testga yoki baholashga klassik yondashuv shundayki, baho o'quv jarayonini yakunlash (o'quv jarayoni deyilganda biror bilim, ko'nikma, malakanasi o'rganish jarayoni nazarda tutilmoxda) vositasi deb qaraymiz. Bu mantiqni biroz o'zgartirish vaqt yetdi, chunki o'rganish yakunlab bo'lmash jaryon hisoblanadi.

### 3.2. Shakllantiruvchi baholash usullari

#### Savol-javob

##### Ochiq va yopiq savollar

Ochiq savollar:	masalan, o'quvchini erkin gapireshga undaydigan munozara: Ayting-chi, ... ....ga munosabatingiz qanday?
Yopiq savollar:	masalan, qisqa va aniq javoblarni talab qiluvchi savollar: "Karima" so'zi nima uchun bosh harf bilan yozilgan? "Kitob" so'zida nechta bo'g'in bor? Fotima qayerga borishni istaydi?

#### Kuzatish

O'quvchilar bir narsani turlicha usullar bilan o'zlashtiradilar. Kimdir ko'rganda o'zlashtirsa, kimdir eshitganda yaxshiroq tushunadi. Bu esa o'qituvchidan bir vaqtning o'zida turli usullarni qo'llash va o'quvchilarni baholashda ham bunga e'tibor qaratishni talab etadi.

O'quvchilarning o'zlashtirishiga **ko'rish, eshitish, o'ylash, his qilish** ta'sir qiladi. Bu-larni metodik tilga tarjima qilsak, quyidagicha bo'ladi: **amaliy faoliyat, tadqiqot, muammo ni yechish, o'yinlar, rolga kirishish.**

O'qituvchi aynan shular orqali o'quvchining o'zlashtirgani yoki o'zlashtirmaganini aniqlash-

ga urinishi kerak. Sizga taqdim etilgan darslik bilan bu ishni amalga oshirish ancha qulay, ushbu darslikdagi mashq va topshiriqlar shakllantiruvchi baholash talablariga to'laqonli javob beradi.

#### Fikr-mulohaza

Shakllantiruvchi baholash bu shunchaki o'quvchini tekshirish emas, balki unga fikr-mulohaza bildirish hamdir. Ya'ni o'quvchining aniqlangan kamchiliklarini qanday tuzatishi kerakligi haqida o'qituvchidan oladigan fikr-mulohazasi ham shakllantiruvchi baholashning ajralmas qismi hisoblanadi.



Fikr-mulohazalarning samarali va samarasiz ko'rinishlari mavjud bo'lib, ular quyidagicha aks etadi:

Samarali	Samarasiz
O'quvchining rivojlanishiga qaratilgan.	Noaniqliklar mavjud.
Kamchiliklarni bartaraf etish uchun nimalar qilish kerakligini o'z ichiga olgan.	O'ta umumiyl.
Yozma, og'zaki yoki vizual shaklda ifodalangan.	O'quvchining shaxsiy xususiyatlariga asoslangan.
Ijobiylik ruhida ifodalangan.	Mukofot, rag'bat sifatida ishlatilgan.
Tez-tez va o'z vaqtida (kamchilik aniqlangan zahoti) berilgan.	
Xoslangan aniq shaklda (mavhum bo'limgan) ifodalangan.	
Hukm chiqarilmagan, faqat, mavjud vaziyat tavsiflangan.	
O'quvchining shaxsiy xususiyatlariga emas, faoliyatiga qaratilgan.	

Quyida o'qituvchining samarali va samarasiz fikr-mulohazasiga namuna keltirilgan:

Samarali fikr-mulohaza	Nimasi bilan samarali?
Bosh harflarning qo'llanishi bilan bog'liq jami 4 ta xato bor. Kitobning 28-betini oching va bosh harflar imlosiga oid qoidalarni takrorlab oling.	Kamchiliklarni bartaraf etish uchun nimalar qilish kerakligini o'z ichiga olgan.
Nutqingiz juda tez edi, shuning uchun har bir so'zni sekin va ravon talaffuz qilib, har bir jumla orasida pauza qiling.	Xoslangan aniq shaklda (mavhum bo'limgan) ifodalangan.
Maftuna, tuzgan matningizda sifatdoshlardan juda yaxshi foydalangansiz, keyingi safar KFSqlarni qo'llashda e'tiborli bo'ling.	O'quvchining rivojlanishiga qaratilgan.
Muhammad, muammoga yondashuvningiz to'g'ri, bu muammoni hal qilishda 3 ta to'g'ri qadamni amalga oshirgansiz.	O'quvchining xatti-harakatlari kutilgan natija bilan qiyoslab berilgan.

9

Samarasiz fikr-mulohaza	Nimasi bilan samarasiz?
Sinfdag'i boshqa o'quvchilarga nisbatan yaxshi bajargansiz.	O'ta umumiyl. O'quvchi aynan nimasiga ko'ra yaxshi bajarganini, aynan qaysi nuqtalar yaxshi deya baholanayotganini, keyingi harakatlari qanday bo'lishi kerakligini angolmaydi.
Qoniqarsiz yoki yaxshi bajarilmagan.	Noaniq. O'quvchi xatolari nimada ekanini, ularni bartaraf etishi uchun nimalar qilishi kerakligini angolmaydi.
Juda yaxshi javob berdingiz, qoyil!	Noaniq. O'quvchi qaysi harakati to'g'riliqi va uni davom ettirish o'rini ekanini aniq bilmaydi.
Siz juda yaxshi o'quvchisiz, sizdan nihoyatda mamnunman!	O'ta umumiyl. O'quvchining qaysi xatti-harakatiga bunday xulosa berilayotgani ochiq aytilmagan.
Siz juda yaxshi gapirdingiz.	O'ta umumiyl. O'quvchining javobi qanday xususiyatlarga ega ekanligi aytib o'tilmagan.

# MENING OILAM

**Nutqiy mavzuning maqsadi:** o'quvchilarning oila, munosabatlari borasidagi tasavvurlarini kengaytirish; mazkur mavzu doirasida ishlataladigan so'z, so'z birikmalarini va gaplarni to'g'ri tushunish va to'g'ri qo'llashiga erishish; shaxsga xos ayrim xususiyatlarni ifodalovchi, o'zbek nutqi va madaniyati kontekstida oila a'zolariga nisbatan ishlataladigan sifatlarni o'rgatish; ohangdosh so'zlarni aniqlash, she'r hamda matn syujetini tushunish, matnda ochiq ifodalangan ma'lumotlardan savol berilganda og'zaki hamda yozma javob bera olish, berilgan tasvir asosida kichik hikoyaviy matn yaratish ko'nikmalarini rivojlantirish.

Vosita: oila a'zolari va ularning atalishi keltirilgan rasm, rasm asosida suhbat.

## DARS JARAYONI

### Kirish

Tashkiliy qismidan so'ng o'qituvchi bo'lim hamda nutqiy mavzu nomini e'lon qiladi. O'quvchilarni mavzuga olib kirish uchun quyidagi savol bilan murojaat qilish mumkin: "Ayting-chi, rasmda nima tasvirlangan?" Sinfdagagi 4-5 nafar bolaning javobi eshitilgach, darsni davom ettirsa bo'ladi.

### Asosiy qism

#### Rasm asosida suhbat.

Darslikning 6-betida turlicha tarkibga ega 3 xil oila tasvirlangan rasm berilgan. O'quvchilarga "Qaysi rasmdagi oila kattaroq ekan?" kabi savollar bilan murojaat qilish mumkin (shu yerda *kattaroq* so'zi tarkib jihatdan boshqalar dan ortiq degan ma'noni anglatishini aytib ketish ham mumkin).

**Eslatma:** O'quvchilarga har bir rasmni alohida-alohida ko'rsatib kim tasvirlanganini (ismi emas, ota, ona yoki bola) so'rab chiqing. O'quvchilar rasm atrofidagi so'zlar bilan ularni moslashtira olishiga e'tibor qarating.

Barcha rasmlarda kim tasvirlanganini so'rab bo'lgach, o'quvchilarga quyidagi savollar bilan murojaat qilish mumkin:

**1. Bir rasmga bir necha so'z mos kelishi mumkinmi?**

**Eslatma:** har bir savolni 5-6 nafar o'quvchiga bering. Savolning va javobning takror bo'lib qolishi ahamiyatsiz, bunda o'quvchilarni darsga jaib qilish hamda har birining nutqini nazorat qilish hamda o'stirish na-zarda tutiladi.

O'quvchilarning bu savolni tushunishlariga yordam berish maqsadida bitta misol keltirish mumkin. Masalan,



### 1-soat

**Darsning maqsadi:** o'quvchilarni oila mavzusiga olib kirish, oila a'zolari qanday atalishi va bu so'zlar qanday yozilishi bilan tanishtirish; har bir o'quvchining oila tarkibi haqida og'zaki suhbat uyushtirish; oila a'zolarini bildiruvchi so'zlarining sinonimlik xususiyatini tushuntirish.



Ushbu rasmdagi o'g'il bolani ko'rsatib, "Bu – o'g'il bola. Rasmdagi ota uchun bu bola kim? Rasmdagi ona uchun bu bola kim? Rasmdagi qiz uchun bu bola kim?" deya so'rash kerak. Shunda birgina shu o'g'il bola aka (yoki uka), farzand bo'la olishini bola tushunadi.

**Eslatma:** o'quvchilarga dada hamda ota, ona hamda oyi kabi so'zlar bir xil ma'ho anglatishini alohida ta'kidlab aytib o'ting. O'quvchilar javob berganda "nega?" deb javobni yanada aniqlashtirib oling.

## 2. Sizning oilangizda kimlar bor?

Har bir o'quvchidan oilasida kimlar borligi alohida so'rab chiqiladi. O'quvchilar amaki, xola, amma yoki tog'alarini ham qo'shib sanay boshlasa, ular oila a'zosi emas, lekin yaqin qarindosh ekani tushuntiriladi.

### Yozma mashq

#### 1-topshiriq. Oila a'zolaringizni bildiruvchi so'zlarni yozing.

O'quvchilarga mashq daftarlari olish bуuriladi. Daftarda "Mening oilam" mavzusida berilgan 1-topshiriq bajartiriladi. O'quvchilar so'zlarni vergul bilan ajratib yozishlariga e'tibor qaratish kerak. Misol tariqasida o'qituvchi xattatxaga o'z oila a'zolarini bildiruvchi so'zlarni yozib ko'rsatishi mumkin.

**Eslatma:** biror so'zni yozishni bilmasa yoki qandaydir savol tug'ilsa, bemalol so'rashi mumkinligini o'quvchilarga tushuntiring.

## Darsning yakuni

Har darsning yakunida bir soatlik dars davomida nimalar o'tilganini bolalardan qisqacha so'rab olish, ularning javoblarini to'ldirish bilan darsga xulosa yasaladi.

Darsning oxirida keyingi soatda nima qilinishi haqida aytish muhim: "Hoshimjonning oilasi" matni bilan tanishamiz.

## 2-soat

**Darsning maqsadi:** kishi ismlari, kasb nomlarini to'g'ri talaffuz qilishga o'rgatish; matndagi fikrlarning sabab-oqibatga ko'ra bog'lanishini tushuntirish; -jon erkalash qo'shimchasining ma'nosini anglatish.

**Vosita:** mavzu bilan bog'liq matn va unga oid topshiriqlar.



Hoshimjonning o'z oilasi haqidagi hikoya-sini tinglang.

### HOSHIMJONNING OILASI

1 Tanishib qo'yaylik: otim – Hoshim, erkatalib chaqrimoqchi bo'lsangiz, Hoshimjon deb aytasiz. Familyam – Ro'ziyev, Ro'zivoy traktorchining o'g'iliman.



2 Ruxsat bersangiz, oilamiz haqida ikki-uch og'iz so'zlab o'tsam: dadam qishlog'imizda traktorchilik qildi. Oyim bo'lsa uyimizdan uch yuz metr naridagi fermada sigir sog'adি.



7

## DARS JARAYONI

### Kirish

Tashkiliy qismidan so'ng o'quvchilarni mavzuga olib kirish uchun o'qituvchi quyidagi savollardan birini berishi mumkin:

- Biror ertak qahramoni oilasi haqida aytib bergenini bilasizmi?
- Biror multfilmda oila tasvirlanganini eslay olasizmi?
- Kimgadir oilangiz haqida aytib bergenmisiz?

### Asosiy qism

#### Tinglab tushunish.

O'qituvchi o'quvchilarga darslikning 7–8-beqidagi "Hoshimjonning oilasi" matnini o'qib beradi. O'qituvchi o'qishdan oldin o'quvchilarga darslikni ochish hamda qo'li bilan o'qituvchi o'qigan joylarni kuzatib borish topshirig'ini beradi.

**Eslatma:** matnni o'zbek adabiy talaffuzi normalariga amal qilgan holda, ravon, yetarlicha baland hamda yetarlicha tezlikda o'qing. Bir gapni ikki martadan o'qib berishingiz ham mumkin.

11

Matn o'qib berilgach, quyidagi savollar beriladi:

- 1. Qanday ismlarni eshitdingiz?**
- 2. Qaysi kasblar haqida aytildi?**
- 3. Oila a'zolarini bildiruvchi qaysi so'zlar ishlatildi?**

Yuqoridagi uch savolning javobi o'quvchilardan matnda aytilgan ismlar, kasb nomlari hamda oila a'zolarini bildiruvchi so'zlarni takrorlab berishlarini talab qiladi. Bu orqali o'quvchilarning shu birliklarni ajrata olishi/olmasligi tekshiriladi. Agar o'quvchilar hamma so'zlarni eslab qololmagan bo'lsa, bu uchun ularni ayplash kerak emas. Savollarning asosiy maqsadiyuqoridagi birliklarni boshqa birliklardan farqlay olishini aniqlash va shunga yo'naltirishdir.

**Eslatma:** ushbu savollarni imkon qadar ko'proq o'quvchidan so'rang. Bir savolni birgina o'quvchiga berib, undan javob olgach, keyingi savolga o'tib ketmang. O'quvchi talaffuzda, birlikni topishda xato qilsa, tushuntirib, to'g'rilab keting.

## O'qib tushunish

12

Hoshimjonning oilasi matnni o'quvchilarning o'zları o'qishlariga imkon beriladi. Avval ichlarida o'qib olishlari uchun vaqt berish, keyin bittadan yoki ikkitadan gapni ovoz chiqarib o'qishlarini so'rash maqsadga muvofiq.

**Eslatma:** o'quvchilarning talaffuzidagi kamchiliklarni to'g'rilab ketishga harakat qiling. Bu amalni o'quvchi matnni o'qib bo'lgach qiling, o'qiyotgan vaqtida to'xtatib, biror so'zning o'qilishini aytmang.

**DIQQAT!** Agar o'quvchi biror so'zni o'qiy olmayotgan bo'lsa, shu so'z uning leksikonida yo'qligini, buning yozma yoki og'zaki shakliga birinchi marta duch kelayotgani ni anglatadi. O'quvchilar matn o'qiyotgan vatqda shunga e'tibor bering.

Matnni hamma o'qib bo'lgach, quyidagi savollar beriladi:

- 1. Hoshimjonning oilasida kimlar bor?**

O'quvchilar matn asosida Hoshimjonning oilasida kimlar borligini aytib berishlari kerak, masalan, onasi, singlisi Dono kabi.

- 2. Ota-onasining kasbi nima?**

O'quvchilar matn asosida Hoshimjonning otasi va onasining kasbini aytib berishlari lozim.

- 3. Hoshim demay, Hoshimjon desak ni-ma o'zgaradi?**

Bu – o'quvchilarni fikrlashga undovchi savol. O'quvchilardan to'g'ri javob kutilmaydi. O'quvchilar o'z fikrini bayon qilishlari muhim. Bu palla o'qituvchi **-jon** qo'shimchasingining vazifasini tushuntirish uchun juda qulay fursatdir.

*Biror ismga -jon qo'shimchasi qo'shilsa, u erkatalish, hurmat qilish ma'nolarini oladi. Ya-ni Hoshim deganimizda erkatalish hissi yo'q, lekin Hoshimjon desak, bu ko'rindi.*

- 4. Oyshaxonning oiladagi vazifasi nima?**

O'quvchilar matn asosida Oyshanining ro'zg'orda nimalar qilishini, uning zimmasiga nimalar yuklatilganini qayta bayon qilib berishlari lozim.

- 5. Nega Donoxondan shifokor chiqmas ekan?**

Ushbu savolda o'quvchilar matnda aytilgan bir fikrning sababini topishlari kerak bo'ladi. Bu turdag'i savollar o'quvchilarda sabab-oqibat munosabatini tushunish ko'nikmasini rivojlantirishga xizmat qiladi.

## 3-soat

**Darsning maqsadi:** topshiriq asosida partadoshi bilan suhbatga kirish ko'nikmasini shakllantirish; matnda kelgan iboralar qo'llanish o'rniga ko'ra ma'nosini tushuntirish; grafikli matnni tushunish ko'nikmasini rivojlantirish; qarindoshlikni ifodalovchi so'zlar bilan tanishtirish.

**Vosita:** mavzu bilan bog'liq matn va unga oid topshiriqlar, ajratib ko'rsatilgan iboralar.

## DARS JARAYONI

### Kirish

Tashkiliy qismidan so'ng o'qituvchi matndagi "ikki-uch og'iz" iborasini matn asosida tushuntirib, uning qanday ma'no anglatayotgani ni aytib beradi.

### Asosiy qism

#### Muhokama.

O'qituvchi misol tariqasida tahlil qilib ber-gach, o'quvchilarga qolgan iboralarni ham shu



tarzda tahlil qilish bo'yicha topshiriq beradi. Bunda o'quvchilarning partadoshi bilan o'zaro fikr almashishini alohida ta'kidlaydi. Partadoshlar kelishib, xulosalarini aytishlari so'raldi (darslikning 9-betidagi topshiriq).

**ULAR SIZGA KIM?**

xola	oyimning	singlisi
amaki	dadamning	akasi
amma	dadamning	opasi
tog'a	?	?

10

### Yozma mashq

O'quvchilarga mashq daftarlarini ochish hamda 3-betidagi 2-topshiriqni bajarish buyuriladi. Bunda o'quvchilar gaplardagi ajratib ko'rsatilgan so'zlarni pastda berilgan ma'nolar bilan moslashtirishlari va daftarga yozishlari kerak.

**Eslatma:** topshiriqni bajarayotganda o'quvchilarning muvaffaqiyatlari va kamchiliklarini kuzatib boring. Muammolarni o'rniда hal etishga harakat qiling.

O'quvchilar topshiriqni bajarib bo'lgach, birgalikda o'qib tekshirish tavsiya etiladi. Har bir o'quvchining yutug'ini e'tirof etib, kamchiligini ta'kidlab, to'g'rilash uchun nimalarga e'tibor qaratishi kerakligini aytish tavsiya etiladi.

### To'g'ri javoblar:

Ikki-uch og'iz so'z – qisqacha aytib bermoq.  
Ko'zi tushib qolsa – ko'rib qolganda.

O'shaning bo'ynida – unga yuklatilgan.  
Tog'dan tog'ga qochadi – qo'rqib uzoqqa qochadi.

### Ular sizga kim?

Ushbu topshiriq o'quvchilarda grafikli matnlarni tushunish ko'nikmasini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bunda o'quvchilarga xola, amma, tog'a, amaki kabi qarindoshlikni anglatuvchi so'zlarni o'rgatish, ma'nosini tushuntirish maqsad qilingan. O'quvchilarga ko'rsatkichlarga e'tibor qaratish va so'roq belgisi o'rniga keraklikni qo'yib o'qishni buyurish lozim.

**Eslatma:** "amaki", "tog'a", "xola", "amma" so'zlarining qarindosh bo'lmaganlarga nisbatan ham ishlatalish o'rni mavjudligini tushuntirib keting. Masalan, Farg'ona vodiyida o'zidan katta begona odamga tog'a deb murojaat qilinadi, Toshkent shahrida esa amaki deyiladi. Ya'ni bu birliliklarning begona odam uchun qo'llanishi mumkinligini tushuntirish lozim.

### 4-soat

**Darsning maqsadi:** matndagi qahramonlar haqidagi ma'lumotlarni qayta bayon qilish, matndagi ma'lumotlarni integratsiya qilish ko'nikmalarini rivojlantirish; shaxsiga xos xususiyatlarni anglatuvchi so'zlarini qo'llashni o'rgatish; ism-familiyalarning bosh harf bilan yozilish qoidasi bilan tanishitish; o'zi haqida anketa ma'lumotlarini to'lirish ko'nikmasini rivojlantirish.

**Vosita:** mavzu bilan bog'liq matn va unga oid topshiriqlar, bosh harflar imlosi qoidasi hamda o'zi haqidagi ma'lumotlarni kiritish mumkin bo'lgan jadval.

## DARS JARAYONI

### Kirish

Tashkiliy qismidan so'ng o'qituvchi avvalgi darslarda tanishilgan "Hoshimjonning oilasi" matnini eslatadi. O'quvchilarni mavzuga olib kirish uchun matndagi qahramonlar ismini, voqealarni so'rash mumkin.

### Asosiy qism

#### Ular haqida nimalarni bilasiz?

Darslikning 11-betida berilgan namunani o'quvchilarga tushuntirish kerak bo'ladi. Bun-

da savollar berish usuli yaxshi samara berishi mumkin:

- *Rasmdagi kim?*
- *Uning kasbi nima?*
- *Uning mehnatkash odam ekanini qanday aniqlab olyapmiz?*

Ushbu savollar o'quvchilarda matndan qahramon haqida ma'lumotlarni ajratib olish ko'nikmasini rivojlantirishga qaratilgan. Ro'zivoy aka mehnatkash odam ekani haqidagi xulosaga kelish uchun matndagi "dadam qishlog'imizda traktorchilik qiladi" gapi asos bo'la oladi.

**Eslatma:** o'quvchilarga "mehnatkash" so'zining ma'nosini tushuntiring. Bundan tashqari dangasa, qo'rqaq, jasur kabi shaxsga oid xususiyatlarning ma'nosini ham tushuntirib berish tavsiya etiladi. Bu keyingi topshiriqlarni bajarishda o'quvchilarga qo'l kelishi mumkin.

Namuna bilan yaxshilab tanishib bo'lgach, o'quvchilardan Hoshimjon, Oyshaxon, Donoxon haqida ham yuqorida kabi ma'lumotlarni aytish so'raladi. Ushbu savollarni imkon qadar hamma o'quvchiga berish tavsiya etiladi. O'quvchilar javob berganda nega bunday deyayotganini so'rash ko'nikmaning rivojlanshida yaxshi samara beradi.

### Yozma mashq

#### 3-topshiriq.

Ushbu topshiriq mashq daftarida bajariladi. Daftarda tayyor jadval berilgan. O'quvchilar o'sha jadvalga o'z ma'lumotlarini yozishlari kerak bo'ladi. Oila a'zolaringiz degan qatorga ota, ona, aka, uka deb oila tarkibini yozishlari mumkin. Ushbu topshiriq bilan o'quvchining jadvalli ma'lumotlar bilan ishlash ko'nikmasini rivojlantiramiz.

Topshiriqni bajarib bo'lishgach, darslikdagi imloga oid qoidani tushuntirish lozim. O'quvchilarga ism yoki familiya har doim bosh harf bilan yozilishini tushuntirish jarayonida bir necha ism-familiyalarni doskaga yozib berish mumkin.

#### 4-topshiriq.

Ushbu topshiriq mashq daftarida bajariladi. O'quvchilar daftardagi maxsus joyga "Hoshimjonning oilasi" matnidan yaqindagina o'r-gangan qoidasi – bosh harflar imlosi qoidasiga mos so'zlarni, ya'ni ism va familiyalarni topib, yozishlari kerak bo'ladi.

## 5-soat

**Darsning maqsadi:** o'quvchilarda ohang haqida tushunchalarni paydo qilish; she'r va uning syujetini tushunish, uning ketma-ketligini belgilay olish, shaxsning nutqiga qarab u haqda tasavvur hosil qilish ko'nikmasini rivojlantirish; o'quvchilarga o'qigan she'ri hamda hayotiy tajribasini o'zaro bog'lashni o'rgatish.

**Vosita:** "Mehribon kelinoyi" she'ri hamda unga oid topshiriqlar.

### MEHRIBON KELINOYI

Men hech qachon darsimni Dadamga qildirmayman.

Bajarolmay qynalsam, Ayamga bildirmayman.

Qiyin masalalarni Yechib bermaydi akam.

"O'zing bajar", – deb mendan Nari qochadi opam.

Vazifamni-chi doim Qilib berar... kelinoyim.

Xudoyberdi Komilov



## DARS JARAYONI

### Kirish

Tashkiliy qismdan so'ng o'quvchilar darsga kirishib olishlari uchun savollar berish mumkin. Masalan, *Kim uyga vazifalarini boshqalarga bajartiradi? Kimning uyida kelinoyisi bor? Kimning akasi/opasi uy vazifalarini bajarishda yordam beradi?*

### Asosiy qism

O'qituvchi darslikning 12-betidagi "Mehribon kelinoyi" she'rinif ifodali tarzda, o'zbek adabiy tili me'yorlariga amal qilgan holda o'qib beradi. Agar zarur bo'lsa, ikkinchi marta ham



o'qib berishi mumkin. Shundan so'ng o'quvchilardan she'rni o'qib berishni birma-bir so'rash tavsiya etiladi. "Qani, menga o'xshab o'qi-chi!" deya topshiriq berish ham mumkin.

**Eslatma:** *she'rni imkon qadar ko'pchilikka o'qiting, bir o'quvchi o'qiyotganda qolganlar barmog'i yordamida uni kuzatib turishlari maqsadga muvofiq.*

She'rni o'qib bo'lishgach, savol-javob qis-miga o'tish mumkin:

#### 1. Bu she'rda qanday voqealarni so'z boradi?

O'quvchilarning bir nechtasidan fikrini so'rash lozim. O'qituvchi o'quvchilarning javoblarini umumlashtirib, to'ldirib beradi.

#### 2. She'rda qanday voqealarni so'zlab berayotgan bolani tasvirlab bering.

Bu savolda o'quvchilardan rasmdagi bolaning tashqi ko'rinishini tasvirlab berishlari so'ralmayapti. O'quvchilar xarakter va xususiyatlar haqida gapirishlari kerak, masalan, dangasa.

#### 3. Sizningcha, bu bola matabda qanday bahoga o'qiydi?

O'quvchilardan fikr so'raganda ularning javobi 100% to'g'ri bo'lishini talab qilish mumkin emas. Ushbu savol to'g'ri javobi yo'q savollar sirasiga kirib, o'quvchilarni mulohazaga chorlash vazifasini bajaradi.

**Eslatma:** *o'quvchilar har qanday javobni aytgan taqdirda ham (a'luchi, ikkichi), o'z javobini isbotlab berishini so'rang. Nima uchun shunday deyayotganini aytib berishini so'rang.*

#### 4. O'zining uy vazifasini boshqalarga bajarishga qanday qaraysiz?

O'quvchilarga biroz yo'nalish berib yuborish lozim. Masalan, menimcha, bunday qilmaslik kerak, ertaga o'qituvchi savol bersa, bilmay qolish mumkin.

Ushbu savolga guruhi-guruhi bo'lib, kelishib olgach, javob aytishlarini ham so'rash mumkin. Javob bergen har qanday o'quvchi yoki guruhi o'z javobini izohlab berishi lozim.

**Eslatma:** *ushbu savolga javob olish asnosida o'quvchilarga o'ziga yuklatilgan ishni boshqa birovga qildirish va o'zim bajaridim deb ko'rsatish gunoh ekani, bunday qilish yolg'onchilikka kirishini tushuntirishga urining.*

### Yozma topshiriq 5-topshiriq.

Ushbu topshiriqda o'quvchilar rasmlarda tasvirlangan voqealarni she'r dagi voqealar-ga moslashtirishlari va harflar ketma-ketligini she'r dagi voqealar ketma-ketligi asosida yozib chiqishlari kerak bo'ladi.

Topshiriqni avval og'zaki bajarib olish tavsiya etiladi. O'quvchilardan har bir rasmda qanday holat tasvirlanganini, ushbu holat she'rda aytilan qaysi voqeaga o'xhashini so'rash orqali o'quvchilarda tasvir hamda matnni o'zaro qiyoslash hamda moslashtirish ko'nikmalarni shakllantirish mumkin. Ana shu munozaradan so'ng, o'quvchilar daftarlariga harflar ketma-ketligini yozib qo'yishlari maqsadga muvofiq.

**Eslatma:** *o'quvchilar bilan og'zaki bajar-dik, hamma to'g'ri bajargan bo'lishi kerak deya o'quvchilarning yozganini tekshirmay qo'y mang. Qaysidir o'quvchi xato yozgan bo'lishi mumkin.*

#### 6-topshiriq.

Ushbu topshiriq orqali o'quvchilar ohangdoshlik tushunchasi bilan tanishadilar. Mashq daftaringin 5-betida to'rtburchak shakllar ichida so'zlar berilgan. Ushbu so'zlar she'r matnidan olingan. O'quvchilar qaysi so'zlarning aytilishi bir-biriga o'xhash ekanini belgilashlari kerak bo'ladi. Bir-biriga mos keladigan to'rtburchak-larni chiziq bilan bir-biriga bog'lab qo'yishlari mumkin.

Topshiriqni bajarishga kirishishdan avval o'quvchilarga ohangdoshlik haqida tushuncha bering, masalan, *ohangdoshlik bu biz aytadi-gan so'zlarning tartibi o'xshab qolishidir. Misol uchun bola hamda lola so'zları ohangdosh hisoblanadi, chunki ikkala so'zning ham oxiri ola tovushlari bilan tugamoqda. Ohangdoshlik oxirgi tovushlarning o'xhashligiga qarab belgilanadi. Boshidagi tovushlar bir xil bo'lsa-yu, oxiridagilar mos kelmasa, ular ohangdosh bo'la olmaydi. Masalan, marjon hamda marvarid so'zları kabi.*

She'rni yod olib kelishni uyga vazifa sifatida berish mumkin.

### 6-soat

**Darsning maqsadi:** o'quvchilarda rasm-da tasvirlangan holat va hodisalarini gapirib berish, savoldagi so'z va so'z birikmalarini



rasmidagi holatlar bilan bog'lay olish ko'nikmalarini rivojlantirish; shaxsning tashqi ko'rinishini tasvirlashda qo'llanadigan leksik birliklar bilan tanishtirish.

**Vosita:** mavzuga oid rasm, dialogli audiomatn hamda ularga oid savol va topshiriqlar.

## DARS JARAYONI

### Kirish

Tashkiliy qismidan so'ng o'qituvchi o'quvchilardan darslikning 14-betidagi rasmga qarashlarini so'raydi: *hozir sizlar bilan shu rasm haqidagi gaplashamiz, men savol beraman, sizlar rasmga qarab javob berasizlar.*

### Asosiy qism

#### Rasmni tasvirlash.

O'qituvchi o'quvchilarga quyidagi savollarni berib chiqadi:

1. *Rasmda kimlarni ko'ryapsiz?*
2. *Boboning boshidagi kiyim qanday ataladi?*
3. *Buvi va onaning boshidagi narsa nima?*
4. *Buvi kimga gul bermoqda?*
5. *Gul nimada turibdi?*
6. *Bu rasmda qaysi fasl tasvirlangan?*
7. *Otaning ustidagi kiyim qanday? (yo'l-yo'ldeyishi kerak)*
8. *Ota va bola nima qilyapti?*
9. *Bobo va nabira nima qilyapti?*
10. *Nega boboning qoshlari qora emas?*
11. *Chelak ko'tarib olgan bolaning tashqi ko'rinishini tasvirlang.*
12. *Buvidan gul olayotgan nabiraning tashqi ko'rinishini tasvirlang.*

### Tinglab tushunish

O'quvchilarga Ahmad hamda Bobur o'rtaсидаги кичик субъект аудиоси оқ'иди берилади. Аудиони ешитишдан oldin o'quvchilarga diqqat qilishlarini, тинчликни саqlagan holda ешитишларни so'rash lozim.

Audioni eshitirgach, quyidagi savollar bilan murojaat qilish mumkin:

1. *Suhbat kimlar o'rtasida bo'lib o'tdi?*
2. *Azizbek kimning ukasi edi?*

3. *Ahmad nima uchun Azizbekni aylantirgani olib chiqqan edi?*

4. *Ahmadning opasi qayerda?*

Savollarga javob olgach, mashq daftarining 6-betidagi 7-topshiriqni bajarishga kirishish mumkin.

Ushbu topshiriqda o'quvchilar tushirib qoldirilgan so'zlarni yozib chiqishlari kerak bo'ladi.

**Eslatma:** topshiriqni bajarishdan oldin o'quvchilarga topshiriqdagi gaplarni o'qib chiqishlarini so'rang. Undan keyin audioni yana bir marta eshittiring. Shundan keyin o'quvchilar topshiriqqa bajarishga kirishsa bo'ladi.

### 7-soat

**Darsning maqsadi:** o'quvchilarga o'zbek nutqi va madaniyati kontekstida oila a'zolariga nisbatan ishlatiladigan sifatlarni o'rgatish; o'quvchilarga oila a'zolariga ta'rif berishda o'zbek nutqi va kontekstida ishlatiladigan belgilarni bilan oila shajarasidagi mavqening bog'liqligini anglatish.

**Vosita:** mavzuga oid rasm, sifatlar, savol va topshiriqlar.

## DARS JARAYONI

### Kirish

Tashkiliy qismidan so'ng o'qituvchi o'quvchilarni mavzuga olib kirish uchun quyidagi savollarni berishi mumkin:

- *Kamgap odam qanaqa bo'ladi?*
- *Nima deb o'ylaysiz, bobo kamgap bo'lishi mumkinmi?*
- *Sho'x odam qanaqa bo'ladi?*
- *Nima deb o'ylaysiz, buvi sho'x bo'lishi mumkinmi?*

### Asosiy qism

#### Lug'at boyligi.

O'qituvchi o'quvchilarga darslikning 15-betini ochishlarini va rasmlar hamda so'zlarga e'tibor qaratishlarini so'raydi. Undan so'ng o'quvchilarga har bir so'z yuzasidan savol berib chiqish shart: *aqli odam qanaqa bo'ladi?*



*Mehribon odam qanaqa bo'ladi? Mehnatkash odam qanaqa bo'ladi?* kabi.

**Eslatma:** har bir so'zni o'quvchilardan so'rab chiqing. Biror so'zni tushunishmasa, uni tushuntiring.

So'zlar haqida ma'lumotga ega bo'lishgach, rasmlarda tasvirlangan oila a'zolariga so'zlarni moslab chiqishlari kerak bo'ladi. Bunda o'qituvchi oila a'zosining nomini aytib turadi, o'quvchilar esa unga mos so'zlarni topishlari kerak bo'ladi.

Ushbu topshiriqni guruh bo'lib ishlash shakliga ham moslashtirish mumkin.

### **Yozma topshiriq**

#### **8-topshiriq.**

Ushbu topshiriq lug'at boyligi qismida og'-zaki tarzda bajarilgan topshiriqning yozma ko'rinishi hisoblanadi. O'quvchilar o'zaro mos keladigan so'zlarni yonma-yon yozishlari kerak bo'ladi. Bitta namunani o'qituvchi xattaxtaga yozib ko'rsatishi lozim: *uka – sho'*

**Eslatma:** o'quvchilar topshiriqni bajara-yotganda jarayonni kuzating, xato va kam-chiliklarni o'rnidagi to'g'rilab keting.

Topshiriq yetarlicha bajarilgach, o'quvchilardan bu yerda berilmagan, lekin shunga o'xhash so'zlardan qaysilarini bilishini hamda oila a'zolariga moslashtirishni so'rash mumkin: *oila a'zolari uchun mos keladigan yana qanday so'zlarni bilasiz?*

#### **9-topshiriq.**

Ushbu topshiriq mashq daftarida bajariladi. Mashq daftarining 6–7-betlarida berilgan 9-topshiriqqa o'quvchilar diqqati qaratiladi. Berilgan gaplar orasida so'zlar tushirib qoldirilgan. O'quvchi o'sha gapning yuqorisida berilgan so'zlardan eng mosini tanlab qo'yishi lozim bo'ladi.

**Eslatma:** namuna tariqasida bittasini xattaxtaga yozib ko'rsatib bering.

### **8-soat**

**Darsning maqsadi:** o'quvchilarga rasmlarda tasvirlangan voqeа-hodisalar asosida kichik hikoya yozishni o'rgatish; o'quvchilarga hikoyada sarlavha bo'lishini tushuntirish.

**Vosita:** voqeа aks etgan rasm, topshiriq yo'riqnomasi.

## **DARS JARAYONI**

### **Kirish**

Tashkiliy qismdan so'ng o'qituvchi o'quvchilarga bugun hikoya yozishlari kerakligini e'lon qiladi. *Hikoya nima degani? Hikoyada nimalar yoziladi?* Qaysi hikoyalarni bilasiz? kabi savollarni berib o'quvchilarni mavzuga olib kirish mumkin.

### **Asosiy qism**

**Yozma topshiriq. Rasm asosida kichik hikoya yozish.**

O'qituvchi darslikning 16-betidagi rasmlarga o'quvchilar diqqatini qaratishi va u yerda nimalar tasvirlanganini so'rashi lozim. Har bir rasm raqamlangan bo'lib, u voqeanning ketma-ketligini anglatadi. 4-rasmga so'roq belgisi qo'yilgan. O'quvchilar 3- va 5-voqeа o'rtasida qanday voqeа sodir bo'lishi mumkinligini o'zlarini belgilashi mumkin. Bunda o'quvchilarning kreativligiga xalal bermaslik talab etiladi. Kreativlik mantiq asosida bo'lishi nazorat qilinadi, xolos.

Rasmlar haqida gaplashilgach, yuqorida topshiriqni bajarish yo'riqnomasi o'quvchilarga tanishtiriladi. Yo'riqnomadagi birinchi ish amalga oshirib bo'lindi. Ikkinchi ish sarlavha o'ylab topishni talab qiladi. O'quvchilarga sarlavha nima ekani haqida biroz tushuncha berish hamda namunaviy sarlavha yozib berish kerak bo'ladi.

**Sarlavha** – *kitob, asar, maqola kabi nar-salarning nomini bildiruvchi so'z yoki jumla. Sarlavha bitta so'zdan ham, bir necha so'zdan ham iborat bo'lishi mumkin.*

O'quvchilarga hikoyada oila a'zolarini bildiruvchi so'zlardan albatta foydalanish zarurligini tushuntirish kerak.

Shundan keyin o'quvchilarga hikoyani yozishga kirishish mumkinligi aytildi. O'quvchilar o'z hikoyasini yozib bo'lgach partadoshlariga beradilar. Har bir o'quvchi partadoshining hikoyasi haqida o'z fikrini aytishi mumkin. Yoqqan bo'lsa, nimasi bilan yoqqani, qanaqa xatolar borligi haqida gapiradi.

**Eslatma:** o'quvchilarning bir-birini masxa-ra qilishiga yo'l qo'y mang. O'quvchilarga sherigi uning xatolarini aytishi yaxshiliginini, keyinchalik bunday xatolarga yo'l qo'ymaslik uchun bu kerakligini tushuntiring.



Sinfdagи aksar o'quvchi hikoya yoza olmasligi mumkin. Bu matn tuzish yo'lidagi dastlabki qadam ekanini unutmang. Bu bosqichda o'quv-

ching matn tuzishiga harakat qilganining o'zi katta yutuq. Shuning uchun dars yakunida xattaxtaga o'z hikoyangizni yozib bering.

## KUN TARTIBI

**Nutqiy mavzuning maqsadi:** o'quvchilarda umuman vaqt bilan bog'liq tushunchani shakllantirish, vaqt ni qadrlash, taqsimlash, kunning rejasini tuzish ko'nikmalarini rivojlantirish, o'quvchining vaqt va kun qismlariga doir so'z, so'z birikmalari, gaplarni to'g'ri tushunish va to'g'ri qo'llashiga erishish.

### 1-soat

**Darsning maqsadi:** o'quvchilarning kun qismlari bilan bog'liq tasavvurlarini kengaytirish, kun qismlarini nomlash, ulardan nutqda foydalanishga o'rgatish. Og'zaki va yozma nutq malakalarini shakllantirish, berilgan ma'lumotlarni rasmlar bilan o'zaro moslashtira olish mashqlarini bajarish.

**Vosita:** mavzu asosida berilgan rangli rasmlar, rasm va tushunchalarini o'zaro moslashtirish topshiriqlari, yozma mashqlar.



### DARS JARAYONI

#### Kirish

Tashkiliy qismdan so'ng o'qituvchi bugungi dars mavzusi "Kun tartibi" ekanini aytib, ushbu mavzu bilan bog'liq mayjud tasavvurlarini savol-javob yordamida aniqlab oladi. Quyidagi savollar bilan murojaat qilish mumkin:

1. Siz har kuni qanday ishlar bajarasiz?
2. Qachon nonushta qilasiz?
3. Kunning qaysi qismi (yoki qaysi payt)da dam olasiz?

Bu orqali bolaning tafakkuri ishga solinadi. O'quvchilar javob berishgach, ularning e'tibori darslikda berilgan rasmlarga qaratiladi.

#### Asosiy qism

Ushbu topshiriqda bir nechta rasmlar berilgan. Rasmlarda kun qismlari va unda bajariladigan ish tartibi ko'rsatilgan. O'quvchilar rasm asosida og'zaki gaplar tuzib, berilgan soat vaqtlarini topishlari kerak. Buning uchun o'quvchilardan rasmni diqqat bilan tomosha qilishlari talab etiladi. Rasmlarni tasvirlash jarayonida o'qituvchi har bir boladan o'z fikrini izohlab berishni so'rashi kerak.

#### Darslikdagi savollar beriladi.

Savollarga imkon boricha hamma o'quvchi javob berishi kerak. Javob berish jarayonida o'qituvchi o'quvchilarning diqqatini nazorat qilib borishi lozim.

1-savolda o'quvchilardan kun qismlarini aytishlari so'ralgan. O'quvchilar kunning "ertalab", "tush" va "tun" kabi qismlari borligini aytishi kerak. O'quvchilar "kun qismlari" birikmasiga yetarli darajada tushunmasa, o'qituvchi qo'shimcha savollar ("Siz qaysi payt (yoki qachon) maktabdan qaytasiz?" tarzida) berish orqali aniqlik kiritib berishi lozim.

Agar o'quvchi kun qismlarini yaxshi tushunib olsa, keyingi savollarga qiyalmasdan javob beradi.

2-savolda qaysi payt maktabga borishini aytishi kerak. Kimdir "tongda", kimdir "ertalab", yana kimdir "tushda" deb javob berishi mumkin.



3-savol: "Kunning qaysi qismlari orasida o'qiyisiz?" deyilganda o'quvchining matabga borib o'qishi tushuniladi.

4-savolda dam olish vaqt so'ralsan bo'lib, yuqoridaq savollar bilan bevosita bog'liq. Chunki savollar orqali kun tartibi ketma-ketligi ochib berilyapti.

5-savolda kun qismlarining yana qanday nomlari borligi so'ralsan. O'quvchilardan "sahar", "peshin", "oqshom" kabi kun qismlari nomlarini aytishi kutiladi.

"Quyoshning harakatiga qarab kun qismlarining nomini aytin" tarzidagi og'zaki topshiriqda o'quvchilarga 4 ta rasm berilgan bo'lib, unda quyoshning harakatiga qarab kun qismlarining nomlarini aytishi lozim. Quyoshning chiqishi – tong, ko'tarilishi – tush, botishi – kunbotar, butunlay yo'qolishi va oyning chiqishi – tun deb nomlanishini bilishlari zarur.

### Yozma mashq

Og'zaki savol-javobdan so'ng daftardagi mashq bilan ishlanadi.

### 1. Kun qismlarini bir-biriga moslab yozing.

Ushbu mashqda 4 ta asosiy kun qismlari va unga mos keladigan nomlar berilgan. O'quvchilar kun qismlari nomlarini bir-biriga moslashtirib yozishi kerak. Bunda o'quvchi tafakkuri va xotirasini ishga solgan holda mashqni bajaradi. O'qituvchi namuna sifatida xattaxtaga yozib ko'rsatishi o'rnlidir. Masalan:

Tong – \_\_\_\_\_

Tong – sahar, ertalab.

Yozma mashq o'quvchilarga kun qismlari nomlarini bir-biridan ajrata olishiga yordam beradi.

### 2-soat

**Darsning maqsadi:** o'quvchilarning kun qismlari bilan bog'liq tasavvurlarini kengaytirish, kun qismlarini nomlash, ulardan nutqda foydalanishga o'rgatish. Og'zaki va yozma nutq malakalarini shakllantirish, rasm ko'rinishida berilgan ma'lumotlarni raqamlar orqali ifodalash, raqam ko'rinishida berilgan ma'lumotlarni so'z yordamida ifodalash, vaqtini ifodalovchi birliklardan foydalanishga o'rgatish.

**Vosita:** raqamlarni va soatlar ko'rsatayotgan vaqtini so'z orqali ifodalash topshiriqlari.

## DARS JARAYONI

### Kirish

Tashkiliy qismdan so'ng o'qituvchi o'quvchilar bilan "Kun tartibi" mavzusini davom etirishni va raqamlar bilan ishlashni aytib o'tadi. Kirish qismida o'tilgan oldingi darsni eslab o'tish maqsadga muvofiq. Shu maqsadda o'quvchilarga "Kun tartibi deganda nimani tushunasiz?", "Qaysi payt matabda o'qiyisiz?", "Kun qismlarining qanday nomlari bor ekan?" tarzidagi savollarni berishi mumkin. Bu orqali bolaning xotirasi ishga solinadi. O'quvchilar javob berishgach, ularning e'tibori darslikda berilgan topshiriqlarga qaratiladi.

### Asosiy qism

Darsning asosiy qismida 2 ta yozma topshiriq bajariladi.

#### Raqamlarni so'z bilan yozing.

Ushbu mashqda 10 ta raqam berilgan bo'lib, raqamlar bir xonali va ikki xonalilardan iborat. O'quvchilar har bir raqamni so'z bilan yozishi talab etiladi. Mashq daftarga yozishdan oldin o'quvchilardan "Bu qaysi raqam?" deb og'zaki so'rash maqsadga muvofiq.

O'quvchilardan bir nechtasini chiqarib xattaxtaga yozdirish o'rnlidir. Bunda xattaxtaga avval raqam son bilan yozilib, keyin so'z bilan yozilishi kerak. Bu mashq orqali o'quvchilar raqamlarni qayta takrorlashadi, yozish ko'nikmasi rivojlantiriladi.

#### Soatlar ko'rsatayotgan vaqtini so'z bilan yozing.

Bu mashqda soat vaqtleri bilan ishlanadi. Mashq daftarda soat vaqtleri, ko'rsatkichlari rasmi berilgan bo'lib, soat ko'rsatayotgan vaqtini to'g'ri topishi va yozishi talab etiladi.

Masalan:

... – yetti.

... – o'n ikki-yu o'ttiz.

**Eslatma!** Yozishdan oldin og'zaki savollar asosida soat vaqtlarini aniqlashtirib olish mumkin. O'qituvchi har bir o'quvchi individual yozayotganligiga e'tibor berishi kerak. Bugungi dars orqali o'quvchilar vaqt ko'rsatkichlарини bilib olishi va yozish ko'nikmalarini rivojlantirishi kerakligini unutmaslik lozim.

### Xulosa

O'quvchilar yozganlarini o'qib berishadi, o'qituvchi ularga munosabat bildiradi, baholaydi. Yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklarni tu-

zatadi. Mashqni oxirigacha yetkaza olmagan o'quvchilarga uni uylarida yozib kelishlari mumkinligini aytadi. Darsda aytilgan barcha fikrlar umumlashtirilib, dars xulosalanadi.

### 3-soat

**Darsning maqsadi:** boshqalarning kun taribi bilan tanishish orqali kun tartibi haqidagi tasavvurlarini aniqlashtirib olish, kundalik yu-mushlarni nomlash, ulardan og'zaki va yozma nutqda foydalanishga o'rgatish. Savollarga javob berish orqali o'qish savodxonligi, og'zaki nutq malakalarini rivojlantirish.

**Vosita:** kun tartibi bilan bog'liq matn, matn asosida suhbat. O'zgalarning kun tartibi orqali o'z kun tartibini tuzishga tayyorgarlik mashqlari.

2. Raqamlarni so'z bilan yozing.

1 2 4 7 9  
18 26 40 55 83

3. Soatlar ko'rsatayotgan vaqtini so'z bilan yozing.

ABORNING BIR KUNI

Ertalab soat 6:30 da uyqudan turaman. Yuz-qo'llimi yuvgach, dadam bilan badantarbiya qillamiz. So'ng oyim bizni nonushtaga chaqiradi. Soat 7:30 da maktabga ketaman. Men maktabga oyim olib boradi. Soat 8:00 da hamma sinfonxona bo'lishi kerak.

Katta tanaffusda tushlik qilaman. Darslar soat 12:00 gacha davom etadi. Tushdan keyin turli to'garaklar boshlanadi. Men futbolni yaxshi ko'rman. Shuning uchun futbol to'garagiga qatanashaman. Bugun 3 ta gol urmoqchiman.

Soadt 16:00 da oyim meni maktabdan olib ketadi. Soat 19:00 da oilamiz yana dasturxon atrofida jam bo'ladim. Kechki ovqat payti kun qanday o'tgani haqida suhbatlashamiz.

19

## DARS JARAYONI

### Kirish

O'qituvchi tashkiliy qismidan so'ng bugungi mavzu bilan tanishtiradi. Dars mavzusi "Aborning bir kuni" deb nomlanishi aytadi. Shu o'rinda raqamlar bilan bog'liq mavzuni eslab o'tish maqsadga muvofiq: "Soatlar ko'rsatayotgan vaqtini aytolasizmi?" deb turli soat shaklidagi ko'rgazmalardan foydalanib, aniq vaqtini aytishga o'rgatish maqsadga muvofiq. Darsni "Abor kim?", "Abor kun davomida nimalar

qiladi deb o'ylaysiz?", "Kun davomida qilinishi kerak bo'lgan eng muhim vazifalar qaysilar?" degan savollar bilan boshlash mumkin.

### Asosiy qism

Darsning asosiy qismida o'quvchilar berilgan matnni qismlarga ajratgan holda ifodali o'qiydilar. Matnni o'qish jarayonida o'qituvchi o'quvchilar diqqatini nazoratga olishi lozim. O'qituvchi o'quvchilar nutqida uchragan kam-chiliklarni o'ziga qayd etib boradi. Matn to'liq o'qib bo'lingach, kamchilikka yo'l qo'ygan o'quvchilarning xatolari tuzatiladi. Shundan so'ng o'qituvchi matnni qayta o'qib beradi. **So'ng darslikdagi savollar beriladi.**

O'quvchilar savollarga javob berish jarayonida matndagi aniq vaqt ko'rsatkichlarini aytishlari lozim. Berilgan savollarning barchasi o'quvchining o'qib tushunish ko'nikmasini rivojlantirishga qaratilgan. O'qituvchi xattaxtada yoki monitorda kun qismlarini ifodalovchi til birliklari ifodalangan jadval ko'rinishidagi ma'lumotni ko'rsatishi maqsadga muvofiq.

Tong	Kunduzi
Sahar	Kechasi
Ertalab	Shom
Tush	Tun
Kunning ikkinchi yarmi	Oqshom

### Abrorning kun tartibi

Uyg'onish	
Maktabga ketish	
Darsdan qaytish	
Dasturxon atrofida yig'ilish	

Har bir berilayotgan javobda o'quvchilar o'zlarining kun tartibi bilan bog'liq jarayonlarni ham o'zaro taqqoslab gapirib berishlari mumkin. Shuningdek, xattaxtada hosil bo'lgan jadvalni yana nimalar bilan to'ldirish mumkinligi o'quvchilardan so'raladi, o'quvchilar kun tartibiga oid yumushlarni o'z shaxsiy tajribalari asosida boyitib berishlari mumkin.

Matndan og'zaki savol-javob qilish va jadvalda bajariladigan ishlar ketma-ketligini ko'rgan o'quvchida "Kun tartibi" nima ekanligi va uni qanday tuzish kerakligi haqida aniq bilimlar paydo bo'ladi.



## 4-soat

**Darsning maqsadi:** vaqt bilan bog'liq tushunchalarni kengaytirish, narsa va hodisalarini ayrim sifatlari asosida ikkinchi narsa yoki hodisaga qiyoslab, o'xshatib ifodalash kabi nutqiy ko'nikmalarni rivojlantirish.

**Vosita:** she'r matni, matn asosida suhbat, qiyoslash, o'xshatish bilan bog'liq topshiriqlar.

## DARS JARAYONI

### Kirish

Tashkiliy qismidan so'ng o'qituvchi bugungi mavzu bilan o'quvchilarni tanishtiradi. Bugungi darsda "Vaqt qadri" mavzusidagi she'r bilan tanishishni aytadi. O'quvchilarni mavzuga olib kirish maqsadida quyidagi savollar beriladi:

1. "Vaqt qadri" deganda nimani tushunasiz?
2. Vaqtni qanday qilib qadrlash mumkin?
3. Darslikda berilgan rasmga qarang, unda qanday vaziyat tasvirlangan?

O'quvchilar o'zlarining mustaqil fikrlarini aytgandan so'ng, ularning e'tibori darslikda berilgan she'r va topshiriqlarga qaratiladi.

### Asosiy qism

Darslikda berilgan "Vaqt qadri" she'rini ifodali o'qish uchun xattaxtaga o'quvchilardan ikki nafari chiqariladi, qolganlari esa kitobdan she'r misralarini kuzatib, o'qib borishadi. She'rni o'qish jarayonida o'qituvchi o'quvchilar diqqatini nazoratga olishi lozim. She'r o'qib bo'lingach, kamchilikka yo'l qo'ygan o'quvchilarning xatolari tuzatiladi. Shundan so'ng o'qituvchi she'rni qayta o'qib beradi. Va darslikda gi savollar asosida suhbat quriladi.

1-savolda bobo nabirasiga aytgan gaplarini o'quvchi bilishi kerak. O'quvchidan "Shaftolini yorib qo'ysang, qishga qoqi bo'lishini aytadi" degan javob kutiladi.

2-savolda esa Boqining qanday javob beriganligi so'ralgan. Bu ikki savol ham she'rdagi aniq ma'lumotni bilishga qaratilgan.

3-savol o'quvchilarning shaxsiy fikrlarini ifodalashlari bilan bog'liq. O'qituvchi nima uchun Boqi bobosining aytganini qilmaganini so'raydi.

4-savol o'quvchini mustaqil fikrlashga undaydi. O'quvchi matn mazmunidan kelib chiqqan holda fikrlaydi va xulosa qiladi.

**Eslatma!** O'quvchidan javobda keltirilgan ma'lumotlarni aynan aytib berishi tabab qilinmaydi. O'quvchi ushbu ma'lumotni tushungan holda mazmun chiqarib aytib bera olishi lozim. Bu yerda asosiy e'tiborni 3–4-savollarga qaratib, o'quvchilarning har biridan erkin fikr so'rash lozim.

Savollarga javob berib bo'lishgach, "**O'xshatishlarni tushuntiring**" topshirig'i bajariladi. Ushbu topshiriq savollarning davomi sifatida o'quvchilarni mantiqiy fikrlashga undaydi. Topshiriqda 4 ta rasm va ularga bog'liq so'zlar berilgan bo'lib, o'quvchi berilgan so'zing rasmga qanday aloqasi borligini topishi kerak.

O'quvchi rasmlarga diqqat bilan e'tibor qaratishi lozim. Bu o'xshatishlar nima asosida ekanligini o'quvchi topishi uchun mantiqan fikrlashga undaydi. Masalan, vaqt nega oltin ga o'xhatilyapti? Bu yerda o'quvchi oltinning boshqa tabiiy resurslarga nisbatan qimmat-baho ekanligini bilishi muhimdir. Vaqt ham oltindek qimmatli ne'mat, undan unumli foydalanishimiz zarurligini anglashi kerak.

### Yozma mashq

Yozma mashqda o'xshatishlar asosida gaplar tuzish so'ralgan. Namuna sifatida "Vaqt – oltin" gapi berilgan. O'quvchilar yuqoridaq bajarilgan og'zaki topshiriqlardan olgan bilimlari bilan yozishadi. Agar o'xshatishlarni yaxshi tushungan bo'lsa, gap tuzishda qiyinchilikka uchramaydi.

## 5-soat

**Darsning maqsadi:** kun tartibini tuzishga o'rgatish, uni jadval ko'rinishida ifodalay olish, berilgan tasvirlarni o'zaro mantiqan bog'lash, kun tartibi to'g'risida og'zaki gapirib berish va uni yozma ifodalashga o'rnatish.

**Vosita:** rangli rasmlar, kun tartibi jadvali.

## DARS JARAYONI

### Kirish

Tashkiliy qismidan so'ng o'qituvchi o'tilgan mavzuni eslatib o'tadi va ba'zi savollar bilan o'quvchilarga murojaat qiladi: "Vaqt nima?", "Kun tartibi deganda nimani tushunasiz?", "Oila

a'zolaringiz maxsus kun tartibiga rioxalashadi?". O'quvchilar javob berib bo'lishgach, bugungi mavzuga olib kirladi. Bugungi darsda kun tartibi tuzishni o'rganish aytildi va darslikda berilgan rasmlarga e'tibor berish so'raladi.

### Asosiy qism

O'quvchilarga "Rasmida nimalar tasvirlangan?", "Kun tartibi tuzishni xohlaysizmi (bilasizmi)?" degan savollar beriladi. Bu savollar o'quvchiga o'tilgan mavzularni eslashga ham yordam beradi. O'quvchilar o'zlarining fikrlarini aytishadi, shundan so'ng "Rasmlarga qarab o'z kun tartibingizni tuzing" topshirig'i bajariladi. Buning uchun, avvalo, o'quvchilardan rasmlarga diqqat bilan qarash va ularning ketma-ketligiga ham e'tibor berish so'raladi. O'qituvchi "O'quvchilar, kun tartibi nimadan (qaysi ishni bajarish bilan) boshlanadi?" degan savol beradi. Bu savol orqali o'quvchilar kun tartibini qaysi ishdan boshlash to'g'riligini bilib olishadi.

Topshiriqda 10 ta rasm berilgan, ularda bir kishining kun davomida qiladigan ishlari tasvirlangan. Masalan, birinchi rasmida sumka taqqan bolaning muktabga ketishi, ikkinchi rasmida badantarbiya bilan shug'ullanayotganligi, keyingi rasmida esa nonushta qilayotganligini ko'rish mumkin. Rasmlardagi harakatlarni to'g'ri aks etgan, lekin ularning ketma-ketligi betartib. Shuning uchun rasmlarning soniga qarab ketma-ketlikda jadvalga joylashtirilsa, tushunilishi osonroq bo'ladi.

Buning uchun bir nechta savollar berish o'rinnlidir:

1. Qachon uyqudan uyg'onasiz?
2. Uyg'ongach nonushta qilasizmi yoki badantarbiyami?
3. Muktobdan kelgach nima qilasiz?
4. Qaysi payt dam olasiz?

Shu tartibda savollar berib, bajariladigan ishlarning ketma-ketligi aniqlashtirib olinadi.

**Eslatma!** Kun tartibini ketma-ket joylash-tirishda o'quvchilardan har bir rasmida nima tasvirlanganini so'rash muhimdir. O'qituvchi barcha o'quvchilarning diqqatini nazorat qilib borishi zarur.

So'ng mashq daftaridagi jadval to'ldiriladi.

Har bir o'quvchi o'zining kun tartibini shu tarzda yozadi. O'qituvchi o'quvchilarning tu-shunganligini tekshirib borishi lozim. Buning uchun yuqorida qabi savollarni qayta-qayta berish o'rinnlidir.

### 6-soat

**Darsning maqsadi:** bo'sh vaqt tushunchasi haqida ma'lumot berish, vaqtini maroqli o'tkazish uchun tavsiyalar ishlab chiqish, kunning qismlarini ifodalovchi til birliklaridan foydalanishga o'rgatish, qo'sh undoshli so'zlar haqida ma'lumot berish, ularning talaffuzi va imlosi bo'yicha mashqlar bajarish.

**Vosita:** rangli suratlar bilan ifodalangan dialog matni, qo'sh undoshli so'zlar, ularning imlosi va talaffuzi bo'yicha og'zaki va yozma topshiriqlar.

## DARS JARAYONI

### Kirish

Tashkiliy qismdan so'ng o'tilgan mavzu takrorlab olinadi. Kun tartibini uyda yozib kelgan o'quvchilardan qayta so'raladi. Bugungi darsda "Shaxmat o'ynaylik" matni bilan tanishish aytildi. Matn bilan tanishishdan oldin "Siz bo'sh vaqtingizda qanday o'yinlar o'ynaysiz?", "Aslida bo'sh vaqtini qanday o'tkazgan ma'qul deb hisoblaysiz?", "Shaxmatga ham qiziqasizmi?", "Sizningcha, shaxmatni qaysi payt o'ynagan ma'qul?" degan savol berilib, o'quvchilarning bu sport turiga munosabati aniqlashtiriladi. Berilgan matnga diqqat qilish so'raladi.

### Asosiy qism

Matnni har bir o'quvchi o'qishi talab etiladi. Matn dialog tarzida yozilganligi tufayli ikki o'quvchi tomonidan o'qilishi o'rinnlidir. (Bu jarayonda qolgan o'quvchilarning kuzatib bora-yotganligini nazorat qilish zarur). Matn o'qib bo'lingach:

1. Dialog mazmuniga tushundingizmi?
2. Unda kimlar qatnashgan?
3. Qahramonlar siz bilan tengdoshmi?
4. Dialog sizga yoqdimi?

kabi savollar beriladi. Ushbu savollarga o'quvchilar og'zaki javob berishadi. Bu orqali matn mazmuniga kirib boriladi.

Undan so'ng darslikda berilgan savollar asosida matn mazmunini to'laqonli tushunishga erishiladi.



### Yozma mashq

**Ajratib ko'rsatilgan so'zlarni ko'chiring.  
Aytlishi va yozilishiga e'tibor bering.**

Ushbu mashqni bajarishda matnda ajratib berilgan so'zlarni yozish talab etiladi. Matnda quyidagi so'zlar ajratib berilgan:

*Mashq, daraxt, payvand.*

Ushbu so'zlarda o'quvchi e'tibor berishi kerak bo'lgan narsa qator kelgan undoshlaradir. Qator kelgan undoshlarning yozilishi va talaffuz qilinishida ba'zi farqlar mavjudligini o'quvchi mashq bajarish davomida bilib borishi muhimdir. Buning uchun o'qituvchi ushbu so'zlarga alohida urg'u berishi lozim. Yuqorida so'zlarni xattaxtaga yozib, o'quvchilarga "daraxt so'zini talaffuz qiling", "payvand so'zini talaffuz qiling" deb talaffuz mashqlarini bajaritib, qanday farq sezganligini so'rashi kerak.

**Rasmda nimalar tasvirlanganini yozing.**

Mashqda 4 ta rasm berilgan bo'lib, o'quvchilar tasvirlangan narsalarning nomini yozishi talab etiladi. Nomlari quyidagilar:

1. Go'sht.
2. Barg.
3. Ukki.
4. To'qqiz.

Bu so'zlar tanlanishidan maqsad, o'quvchi qator kelgan undoshlarning talaffuzi va yozilishi bir-biridan farqlanishini bilishi muhimdir. Buning uchun o'quvchilardan bir nechtasini chiqarib, xattaxtaga so'zlarni yozdirib, talaffuz qildirishi maqsadga muvofiq.

**Shu so'zlar qatnashgan gaplar tuzing.**  
Yuqorida 4 ta so'z ishtirokida gaplar tuzib, mashq daftariga yozish so'ralsan.

Masalan: *Kuzda daraxt barglari to'kiladi.*

### 7-soat

**Darsning maqsadi:** tinglab tushunish bilan bog'liq ko'nikmalarni shakllantirish, matnda berilgan gaplarning ohangini aniqlashga, kun tartibini tuzish bo'yicha tavsiyalar yozishga o'rnatish.

**Vosita:** audiomatn, kunni mazmunli o'tkazish bo'yicha tavsiyalar yozish mashqlari.

## DARS JARAYONI

### Kirish

Tashkiliy qismdan so'ng o'tilgan mavzu takrorlab olinadi. Doniyor va Rustamning suhbatasi asosida qator undoshli so'zlarning yozilishi va talaffuzi esga olinadi. Bugungi dars audiomatn bilan boshlanishi aytiladi.

### Asosiy qism

Audioni eshititing. Voqealar kunning qaysi paytida yoki haftaning qaysi kunida sodir bo'layotganini toping.

O'quvchilar diqqatini jamlashi aytiladi va audio qo'yib beriladi. Audiomatnni eshitib, voqealar kunning qaysi paytida yoki haftaning qaysi kunida sodir bo'layotganini topishlari kerak. Audioni eshitib bo'lgach, o'quvchidan quydagicha javoblar kutiladi:

Bugun muktabga borilmaydigan kun, maza! Mehmonga boramiz.	Yakshanba
Mening uyqum kelyapti, lekin darslarimni tayyorlashim kerak.	Kechqurun
Dars tugaganidan keyin o'rtoqlarim bilan muktabdan ovqat yeymiz.	Tush payti
2 kunlik dam olishdan keyin hech ham muktabga borgim kelmaydi.	Dushanba
Akam bilan badantarbiya qilamiz.	Ertalab

Javob berish jarayonida o'quvchilardan nima uchun ushbu javobni bergenligini asoslashini so'rash lozim. O'quvchi o'z shaxsisi tajribasi va kuzatuvlariga asoslangan holda savollarga javob beradi. Bundan tashqari, o'quvchilardan ushbu gaplar qanday ohangda aytilayotganligini ham so'rash maqsadga muvofiq.



**Yozma mashq**  
**Kunini mazmunli o'tkazishi uchun do'stingizga tavsiyalar yozing.**

Ushbu mashqda kunini mazmunli o'tkazish uchun do'stingizga tavsiyalar berish so'ralgan. Buning uchun berilgan bir nechta rasmga tayaniadi. O'quvchi rasmlarni diqqat bilan kuzatib, shu asosda tavsiyalar yoza boshlaydi. Bu jayonda qaysi rasmida qanday ish-harakat bajarilayotganligiga va ularning ketma-ketligiga e'tibor berish talab etiladi. O'quvchilar tavsiya

yozish davomida kun tartibi qanday tuzilishini yana bir bor mustahkamlaydi.

Berilgan birinchi rasmida bolaning badan-tarbiya qilayotganligi, ikkinchi rasmida qizning oshxonada idish-tovoq yuvayotganligi, keyingi rasmida esa bolaning uyqudan turganligi tasvirlangan. O'quvchi qaysi harakatni birinchi bajarishi to'g'riligini anglagan holda tavsiya yozadi.

Namuna sifatida xattaxtaga bir o'quvchini chiqarib, yozdirishi ham mumkin. Yozish jarayonida o'qituvchi nazorati yo'qolmasligi kerak.

## BOLALARNING SEVIMLI BAYRAMLARI

**Nutqiy mavzuning maqsadi:** o'quvchilarni milliy va xalqaro bayramlar bilan tanishtirish; taqvim bilan ishlash ko'nikmasini shakllantirish; obrazli tasvirlash usuli bilan tanishtirish; yaqinlariga bayram munosabati bilan tabriknoma yozishni o'rgatish.

o'qish davomida rolga kirisha olish, gapdag'i undov, so'roq va darak ohangini farqlash ko'nikmalarini rivojlantirish, o'hho', voy, voybo'y so'zlarining qo'llanishini o'rgatish.

**Vosita:** dialogli matn (komiks shaklida) hamda unga bog'liq mashq va topshiriqlar.

### DARS JARAYONI

#### Kirish

Tashkiliy qismidan so'ng o'qituvchi nutqiy mavzu nomini e'lon qiladi. O'quvchilarni mavzuga olib kirish uchun quyidagi savol bilan murojaat qilish mumkin: *Tug'ilgan kuningizda sizga nima sovg'a qilishgan, qaysi biri esingizda qolgan?* Sinfdagagi 4-5 nafar bolaning javobi eshitilgach, darsni davom ettirsa bo'ladi.

#### Asosiy qism

##### Dialogni o'qish.

Komiks shaklidagi dialogni rolga kirishgan holda o'qib beradi. Har ikkala rolni ham o'zi ijro qiladi. Bunda ovoz tonining o'zgarishiga e'tibor qilish shart. Keyin o'quvchilarga birma-bir o'qitishni boshlash mumkin. O'quvchilar imkon qadar o'qituvchiga o'xshab o'qib berishlari kerak bo'ladi. Undov va so'roqlarga e'tibor qilgan holda ularning ohangini o'rniqa qo'yishni o'rgatish muhim. Ushbu topshiriqning asosiy maqsadi ham darak, undov hamda so'roq ohangining farqli bo'lishini tushuntirish. Bir necha juftlik o'qib bo'lгach, savol va topshiriqlarga o'tish mumkin:



#### 1-soat

**Darsning maqsadi:** o'quvchilarni bayramlar mavzusiga olib kirish, dialog matnnini o'qish va tushunish, dialogli matnni



## 1. Tug'ilgan kun va bayramlarda yaqinlar ringizni qanday tabriklaysiz?

**Eslatma:** har bir savolni 5-6 o'quvchiga bering. Savolning va javobning takror bo'lib qolishi ahamiyatsiz, bunda o'quvchilarni darsga jalb qilish hamda har birining nutqini nazorat qilish va o'stirish muhim.

O'quvchilardan kutiladigan javob turilcha bo'lishi mumkin, bu qanday? so'rog'ini kim qanaqa tushunishiga bog'liq. Asosan o'quvchilar ning Nima qilib? Qanday harakatlarni amalgalashirib? kabi so'roqlarga javob berishlari kutiladi.

**Eslatma:** ushbu savollarni berishda o'quvchining oilaviy sharoiti va oila tar-kibiga ham e'tibor berish lozim, ota-onasi ajrashgan, otasi yoki onasi vafot etgan o'quvchilarga ota-onasi haqidagi savollarni bermagan ma'qul.

## 2. Tug'ilgan kuningizda qanday sovg'a olishni istaysiz?

Imkon qadar ko'proq o'quvchidan tug'ilgan kunida nima sovg'a qilishlarini istashi so'raladi. O'quvchilarning har qanday javobi to'g'ri bo'la-di (sovuv qurollar, portlovchi moddalar, buz-g'unchilik qurollaridan tashqari). Bolalarning javobi mantiqsiz chiqqanda (*tog' sovg'a qilishlarini istayman*), nima uchunligini aniqlashtirib olish uchun qo'shimcha savol berish mumkin.

### 3. Eng yoqtirgan bayramingiz qaysi?

O'quvchidan eng yoqtirgan bayrami qaysi ekani, uni nima uchun yoqtirishi so'raladi. Ushbu savolda ham har doimgidek ko'proq o'quvchini qamrab olish tavsiya etiladi.

## 4. Sarvinoz nega Zumradga o'xshashni xohlaydi?

Sarvinoz – dialogdagi qiz nabira. Dialogda u bobosiga "Ana endi ertakdagagi Zumradga o'xshadim-a?" deya savol beradi. O'quvchilarga, avvalo, Zumrad kimligi, qaysi ertak qahramoni ekani, qanaqa xislatlari borligini eslatuvchi savollar bilan murojaat qilish lozim.

### Farqni toping

O'quvchilardan *Rahmat!* so'zi qachon ishlatalishi, nima uchun ishlatalishi haqida so'raladi. Undan keyin *Katta rahmat!* deganda nima o'zgarishi, *rahmat* hamda *katta rahmat* o'rta-sida qanday farq borligi haqida fikrlab ko'rishlari uchun imkon beriladi. Bu yerda *katta so'zi rahmat* so'zining ma'nosini kuchaytirish uchun

qo'llanilishi, *katta rahmat* o'rniga *ko'p rahmat* deyish ham mumkinligini tushuntiradi.

Xuddi shu amal *Do'ppi-ku!* hamda *Voy, do'ppi-ku!* so'zlar bilan ham amalga oshiriladi. Bu yerda voy so'zi xursandchilikni yanada bo'rttirayotganini alohida ta'kidlash lozim.

**Eslatma:** bu yerda shakliy o'zgarishlarga urg'u qaratish shart emas.

### Yozma mashq

Mashq daftaridagi 1-topshiriqni bajarish lozim. Ushbu topshiriqda o'quvchilarga berilgan so'zlar hamda tinish belgilarni to'g'ri joylashtrish topshiriladi. Birinchi navbatda undov, so'roq belgilari qachon ishlatalishi, undan keyin o'hho', voy, voybo'y so'zlarini qaysi holatlarda qo'llashimizni o'quvchilarga eslatib o'tish tavsya etiladi.

### 2-soat

**Darsning maqsadi:** arafa kuni urf-odatlari bilan tanishtirish; arafa kuniga oid lug'at boyligini o'stirish; ehtiyoj uchun pul sarflash haqidagi dastlabki qarashlarni shaklantirish.

**Vosita:** mavzu bilan bog'liq matn va unga oid savollar.

## DARS JARAYONI

### Kirish

Tashkiliy qismidan so'ng o'quvchilarni mavzuga olib kirish uchun o'qituvchi quyidagi savollarni berishi mumkin:

- Arafa kuni haqida eshitganmisiz?
- Hayit bayrami qanday bayram?
- Hayit bayramida kim qanday sovg'a olgan?

### Asosiy qism

#### O'qib tushunish.

O'qituvchi o'quvchilarga darslikning 28-be-tidagi "Arafa" matnnini o'qib beradi. O'qituvchi o'qishdan oldin o'quvchilarga darslikni ochish hamda qo'li bilan o'qituvchi o'qigan joylarni kuzatib borish topshirig'ini beradi.

Matn o'qib berilgach, o'quvchilarga o'zlarini ham matnni o'qib olishlari uchun imkon beriladi.



Matn yetarlicha o'qib bo'lingach, savollarga o'tiladi.

### 1. Nega eshik qo'ng'irog'i kuni bilan tinnadi?

Ushbu savol o'quvchilarda matnda ochiq aytilgan ma'lumotni topa olish ko'nikmasini rivojlantirishga xizmat qiladi. O'quvchilar o'z fikrlarini aytgach, matn orqali isbotlab berishlari ham mumkin.

### 2. Arafa qanday kun?

O'quvchilar matndan kelib chiqib "arafa – osh tarqatiladigan kun" deb javob berishlari ham mumkin. Bu ham xato javob sanalmaydi. Ushbu savolni bir necha o'quvchidan so'rash shart. So'ng o'qituvchi arafa kuni qanday kun ekanini hammaga tushuntirib beradi.

**Arafa** – bayram yoki biror tantanali kundan oldingi kun. Odatda Ramazon va Qurbon ha-yitidan oldingi kun "arafa kuni" deb ataladi va unda qo'shnilar bir-biriga taom ulashadi. Bu odat ota-bobolarimizdan meros bo'lib kelmoqda. Ayni shu kuni bolalarga yangi kiyim sovg'a qilinishi odat tusiga kirgan. Bolalar arafa kuni olgan kiyimlarini Hayit kuni kiyib olishadi. Uдумга ко'ра, Hayit bayramida yangi kiyimlar kiyiladi. Bunda kiyim oddiy paypoq, qalpoqcha yoki ko'ylik bo'lishi ham mumkin.

### 3. Yangi paypoqni nega aynan Hayitda kiymoqchi?

Ushbu savolga o'quvchilar o'qituvchining arafa haqida bergan ma'lumoti asosida javob berishlari lozim.

### 4. Hayit bayrami sizning oilangizda qanday nishonlanadi?

Ushbu savolni sinfdagi barcha o'quvchiga berish mumkin. Imkon qadar gapirishni istagan har bir o'quvchiga javob berish uchun imkon berish kerak.

### 5. Siz hayitlik pulini nimaga sarflaysiz?

O'quvchilarning har qanday javobi to'g'ri deb qabul qilinadi. Bunda o'quvchilar so'zlarni to'g'ri talaffuz qilishlari, gapdagi so'zlar o'rni ni to'g'ri tartiblashlari muhim. Namuna sifatida matndagi gapdan foydalanish mumkin. Javob bergen o'quvchilarga "Uni nima qilasan?" de gan aniqlashtiruvchi savol bilan murojaat ham qilish mumkin.

## 3-soat

**Darsning maqsadi:** o'quvchilarga bayramlar haqida ma'lumot yetkazish, rasmlar va matnlarni moslashtira olish ko'nikmasini rivojlantirish, bayram nomlarini o'rgatish, bayramlar va ularga oid lug'at boyligini

o'stirish. O'quvchilarda qanday qilib vattanni himoya qilishi haqida, dunyoda turli millatlar mavjudligi, ular Yer sayyorasida birgalikda yashashi haqida, turli xalqlarda turlicha odatlar bo'lishi haqida xulosalarni shakllantirish.

**Vosita:** mavzu bilan bog'liq audiomatlар va unga oid topshiriqlar, rasmlar.

## DARS JARAYONI

### Kirish

Tashkiliy qismidan so'ng o'qituvchi bugun bayramlar haqidagi matnlar bilan tanishishlari, unda turli bayramlar, ularning qanday nishonlanishi haqida ma'lumotlar borligini aytadi. O'quvchilarni mavzuga olib kirish uchun ulardan qanday bayramlarni bilishlarini so'rash mumkin.

Audiomatnlarni tinglang. Savollarga javob bering.

**BU QANDAY BAYRAM?**

1 Vatan nima uchun himoya qilinadi?  
2 Tinchlik posbonlari kimlar?  
3 Qanday qilib Vatanni qurolsiz himoya qila olamiz?

1 Navro'z bayrami qachon nishonlanadi?  
2 Bahoriy taomlarni sanang.  
3 Milliy o'yinlarimizdan qaysilarini bilasiz?

29

### Asosiy qism

#### Tinglab tushunish.

**Muhim.** O'qituvchi taqdim qilingan audio-larni ovoz kuchaytirgich orqali qo'yib eshitirishi lozim. Lekin turli xil texnik sabablar tufayli buning imkonи bo'lmaganda, o'qi-



*tuvchining o'zi adabiy til normalariga amal qilgan holda, ravon va yetarlicha baland ovozda matnlarni o'qib berishi ham mumkin.*

O'quvchilarda rasm hamda matnni o'zaro moslashtirish ko'nikmasini rivojlantirish maqsadida audiomatnlar tartibini quyidagicha belgilash tavsiya etiladi.

**1-matn.** Navro'z Xalqimizning eng qadimiy bayramlaridan biri. Bu bayramda sumalak pishiriladi. Navro'z sayllari o'tkaziladi. Dasturxon bahoriy taomlar bilan bezatiladi. Bolalar varrak uchiradi. Navro'z odamlarni mehr-oqibatga chorlaydi.

Matn eshittirilgach, o'quvchilarga qarata "bu bayram qaysi rasmda tasvirlangan?" deya murojaat qilish mumkin.

O'quvchilar rasmni topgach, rasm ostidagi savollarga o'tiladi.

### **1. Navro'z bayrami qachon nishonlandi?**

Ushbu savolning javobi matnda aks etmagan. Shuning uchun o'quvchilar o'z fikrlarini bildirishlari mumkin. Bir necha o'quvchi o'z fikrini aytgach, o'qituvchi javoblarni umumlashtirib, to'g'ri javobni aytadi.

### **2. Bahoriy taomlarni sanang.**

Ushbu savolning javobi ham matnda mavjud emas, shuning uchun o'quvchilar o'z fikrlarini bildirishlari mumkin. Bu savol bilan murojaat qilishda o'quvchilarga **bahoriy** so'zining ma'nosini tushuntirish lozim.

**Bahoriy – bahorga mansub, bahorda bo'ladigan.**

O'qituvchi ushbu ta'rifni aytgach, o'quvchilardan bahoriy taom deganda qanday taomlar nazarda tutilishini so'raydi. Javoblarni umumlashtirib, to'g'ri javobni aytadi:

*Bahoriy taomlar deganda faqat bahorda pishiriladigan taomlar tushuniladi. Bahordagi taomlarda odatda ko'kat – ko'k bo'лади. Qani, kim shunday taomlarni biladi?*

O'quvchilarning javobi umumlashtiriladi va bahoriy taomlar qayta sanaladi.

### **3. Milliy o'yinlarimizdan qaysilarini bilsiz?**

O'qituvchi bolalardan javob olishdan oldin **milliy** so'zining ma'nosini tushuntiradi.

**Milliy – biror millatning, xalqning o'ziga xos xususiyati.** Men o'zbekman, demak men o'zbek millatiga mansubman. O'zbek millatiga xos bo'lgan udumlar, odatlar milliy odat, milliy udum deyiladi. Qani endi, aytinglar-chi, milliy o'yinlar qanaqa bo'larkan?

O'quvchilarga qo'shimcha savollar berib milliy o'yinlar haqidagi tushunchalarini tiniqlashtirish mumkin:

- *Futbol milliy o'yinmi? Nima uchun?*
- *Dorbozlik milliy o'yinmi? Nima uchun?*
- *Uloq chopish haqida eshitganmisiz?*

*Bu qanday o'yin? Uni milliy o'yin deb atashimiz mumkinmi? Kurash-chi?*

Shundan so'ng o'quvchilardan qaysi milliy o'yinlarni bilishlarini so'rash mumkin.

**Eslatma:** o'quvchilarning javoblaridan so'ng, ularni umumlashtirib, milliy o'yinlarimiz nomini qayta sanab qo'ying.

**2-matn.** 14-yanvar – Vatan himoyachilari kuni. Yurtni himoya qilish sharaflı burchdir. Odatda bu kunda tinchlik posbonlarini tabriklaymiz. Lekin Vatan faqat qurol bilan himoya qilinmaydi. Shunday ekan, 14-yanvar vataniga xizmat qiladigan barcha yigit-qizning bayramidir.

Matn eshittirilgach o'quvchilarga qarata "bu bayram qaysi rasmda tasvirlangan?" deya murojaat qilish mumkin.

O'quvchilar rasmni topgach, rasm ostidagi savollarga o'tiladi.

### **1. Vatan nima uchun himoya qilinadi?**

Ushbu savolning javobi matnda aks etmagan. Shuning uchun o'quvchilar o'z fikrlarini bildirishlari mumkin. Bir necha o'quvchi o'z fikrini aytgach, o'qituvchi javoblarni umumlashtirib qo'yishi tavsiya etiladi.

### **2. Tinchlik posbonlari kimlar?**

Ushbu savolning javobi matnda aks etmagan. Shuning uchun o'quvchilar o'z fikrlarini bildirishlari mumkin. Bir necha o'quvchi o'z fikrini aytgach, o'qituvchi javoblarni umumlashtirib qo'yishi tavsiya etiladi.

### **3. Qanday qilib vatanni quolsiz himoya qila olamiz?**

Bu o'quvchilarni muhokamaga chorlovchi savoldir. O'qituvchi javob namunasini aytishi mumkin:

*Masalan, men o'qituvchiman, o'quvchilarga bilim beraman, ular katta bo'lib, o'z xalqiga xizmat qiladi, men shunday qilib vatanimni himoya qilaman. Siz o'quvchisiz, yaxshi o'qisangiz, xalq uchun kerakli inson bo'lasiz, unga foyda keltirasiz. Demak sizning yaxshi o'qishingiz ham vatanni himoya qilish sanaladi. Kimdir axlatni ko'chaga tashlamasa ham, vatanni himoya qilgan bo'ladi.*

O'z fikrlarini aytishi uchun o'quvchilarga imkon beriladi.

Ushbu savolni muhokama qilish asnosida o'quvchilar vatanni himoya qilish aslida keng



tushuncha ekanini, vatanni faqat qurol bilan emas, turli yaxshi ishlar bilan ham himoya qilish mumkinligini tushunishlari diqqat markazida bo'lishi lozim.

**3-matn.** Bilasizmi, Xalqaro bolalarni himoya qilish kunining o'z bayrog'i bor. U yashil rangda. Yashil rang ulg'ayish ramzidir. Markazda globus, atrofida qizil, sariq, ko'k, oq va qora ranglardagi odamchalar joylashtirilgan. Ular hamjihatlik va bag'rikenglikni anglatadi. Globusning o'zi esa Yer hammamizning umumiyy uymiz ekanini bildiradi.

Matn eshittirilgach, o'quvchilarga qarata "Bu bayram qaysi rasmida tasvirlangan?" deya murojaat qilish mumkin.

O'quvchilar rasmni topgach rasm ostidagi savollarga o'tiladi.

### 1. Bayroqdag'i yashil rang nimaning ramzi?

Ushbu savolning javobi matnda aks etgan. O'quvchilar aynan shu o'rinni topishlari lozim.

### 2. Nega globus atrofidagi odamchalarning ranglari har xil?

Ushbu savolning javobi matnda aks etgan. O'quvchilar aynan shu o'rinni topishlari lozim. Qo'shimcha tarzda bu dunyoda turlicha odamlar borligini, ularning rangi, tili, odatlari turlicha ekanini, lekin hammamiz Yer sayyorasida birga yashab kelayotganimizni ham tushuntirish talab etiladi. O'quvchilarga bag'rikenglik hamda hamjihatlik so'zлari nimalarni anglatishi tushuntiriladi:

**Hamjihatlik** – ishi, faoliyati, intilishi bir bo'lgan insonlarning bирgalikdagi harakati. Biz hammamiz Yer yuzida yashaymiz, hammamizning umumiyy intilishimiz – tinchlik, tozalik, mehrli bo'lish. Biz ana shu tinchlik, tozalik yo'lda birlashamiz. Shu hamjihatlik deyiladi. Masalan, men sizlarga "guruh bo'lib ishlang!" deganimda sizlar o'sha guruhg'a berilgan topsiriqni bирgalikda bajarasizlar, ana shu ham hamjihatlikda ishlash deyiladi.

**Bag'rikenglik** – bu so'z "bag'ir" hamda "kenglik" so'zларining qo'shilishidan hosil bo'lgan. Bag'ir bu mana bu yerimiz (ko'ksimizni ko'rsatib, tananing bo'yindan qoringacha bo'lgan qismiga ishora qilib). Keng degani – sige'imi katta, o'lchami katta degani. Ikkalasini qo'shsak, yuragi katta, saxiy, quchog'i ochiq degan ma'nolar kelib chiqadi. Bag'rikenglik – yaxshi fazilat, misol uchun, uyingizga mehmon kelsa uni kiritasiz, dasturxon bezaysiz, bu ham bag'rikenglik, biror qarovsiz hayvonni ko'rib, unga ovqat bersangiz ham, siz bag'rikengsiz.

### 3. Umumiyy uy qanday bo'ladi?

Ushbu savolning javobi matnda aks etmagan. Shuning uchun o'quvchilar o'z fikrlarini bildirishlari mumkin.

Umumiyy deganda hamma foydalanadigan narsa, joy tushuniladi. Biror narsa umumiyy bo'lsa, undan istagan odam foydalanishi mumkin bo'ladi. Masalan, Yer sayyorasasi – odamlar uchun katta bir umumiyy uy. Undan hammamiz foydalanamiz, hammamiz Yer sayyorasida yashaymiz, ovqatlanamiz, kino ko'ramiz, maktabga boramiz.

O'qituvchi quyidagi savolni beradi: *Sizingcha, Yerning umumiyy uymiz ekaniga yana qanday misollar keltirish mumkin?*

Bir necha o'quvchi o'z fikrini aytgach, o'qituvchi javoblarni umumlashtirib qo'yishi tavsiya etiladi.

**4-matn.** Yangi yilni turli xalqlar turlicha kutib oladi. Yangi yil arafasida archalar bezatiladi. Bayramda Qorbobo bilan Qorqiz sovg'alar bilan bolalarga quvonch ularshadi. Har bir oilada bayramona dasturxon tuzaladi. Yangi yil oila davrasida yaxshi niyatlar bilan kutib olinadi.

Matn eshittirilgach, o'quvchilarga qarata "Bu bayram qaysi rasmida tasvirlangan?" deya murojaat qilish mumkin.

O'quvchilar rasmni topgach, rasm ostidagi savollarga o'tiladi.

### 1. Yangi yilni boshqa xalqlar qanday kutib oladi?

Ushbu savolni berishdan oldin o'quvchilariga internet ma'lumotlari asosida kerakli turtkilarni berishingiz mumkin.

### 2. Yangi yil nima uchun bolalarning sevimli bayrami?

O'quvchilarga ushbu savolni quyidagi shaklda ham berish mumkin:

Bolalar, Yangi yilni yaxshi ko'ramizmi? Qani, Kamola, sen nima uchun Yangi yilni yaxshi ko'rasan?

### 3. Yangi yil bayrami uchun qanday rejalarduzdingiz?

O'quvchilarni avval xohishiga ko'ra, keyin birma-bir turg'izib so'rash mumkin.

## 4-soat

**Darsning maqsadi:** o'quvchilarda taqvim bilan ishlash ko'nikmasini rivojlantirish, bayram nomlari imlosini, oy nomlarini, sanalarni yozishni o'rgatish.

**Vosita:** taqvim, sanalar, bayram nomlari.



## DARS JARAYONI

### Kirish

Tashkiliy qismidan so'ng o'qituvchi o'quvchilarni mavzuga olib kirish uchun quyidagi savolarni berishi mumkin:

- *Taqvim nima?*
- *Taqvim bizga nima uchun kerak?*
- *Taqvimni qayerlarda ko'rgansiz?*



### Asosiy qism

#### Yozma mashq.

O'quvchilar mashq daftarining 12-betidagi 2-topshiriqni bajarishi lozim. Unda o'quvchilar o'z yaqinlarining tug'ilgan sanasini yozishi kerak bo'ladi. O'qituvchi namuna tariqasida xattatxaga namuna yozib ko'stadi:

#### Oyim: 11-yanvar

Ushbu topshiriqni bajarish uchun o'quvchilarga 7–8 minut vaqt beriladi.

**Eslatma:** o'quvchilar topshiriqni bajarayotganda sinfni aylanib vaziyatni kuzating. Xato va kamchiliklarni o'rnila to'g'rilashga harakat qiling.

Agar o'quvchilar qaysidir yaqinining tug'ilgan kunini bilmasa, bu muammo emasligini, bilganlarini yozishi yoki sindoshlarining tug'ilgan sanalarini so'rab yozib berishi mumkinligini aytish lozim. Bu topshiriqdan maqsad – o'quvchiga sana yozishni o'rgatish, xolos.

### Qiziqarli mashg'ulot

#### Taqvim bilan ishlashni o'rganing.

Ushbu mashg'ulot og'zaki bajariladi.

O'qituvchi taqvimning umumiyl tuzilishi haqida tushuntirish beradi (oy nomlari qayerda joylashishi, hafta kunlarining nomi va ularning qisqartmasi, nega qizil ranglar borligi).

Shundan so'ng darslikning 32-betidagi topshiriqlar birin-ketin bajariladi:

#### 1. Taqvimdagи oylarni ovoz chiqarib o'qing.

O'quvchilarga jo'r bo'lib yoki yakka tarzda o'qishni buyurish mumkin. Bunda har bir o'quvchi hech bo'lmaganda bitta oyni o'qishiga erishish tavsiya etiladi. Oylar tartib bilan o'qilgani ma'qul. Ya'ni birinchi o'quvchi yanvarni, ikkinchi o'quvchi fevralni o'qishi lozim.

#### 2. Bayram sanalari va nomlarini ovoz chiqarib o'qing.

Darslikning 32-betidagi bayram sanalari va nomlarini o'qish buyuriladi. Bunda ham jo'r bo'lib o'qish yoki yakka o'qish usulidan foydalanish mumkin.

#### 3. Bayram sanalarini taqvimdan toping.

O'quvchilar 32-betda berilgan bayramlarning sanasini 31-betdagi taqvimdan topishlari lozim. Bunda sheriklikda yoki yakka ishlashga ruxsat berish mumkin.

#### 4. Taqvimdan o'z tug'ilgan kuningizni toping.

#### 5. Taqvimdan hafta kunlarini aniqlashni o'rganing.

Har bir o'quvchi o'z tug'ilgan kunini og'zaki aytadi va taqvimdan o'sha sanani ko'rsatadi. Shu bilan birga qaysi hafta kuniga to'g'ri kelayotganini ham aytishlari kerak. O'qituvchi aylanib ularning javobini tekshiradi.

**Eslatma:** o'quvchilarga taqvim, hafta kunlarini tushuntirish.

#### 6. Ushbu taqvimda ko'rsatilmagan bayram nomlarini aying.

Taqvimda barcha bayramlar ham keltirilmagan. O'quvchilar bilgan bayramlarini aytadilar va uning taqvimda ko'rsatilgan yoki ko'rsatilmaganini aniqlaydilar.

Yordam tariqasida O'zbekistonda rasmiy belgilangan bayramlar ro'yxatini o'quvchilarga taqdim qilish mumkin.

**Eslatma:** o'quvchilarga 32-betdagи bayram nomlarining yozilishi asosida bosh harflar imlosidagi bayram nomlariga tegishli qismni o'rgating. Bunda avval ismlar,

familiyalar bosh harfda yozilishini o'rgananlarini eslating.

## 5-soat

**Darsning maqsadi:** bayram nomlarining imlosini o'rgatish, bayramlar va ularning nishonlanish sanalari bilan bog'liq jadval bilan ishslash.

**Vosita:** bayram nomlari keltirilgan jadval.

## DARS JARAYONI

### Kirish

Tashkiliy qismidan so'ng o'quvchilarning darsga kirishib olishlari uchun 2 kishi xattaxta qarshisiga chaqiriladi va o'zi istagan bitta bayram nomi hamda sanasini yozib berishi so'raldi.

### Asosiy qism

Ushbu dars to'liq mashq daftarida bajariladi. O'quvchilardan mashq daftaring 13-betidagi 3-topshiriqqa e'tibor qilishlari so'rалади.

O'quvchilarga topshiriq sharti tushuntiriladi:  
*Bolajonlar, bu jadvalning chap tomonida sanalar, o'ng tomonida bayram nomlari bo'lishi kerak. Ikkala tomonda ham bo'sh qoldirilgan qatorlar mavjud. Hozir sizlar shu qatorni kerakli ma'lumotlar bilan to'ldirib berishingiz kerak.*

**Eslatma:** o'quvchilar topshiriqni bajarayotganda sinfni aylanib ularni kuzating, xato va kamchiliklarni o'z o'rnida to'g'rilang.

O'quvchilar topshiriqni bajarib bo'lgach dafatlarni almashishlari va bir-birining yozganini tekshirish buyuriladi. Kimda kim shеригдан xato topsa, uni o'ziga tushuntirishi lozimligi aytildi.

## 6-soat

**Darsning maqsadi:** o'quvchilar ongida qofiya tushunchasini shakllantirish, o'xshatish, metaforalarni anglashni o'rgatish.

**Vosita:** "Navro'z taronasi" she'ri.

## DARS JARAYONI

### Kirish

Tashkiliy qismidan so'ng o'qituvchi o'quvchilarning mavzuga kirishib olishlarini ta'minlash maqsadida Navro'z bayrami haqida nimalarni bilishlарини so'rashi mumkin.

### Asosiy qism

**She'rni o'qish hamda birgalikda qo'shiq qilib kuylash.**

O'qituvchi darslikning 33-betidagi "Navro'z taronasi" she'rini o'qib eshittiradi. She'r sifatida o'qib bergach, qo'shiq qilib kuylab ko'rsatadi. Shundan so'ng o'quvchilarga she'rni ichlarida o'qib olishlari uchun vaqt beriladi.

O'qituvchi qo'shiqning bir qatorini aytsa, o'quvchi keyingi qatorini aytishi kerakligi tu-shuntiriladi:

**O'qituvchi:** Ko'nda quyosh gulxan yoqdi,

**O'quvchi:** Soylar yana to'lib oqdi.

"Hamma birgalikda!" deya ajratilgan qismni hamma birgalikda kuylashi tushuntiriladi.

Shu tariqa qo'shiq bir necha marta kuylanadi.

Shundan so'ng savol va topshiriqlar qismiga o'tiladi.

**1. She'rdagi "yoqdi", "oqdi", "boqdi" so'zлari nimasi bilan bir-biriga o'xshaydi?**

O'quvchilar "Bular qofiyadosh so'zlar", deyishi shart emas. Shunchaki bu so'zlar tarkibidagi harflar va tovushlar o'xshashligini anglab yetsalar bas.

**Eslatma:** javoblarni tinglagach, umumlashtiring va bu so'zlarda ohangdoshlik borligini o'quvchilarga tushuntiring.

**2. Yana qaysi so'zлarning ohangi bir-biriga o'xshab ketadi?**

O'quvchilar "yoqdi", "oqdi", "boqdi" so'zлari asosida she'rdagi boshqa ohangdoshliklarni ham topishlari kerak bo'ladi.

**3. Nega bu she'rni osongina qo'shiq qilib aytish mumkin?**

Bu savolga o'quvchilardan to'g'ri javob kutilmaydi. O'quvchilar o'z fikrini aytgach, o'qituvchi ularni umumlashtirib, to'g'ri javobni – bunga ohang sabab ekanini tushuntiradi.

### Muhokama

Rustamning boshi qotdi. U she'rdagi ayrim gaplarga tushunmayapti. Balki, unga siz yordam berarsiz?



Ushbu topshiriq avval og'zaki, keyin yozma bajariladi. U orqali o'quvchilarga obrazlilik haqida tushuncha berish maqsad qilingan.

**Eslatma:** o'quvchilarga obrazlilik degan atamaning ma'nosini tushuntirish kerak emas. Shunchaki she'rdagi gaplar ma'nosini tushunishlariga ko'maklashish lozim.

O'quvchilarga "quyosh va gulxanning qanday o'xshashligi bor?" degan savol beriladi. Javob olingach, *Quyosh qanday qilib gulxan yoqishi mumkin, axir uning qo'li yo'q-ku?* degan savol beriladi.

Shu o'rinda quyoshning chiqishi va uning issiq bo'lishi xuddi gulxanning yonishiga o'xshash ekan uchun shunday deyilgani tushuntiriladi. Soylar yana to'lib oqishini esa qishdag'i qor va muzlarni quyosh eritib yuborishi sabab suvning ko'payishi bilan bog'lash mumkinligi tushuntiriladi.

O'quvchilardan *kulish* so'zining ma'nosini so'raladi. Kulish va gulning ochilishida qanday o'xshashlik borligini tushuntirib berishlari topshiriladi. Javob olingach, *Boychechakning kulishini ko'rмаган еканман. Boychechak ham kuladimi?* degan savol o'rtaga tashlanadi.

### Yozma topshiriq

O'quvchilar bilan muhokama yakunlangach, ulardan mashq daftarining 13-betidagi 4-topshiriqqa qarashlari va bo'sh joyga *chiqib xazon ko'rpasidan* qatorini tahlil qilib o'z fikrlarini yozib berishlarini so'raladi. Bunda xazon nimaligi, xazon nimasi bilan ko'rpagina o'xshashini yozish kerakligi tushuntiriladi.

## 7-soat

**Darsning maqsadi:** o'quvchilarda biror bayram munosabati bilan tabriknoma yozish ko'nikmasini rivojlantirish.

**Vosita:** bo'sh o'rnlari mavjud tabriknoma namunasi, rangli qog'oz, rangli qalamlar, yelim.

## DARS JARAYONI

### Kirish

Tashkiliy qismdan so'ng o'qituvchi o'quvchilarni mavzuga olib kirish uchun quyidagi savol larni berishi mumkin:

- *Tabriknoma nima?*
- *Tabriknoma qachon yoziladi?*
- *Siz tabriknoma yozganmisiz? Kimga?*

### Asosiy qism

#### Yozma mashq

##### 5-topshiriq.

O'qituvchi o'quvchilarga mashq daftarining 14-betini ochishlarini aytadi. U yerda tabriknomaning yarim to'ldirilgan holati berilgan, o'quvchilar bo'sh o'rnlarga kerakli ma'lumotlarni yozib chiqishlari kerak bo'ladi.

**Eslatma:** *tinish belgilaringin qo'llanishiga o'quvchilarning diqqatini qarating.*

 1. She'rdagi "yoqdi", "oqdi", "boqdi" so'zlari nimasi bilan bir-biriga o'xshaydi?

 2. Yana qaysi so'zlarning ohangi bir-biriga o'xshab ketadi?

 3. Nega bu she'rni osongina qo'shiq qilib aytish mumkin?

 Rustamning boshi qotdi. U she'rdagi ayrim gaplarga tushunmayapti. Balki, unga siz tushuntirib berarsiz?



Ko'kda quyosh gulxan yoqdi,  
Soylar yana to'lib oqdi.



Chiqib xazon ko'rpasidan,  
Boychechaklar kulib boqdi.



Quyosh qanday qilib gulxan yoqadi,  
axir uning qo'li yo'q-ku?

Boychechakning kulishini ko'rмаган еканман. Boychechak ham kuladimi?

Bu she'rning nimasi yaxshi?

4. O'z fikringizni yozib bering.

31

### Qiziqarli mashg'ulot

##### 6-topshiriq.

O'qituvchi o'quvchilardan darslikning 35-betiga qarashlarini hamda kerakli narsalarni, olib tabriknoma yasashni boshlashlarini aytadi.

Yuqoridaq namuna asosida o'quvchilar biror oila a'zosiga tabriknoma yozishi kerak bo'ladi. Bunda bayramni o'quvchining o'zi tanlashi mumkin.

**Eslatma:** *tabriknomani o'quvchilar uyga olib ketadilar va egasiga topshiradilar.*

**8-soat**

**Darsning maqsadi:** rasm asosida kichik hikoya yozish ko'nikmasini rivojlantirish, sumalak qanday tayyorlanishi haqidagi ma'lumotlar bilan tanishtirish.

**Vosita:** voqeа aks etgan rasm.

**DARS JARAYONI****Kirish**

Tashkiliy qismidan so'ng o'qituvchi o'quvchilarga bugun hikoya yozishlari kerakligini e'lon qiladi. Hikoya mavzusi bilan tanishtirish uchun quyidagi savollardan foydalanish mumkin:

- *Sumalak qanday taom?*
- *Sumalak qachon pishiriladi?*
- *Uyingizda sumalak pishirishganmi?*

**Asosiy qism**

**Yozma topshiriq. Rasm asosida kichik hikoya yozish.**

Dastlab o'quvchilar bilan darslikning 36–37-betidagi rasm haqida qisqa suhbat uyushtiriladi. Unda nima tasvirlangani, kim qanday yumush bilan band ekanini aniqlashtiruvchi savollar beriladi. O'quvchilarning rasm-dagi qahramonlarga ism qo'yishlariga ruxsat beriladi.

Undan so'ng o'qituvchi sumalak qanday tayyorlanishi haqida o'quvchilarga aytib beradi. O'qituvchining ma'lumotlari darslikdagi rasmga uyg'un bo'lishi ta'minlanadi.

Shundan keyin o'quvchilar rasm asosida sumalak pishirish jarayonlari haqida kichik hikoya yozadilar. Topshiriq mashq daftarida bajariladi. Mashq daftarining 15-beti, 7-topshiriq.

O'quvchilar topshiriqni bajarib bo'lgach, bir necha o'quvchiga yozgani o'qittiriladi, xato va kamchiliklari to'g'rilanadi.

**YASHIL SAYYORA**

32

**Nutqiy mavzuning maqsadi:** o'quvchilarning tabiat hodisalari bilan bog'liq tasavvurlarini kengaytirish, ularning mazkur mavzu doirasida ishlatiladigan so'z, so'z birikmalari va gaplarni to'g'ri tushunish va to'g'ri qo'llashiga erishish.

**1-soat**

**Darsning maqsadi:** o'quvchilarning tabiat bilan bog'liq tasavvurlarini kengaytirish, komiks haqida og'zaki suhbat uyushtirish, o'z fikrini ifodalashda xabar, so'roq va buyruq ohangidan foydalana olish bilan bog'liq mashq va topshiriqlar ustida ishslash.

**Vosita:** komiks, tabiat bilan bog'liq rasmlar asosida suhbat; mavzu asosida tayyorlangan mashq va topshiriqlar.

**DARS JARAYONI****Kirish**

Tashkiliy qismidan so'ng o'qituvchi bo'lim hamda nutqiy mavzu nomini e'lon qiladi. O'quvchilarni mavzuga olib kirish uchun quyidagi savol bilan murojaat qilish mumkin: "Aytинг-chi, tabiat deganda nimani tushunasiz?" Sinfdagagi 4–5 nafar bolaning javobi eshitilgach, kitobni ochib, mavzuning birinchi topshirig'ini boshlash mumkin.



1. Odamlar nega tabiat qo'ynida sayr qilishni yaxshi ko'rshadi?  
 2. Siz yashaydigan hududning tabiatini qanday?  
 3. Nega tabiatini "ona tabiat" deb ham ataymiz?  
 4. Zerikkan paytingizda nima qilasiz?  
 5. Sizningcha, "yootamiz" so'zi xato yozilganmi?

1. Nuqtalar o'rniغا mos so'zlarni yozib, gaplarni to'ldiring.  
 2. Rangini toping va yozing.

**Namuna** Yashil daraxt, ....

"Nima uchun yaxshi deb o'ylaysiz?", "Sizningcha, nima uchun bunday holga kelib qolgan?"

Uchinchi savol o'quvchidan fikrlab, aniq javob berishni talab qiladi. Bu savol orqali o'quvchi tabiatni nega "ona tabiat" deb atashimizni tushunishi lozim. O'quvchini to'g'ri javobga yo'naltiradigan savol berish maqsadga muvofiq. Masalan, *ona so'zining qanchalik muqaddasligini, "Ona deganda ko'z oldingizga kim keladi?" deb so'rab va shu so'zni tabiatga bog'lab tushuntirib berish lozim.*

To'rtinchi savolga o'quvchilardan yetarlicha javob olib bo'lgach, tabiat qo'ynida sayr qilish, toza havodan bahra olish inson salomatligi uchun foydali ekanligini aytib o'tish lozim.

Beshinchi savol imlo bilan bog'liq bo'lib, "yootamiz" so'zining yozilishida xato borligi yoki yo'qligini o'quvchi aytib berishi lozim.

**Javob:** *Bu so'z to'g'ri yozilgan, hayajonni ifodalash uchun ba'zan birdan ortiq unli tovush qo'llaniladi. Bunday so'z talaffuzda ham cho'zib talaffuz qilinadi.*

### Yozma mashq

#### 1-topshiriq. Nuqtalar o'rniغا mos so'zlarni yozib, gaplarni to'ldiring.

Bu mashq orqali o'quvchining so'z boyligi tekshiriladi. Ular **qish, yoz, qor, issiq** so'zlari ning ma'nosini tushunishi hamda qachon, qaysi vaziyatda qo'llanishini bilishi lozim.

#### 2-topshiriq. Rangini toping va yozing.

Mashqni yozishga berishdan oldin har bir o'quvchining topshiriq shartini tushunganiga ishonch hosil qilish lozim. Buning uchun avval o'quvchilarga quyidagi savol bilan murojaat qilish maqsadga muvofiq: "Ayting-chi, nimalarni ko'ryapsiz?", "Ularning rangi qanday?".

Berilgan savol yuzasidan o'quvchilardan javob olingach, ularga berilgan narsalarning nomini rangi bilan moslab yozishini tushuntirish kerak. Bunda o'quvchi rasmdagi narsalarning nomi va rangini bilishi hamda rangni bildiruvchi so'zlarni nomlar bilan birgalikda so'z birikmasi tarzida yozib berishi zarur.

#### Javob:

1. Qizil lola.
2. Oq ayiq.
3. Yashil daraxt.
4. Sariq quyosh.
5. Ko'k kit.
6. Qora qarg'a.

O'quvchilar yozib bo'lgach, har bir o'quvchidan yozgan maqolini o'qib, mazmunini tushuntirib berishi so'raladi.

## 2-soat

## Asosiy qism.

**Darsning maqsadi:** o'quvchilarning tabiat bilan bog'liq tushunchalarini kengaytirish, matn ustida ishlash, o'qib tushunish ko'nikmalarini rivojlantirish, *h* va *x* harflarining talaffuzdagi farqi haqida ma'lumot berish, mavzu doirasida lug'at boyligi hamda o'qish savodxonligini oshirish.

**Vosita:** mavzu bilan bog'liq matn va unga oid topshiriqlarni bajarish, matnning asosiy g'oyasi haqida suhbat qurish.



34

## DARS JARAYONI

## Kirish

Darsning taskiliy qismidan so'ng bolalarga quyidagi savol bilan murojaat qiling:

1. Ayting-chi, irmoq nima?
2. Irmoq qanday paydo bo'lgan deb o'ylaysiz?

Bu savolga bolalardan javob olgach, "Suvning vatani" matnini ovoz chiqarmay, ichlarda o'qishlarini aytish lozim. Har bir o'quvchi matn ni mustaqil ravishda o'qishini nazorat qilish maqsadga muvofiq.

O'quvchilar matnni o'qib bo'lgach, darslikdagi savollar beriladi.

Mazkur savollar iloji boricha ko'proq o'quvchidan javob olinishini talab qiladi. O'quvchi javob berishda "Suvning vatani" matniga tayanadi.

Oltinchi savolda o'quvchi hikoyadagi voqealarda qanday tabiat hodisalari haqida gap borayotganligini tushunib, aytib bera olishi lozim. Bu savolga o'quvchilar suvning yomg'ir, qor bo'lishini aytishlari mumkin. Ularning javobini tinglagach, xattaxtada suvning aylanish jarayonini chizib, hikoya orqali suv tabiatda uch xil holatda uchrashi haqida ma'lumot berish lozim.

**Ma'lumot:** suv tabiatda suyuq, gaz va qat-tiq holatda uchraydi. E'tibor bering, hikoyada buлоqdan toshgan suvdan irmoq hosil bo'ldi. Bu – suvning suyuq holati. Quyosh qizdirganda irmoqning suvi bug'landi, ya'ni gaz holatda bulutga aylandi. Havo sovuqlasha boshlaganda suvlar muzlay boshlaydi va qattiq muz holatiga kelib qoladi. Demak, suv uch xil: suyuq, gaz va muz holatda bo'ladi.

Bu jarayonda o'quvchilar bergan javoblar orqali ularning o'qib tushunish malakalarini tekshirib, og'zaki nutqda yo'l qo'ygan xato va kamchiliklarini tuzatib baholab borish lozim.

## Yozma mashq.

## 1-topshiriq.

- ✓ "Suvning vatani" hikoyasidan *h* va *x* harflari ishtirot etgan so'zlarni topib, yozing.
- ✓ Ushbu so'zlarni ovoz chiqarib o'qing.
- ✓ *H* va *x* tovushlarining talaffuzidagi farqqa e'tibor qiling.

Mazkur topshiriqni bajarishda o'quvchilar matnga tayanadilar. Ya'ni hikoyada *h* va *x* harflari ishtirot etgan so'zlarni topib, daftarlariga yozishi lozim.

**Javob:** hatto, rahmat, hech, ham, hamma, behad, xursand.

O'quvchilar yozib bo'lgach, ularning har biriga yozgan so'zlarini o'qitish lozim.

O'quvchilar javob berib bo'lgach, ularga *x* va *h* undoshlarini farqlab berish zarur. Ya'ni qo'l bilan tilning eng orqasi va bo'g'izni qayerdaligini ko'rsatgan holda *x* harfini talaffuz qilganda tilning orqasi, *h* harfini talaffuz qilganda bo'g'iz harakatlanishini tushuntirib berish lozim. Bu jarayonda ko'rgazmali quroldan foydalanish maqsadga muvofiq.



### 3-soat

**Darsning maqsadi:** o'quvchilarning tabiat hodisalari bilan bog'liq tushunchalarini kengaytirish, mavzu doirasida lug'at boyligini oshirish, matndagi voqealar ketma-ketligi hamda sabab va oqibat bog'lanishlarini tushunishga oid topshiriqlar ustida ishslash.

**Vosita:** mavzu bilan bog'liq rasm va unga oid topshiriqlarni bajarish.

## DARS JARAYONI

### Kirish

Tashkiliy qismdan so'ng o'qituvchi o'quvchilarni mavzuga olib kirish uchun quyidagi savol bilan murojaat qilishi mumkin: "Ayting-chi, qanday tabiat hodisalarini bilasiz?" Sinfdag'i 5–6 nafar bolaning javobi eshitilgach, kitobni ochib, topshiriqni bajarishni boshlash mumkin.

### Asosiy qism

#### 1-topshiriq. Rasmga qarang. Savollarga javob bering.

Darslikda tabiat hodisalari bilan bog'liq rasm berilgan. Bolalar rasmni diqqat bilan ko'zdan kechirishlari uchun vaqt beriladi.

O'quvchilar rasm bilan tanishganlaridan so'ng, rasmni ko'rsatgan holda bolalardan nimalar tasvirlanganini so'rash lozim: "Ayting-chi, rasmda nimalarni ko'ryapsiz?"

**Eslatma:** rasmda chaqmoq, qor, irmoq, jala, okean, orol, to'fon, tuman, do'l, kamalak, cho'l, bo'ron, yomg'ir, ko'l, daryo, o'rmon tasvirlangan. Bolalar bu tabiat hodisalarini turlichcha atashlari mumkin. Ya'ni shevada nomlanishi asosida. O'qituvchi bolalarning javoblarini diqqat bilan eshitib borishi va har biriga munosabat bildirishi lozim.

O'quvchilarning javobini tinglagach, rasmda aks etgan har bir tasvirning nomini ko'rsatgan holda aytib berish lozim. So'ngra quyidagi savollar asosida suhbat uyuştilirildi.

#### Savollar asosida suhbat:

1. Irmoq bilan daryoning farqi nima?
2. To'fon bilan bo'ronning farqi nima?
3. Yomg'ir bilan jalaning farqi nima?
4. Do'l bilan qorning farqi nima?

5. Okean bilan dengizning farqi nima?
6. Cho'l nima. U qanday paydo bo'ladi?
7. Sahro bilan o'tloqning farqi nima ?
8. Chaqmoq chaqishi nimadan darak beradi?
9. Qachon kamalak chiqadi?
10. Orol nima? U qayerda paydo bo'ladi?
11. Tuman qanday hodisa?
12. Sizningcha, qanday joyni o'rmon deb ataymiz?

O'quvchilar javobini tinglagach, har bir savolning javobini izohlab berishingiz lozim.

#### Izoh:

1. *Irmoq – suv quyilishi natijasida oqib o'tuvchi suv manbai. Irmoqlar kichik bo'ladi. Bir nechta irmoq qo'shilib, daryoni hosil qiladi. Daryo bilan irmoqning farqi hajmida. Daryo katta, irmoq kichik bo'ladi.*

2. *To'fon – kuchli shamol bo'lishi natijasida yuzaga keladi. Hamma yoqqa chang qo'zg'ab yuboradi. Bo'ron esa qor-yomg'ir aralash esa-digan shiddatli shamol.*

3. *Yomg'ir – bulutlardan tushadigan suv tomchilari. Jala esa shiddatli yomg'ir, ya'ni yomg'irning to'xtovsiz va kuchli yog'ishi.*

4. *Do'l – bulutdan tushadigan muz parchalari. Shakli har xil bo'ladi. Qor esa bulutdan tushadigan suv tomchilarining sovuq havoda birikishidan hosil bo'lgan parchalardir.*

5. *Okean – ulkan suv havzasi. Dengiz esa okeanning quruqlikka tutashgan bo'lagi. Suv sho'r, ichib bo'lmaydi.*

6. *Ko'l – chuqurlikdan iborat tabiiy suv havzasi. Yomg'ir, qor va do'l yog'ishi natijasida to'planib yuzaga keladi.*

7. *Cho'l – iqlimi issiq, suvsiz bepayon dasht, o'simliklar juda kam o'sadi. O'tloq esa suvli, yam-yashil dala.*

8. *Yomg'irdan.*

9. *Kamalak yomg'ir yog'gandan so'ng bir dan quyosh chiqishi natijasida osmonda paydo bo'ladi.*

10. *Orol – hamma tomoni suv havzalari bilan o'ralgan quruqlik.*

11. *Tuman – xira, nimqorong'u holat. Havo sovuq bo'lganda tushadi.*

12. *O'rmon – daraxtlar, o'simliklar tabiiy ravishda ko'p o'sadigan joy.*

#### Yozma mashq

#### 2-topshiriq. Rasmlı diktant.

Mazkur topshiriqda o'quvchilardan darslikda berilgan tabiat hodisalarining nomini yozishi talab etiladi.



Har bir o'quvchidan yozgan so'zini o'qib, mazmunini tushuntirib berishi so'raladi.

### 2-topshiriq. O'zingiz bo'yang.

Mazkur topshiriq mashq daftarida berilgan. Unda tabiat rangsiz tasvirlangan. Rasm ostida raqamlangan ranglar berilgan hamda har bir bo'yalishi kerak bo'lgan narsa raqamlangan holda ko'rsatilgan. O'quvchilar tasvirni bo'yashlaridan oldin raqam bilan berilgan ranglar nomini so'rash lozim.

### 4-soat

**Darsning maqsadi:** audiomatr tarkibida berilgan ayrim so'zlar tahlilini olib borish, qayta hikoya qilib berish. Matn mazmuni ustida ishslash, ushbu matnning xulosasi va g'oyasi yuzasidan og'zaki suhbat qurish.

**Vosita:** audiomatn, matnga oid rasmlar, audiomatn bilan bog'liq mashq va topshiriqlar.

## DARS JARAYONI

### Kirish

Darsning tashkiliy qismidan so'ng o'qituvchi mavzu bilan bog'liq qisqa savol-javob o'tkazishi mumkin. O'quvchilarni audiomatnni eshitish jarayoniga tayyorlash lozim.

### Asosiy qism

O'quvchilarga audiomatn eshittiriladi (*imkon bo'limganda, "Suvning vatani" hikoyasini o'qituvchi baland ovozda ifodali o'qib beradi*):

#### 1-topshiriq. "Suvning vatani" audiomatnini tinglang.

Audiomatn eshittirilgach, o'quvching matnni tushunganligiga ishonch hosil qilib, keyingi og'zaki topshiriqni boshlash lozim.

#### 2-topshiriq. Rasmlarga qarab "Suvning vatani" hikoyasidagi voqealarni so'zlab bering.

Mazkur topshiriqni bajarish uchun ko'rgazmali quroldan foydalanish maqsadga muvofiq. Ya'ni rasmlar ketma-ketligini xattaxta yoki proyektorda bolaga ko'rsatish lozim. Rasmlarni ko'rsatgan holda har bir o'quvchidan matnni rasmlar ketma-ketligi asosida qayta hikoya qilib berishi talab qilinadi.

### 5-soat

**Darsning maqsadi:** o'quvchilarning topishmoq haqidagi tasavvurlarini kengaytirish, tabiat hodisasiga oid topishmoqlar ustida ishslash, tabiatga foyda va zarar kelтирадиган narsalarни farqlay olish. Mavzu yuzasidan loyiha yaratish va uning taqdimotini uyushtirish.

**Vosita:** mavzuga oid rasmlar, savol va topshiriqlar.

## DARS JARAYONI

### Kirish

Darsning tashkiliy qismidan so'ng, o'quvchilarni mavzuga olib kirish uchun quyidagi savol bilan murojaat qilish mumkin: "Ayting-chi, topishmoq nima?"

Sinfdag'i 4–5 nafar bolaning javobi eshitilgach, javoblarni umumlashtirgan holda topishmoq haqida bolalarga izoh bering.

**Izoh:** *topishmoq* – javob talab qiladigan narsa. So'zлari ko'pincha qofiyali tarzda beriladi. Unda narsalar bir-biriga o'xshatiladi. Shu o'xshatishlar orqali javob topiladi.

### Asosiy qism

#### 1-topshiriq. Topishmoqlarni o'qing, javobini topib yozing.

Mazkur topshiriqni o'quvchilar mustaqil bajarishi lozim. Darslikda to'rtta topishmoq berilgan. O'quvchilar har bir topishmoqni mustaqil ravishda ichida ovoz chiqarmay o'qishi hamda javobini mashq daftariga yozishi kerak.

**Eslatma:** *topishmoqlarning javobi bitta so'z ekanligini ayting. Har bir o'quvchi topshiriqni mustaqil bajarishini nazorat qilib boring. O'quvchilar mashqni bajarib bo'lgach, topishmoqlarni birma-bir o'qib bering va javobini so'rang. So'rash jarayonida quyidagi savollar bilan murojaat qiling.*

**Qo'lsiz, oyoqsiz eshik ochar.** (*shamol*)

1. Bu topishmoqning javobi nima?
2. Qo'lsiz, oyoqsiz deganda nimani tushundingiz?

3. Sizningcha, shamol eshikni ocha oladimi?

*E'tibor bering, eshikni ochish uchun qo'llimiz bilan tutqichni ushlab tortamiz. Shamol bo'lganda esa tutqichdan foydalanimagan bo'lsa-da eshik, derazalar ochilib ketadi. Sha-*



*molni ko'rmaymiz, uning bizga ko'rindigan qo'li ham oyog'i ham yo'q, faqat narsalarni harakatlantirganda ovoz chiqaradi.*

### Oppoqqina dasturxon, yer yuzini qoplagan. (qor)

1. Bu topishmoqning javobi nima?
2. Oppoqqina nima degani?
3. Sizningcha, qor nega dasturxonga o'xshatilyapti?

*"Oppoq" so'zini "juda ham oq" ma'nosida qo'llaymiz. E'tibor bering, qorning ranggi tiniqligidan ko'zlarimizni qamashtirib yuboradi. Qor yog'ganda hammayoq bir xilda oppoq bo'ladi, xuddi oq dasturxon singari. Agar qor ko'p yog'sa, suv ko'p bo'ladi. Bu ekinlarni yaxshi o'stirib, hosilni barakali qiladi.*

### Oyog'i yo'q – qochadi, qanoti yo'q – uchadi. (bulut)

1. Bu topishmoqning javobi nima?
2. Bulut qanday qochishi mumkin?
3. Sizningcha, bulutning uchishi deganda nima nazarda tutilgan?

*Bu savollarga javob topish uchun "Suvning vatani" matnini yodga olamiz. Quyoshning qattiq qizdirishi natijasida irmoqvoy bug'lanib, osmonda bulut hosil qildi, ya'ni osmonga qanotsiz uchib chiqdi. "Bulut yurib-yurib zerikibdi" deyilganda aynan bulutning osmon uzra harakatlanishi nazarda tutilgan.*

### O'tda yonmaydi, suvgaga botmaydi. (muz)

1. Bu topishmoqning javobi nima?
2. Muz nega o'tda yonmaydi?
3. Sizningcha, nima sababdan muz suvda botmaydi?

*Muz – suvning qattiq holatidagi ko'rinishi. Havo soviy boshlashi bilan suvlar muzlaydi. Uni olovga yaqinlashtirsak erib ketadi, shuning uchun yonmaydi.*

Savol-javob yakunlangach, o'quvchilarga bittadan topishmoq tuzish aytildi. O'quvchilar tuzgan topishmoqlarini bir-birlariga beradilar va har bir o'quvchidan tuzilgan topishmoqlarga munosabat so'raladi.

### 2-topshiriq. Boshqotirmani yeching.

Mazkur topshiriqni bajarishdan avval boshqotirma nima ekanligini, uning shaklini, qanday bajarish kerakligini o'quvchiga tushuntirish lozim. Buning uchun boshqotirmani xattaxta yoki proyektorda ko'rsatgan holda unga izoh berish maqsadga muvofiq.

**Izoh:** *boshqotirmani yechish uchun kalit so'z berilgan, ya'ni "irmoq". Bu so'zga tayangan holda "Suvning vatani" matnidan tabiatga oid so'zlar topiladi va bo'sh o'ringa yoziladi.*

**Javob:** *yomg'ir, yer, o'simlik, tog', buloq.*

## 6-soat

**Darsning maqsadi:** o'quvchilarning tabiatni asrash bilan bog'liq tushunchalarini kengaytirish, tabiatga zarar va foyda keltiradigan narsalarni farqlay olishi, munosabat bildirishi, tabiatni asrab-avaylashga oid o'z loyihasini yaratishi va uni taqdimot qilib berishiga erishish.

**Vosita:** mavzu bilan bog'liq rasm va unga oid topshiriqlarni bajarish.

## DARS JARAYONI

### Kirish

Darsning tashkiliy qismidan so'ng, o'quvchilarni mavzuga olib kirish uchun quyidagi savol bilan murojaat qilish mumkin: "Ayting-chi, tabiatga nimalar zarar keltiradi?"

37

Rasmrlarga qarang. Tabiatga nimalar zarar keltirishini ayting.



Rasmrlarga qarang. Tabiatni asrash uchun nimalar qilish kerakligini ayting.



48

### Asosiy qism

#### 1-topshiriq. Rasmrlarga qarang. Tabiatga nimalar zarar keltirishini ayting.

Darslikda tabiatga zarar keltiradigan hodisalar bilan bog'liq oltita rasm berilgan. O'quvchidan oldin bu nimaning rasmi ekanligini so'rash lozim. Javob bergandan so'ng, tabiatga qanday zarar keltirishini so'rash mumkin.



1. Bu nimaning rasmi?
2. Tabiatga qanday zararlar keltiradi deb o'ylaysiz?

**Izoh:**

*Bu rasmda zavod va fabrikalar tasvirlangan. Zavod va fabrikalardan chiqadigan havo odamlarni, o'simliklarni va hayvonlar dunyosini zararlashi mumkin.*

*Mashinalar sonining ko'pligi tirbandlikni yuzaga keltiradi. Ulardan chiqadigan tutun toza havoni zararlaydi.*

*Chiqindi – ko'cha-ko'yga chiqindi tashlash toza havoni ifloslaydi, atrof-muhitni yomon holga keltiradi hamda ko'plab kasalliklarning kelib chiqishiga sabab bo'ladi.*

*Chiqindilarning suvgaga tashlanishi berilgan. Bu jarayon suvda yashaydigan jonzotlarning nobud bo'lishiga, suvning ifloslanishiga olib keladi.*

*Ovchilar – jonli tabiatga katta zarar keltiradi. Ovchilarning hayvonlarni ovlashi hayvonlar sonining kamayib ketishiga sabab bo'ladi.*

*Daraxtlarning kesilishi – toza havoning kamayishiga, daraxtlarda yashaydigan, ulardan ozuqa sifatida foydalananidan jonzotlarning nobud bo'lishiga sabab bo'ladi.*

**2-topshiriq. Rasmlarga qarang. Tabiatni asrash uchun nima qilish kerakligini aytинг.**

Mazkur topshiriqda o'quvchilarni tabiatni asrashga undovchi rasmlar berilgan. Har bir rasmda nima tasvirlanganini so'rash lozim.

O'quvchilardan javob olib bo'lgach, javoblarni umumlashtirib rasmlarga izoh berish lozim.

**Izoh:** bu rasmda hayvonlarga zarar keltirmaslik uchun ovchilarga hayvonlarni ovlash taqiqlangani ko'rsatilgan. Bolalar noto'g'ri joylarga tashlangan chiqindilari yig'ib chiqib, atrof-muhit ifloslanishining oldini olyapti. Qizaloq esa qushlar uchun uylar quryapti. Qushlar unda jon saqlashlari mumkin. Bu bolakay nihol ekdi, bu nihol katta daraxt bo'lsa, hosil beradi, havoni tozalaydi. Bu rasmda quyosh issiqligidan kuchlananidan asbob berilgan. U quyoshning ortiqcha nurlarini yig'ib olib, bizlarni elektr quvvati bilan ta'minlaydi.

**Yozma mashq**

**3-topshiriq. Tabiat va hayvonlarni asrash uchun o'z loyihangizni tuzing.**

Mazkur topshiriqda uchta jarayon bilan bog'liq rasmlar va o'quvchini yo'naltiruvchi xatboshiblar berilgan. O'quvchilardan "Men tabiatni asrayman" nomli o'z loyihalarni yaratishlari talab etiladi.

Mashqni yozishga berishdan avval loyiha yaratish jarayonini ketma-ketlikda tushuntirib berish lozim.

1. Ushbu rasmlarda tabiatni asrab qolish uchun o'quvchiga pul, mehnat, ishchilarning rasmi berilgan. O'quvchilarga ulardan birini taklif qiling, "Ayting-chi, tabiatni asrash uchun sizga nimalar kerak", "Nima uchun?"

2. Ishni nimadan boshlaysiz? Chiqindilarni qayta ishlaysizmi, kesilgan daraxtlarning o'rninga yangilarini ekasizmi, zavod va fabrikalar sonini kamaytirasizmi? Ulardan birini tanlab, o'z fikringizni yozing.

3. Tuzgan loyihangiz tabiatga qanday foyda keltiradi? Ularni aytib bering.

O'quvchilar mashq shartini tushunganligiga ishonch hosil qilgach, mashq daftariга o'z loyihalarni yozishga ruxsat bering.

O'quvchilar tuzgan taqdimotlarini uyda, oila davrasida taqdimot qilib gapirib berishlarini aytish hamda ularning ota-onalaridan farzandlari yaratgan loyiha uchun munosabat olish lozim.

## 7-soat

**Darsning maqsadi:** o'quvchilar tabiat bilan bog'liq maqollar, she'r matni bilan tanishtirish. Ularda qo'llangan til birliklarni farqlashga o'rgatish. Munosabat bildira olish ko'nikmalarini rivojlantirish.

**Vosita:** mavzu doirasida rasm, maqol, she'r hamda ularga oid savol va topshiriqlar.

## DARS JARAYONI

### Kirish

O'qituvchi mavzu doirasida ijodiy mashg'uilot o'tkazilishini e'lon qiladi hamda o'quvchilar ni ijodiy matn yaratish jarayoniga tayyorlaydi.

**Asosiy qism.**

**1-topshiriq. Maqollarni yozing. Ma'nosi ni tushunting.**

Mashqni yozishga berishdan oldin har bir o'quvchi topshiriq shartini tushunganligiga ishonch hosil qilish lozim. Buning uchun avval o'quvchilarga quyidagi savol bilan murojaat qilish maqsadga muvofiq: "**Maqol deb nimaga aytiladi?**"



Berilgan savolga o'quvchilar o'z shaxsiy fikri bilan javob javob berishiga imkon bering.

**Maqol xalq tomonidan yaratiladi.** Ko'pincha pand-nasihat tarzida aytildi. Bunda bir so'z orqali ko'p ma'no ifodalanadi. So'zlari ohangdosh, qofiyali bo'lib keladi.

So'ng, darslikda keltirilgan maqollarni band ovozda ifodali qilib o'qib berish lozim:

- Yoz mevasi – qish xazinasi.
- G'oz kelgani – yoz kelgani.
- Yomg'ir – ekkinning joni.

Shundan so'ng maqollarni mashq daftarlarga ko'chirib yozishlari aytildi.

O'quvchilar maqollarni yozib bo'lgach, har bir o'quvchidan yozgan maqolini o'qib, mazmunini tushuntirib berishi so'raladi.

**Eslatma:** bunda bir maqol takror kelishi mumkin. O'quvchilarning fikri har xilligini inobatga olgan holda har bir o'quvchining fikrini tinglang va og'zaki nutqda yo'l qo'ygan xatolarini o'zingiz uchun qayd etib boring. Kamchiliklar ustida alohida ish olib boring. Bola so'zlayotganida nutqini bo'lmang.

Shundan so'ng, maqol ostida berilgan savollar asosida bolalar bilan suhbat tashkil qilinadi.

Birinchi savolga o'quvchi o'zi biladigan maqollardan aytib berishi lozim. Ikkinci savol orqali o'quvchilar "xalq maqollari" nima ekanli-

gini tushunishlari maqsad qilingan. Bu savolga javobni o'quvchilarning javobini tinglab bo'lgach, izohlab berish maqsadga muvofiq.

**Izoh: Xalq maqollari** – xalq tomonidan yaratiladi. Ota-bobolarimiz yashashlari davomida obrazli so'zlardan foydalanib pand-nasihat berishgan. Bu so'zlarning har bir inson hayoti davomida qo'llaydi.

**"Dilmurodning vaqt yo'q" she'rini o'qing.**

Mazkur she'rni o'quvchilar ovoz chiqarmay o'qishlari lozim. She'rni o'qib bo'lgach, savollar asosida suhbat uyuştiliriladi.

Ushbu savollar asosida she'rning badiyiligi ochiladi. O'quvchilardan yakka tartibda navbatma-navbat javoblar eshitiladi.

1-savolga javob berishda bolalar she'r matniga tayanib, mustaqil javob berishlari so'raladi.

2-savolda o'quvchi qorning yog'ishi elakdan un elanish jarayoniga o'xshatilganini aytib berishi lozim.

3–4-savollarga o'quvchi qorning katta-katta, tinmay guppa-guppalab yog'ishini, qor parchalari daraxtlarni bezashini aytib bera olishi kerak.

## 8-soat

**Darsning maqsadi:** o'quvchilarning tabiat bilan bog'liq tushunchalarini umumlashtirish, anglash ko'nikmalarini rivojlantirish, mavzu doirasida matn yarata olish ko'nikmalarini rivojlantirish.

**Vosita:** mavzu doirasida suhbat va yozma matn yaratish.

## DARS JARAYONI

### Kirish

Darsning tashkiliy qismidan so'ng oldingi dars mavzusi bilan bog'liq qisqa savol-javob o'tkazish mumkin.

### Asosiy qism

#### Rasmga qarab kichik hikoya yozing.

O'quvchilarning diqqat – e'tiborini rasmlarga qaratib quyidagi savollar bilan murojaat qilish lozim.

1. Qizaloqning qo'lida nima bor?
2. Qizaloq uni nima qilishi kerak?
3. Qizaloq chiqindilarni ko'chaga tashlasa nima bo'ladi?

4. Chiqindilarni chelaklarga solish foydali deb o'ylaysizmi?

Ushbu savollarga o'quvchilardan javob olib bo'lgach, endi ularning o'zlarini bu holatda nima qilishlari haqida so'rang:

### Tasavvur qiling, qo'lingizda meva po'chog'i bor. Uni qayerga tashlaysiz?

Matnni yozishga berishdan avval o'quvchilarni o'zaro muhokamaga chorlang. Ular partadoshlari bilan fikr almashishlariga imkon yaratib bering.

✓ Partadoshingiz bilan rasmlarda aks etgan voqealarni haqida fikr almashing.

✓ Hikoya uchun chiroyli sarlavha o'ylab toping.

✓ Yozgan hikoyangizni partadoshingizga bering.

✓ Partadoshingizning hikoyasi haqida o'z fikringizni ayting.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlarni o'qib berib, matn yozishlariga ruxsat berish lozim.

Mashqni bajarib bo'lishgach, matn mazmu-ni, o'ziga xosligi, imlosi, gaplarning tuzilishi, o'quvchining so'z qo'llash malakasini tekshirib baholashingiz kerak.

## MO'JIZAVIY HASHAROT

**Nutqiy mavzuning maqsadi:** o'quvchilarning asalari bilan bog'liq tasavvurlarini kengaytirish, ularning mazkur mavzu doira-sida ishlatalidigan so'z, so'z birikmalari va gaplarni to'g'ri tushunish va to'g'ri qo'llashi-ga erishish, dialog haqida ma'lumot berish, lug'at boyligini oshirish, rasm asosida hiko-yta tuzish ko'nikmasini shakllantirish.

### 1-soat

**Darsning maqsadi:** mavzu yuzasidan og'zaki suhbat uyuşdırma, dialog haqida ma'lumot berish, tinish belgilarni to'g'ri qo'llay olish, o'z fikrini ifodalashda xabar, so'roq va buyruq ohangidan foydalana olish bilan bog'liq mashq va topshiriqlar ustida ishlash.

**Vosita:** dialog, asalari bilan bog'liq rasmlar asosida suhbat; mavzu asosida tayyorlangan mashq va topshiriqlar.

## DARS JARAYONI

### Kirish

Tashkiliy qismidan so'ng bo'lim hamda nutqiy mavzu nomi e'lon qilinadi. O'quvchilarni mavzuga olib kirish uchun quyidagi savol bilan murojaat qilish mumkin: "Ayting-chi, rasmida nima tasvirlangan?"

### Asosiy qism

#### 1-topshiriq.

Darslikda asalarilarning suhbatiga (dialog) berilgan. Dastlab o'quvchiga dialog haqida ma'lumot berish lozim.

**Dialog – ikki yoki undan ortiq kishi o'rtasi-dagi og'zaki muloqot, suhbat.**

So'ng o'quvchilarga darslikda berilgan dialogni baland ovozda ifodali qilib o'qib berish lozim.





So'ng, o'quvchilar bilan birga dialogni rolga kirib qayta o'qing.

Dialogni qayta o'qib bo'lgach, darslikdagi savollar beriladi:

1-savolni matnni o'qishdan oldin ham berish mumkin. Bu mavzuga kirish vazifasini bajaradi. Demak, dialog asalarilarning suhbati haqida ekan.

2-savolda o'quvchilar asalarilarning qayerga borishmoqchi ekanligini aytishi kerak. Bu savolga matn asosida aniq javob berishi nazarada tutiladi. Ya'ni "Tepalik ortidagi gulzorga", deb javob berishi lozim.

3-savol "Binafsha, chinnigul, momaqaymoq va yalpizni ko'rganmisiz?" shaklida berilgan. O'quvchilar: "Ha", deb javob bersa, bu gullarning qanday gul ekanligini aytib berishi so'ralladi. Agar "Yo'q", deb javob bersa, bu gullar haqida ma'lumot berish maqsadga muvofiq.

4-savolga o'quvchilar kuzatishlaridan kelib chiqib asalarilarning chelagi yo'qligini, bu shunchaki o'xshatish ekanligini aytish lozim.

5-savolga o'quvchilar kuzatishlaridan kelib chiqib, chumoli, kapalak, ninachi, chigirtka, xonqizi kabi hasharotlarni aytib berishi lozim.

### Yozma mashq

#### 1-topshiriq. Dialogdan quyidagi tinish belgilari ishlatalgan gaplarni topib yozing.

Bu topshiriq mashq daftarida bajariladi. Unda undov, nuqta, so'roq va vergul belgisi berilgan. O'quvchilar "Mo'jizaviy hasharot" matnidan ushbu tinish belgilari qatnashgan gaplarni topib, birinchi undovli, ikkinchi nuqtali, uchinchi so'roqli va oxirida vergulli gaplarni ko'chirib yozishi lozim.

#### 2-topshiriq. Gaplarning ohangiga qarab tinish belgilarini qo'ying.

Bu topshiriq mashq daftarida bajariladi. O'quvchilar gaplarni ichlarida ovoz chiqarmay o'qib, ma'no-mazmuni va ohangiga qarab tinish belgilarini qo'yishi lozim.

#### Javob:

1. *Madina senga qaysi hasharot yoqadi?*
2. *Biz dalada har xil kapalaklarni ko'rdik.*
3. *Voybo', gullarning ko'pligini!*

Mashqni bajarib bo'lishgach, har bir o'quvchi topshiriqni qanday bajarganligini tekshirish lozim.

Mashqni tekshirish davomida o'quvchilarga savol bilan murojaat qilinadi:

1. *Ayting-chi, nima uchun birinchi gapga so'roq belgisi qo'yiladi?*
2. *Ikkinci gapga nima uchun nuqta qo'yiladi?*

3. *Nega uchinchi gapga nuqta emas, undov qo'yiladi?*

Bu savollarga o'quvchilardan javob olgach, har bir savolni izohlab berish lozim.

#### Izoh:

*1-gapda savol bilan murojaat qilingan, ya'ni Madinaga qaysi hasharotlar yoqishi so'ralyapti, bu savolga Madina o'ziga yoqqan hasharotlarni aytib beradi. Demak, savol berib, javob so'ralladigan gaplarga so'roq belgisi qo'yiladi.*

*2-gapda bolalar dalada har xil kapalaklarni ko'rganligi haqida xabar beryapti. Bunday xabar mazmunidagi gaplarning oxiriga nuqta qo'yiladi.*

*3-gapga nuqta emas, undov qo'yishimizning sababi bu gapni hayratlanish, hayajon bilan aytamiz. Bunday gaplarga undov belgisi qo'yiladi.*

## 2-soat

**Darsning maqsadi:** o'quvchilarning asalari qanday boqilishi bilan bog'liq tushunchalarini kengaytirish, matn ustida ishslash, o'qib tushunish ko'nikmalarini rivojlantirish, jarangli va jarangsiz undoshlar talaffuzini farqlash, sonlarni so'zlar bilan ifodalash haqida ma'lumot berish, mavzu doirasida lug'at boyligi hamda o'qish savodxonligini oshirish.

**Vosita:** mavzu bilan bog'liq matn va unga oid topshiriqlarni bajarish, matnning asosiy g'oyasi haqida suhbat qurish.

## DARS JARAYONI

### Kirish

Darsning tashkiliy qismidan so'ng bolalarga quyidagi savol bilan murojaat qiling: *Ayting-chi, asalari bizga qanday foyda keltiradi?*

Bu savolga bolalardan javob olgach, o'quvchilar "Asalari qanday boqiladi?" matnnini ovoz chiqarmay ichlarida o'qishlari lozim.

### Asosiy qism

O'quvchilar matnni o'qib bo'lgach, darslikdagi savollarni ularga berishingiz lozim.

O'quvchilarning bergen javoblari orqali ularning o'qib tushunish malakalarini tekshirib, og'zaki nutqda yo'l qo'yan xato va kamchiliklarini tuzatib, baholab borish lozim.

**Yozma mashq****1-topshiriq. Matndagi sonlarni so'zlar bilan yozing.**

Mashq daftarida raqam berilgan. O'quvchi bu sonlarning nima deb atalashini bilishi hamda uni so'zlar bilan yozib bera olishi lozim. Bu topshiriq orqali o'quvchining so'z boyligi hamda yozma savodxonligi tekshiriladi.

So'ng, matn asosida berilgan topshiriqlar ketma-ketlikda bajariladi.

**1-topshiriq. "Asalari qanday boqiladi?" matnini gapirib bering.**

O'quvchilar matn mazmunini tushunib fikr bildirishlari lozim.

**2-topshiriq. Matndan asalarilarning nozikta'b ekani haqidagi o'rirlarni ko'chirib yozing.**

Mazkur topshiriq mashq daftarida bajariladi.

**Javob:** Asalarilar juda nozikta'b bo'ladi. Ularning uyasiga yaqinlashganda kiyimingiz toza bo'lishi kerak. Yo'qsa, jahli chiqib, sizni chaqib olishi hech gap emas.

**3-topshiriq. Asalari boqishda nima esimizdan chiqmasligi kerak? Matndan ushbu o'rirlarni topib yozing.**

Mazkur topshiriq o'quvchilardan mustaqil fikrlab, javob yozishlarini talab qiladi. O'quvchilar matn mazmunini tushungan holda, asalarilarni boqishda nimalarga e'tibor qilish kerakligini yozib berishi lozim.

**Javob:**

- Asalari uyasiga yaqinlashganda toza kiyimda bo'lisch kerak.
- Asalari uyasini yerdan ko'tarib qo'yish lozim.

**4-topshiriq. Bitta uyada qancha asalari yashashi mumkin? Matndan aniqlab, yozing.**

Mazkur topshiriq mashq daftarida bajariladi. O'quvchilar matndan bitta uyada qancha asalari yashashi mumkinligini topishi hamda shu o'rinni ko'chirib yozishi lozim.

**Javob:** maxsus yasalgan uyada 60 mingtагacha asalari yashaydi.

**5-topshiriq. Ishchi asalarilar qanday vazifa bajaradi deb o'ylaysiz? Javobingizni yozing.**

Mazkur topshiriq o'quvchilardan mustaqil fikrlab, javob yozishlarini talab qiladi. Javob matnda aynan keltirilmagan. O'quvchilar hayotiy kuzatishlari hamda matn mazmuniga tayangan holda javob yozishlari lozim. Ya'ni ishchi asalarilar o'simliklardan asal yig'ishini yozishi nazarda tutilgan.

**6-topshiriq. "Asalari qanday boqiladi?" matnidagi ajratib ko'rsatilgan so'zlarga e'tibor bering. Ularning aytilishi va yozilishida qanday farq bor?**

Har bir o'quvchiga ushbu so'zlar o'qitiladi. O'quvchilar talaffuzini tinglab bo'lgach, ularga so'zlarning yozilishi va talaffuzidagi farqlar tu-shuntirib beriladi.

**Izoh:**

**nozikta'b** – tutuq belgisiga amal qilib talaffuz qilinadi.

**ko'tarib** – talaffuzda oxirigi **b** undoshi p undoshidek talaffuz qilinadi.

**hasharot** – talaffuzda **hashorat** deb talaffuz qilinadi.

**kilogramm** – oxiridagi **m** undoshi talaffuz qilinmaydi.

**4-soat**

**Darsning maqsadi:** o'quvchilarning asalarilarning foydali xususiyatlari bilan bog'liq tushunchalarini kengaytirish, mavzu doirasida lug'at boyligini oshirish, matndagi voqealar ketma-ketligi hamda sabab va oqibat bog'lanishlarini tushunishga oid topshiriqlar ustida ishslash.

**Vosita:** mavzu bilan bog'liq rasm va unga oid topshiriqlarni bajarish.

**DARS JARAYONI****Kirish**

Tashkiliy qismdan so'ng o'qituvchi o'quvchilarni mavzuga olib kirish uchun quyidagi savol bilan murojaat qilishi mumkin: "Ayting-chi, asalari asalni qanday yig'adi?" Sinfdagagi 5–6 nafar bolaning javobi eshitilgach, kitobni ochib, topshiriqni bajarishni boshlash mumkin.

**Asosiy qism****1-topshiriq. Rasmlarga qarab, og'zaki gaplar tuzing.**

Darslikda alohida jadvalarda so'z, chizma, raqam va rasmlar berilgan bo'lib, o'quvchilar tanishib chiqishi uchun vaqt beriladi.

O'quvchilar bu tasvir bilan tanishib bo'lischgach, har bir jadvalda berilgan so'z, chizma, raqam va rasmlarni bog'lab gap tuzib, aytib berishlari lozim. Bu jarayonda xattaxta yoki proyektorda jadval tasvirlarini ko'rsatish maqsadga muvofiq.



O'quvchilar javob berishga qiyalsa, ularga quyidagi savollar bilan murojaat qilish lozim:

1. Jadvalda nimaning rasmini ko'ryapsiz?
2. Nega bola bilan gul o'rtaida qarama-qarshi chiziq qo'yilgan?
3. Chiziqlar ostidagi sonlar nimani anglatadi?
4. Nima uchun jadvalga "Gul hidi" deb yozilgan? Uning rasmlarga qanday aloqasi bor?

#### Javob:

1. Bola gulning hidini bir metrdan biladi. Asalarilar esa ming metrdan aniqlay oladi. Asalarilarning hid bilish qobiliyati yuqori.

2. Asalarilar bir qoshiq asal uchun o'n to'qqiz mingta guldan asal yig'ib chiqishadi. O'n to'qqiz mingta gul juda ko'p gullarni bildiradi. Demak, asalari bir qoshiq asal uchun shuncha mehnat qilar ekan.

3. Bitta asalari uyasida oltmish mingta asalari yashaydi.

4. It soatiga ellik kilometr masofani bosib o'tishi mumkin. Asalarilar esa oltmish kilometr masofani bosib o'tishadi.

**Eslatma:** o'quvchidan javobda keltirilgan ma'lumotlarni aynan aytib berishi talab qilinmaydi. O'quvchi chizmani tushungan holda mazmun chiqarib aytib berishi nazarda tutilgan.

#### 1-topshiriq. Partadoshingiz tuzgan gaplarga munosabat bildiring.

Mazkur topshiriq og'zaki suhbat asosida tashkil qilinadi. Bunda har bir o'quvchi parta-

doshining chizma asosida og'zaki tuzib aytgan gapiga munosabat bildirishi lozim.

Quydagi savollar bilan murojaat qilish mumkin:

1. Partadoshingizning gaplarini tingla dingizmi?
2. U nima haqida gapirdi.
3. Uning gaplarini to'g'ri deb hisoblaysizmi?

Nima uchun?

Bu jarayonda har bir o'quvchining og'zaki nutqi hamda bildirgan munosabatini kuzatib borish muhimdir.

#### 2-topshiriq. Rasmdagi bola va kuchukka ism qo'ying. Gap tuzib yozing.

Mazkur topshiriq mashq daftarida bajari ladi. Bunda jadvaldagi bola va kuchuk rasmi nazarda tutilgan. Mashq daftarida ikkita gap berilgan. O'quvchilar bolaga va kuchukka ism tanlab gaplarni davom ettirishlari lozim.

### 5-soat

**Darsning maqsadi:** o'quvchilarning tabiat bilan bog'liq tushunchalarini kengay tirish, she'r matni ustida ishslash, o'quvchilarning o'qib tushunish ko'nikmalarini rivojlantirish, mavzu doirasida lug'at boy ligi, yozma hamda o'qish savodxonligini oshirish.

43

**Vosita:** she'r matni, unga oid mashq va topshiriqlar.

### Kirish

Tashkiliy qismidan so'ng o'qituvchi o'quvchilarni mavzuga olib kirish uchun quyidagi savol bilan murojaat qilishi mumkin: "Ayting-chi, asalarilar qaysi faslda ko'proq asal yig'adi?"

### Asosiy qism

#### 1-topshiriq. She'rni ifodali o'qing.

O'quvchilar she'r muallifi bilan tanishtiriladi. She'rni o'quvchilarning diqqatini jamlagan holda baland ovozda ifodali qilib o'qib berish lozim.

She'rni bir marta o'qib bergandan so'ng, o'quvchilarga ovoz chiqarmay ichlarida o'qishlari uchun vaqt beriladi.

She'rni o'qib bo'lishgach, darslikdagi savollar beriladi:

1-savolda o'quvchilar she'rdagi shabadali havo, turnalarning kelishi, qaldirg'ochlar, asa-

larilar tasviri orqali she'r bahor fasli haqida ekanligini aytib berishi lozim.

2-savolda o'quvchilar birinchi to'rtlikda achchiq izg'irinlarning ketishi, havoning isiy boshlashi, mayin shabadalar oqali bahor faslining kirib kelishini ta'riflab berishi nazarda tutilgan.

3-savolga o'quvchilar she'r matni asosida turna, qaldirg'och qushlari haqida ekanligini aytib berishi lozim.

4-savol orqali o'quvchning "bolari" so'zini tushunishi maqsad qilingan. Bolari – asalari.

5-savolda she'rga sarlavha qo'yish topshirig'i berilgan bo'lib, eng chiroyli sarlavhalar xattaxtada yozib borilishi mumkin.

6-savolga o'quvchilar kuzatishlari asosida tabiatda yana qanday o'zgarishlar bo'lishini aytib berishlari lozim.

### **Yozma mashq**

**1-topshiriq. She'rning birinchi bandini ko'chirib yozing. O'zaro ohangdosh so'zlarning tagiga chizing.**

Mazkur topshiriq mashq daftarida bajariladi. O'quvchi she'r matnidagi birinchi bandni ko'chirib yozishi hamda ushbu banda qo'llangan ohangdosh so'zlarning tagiga chizishi lozim.

**Javob:** izg'irin-shirin, izillab-g'izillab.

O'quvchilar yozib bo'lgach, ulardan ohangdosh so'zlar so'raladi. So'ngra ularning javoblari umumlashtirib she'rdagi ohangdosh so'zlar izohlab berilishi lozim.

### **6-soat**

**Darsning maqsadi:** o'quvchilarning audiomatn tarkibida berilgan ayrim so'zlar tahlilini olib borishi, qayta hikoya qilib berishi. Matn mazmuni ustida ishslash, ushbu matnning xulosasi va g'oyasi yuzasidan og'zaki suhbat qurish.

**Vosita:** audiomatn hamda u bilan bog'liq mashq va topshiriqlar.

## **DARS JARAYONI**

### **Kirish**

Darsning tashkiliy qismidan so'ng o'qituvchi o'quvchilar bilan o'tilgan dars mavzusiga bog'liq qisqa savol-javob o'tkazishi mumkin. O'quvchilarni audiomatnni eshitish jarayoniga tayyorlash lozim.

### **Asosiy qism.**

O'quvchilarga audiomatn eshittiriladi (*imkonni bo'lmaganda, o'qituvchi tomonidan baland ovozda ifodali o'qib beriladi*). Audiomatn darslikning 58-sahifasida keltirilgan.

**1-topshiriq. She'rni tinglang. She'rda aytilgan tabiat hodisalarini sanang.**

Mazkur topshiriqni o'quvchi audiomatnni tinglab bo'lgach, bajaradi. Ya'ni audimatnda eshitgan tabiat hodisalarini sanab berishi lozim.

O'quvchilar javob berib bo'lgach, darslikda gi savollar beriladi.

Ushbu savollar orqali she'rning badiyiligi ochib beriladi.

**1-savolga o'quvchi izg'irinning achchiq deb tasvirlangani hamda qattiqsovuda badanimiz achishib ketgani uchun achchiq izg'irin deyilishi aytib berishi lozim.**

**2-savolga shabadaning yoqimligi, shirin esishini aytib berishi nazarda tutilgan.**

**3–4-savollarga turna bilan qaldirg'och nima o'xhatilganini aytib berishi hamda yana ularni nimalarga o'xhatish mumkinligini sanab o'tishi lozim.**

**5-savolga asalarilar tez harakatlari va vizviz ovozlari orqali o'qqa o'xhatilganini aytib berishi nazarda tutilgan.**

**6-savolga o'quvchi she'rning oxirigi qatorlarini bog'lab, xulosa chiqarib javob berishi nazarda tutilgan. Ya'ni u miq etmay uxlab yotgan narsa borliq ekanligini, qishda o'simliklar, darraxtlar va ba'zi hayvonlar qishki uyquga ketishi, bahor kelishi bilan tabiat qayta uyg'onishini aytib berish lozim.**

### **Yozma mashq**

**2-topshiriq. She'rdagi ajratib ko'rsatilgan so'zlarning ma'nosini izohlang va yozing.**

Mazkur topshiriq mashq daftarida bajariladi. O'quvchi she'r matnida (58-sahifa) ajratib ko'rsatilgan so'zlar ma'nosini izohlab yozishi lozim.

Dastlab o'quvchilardan qaysi so'zlar ajratib ko'rsatilganligi so'raladi, bu jarayonda so'zlar xattaxtaga yozib boriladi. So'ng har bir o'quvchidan bu so'zlarning nima ma'no anglatib keliishi so'raladi.

O'quvchilar javob berib bo'lgach, javoblar umumlashtirilib ushbu so'zlarning she'r matnida qanday ma'noda kelayotgani aytib beriladi.



## 7-soat

**Darsning maqsadi:** o'quvchilarning mo'jizaviy hasharot bilan bog'liq tushunchalarini umumlashtirish, mavzu doirasida matn yarata olish ko'nikmalarini rivojlantirish.

**Vosita:** rasm, mavzu doirasida suhbat va yozma matn yaratish.

## DARS JARAYONI

### Kirish

Darsning tashkiliy qismidan so'ng o'tilgan dars mavzusi bilan bog'liq qisqa savol-javob o'tkazishi mumkin. So'ng, o'quvchilarni matn yozish jarayoniga tayyorlash lozim.

### Asosiy qism

#### 1-topshiriq. Rasm asosida hikoya tuzing va yozing.

O'quvchilarning diqqat-e'tiborini rasmlarga qaratib quyidagi savollar bilan murojaat qilish lozim.

1. Asalarilar nima qilishyapti?
2. Bu odam kim? Nega u yuzini yopib olgan?
3. Bola nima qilyapti? Uning oldida nima bor?

Ushbu savollarga o'quvchilardan javob olib bo'lgach, rasmlarda tasvirlangan jarayonlarni bog'lab matn tuzish topshirig'i beriladi.

Matnni yozishdan avval o'quvchilarni o'zaro muhokamaga chorlab, partadoshlari bilan birlgilikda fikr almashishlariga imkon yaratib berish lozim.

Mashqni bajarib bo'lishgach, matn mazmuni, o'ziga xosligi, imlosi, gaplarning tuzilishi, o'quvchining so'z qo'llash malakasini tekshirib baholashingiz kerak.

## UY HAYVONLARI

45

**Nutqiylar mavzuning maqsadi:** o'quvchilarning uy hayvonlari bilan bog'liq tasavvurlarini kengaytirish, ularning mazkur mavzu doirasida ishlataladigan so'z, so'z birikmalari va gaplarni to'g'ri tushunishi va to'g'ri qo'llashiga erishish.



### 1-soat

**Darsning maqsadi:** o'quvchilarning uy hayvonlari bilan bog'liq tasavvurlarini kengaytirish, sevimli uy hayvonlari bilan bog'liq mavzuda og'zaki suhbat uyushitirish, bunda hayvonlarga atab qo'yilgan nomlar, nomlarning qanday tanlanishi bilan bog'liq savollarga javob berish, o'z fikrini ifodalashda xabar, so'roq va buyruq ohanidan foydalana olish bilan bog'liq mashq va topshiriqlar ustida ishlash.

**Vosita:** uy hayvonlari bilan bog'liq rasmilar asosida suhbat; mavzu asosida tayyorlangan mashq va topshiriqlar.

## DARS JARAYONI

### Kirish

Tashkiliy qismidan so'ng o'qituvchi o'quvchilarga nutqiylar mavzu nomini e'lon qiladi. O'qi-

tuvchi o'quvchilarni mavzuga olib kirish uchun quyidagi savol bilan murojaat qilishi mumkin: "Ayting-chi, qanday hayvonlarni bilasiz?"

## Asosiy qism

### Topshiriq. Rasmga qarang. Savollarga javob bering.

Darslikda uy hayvonlari bilan bog'liq rasm berilgan. Bolalar rasmni diqqat bilan ko'zdan kechirishlari uchun vaqt beriladi. Imkon qadar sinfda osoyishtalikni saqlash kerak, chunki bu fikrni jamlashda juda muhim.

#### Darslikdagi savollar beriladi.

1-savol ustida ishlashda o'quvchilardan aniq va qisqa javoblar olish kerak.

2-savolda Bu hayvonlar nima uchun uy hayvonlari deyilishiga o'quvchilarning munosabatlari aniqlanadi. Qo'shimcha tarzda "Uy hayvonlari bilan yovvoyi hayvonlarning farqi bormi? Qanday farqi bor?" mazmunidagi savollar bilan murojaat qilinishi mumkin.

3-savolda o'qituvchi boshqa uy hayvonlari ning rasmi bilan yovvoyi hayvonlarning rasmilarini aralash holda ko'rsatishi, bolalardan qaysilari uy hayvoni ekani, ularning nomlarini aytishlarini so'rashi mumkin.

4-savolda o'quvchilarning nutqida quyidagi so'zlar va ularning ma'nolarini faollashtirishga e'tibor qaratiladi:

**og'ilxona** – uy hayvonlarini saqlash va boqish uchun qurilgan maxsus bino; molxona, og'ilxona;

**qo'yxona** – qo'y boqish uchun belgilangan bino, joy; qo'ra;

**qo'ra** – qo'y va echkilar saqlanadigan joy;

**katak** – parranda yoki ayrim (asosan mayda) jonivorlar turishi uchun maxsus ishlangan qurilma; xona, uycha;

**qafas** – qush yoki hayvonlarni saqlash uchun maxsus yasaladigan xonacha.

5-savol bilan ishlashni kichik guruhlarda yoki partadoshi bilan birgalikda bajartirish yoki uy hayvonlari nima bilan oziqlanishini o'yin shaklida tashkil etish ham mumkin.

6-savol har bir o'quvchiga alohida beriladi, ular uy hayvonlari nima sababdan boqilishiga oid shaxsiy fikrlarini aytadi. Og'zaki savol-javobdan so'ng mashqlar bilan ishlanadi.

#### Yozma mashq

##### 1-mashq. Uy hayvonlarining bolasi qanday atalishini yozing.

Mashq daftarida tovuq, ot, tuya, echki, siger, qo'y va ularning bolalari rasmi berilgan

bo'lib, o'quvchilar quyidagi so'zlarni yozishlari lozim:

**jo'ja, toychoq, bo'taloq, uloq, buzoq, qo'zichoq.**

Bu mashqni bajarish jarayonida o'qituvchi o'quvchi topishga qiynalayotgan so'zlarni topishga quyidagi usulni qo'llashi mumkin: tuyaning bolasi – bloqto'a. Harflarni tartib bilan joylashtirsa, **bo'taloq** so'zi kelib chiqadi.

##### 2-mashq. Tez aytishlarni ko'chiring va talaffuz qiling.

Ushbu tez aytishlar husnixat bilan ko'chirib olinadi hamda har bir o'quvchiga ayttililadi. Bunda so'zlarni to'g'ri va tez-tez aytishlari tu-shuntiriladi. Uyda ham bunday tez aytishlarni yodlash va aytish foydali ekani ta'kidlanadi.

## 2-soat

**Darsning maqsadi:** o'quvchilarning uy hayvonlari bilan bog'liq tushunchalarini kengaytirish, matn ustida ishslash, o'qib tushunish ko'nikmalarini rivojlantirish, **j** harfini ikki tovushni ifodalashi haqida ma'lumot berish, mavzu doirasida lug'at boyligi hamda o'qish savodxonligini oshirish.

**Vosita:** mavzu bilan bog'liq matn va unga oid topshiriqlarni bajarish, matnning asosiy g'oyasi haqida suhbat qurish.

## DARS JARAYONI

### Kirish

Tashkiliy qismdan so'ng o'qituvchi dars jarayonida "Izzatning jo'jalari" matni bilan tanishilishini e'lon qiladi. O'quvchilardan jo'ja haqida nimalarni bilishlari so'raladi. Bu savol matnga kirib borish vazifasini bajaradi.

**Asosiy qism.** Matn o'qituvchi tomonidan ifodali o'qib beriladi, o'quvchilar o'qituvchi bilan birga matnni kuzatib boradi. Keyin o'quvchilar matnni ichdan o'qishadi. Mazmun o'qituvchining o'qib berishidan so'ng tushunarli bo'ladi, ichdan o'qish ham tezroq amalga oshadi.

Matn o'qib bo'lingach, darslikdagi savollar beriladi.



Biror hayvonning bolasini kuzatgannmisiz?

### IZZATNING JO'JALARI

Munisa uuda yolg'iz zerikdi. Hovlidan chiqib qarasa, qo'shni Izzatlarning eshigi ochiq turibdi. Munisa ularning darvozasidan mo'raladi. Izzat hovlida o'ynab o'tirardi.

– Izzat! – chaqirdi Munisa. Izzat uni ko'rib jilmaydi.

– Esingdami, jo'jalaringni ko'rsatmoqchi eding, – dedi.

– Yur, ko'rsataman, – dedi Izzat.

Izzat Munisani tovuqxonaga boshladidi.



63

1-savolni matnni o'qishdan oldin berish ham mumkin. Bu mavzuga kirish vazifasini bajaradi.

2-savolda o'quvchilar Izzat Munisaga jo'jalarni ko'rsatmoqchi ekanini aytishlari kerak.

3-savolning javobi matnda "Bizda-chi, besh-ta jo'ja bor. Ular sariq tovuqning bolasi" shakli-da berilgan bo'lib, o'quvchilar yashirin berilgan ma'lumotni topishlari nazarda tutiladi. Bolalar: "Sariq tovuqning beshta bolasi bor" deb javob beradilar.

4-savolda o'quvchilar ona tovuqning qurilab hurpayishi sababini aniqlashlari lozim. Bolalarini himoya qilish uchun shunday qilganiga e'tibor qaratiladi. Ona tovuqning nima uchun bolalarini himoya qilayotgani qo'shimcha savol tariqasida berilishi mumkin.

5-savolda jo'jalar qayerga yashiringani so'raladi. Bolalar "Ona tovuqning qo'yniga" yoki "Ona tovuqning bag'riga" deb javob berishlari mumkin. Shundan so'ng matndagi "Jo'jalari tezda uning pinjiga yashirinib olishdi" gapida-gi "pinj" so'zi izohlanadi. Buning uchun bolalar darslik oxiridagi "Matnlarda qo'llangan so'zlar lug'ati" dan "pinjiga kirmoq"ning izohini topishlari aytildi. Bolalar ushbu topshiriq orqali lug'at bilan mustaqil ishlashga odatlanib borishadi.

6-savolda o'quvchilar Izzat bilan Munisaning berkinib olganliklarini aytishlari kerak. O'qituvchi matndan xuddi shu ma'lumotni to-pib, qayta o'qish vazifasini berishi ham mumkin.

7-savolning javobini topish uchun matnning xulosa qismiga e'tibor qaratish lozim. O'quvchilar Munisa jo'jalarni miriqib tomosha qilgанинни айтшади. O'qituvchi "miriqib tomosha qiliш" qanday bo'lishini o'quvchilardan so'rashi lozim.

Qo'shimcha: *miriqib uslash, miriqib eshitish kabi.*

### Yozma mashq

### Izzat va Munisaning gaplarini alohida ustunga ajratib yozing.

Mashq daftari bilan ishlanadi. Daftarda ayrim gaplar namuna sifatida ko'rsatilgan bo'lib, o'quvchilar ularni alohida ajratilgan joylarga xatosiz va husnixat bilan yozishlari kerak.

### 3-soat

**Darsning maqsadi:** o'quvchilarning uy hayvonlari bilan bog'liq tushunchalarini kengaytirish, o'qib tushunish ko'nikmalarini rivojlantirish, mavzu doirasida lug'at boyligi hamda o'qish savodxonligini oshirish, matndagi voqealar ketma-ketligi hamda sabab va oqibat bog'lanishlarini tushunishga oid topshiriqlar ustida ishslash.

**Vosita:** mavzu bilan bog'liq matn va unga oid topshiriqlarni bajarish, matnning asosiy g'oyasi haqida suhbat qurish.

## DARS JARAYONI

### Kirish

Darsda "Izzatning jo'jalari" matni ustida ishlanishi e'lon qilinadi.

### Asosiy qism

"Izzatning jo'jalari" matnnini o'quvchilar navbatma-navbat o'qib chiqadi (Matnni har bir o'quvchi o'qib chiqishi lozim).

Shundan so'ng topshiriqlar ustida ishlanadi. Darslikdagagi 1-topshiriq og'zaki shaklda bajari-ladi.

**Rasmillardagi holatlар haqida so'zlang.**  
**Berilgan so'zlardan rasmlarga mosini ko'r-sating.**

Rasmdagagi holatlarni dastlab o'quvchilar diqqat bilan kuzatishadi hamda izohlab berishadi.

Rasmlar soni 4 ta, so'zlar soni esa 5 ta bo'lib, farqli jihatlarga qarab moslik aniqlanadi. O'qituvchi o'quvchilarning javoblarini kuzatib boradi hamda umumlashtiradi.

Matn o'quvchilarga qayta hikoya qildiriladi. Qayta hikoya qilishda navbat bilan hikoyalash, matnni davom ettirish orqali barcha o'quvchilarning ishtiroti ta'minlanishi ko'zda tutiladi. Bir-birini eshitish, navbat bilan gapirish, mazmunni to'liq oshib berishga erishishga e'tibor qaratiladi.

Muallif, Munisa va Izzatning nutqini rollarga bo'lgan holda qayta hikoya qildirish samarali usullardan hisoblanadi.

### Yozma mashq

#### Audio orqali hayvonlarning ovozini tinglang. Hayvonlarga tegishli harakatlarni yozuvda ifodalang.

Bu topshiriqni bajarish uchun o'quvchilariga it, eshak, mushuk, ot, qo'y, xo'roz, sigirning ovozi eshitiriladi. O'quvchilar ovozning qaysi hayvonga tegishli ekanini aniqlaydilar va unga mos namunadagidek gaplar tuzadilar.

Namuna: Olapar tuni bilan vovullab chiqdi.

### 4-soat

**Darsning maqsadi:** o'quvchilarning uy hayvonlari, matnlarda qo'llangan so'zlar bilan bog'liq tushunchalarini kengaytirish, audiomatn tarkibida berilgan ayrim so'zlar tahlilini olib borish, unli va undosh tovushlarni farqlash, ularni to'g'ri talaffuz qilish. Matn mazmu-ni ustida ishslash, ushbu matnning xulosasi va g'oyasi yuzasidan og'zaki suhbat qurish.

**Vosita:** audiomatn, matnga oid rasmlar, audiomatn bilan bog'liq mashq va topshiriqlar.

## DARS JARAYONI

### Kirish

O'qituvchi o'quvchilar bilan o'tilgan dars mavzusi bilan bog'liq qisqa savol-javob o'tkazishi mumkin.

### Asosiy qism

O'qituvchi o'quvchilarga "Echkining bolasini nima deymiz?", "Echki qanday hayvon?" kabi

matnga kirish uchun savollar beradi. Shundan so'ng "Echki bolalari va yovuz bo'ri" ertagi eshittiriladi.

Audiomatn eshittirilgandan so'ng, darslik-dagi rasmlari topshiriq ustida ishlanadi. Bunda o'quvchilar voqealar ketma-ketligi asosida rasmlarni tartiblab chiqishlari kerak. Ushbu topshiriqdan ko'zlangan maqsad tinglangan badiiy matndagi voqealar ketma-ketligini to'g'ri belgilay olish ko'nikmasini shakllantirishdan iborat.

Ertakni tushunishga qaratilgan quyidagi savollar bilan ishlanadi:

1. Ona echki va uning bolalari qayerda yashar ekan? Bolalari soni nechta ekan?
2. Ona echki bolalarini nega himoya qilar ekan?
3. Ona echki bolalariga bo'rini qanday farqlash haqida nimalar gapiribdi?
4. Bo'ri ona echkiga o'xhash uchun nimalar qilibdi?
5. Echki bolalari qayerlarga yashirinishibdi? Bo'ri ularni topa olmabdimi?
6. Ona echki bolalarini qanday qilib qutqaribdi?
7. Bo'ri nima uchun suvgaga cho'kib ketibdi?
8. Bu ertakdan qanday xulosa chiqardingiz?

 Audioni tinglang. Rasmlar ketma-ketligini toping.



4. Harflarning to'g'ri ketma-ketligini daftarga yozing.

66

### Yozma mashq

#### 1-mashq. Harflarning to'g'ri ketma-ketligini daftarga yozing.

O'quvchilar voqealar ketma-ketligi asosida harflarni joylashtirishlari lozim. Bu tartib quydagiicha: **D-F-A-E-B-G**.

Ketma-ketlik aniqlangach, ushbu tartibning nima uchun to'g'riligi izohlanadi.



## 2-mashq. Berilgan nomlarning mosini tanlang. Hayvonlarga atab nom qo'ying.

Bu mashq ham og'zaki, ham xattaxtada yozma tarzda bajariladi.

O'quvchilardan bu nomlar nega aynan shu hayvonlarga qo'yilishini izohlash so'ralishi mumkin. Ular kuchukka Olapar, otga Uchqur, mushukka Momiq hamda Sigirga Qashqa nomi mos kelishini aytishlari lozim.

Shundan so'ng o'quvchilar "Hayvonlarga atab qo'yilgan nomlar **bosh harf** bilan yoziladi" qoidasi bilan amaliy jihatdan tanishtiriladi. Ulardan hayvonlarga atab qo'yiladigan yana qanday nomlar borligi so'raladi.

## 2-mashq. Hayvonlarning nomi ishtirok etgan gaplar tuzing.

Namuna: Salima hovlida Olapar bilan o'yndadi.

Bu mashq daftarida bajariladi.

Asosiy e'tibor gaplarni to'g'ri va mazmunli tuzish, hayvonlarga atab qo'yilgan nomlarning bosh harfda yozilishiga qaratiladi.

## 5-soat

**Darsning maqsadi:** o'quvchilarning badiiy matn bilan bog'liq tushunchalarini kengaytirish, she'r matni ustida ishslash, o'quvchilarning o'qib tushunish ko'nikmalarini rivojlantirish, mavzu doirasida lug'at boyligi, yozma hamda o'qish savodxonligini oshirish.

**Vosita:** she'r matni, unga oid mashq va topshiriqlar.

## DARS JARAYONI

### Kirish

She'rning nomi xattaxtaga yozib qo'yildi: "Kim tuzatadi?".

### Asosiy qism

She'r muallifi Anvar Obidjon ekani aytildi. She'r navbatma-navbat ifodali o'qiladi. She'rni o'qish davomida o'quvchilarda yaxshi kayfiyat paydo bo'ladi. O'qituvchi ulardagagi hissiyotni kuzatib boradi va quvnoq kayfiyatda she'r matni ustida ishlanadi.

#### Darslikdagi savollar beriladi.

Ushbu savollar asosida she'r mohiyati ochiladi. O'quvchilardan yakka tartibda navbatma-navbat javoblar eshitiladi.

1-savolda o'quvchilar quyon, kuchuk, xo'roz, mushuk, baliq, eshak, toshbaqa, toychoq, bu-

zoq, o'rdak, echki kabi hayvonlar haqida so'z borganini aniqlashlari lozim. Bunda o'qituvchi turli hayvonlarning nomlarini aralash holda berib, she'r matnida mavjud jonzotlarni ajratib olish topshirig'i berishi ham mumkin.

2-savolda o'quvchilar she'r matnidagi so'zlar ma'nosini lug'atdan topishlari lozim.

3-savolda buzoq, quyon, toshbaqa, xo'roz, baliq, o'rdak haqidagi satrlarni rasm bilan bog'lashlari kerak.

4-savolda o'quvchilar she'rning yoqqan yoki yoqmaganini shaxsiy yondashuvlari asosida izohlab berishlari nazarda tutiladi. Nima uchunligiga aniqlik kiritiladi.

Shundan so'ng she'rdagi qofiyadosh so'zlarni topish vazifasi beriladi. Qofiyadoshlik nima asosida yuzaga kelayotgani bilan bog'liq savollar berilishi mumkin.

### Yozma mashq

#### 1-mashq. Aslida bu hayvonlar nima qilishi kerak?

Ushbu mashqni bajarish orqali o'quvchilar-da narsa va harakatni bildirivchi so'zlar lug'a-tining faollashishi, vogelikni to'g'ri idrok etish, tanqidiy fikrlash, farqli belgilarni kontekst orqali topish ko'nikmalari rivojlantiriladi.

#### 2-mashq. Partadoshingiz bilan suhbat quring. Suhbatni dialog shaklida yozing.

Bu mashqda o'quvchilar partadoshlari bilan qaysi hayvonni yoqtirishlari yuzasidan yoki she'r matniga oid suhbat matni – dialog tuzishlari lozim. Dialogni qanday shaklda yozish kerakligi darslikda namuna sifatida keltirilgan. O'qituvchi ushbu namunani monitorda ko'rsatishi yoki xattaxtaga yozib qo'yishi mumkin.

Tuzilgan dialoglar o'quvchilar tomonidan o'qib beriladi. Dars davomida ulgurmagan o'quvchilar uyda mustaqil holda yakunlab kelishlari ham mumkin.

Dialogda q'llanadigan tinish belgilariga, gap turlariga alohida e'tibor qaratiladi.

## 6-soat

**Darsning maqsadi:** o'quvchilarning uy hayvonlari bilan bog'liq tushunchalarini kengaytirish, matn ustida ishslash, o'z fikrini ifodalashda xabar, so'roq va buyruq ohangidan foydalana olish bilan bog'liq mashq va topshiriqlar ustida ishslash, o'qib tushunish ko'nikmalarini rivojlantirish, mavzu doirasida lug'at boyligi hamda o'qish savodxonligini oshirish.

**Vosita:** mavzu bilan bog'liq matn va unga oid topshiriqlarni bajarish, matnning asosiy g'oyasi haqida suhbat qurish.

## DARS JARAYONI

### Kirish

Tashkiliy qismidan so'ng o'qituvchi dars jarayonida "Abrorning hikoyasi" matni bilan tanihilishini e'lon qiladi. "Siz ham biror hayvonni parvarish qilganmisiz?" deb matnoldi savol beriladi. Javoblar tinglangach, asosiy qismga o'tiladi.

### Asosiy qism

Matnni o'quvchilar dastlab ichdan o'qishadi. Navbatma-navbat ifodali qilib o'qittiriladi.

Matn o'qib bo'lingach, darslikdagi savollar beriladi.

1-savolga matnning 1-gapi asosida javob berishadi.

2-savol muammoli vaziyat yaratishga qaratilgan bo'lib, tanga qadimiy pul birligimiz ekani izohlanadi.

3-savolga javob berish uchun o'quvchilar Abror qo'zichoqni yaxshilab parvarish qilgani, yem berib, o'tloqda boqqanini izohlashadi. Bu savol orqali og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantiriladi.

4-savolga o'quvchilar, tovuq, sigir, echki va h.k.larni boqib ham daromad olish mumkinligini aytishadi. Bu oldingi mavzularda o'zlashdirigan ma'lumotlari asosida amalga oshiriladi.

5-savolda qo'zichoq va qo'chqorning farqi bolalardan so'raladi hamda javoblar umumlashtiriladi.

Ushbu savollarga imkon qadar ko'proq o'quvchilardan javob olish kerak. Bunda navbat bilan gapirish, bir-birini tinglash, biri-birini takrorlamasliklariga e'tibor qaratiladi. O'quvchilar har bir ishtiroy uchun rag'batlantirib beriladi.

#### Yozma mashq

**Mashq daftarida bajariladi.**

**1-mashq. So'zlarni bo'g'lnlarga ajratib yozing.**

Bu mashq orqali so'zlarni bo'g'inga to'g'ri ajrata olish ko'nikmalarini e'tiborga olinadi.

**2-mashq. Kitobni yopib qo'ying. Tushirib qoldirilgan tinish belgilarini qo'yib, gaplarni ko'chiring.**

1. Uni yaxshilab parvarish qildim (nuqta).
2. Yem berdim, (vergul) o'tloqda boqdim (nuqta).
3. Qarang-a, naqd sakkiz tanga daromad qildim (undov)!
4. Siz ham biror hayvon boqqanmisiz (so'roq)?

Nega bunday tinish belgi qo'yilishi sinfda muhokama qilinadi. Buning uchun o'qituvchi qo'shimcha ravishda xattaxtada muammoli vaziyatlar yaratishi va mavzuni mustahkamlashi mumkin.

### 7-soat

**Darsning maqsadi:** o'quvchilarning uy hayvonlari bilan bog'liq tushunchalarini umumlashtirish, anglash ko'nikmalarini rivojlantirish, mavzu doirasida taqdimot qila olish ko'nikmalarini rivojlantirish.

**Vosita:** mavzu doirasida ijodiy ish taqidomi, suhbat.

## DARS JARAYONI

### Kirish

O'qituvchi mavzu doirasida ijodiy mashq'ulot o'tkazilishini e'lon qiladi hamda o'quvchilarni ijodiy matn yaratish jarayoniga tayyorlaydi.

### Asosiy qism

O'quvchilarning diqqati darslikdagi rasmilar hamda berilgan ma'lumotlarga qaratiladi. O'quvchilar mustaqil holda tanishib chiqadilar. Shundan so'ng o'qituvchi savollar bilan murojaat qiladi:

1. Birinchi rasmda qanday ma'lumotni aniq ladingiz?

2. 2-rasmda-chi?

3. 6 litr sut qancha turarkan?

4. Ushbu tasvirlardan nimani tushundingiz?

Shundan so'ng matn o'qib chiqiladi. Tasavvurlar faollashtirilgach, yozma mashqqa o'tiladi. O'quvchilarga topshiriq aniq va tushunarli qilib berilishi lozim.

**Yozma mashq. Berilgan ma'lumotlardan foydalanib kichik hikoya yozing.**

Oldingi darsda "Abrorning hikoyasi" matni orqali hikoya namunasi bilan tanishilgan edi. Ushbu darsda shu tartibda o'quvchilar berilgan kalit so'zlar, gaplardan foydalangan



holda o'zlarining hikoyasini yozishi kerak bo'ladi.

Mazkur topshiriq orqali ijodiy matn tuzish, matn mazmuniga mos sarlavha tanlash, bosh-qalarning fikrini anglash va unga munosabat bildira olish kabi jihatlarga urg'u beriladi.

6 litr sut 1 tanga turadi.

Tasavvur qiling. Sizning bitta sigiringiz bor. U sizga har kuni 6 litr sut beradi. Demak, siz sigir sutini sotib, 1 kunda 1 tanga, 1 haftada esa 7 tanga pul ishlaysiz. Shular haqida kichik hikoya yozing.

- Partadoshingiz bilan yoziladigan hikoya haqida suhbat quring.
- Hikoya uchun chiroysi sarlavha o'ylab toping.
- Yozgan hikoyangizni partadoshingizga bering. Partadoshingizning hikoyasi haqida o'z fikringizni aytинг.

71

## MUSTAHKAMLASH DARSI

**Darsning maqsadi:** “Tabiat ne'matlari” bo'limida tanishilgan ma'lumotlar bilan bog'liq tushunchalarini umumlashtirish, anglash ko'nikmalarini rivojlantirish, nutqiy mavzular doirasida egallagan bilimlarini mustahkamlash.

**Vosita:** suhbat, nutqiy mavzu yuzasidan berilgan mashq va topshiriqlar.

## DARS JARAYONI

### Kirish

O'qituvchi “Tabiat ne'matlari” bo'limida tanishilgan ma'lumotlar doirasida mustahkamlash darsi o'tkazilishini e'lon qiladi hamda o'quvchilarni darsga tayyorlaydi.

### Asosiy qism

O'quvchilarning diqqati darslikdagi rasmilar hamda berilgan ma'lumotlarga qaratiladi. O'quvchilar mustaqil holda tanishib chiqadilar. Shundan so'ng darslikdagi savollar beriladi.

#### Yozma mashq

**Mashqlar xattaxtada bajariladi.**

**1-mashq.** Bog'da ko'rishib qolgan ikki asalari suhbatini yozing. Tinish belgilarini to'g'ri qo'llang.

Dialogda 8 ta gap berilgan bo'lib, o'quvchilar barchasini ko'chirib yozishlari shart emas. Muhibi, nuqta, so'roq va undov belgili gaplar dan tanlab yozishlari lozim.

**2-mashq.** Hayvonlarning atab qo'yilgan nomlarini yozing. Gaplar tuzing.

Ushbu mashqda to'g'ri gap tuzish, bosh harflar imlosi hamda tinish belgilarini to'g'ri qo'llashga e'tibor qaratiladi.

**3-mashq.** Quyidagi so'zlar qatnashgan to'rtta gap tuzing.

Bu mashqda ijodiy va to'g'ri shaklda gap tuza olish, hayvonlarga atab qo'yilgan nomlar ning bosh harfda yozilishi, gap oxirida ohang asosida tinish belgisining qo'llanishi kabi jihatlar asosiy maqsadni ifodalaydi.

# FOYDALI SABZAVOTLAR

**Bo'limning maqsadi:** bolalarning "sabzavotlar" mavzuiy guruhiga oid lug'at boyligini oshirish, ma'lumotlarni tushunish, og'zaki va yozma ifodalab berish ko'nikmasini rivojlantirish.



## 1- soat

**Darsning maqsadi:** bolalardagi sabzavotlar bilan bog'liq tajribani faollashtirish.

**Vosita:** mavzu asosidagi rasmlar bo'yicha savol-javob; mashq.

## Kirish

Darsning tashkiliy qismidan so'ng bolalarga o'tgan darsda "Uy hayvonlari" mavzusini yakunlashgani eslatiladi. Bu darsdan boshlab "Sog' tanda sog'lom aql" bo'limi boshlanishi aytiladi. Bo'lim nomi doskaga yoziladi.

Bolalardan "Sog' tanda sog'lom aql" deganda nimani tushunishlari so'raladi.

Odam sog' bo'lganda aqli ham yaxshi ishlashi aytilishi kifoya.

Keyin bu bo'limda uchta mavzu borligi aytiladi: "Foydalı sabzavotlar", "Xotiram kuchli bo'lsin desangiz", "Oq terakmi, ko'k terak?".

Bu darsda shulardan birinchisi bo'lgan "Foydalı sabzavotlar" mavzusini boshlaymiz. Mavzu doskaga yoziladi.

## Asosiy qism

Mavzuga kirishish uchun bolalarga quyidagi savollar bilan murojaat qilinadi:

"Siz qanday sabzavotlarni bilasiz?"

Bola adashib mevani aytса, to'g'rilib ketiladi.

Sabzavotlarning inson salomatligiga foydasi haqida eshitganmisiz? Masalan, shamolla-gan paytingizda kattalar sizga qandaydir sabzavotni yedirishganmi?

Bolalardan javob olingach, kitobning 74-betini ochish aytiladi.

**Rasmga qarang. Tasvirlangan narsalarni muhokama qiling.**

Bolalarga quyidagi savollar beriladi:

Rasmda nima tasvirlangan?

Rasmdagi odamlar kim deb o'ylaysiz? Ular nima qilyapti?

Rasmdagi har bir detal tavsiflanishiga erishish kerak.

Rasmda tomorqa tasvirlangan. Uzoqroqda uy ko'rinib turibdi. Rasmdagilar ota-bola yoki aka-uka bo'lishi mumkin. Kattasi yer chopyapti/ ag'daryapti, kichkinasi urug' sepyapti. Sal nari-da egatlarda suv oqayotganini ko'rish mumkin, demak, tomorqaga ekilgan narsa sug'orilyapti.

Shundan keyin darslikning 75-betida berilgan savollarga o'tiladi.

1. Tomorqa ekin uchun qanday tayyorlanadi?

Tomorqadagi yer belkurak yo ketmon bilan chopiladi/ ag'dariladi. Keyin katta-katta kesaklar maydalanim, tirma/xaskash bilan tarab, tekislanadi. Agar urug' sepiladigan bo'lsa, ko'pincha to'rtburchak shaklida pol qilinadi. Agar ko'chat yoki urug' ekilsa, pushta va egatlarga ajratiladi.

2. Tomorqaga qanday ekinlar ekish mumkin?

Turli ko'katlarning urug'ini sepib o'stirish mumkin. Sarimsoq, bulg'or qalampiri, pomidor, baqlajon, bodring kabi ekinlarni ekish mumkin.

3. Qaysi sabzavotlar ertapishar hisoblana-di?

Ertapishar deganda qolganlarga nisbatan avvalroq pishishi nazarda utilishi tushuntirib o'tiladi. Rediska, bulg'or qalampiri, bodring,



pomidor erta pishadi. Kechroq baqlajon, kartoshka sarimsoq piyoz, keyin sabzi, sholg'om, turp pishadi. Bolalar o'z tajribasidan kelib chiqib javob berishlari mumkin.

4. Qaysi sabzavotlarni qishga g'amlab qo'yish mumkin?

Qishga g'amlash deganda hamma ekinlar kuzda yig'ib olinishi, qish payti dalada narsa yetishtirib bo'imasligi, shuning uchun sabzavotlar ko'proq qilib yetishtirilib, saqlab qo'yilishi nazarda tutiladi. Bunda sabzi, sholg'om kabi sabzavotlarning o'rnga ko'mib saqlanishi haqidada aytish mumkin.

Keyin darslikning 75-betidagi mashq bajariladi.

### Berilgan so'zlarning ma'nosini rasmga qarab tushuntiring.

Unda *sabzi*, *piyoz*, *sholg'om*, *tomorqa*, *poya*, *shudgor*, *urug'* *sepish*, *shudgor*, *palak*, *sug'orish*, *egat*, *ildiz*, *gul*, *meva*, *barg*, *yer ag'darish* so'zлari berilgan.

Bolalardan biri bir so'zni o'qib, rasmga qarab uning nima ekanligini tushuntirishi kerak. O'qituvchi namuna sifatida *sholg'om* so'zini o'qib, o'zi tushunirib berishi kerak. Sholg'om ildizmeva o'simlik ekani, ya'ni mevasi yer ostida, barglari yer ustida bo'lishini aytib ketishi mumkin.

Mashqdagi so'zlarning qaysilari 74-betidagi rasmda berilgan bo'lsa, rasmga qarab tushuntirish kerak, aks holda bilganini so'zlab berishi mumkin.

Daftarning 31-betidagi mashq bajariladi.

### Berilgan so'zlar qatnashgan oltita gap tuzib yozing.

O'quvchi yuqoridagi so'zlarni qatnashtirib 6 ta gap tuzishi kerak.

Bu mashqni sinf bilan birgalikda bajarib, doskaga yozgan ma'qul.

*Tomorqaga piyoz ekdik. Bahorda tomorqamizga sabzi urug'ini sepidak. Pomidorning gulasi qolad. Tomorqada ekinlarni sug'orib turish kerak. Ekin ekishdan oldin yerni ag'darish kerak. Ekinlar ildizi orqali suv ichadi.* Shu kabi gaplar tuzish mumkin. Daftarda ajratilgan joy yetmasa, bola o'zining daftariga yozishi mumkin.

## 2-soat

**Darsning maqsadi:** informativ matnni o'qib tushunish ko'nikmasini rivojlantirish

**Vosita:** sabzavotlarning foydali xususiyatlari haqidagi matnlar, tutuq belgisining ishlatalish qoidasi

## Kirish

Tashkiliy qismidan so'ng, o'qituvchi o'quvchilarni quyidagicha kirish bilan jalb qilishi mumkin. O'tgan darsda "Sog' tanda sog'iom aql" bo'limini hamda undagi birinchi mavzu – "Foydali sabzavotlar" mavzusini boshlagandik. Qanday sabzavotlar bor, ular qanday yetishtiladi – shular haqida eslab oldik. Bugungi darsda sabzavotlar haqidagi bilimlarimizni yanada boyitamiz. Ularning qanday foydali xususiyatlari borligi haqida bilib olamiz.

## Asosiy qism

Mavzuga kirishib olish uchun savollar beriladi.

Siz qanday sabzavotlarni bilasiz?

Siz qaysi sabzavotni yaxshi ko'rasiz?

Uning foydali xususiyatini bilasizmi?

Bolalarning javoblaridan so'ng, "Bugun sabzi, bulg'or qalampiri, baqlajon, pomidor, piyoz, sarimsoq sabzavotlarining foydali xususiyatlari haqida o'qiyimiz. Bu sabzavotlar qaysi ovqat larga ishlataladi?" deb so'raladi.

Bolalarning javoblaridan so'ng, darslikning 75–77-betlaridagi matnni o'qituvchi birinchi o'zi ifodali qilib o'qib beradi.

So'ng sinfning bilim darajasi va dars imkoniyatidan kelib chiqqan holda bir sabzavot haqidagi matnni bir o'quvchi o'qiydi.

Sabzi:

### Darslikdagi savollar beriladi.

Bu savolga matndan kelib chiqib javob beradigan bo'lsa, sarimsoqning sog'liqqa foydasi ko'pligi aytildi. Ammo bu qo'yilgan savolga javob bo'la olmaydi. Shuning uchun bolalarga immunitetti ko'taradi, mikroblarni o'ldiradi, degan ma'lumotni og'zaki aytib o'tish kerak.

Savol-javob yakunlangach, darslikning 77-betida keltirilgan qoidaga o'tiladi: Tutuq belgisining ikkita vazifasi bor. Agar tutuq belgisi unli tovushdan keyin kelsa, shu unli cho'zib aytildi. Masalan, ma'no, e'lon.

Agar tutuq belgisi undosh tovushdan keyin kelsa, talaffuz vaqtida shu undoshdan keyin biroz to'xtalish sodir bo'ladi. Masalan, jur'at, sur'at.

Bu qoida alifboni o'rgatish davrida bolalarga tushuntirilgan bo'lishi kerak. Shuning uchun avval bolalarning o'zidan so'rash lozim.

Tutuq belgisi qanday o'qiladi? U nimaga xizmat qiladi?

Keyin mashq daftaring 31-betidagi 2-mashq bajariladi.

**Matnda qo'llangan tutuq belgili so'zlarni ko'chirib yozing. Ularni to'g'ri talaffuz qiling.**

Unga ko'ra matndagi tutuq belgisi qatnashgan so'zlar ko'chirib yoziladi. Buni har bir o'quvchi o'zi mustaqil bajaradi. Hamma bajarib bo'lgach, umumiy tekshirib olish maqsadga muvofiq.

Mashqning javobi: iste'mol, a'lo, ta'm.

### 3-soat

#### Kirish

Tashkiliy qismidan so'ng, o'qituvchi o'quvchilarni quyidagicha kirish bilan jalb qilishi mumkin. O'tgan darsda ayrim sabzavotlarning foydali xususiyatlari haqida bilib oldik. Shuningdek, tutuq belgisi qanday holatlarda ishlatalishini ham eslab oldik. Bugungi darsda "Foydali sabzavotlar" mavzusini davom ettirib, shu mavzuga doir ayrim so'zlarning to'g'ri yozilishi va o'qilishini o'rganamiz.

Oldingi darsni eslash uchun bolalarga quyidagi savollarni berish mumkin:

O'tgan darsda qaysi sabzavotlarning foydali xususiyatlari haqida o'qidik?

Sabzining qanday foydali xususiyati bor ekan? Pomidorning-chi?

54

**Qiziqli musobaqa uyushtiring. Sabzavotlarga ta'rif bering.**

nomi, shakli, ko'rinishi  
ta'mi, foydali xususiyatlari  
qanday taomlar tayyorlanishi

**Sinf uch guruhga bo'linadi:**

- 1-guruh biror sabzavotning nomi, shakli, ko'rinishi haqida so'zlab beradi.
- 2-guruh o'sha sabzavotning ta'mi va foydali xususiyatlari haqida so'zlab beradi.
- 3-guruh undan qanday taomlar tayyorlanishi haqida so'zlab beradi.

**5. Jadvalni to'ldiring.**

#### Asosiy qism

Bugun sizlar bilan shu mavzuga doir ayrim so'zlarning yozilishini o'rganamiz. Darslikning 78-betidagi 3-mashqda so'zlar berilgan. Siz bu so'zlarni mashq daftaringizga ko'chirib yozasiz.

**Audioni tinglash davomida so'zlarni yozing. Aytilishi va yozilishi har xil bo'lgan tovushlarning tagiga chizing.**

Bu so'zlarning ba'zilarida yozilgan harflar talaffuzda boshqacha eshitiladi. Yozuvda **b** harfi yozilsa (harf doskaga yoziladi), talaffuzda **p** (harf doskaga yoziladi) aytildi. Yozuvda **d** harfi yozilsa (harf doskaga yoziladi), talaffuzda **t** (harf doskaga yoziladi) aytildi.

Siz endi diqqat bilan audiomatnni tinglang. Ana shunday yozilishi va o'qilishi farq qiladigan **a** harflarning tagiga chizing.

Audiomatnni tinglab bo'lgach, namuna sifatida o'qituvchi boshidagi 2 ta so'zni doskaga yozib ko'rsatib beradi.

**Betob** so'zida shunday harf bormi, nima deb o'ylaysiz?

Demak, so'z oxiridagi **b** harfi **p** tarzida talaffuz qilinyapti, shuning uchun shu harfning tagiga chizamiz.

Keyingisi **sabzavot** so'zi ekan. Bu so'zda unday holat kuzatilmaydi, shuning uchun hech qanday harfning tagiga chizmaymiz.

Endi keyingi so'zga o'tamiz.

Qolgan so'zlar bittadan o'quvchini doskaga chiqarib yozdiriladi. Talaffuzi va yozilishi farq qilgan harf topiladi va tagiga chiziladi.

Mashqning javobi:

**Betob**, **sabzavot**, **serob**, **ko'p**, **oftob**, **qand**, **mikrob**, **qo'rqib**, **sabab**, **daromad**.

Keyingi mashq egalik qo'shimchasi qo'shilganda **q** tovushining **g'** tovushiga o'zgarishi qoidasi bo'yicha bajariladi.

Mashqni bajarishni boshlashdan avval o'qituvchi doskaga yozib tushuntirishi kerak.

O'zbek tilida **q** tovushi bilan tugagan so'zlarga **-i** tovushi bilan boshlangan qo'shimcha qo'shilganda **-q** tovushi ko'pincha (qishloq, qishloqi) **g'** tovushiga almashadi. Masalan, quloq+**im** qulog'im, buzoq+**i** –buzog'i.

Darslikning 78-betidagi 4-mashqni bajaramiz.

**Topshiriq. Quyidagi so'zlardan foydalab matnni to'ldiring va ko'chiring. Qaysi hollarda **q** harfi **g'** yozilishiga e'tibor bering.**

Avval matnni o'qib, tushirib qoldirilgan so'zlar o'rniga qo'yib chiqiladi. Birinchi berilgan so'zlar o'qiladi. Keyin gaplarga o'tiladi.



Mashqdagi gaplar bolalarga navbat bilan o'qitiladi. Tushirib qoldirilgan so'zlardan qaysini qaysi o'ringa qo'yish birgalikda hal qilinadi.

*Qovoqdan so'zida so'z oxiridagi -q tovushining o'zgarmaganiga e'tibor qaratiladi. U yerda so'zga qo'shilgan qo'shimcha -i bilan boshlanmaganligi ta'kidlanadi.*

## 4-soat

**Darsning maqsadi:** til birliklaridan og'zaki nutqda turli maqsadlarda (predmetning ko'rinishi va xususiyatlarini tavsiflash, amaliyotda qo'llanishi haqida ma'lumot berish) foydalanish ko'nikmasini rivojlantirish.

**Vosita:** sabzavotlarga oid bilimlar asosida musobaqa.

## Kirish

Darsning tashkiliy qismidan keyin o'tilgan darslar mazmuni esga olinadi.

Sizlar bilan "Foydali sabzavotlar" mavzusini o'rganib kelyapmiz. Bugun shu mavzuni boshlaganimizdan beri o'zlashtirgan bilimlaringizni sinab ko'ramiz. Buning uchun, keling, nimalarni o'tganimizni eslab olamiz.

Oldingi darslarda qanday sabzavotlar haqidagi gaplashdik?

Ularning qanday foydali xususiyatlari bor edi?

Sabzavotlar qanday yetishtiriladi?

Ushbu savollarga javob olingach, darsning asosiy qismiga o'tish mumkin.

## Asosiy qism

Darsligingizning 79-betida sabzavotlarning rasmi berilgan.

**Topshiriq. Qiziqarli musobaqa uyushtiring. Sabzavotlarga ta'rif bering.**

Nimalarning rasmi berilgan ekan?

Bolalardan javob olingach o'qituvchi aytadi:

Mana shu sabzavotlarning shakli, ko'rinishi, ta'mi, foydali xususiyatari, ulardan qanday taomlar tayyorlanishi haqida gaplashamiz. Buning uchun uch guruhga bo'linamiz (o'qituvchi sinfni o'ziga va bolalarga qulay bo'lgan shaklda uch guruhga ajratadi va 79-betdagи topshiriq asosida har birining vazifasini tushuntiradi)

Shu o'rinda ta'm bildiradigan so'zlar tushuntirib ketiladi. Buning uchun bolalarga savol bilan murojaat qilinadi:

Yeydigan narsalarimizning ta'mi qanaqa bo'ladi?

Bolalar bergan javoblar umumlashtirilib, doskaga yoziladi: shirin, achchiq, taxir, nordon.

Demak, ta'm shu so'zlar yordamida ifodalanadi. Ammo ayrim sabzavotlarning mazasi bularning birortasiga kirmasligi mumkin. Shunday bo'lsa-da, bu ta'mlarning qaysidir biriga o'xhashi mumkin. Shunda "shiringa yaqin", "achchiqqa yaqin" yoki "ta'msiz" deb berish mumkin.

Guruhalr tayyorlanishi uchun 10 minut vaqt beriladi. Topshiriqni bajarishda har bir guruh a'zosi faol bo'lishi kerakligi aytildi. Kim qaysi sabzavot haqida gapirishini guruh o'zaro kelihib belgilashi mumkinligi tushuntiriladi.

Har bir guruh tayyor bo'lgach, navbat bo'yicha tinglanadi. Guruh a'zolari bir-birining javoblariga qo'shimcha qilishlari ham mumkin.

Musobaqa yakunlangach, har bir guruh, har bir o'quvchi rag'batlantiriladi.

So'ng mashq daftarining 32–33-betlaridagi mashq bajariladi. Bunda bolalarga musobaqa davomida eshitgan ma'lumotlaridan foydalanish kerakligi aytildi.

### Jadvalni to'ldiring.

Namuna:

Mashqni o'quvchilarni bittadan doskaga chiqib yozib butun sind birgalikda bajargani maqsadga muvofiq. Har bir o'quvchining qanday bajargani o'qituvchi tomonidan tekshiriladi.

## 5-soat

**Darsning maqsadi:** tilga nisbatan badiiy didni o'stirish.

**Vosita:** Anvar Obidjonning "Sabzi" she'ri.

## Kirish

Tashkiliy qismdan keyin o'tgan dars eslatildi. O'tgan darsda sabzavotlarni ta'riflashni mashq qildik. Ularning ko'rinishi haqida, nimalarga ishlatalishi haqida qanday gapirib berish kerakligini o'rgandik. Keling, eslab olamiz.

Sabzini qanday ta'riflaymiz? Uning ko'rinishi, mazasi va ishlatalishi haqida nimalarni bilsiz?

Kartoshkaning-chi?

Piyozning-chi?

Bolalardan savollarga javob olingach, darsning asosiy qismiga o'tiladi.

### Asosiy qism

Bugun sizlar bilan Anvar Obidjonning "Sabzi" she'rini o'rganamiz. She'rni o'qishdan oldin sizlarga bir topishmoq aytaman. Qani, kim bilarkan javobini. Yer tagida oltin qoziq.

Nima bu?

Bolalarning javobi tinglangach, savol beriladi:

Qoziq o'zi nima?

Bolalarning javobidan so'ng o'qituvchi umumlashtirib, qoziq nima ekanligini tushuntiradi. Biror uy hayvoni, masalan, it, ot, sigirni bog'lashda ishlataladigan, yerga qoqib qo'yiladigan yog'och yoki tosh bilan metall moslama. U uzunchoq va yerga oson kirishi uchun uchi ingichka bo'ladi. Mana bu rasmdagi qoziq. Uchli tarafi yerga tiqilib, ustidan bolg'a bilan uriladi. Ko'rinishiga qaranglar-chi, u sabziga o'xshab ketyaptimi?

Sabzi ham shunday uchli va yer ostida bo'lgani uchun topishmoqda u "yer tagida oltin qoziq" deb ta'riflangan.

Rangining sariqligi esa oltin rangiga o'xshagan uchun "oltin qoziq" deyilgan.

Endi she'rni o'qiymiz.

Darslikning 80-betidagi "Sabzi" she'rini o'qituvchi o'zi ifodali qilib o'qib beradi.

O'qituvchi o'qib bergandan keyin o'quvchilar navbatma-navbat o'qiydi. Hamma o'quvchi o'qib bo'lgach, she'r ostida berilgan savollarga o'tiladi.

Savolning javobi "sabzi tilidan". Bu jumlaning mohiyatini maydalab tushuntirish shart emas. Bolani obrazni his qila olsa, yetarli. 2-savolning javobi po'stining yupqaligi, dalada yetishtirilishi, oltin qoziq deya ta'rflanishi, yer tagida bo'lishi, o'rada saqlanishi, palovda ishlatalishi kabi xususiyatlaridir. Bu javoblarni bolalardan chiqarib olish uchun har bir qatorni o'qib, nima nazarda tutilganini so'rash kerak. Masalan, "Yupqagina po'stim bor" nima degani, deb so'rash mumkin. Javob: sabzining po'sti yupqa bo'ladi, shu nazarda tutilgan.

"Dalada ko'p do'stim bor" deganda sabzining qaysi xususiyati nazarda tutilyapti? Javob: sabzining dalada yetishtirilishi.

"Maqolda ham yoziqman, o'sha oltin qoziqman" deganda-chi?

Javob: "yer tagida oltin qoziq" degan topishmoqning javobi sabzi ekanligiga ishora qilingan.

"Yotsam yerga qapishib, dumginamdan tortishib" deyapti shoir, sabzi yerga qapishib yotadimi?

Javob: sabzining o'zi yer ostida bo'ladi, yerga mustahkam yopishgan bo'ladi. Barglari esa yer ustida bo'ladi. Bargidan tortib yerdan sug'urib olinadi.

"Tashladilar o'raga, salom palov to'raga" deganda uning yerda qazilgan o'rada saqlanishi va palov qilinganda ishlatalishi aytilgan.

Uchinchi va to'rtinchi savollarga yuqoridagi javoblardan javob chiqarish mumkin.

**Topshiriq. She'rni ko'chirib yozing.**

**Ohangdosh so'zlarning tagiga bitta chiziq chizing.**

Bu mashqning boshidagi 2 ta so'zni o'qituvchi topib beradi. Qolganini o'quvchilar o'zları mustaqil bajarishlari maqsadga muvofiq.

### Sabzi

Yupqagina po'stim bor,  
Dalada ko'p do'stim bor.  
Maqolda ham yoziqman,  
O'sha oltin qoziqman.

Yotsam yerga qapishib,  
Dumginamdan tortishib  
Tashladilar o'raga,  
Salom palov to'raga!  
O'qituvchi mashqlarni tekshirib beradi.

### 6-soat

**Darsning maqsadi:** eshitib tushunish va tushunganlarini yozma nutqda ifodalash ko'nikmasini rivojlantirish.

**Vosita:** "Sabzavotlar nima deydi?" audiomatni.

### Kirish

Darsning tashkiliy qismidan keyin o'tgan darsda nima o'tilgani eslanadi. Anvar Obidjonning "Sabzi" she'rini o'tgandik. Siz uni yodlab kelishingiz kerak. Keyingi darsda hamma shu she'rni yoddan aytib beradi.

### Asosiy qism

Bugun esa sabzavotlarning foydali xususiyatlari haqida yozishni o'rganamiz. Buning uchun avval "Sabzavotlar nima deydi?" audiomatni eshitasiz.



## "Sabzavotlar nima deydi?" audiomatni ni tinglang.

Bolalarga matn eshittiriladi.

### **Sabzi:**

Tarkibimda mashhur A, B, C, D, E vitaminlari bor. Men immunitetni kuchli qilaman. Ko'rish qobiliyatini yaxshilayman. Betob bo'lmay desangiz, meni har kuni iste'mol qiling.

### **Bulg'or qalampiri:**

Xotiram a'lo bo'lsin desangiz, meni ko'proq yeng. Uyqusizlik va kamqonlikda menga murojaat qilavering!

### **Baqlajon:**

Foydali xususiyatlarim haqida insonlar qadimdan biladi. Menda siz uchun zarur bo'lgan moddalar serob. Kaliy, kalsiy, temir va natriy moddalariga boyman.

### **Pomidor:**

Oftob nurida qizarib pishaman. Men yurak va oshqozon uchun eng yaxshi doriman. Qondagi qand miqdorini nazorat qilaman. Taomlariga o'zgacha ta'm beraman.

### **Piyoz:**

Odamlar deyarli barcha taomga meni soladi bakteriya va mikroblar mendan qo'rqib turadi.

### **Sarimsoq:**

Biroz yoqimsiz hidimni aytmasa, foyda keltirishda menga teng keladigani yo'q. Yaxshi yetishtirsangiz, ko'p daromad olib kelaman.

Matn o'quvchilarga kamida uch marta eshittiriladi.

## **Topshiriq. Sabzavotlarning foydali xususiyatlari haqida yozing.**

Doskaga har bir sabzavotning nomi yozildi. Har bir sabzavot bo'yicha bolalardan qanday xususiyati borligini tushunganlari so'raladi. Bitta yoki ikkita sabzavotni tanlab, ular haqida esida qolganlarini daftarga yozib berish so'raladi. Mashq daftarining 34-beti.

O'quvchilarning yozganlarini o'qituvchi tekshirib, rag'batlantiruvchi munosabat bildiradi.

## **7-soat**

**Darsning maqsadi:** so'zlarning tovush tarkibini tahlil qila olish malakasini rivojlanish.

**Vosita:** Anvar Obidjonning "Sabzi" she'ridagi ohangdosh so'zlar va turoq.

## Kirish

O'tgan darsda sizlar bilan sabzavotlarning xususiyatlari haqida yozishni o'rgandik. o'tgan darsdan oldingi darsda Anvar Obidjonning "Sabzi" she'rin o'qib, savollarga javob bergan-dik. Bugun ushbu she'rni yoddan aytib berishingiz kerak.



She'rni ifodali o'qing.

### SABZI

Yupqagina po'stim bor,  
Dala da ko'p do'stim bor:  
Maqolda ham yoziqman,  
O'sha oltin qoziqman.



Yotsam yerga qapishib,  
Dumginamdan tortishib,  
Tashladilar o'raga,  
Salom palov to'raga!



- ① She'rdagi voqealar qaysi sabzavot tilidan aytilyapti?
- ② Sabzavot o'ziga qanday ta'rif beryapti?
- ③ "O'sha oltin qoziqman" deganda nimaga ishora qilyapti?
- ④ Bu sabzavotsiz qaysi milliy taomni tayyorlash mumkin emas?



6. She'rni ko'chirib yozing. Ohangdosh so'zlarning tagiga bitta chiziq chizing.



She'rni yod oling.

80

57

## Asosiy qism

### **Topshiriq. "Sabzi" she'rini yoddan aytib bering.**

Har bir bola she'rni ifodali qilib yoddan aytib berishi kerak. Hamma o'quvchiga rag'batlantiruvchi munosabat bildirish lozim.

### **Topshiriq. Quyidagi so'zlarning ma'nosi bir xilmi? Buni sinfda muhokama qiling. Ular qatnashgan gaplar tuzib yozing.**

Sa'va-sava; sanat-san'at; she'r-sher; qala-qal'a.

Bu so'zlarni o'qituvchi doskaga yozib, har birining talaffuzidagi farqqa urg'u berib aytadi. Nima ma'no bildirishini bolalardan so'raydi.

Bolalarning javoblarini eshitib, oxirida o'zi xulosalaydi.

Sa'va – qushning nomi.

Sava – biror xipchin yo cho'p yordamida tez-tez davomli urish.

Sanat – sanamoq, birovga nimanidir sana-tish.

San'at – narsalarni chiroyli qilib ifodalaydi-gan soha.

She'r – badiiy asar.  
Sher – hayvon.  
Qala – biror narsani biror joyga zinch qilib joylash.  
Qal'a – baland devor bilan o'ralgan shahar.  
Keyin bu so'zlar ishtirokida gap tuzish kerakligi aytildi. Masalan, sa'va chiroyli sayraydi. Buvim paxtani savadi.

Bolalardan o'zları xohlagan uchta so'zni tanlab, gap tuzishi so'raladi. Tuzgan gaplarini mashq daftaringin 35-betiga yozadilar.

o'qituvchi har bir o'quvchining yozganini tekshirib, rag'batlantiruvchi munosabat bildiradi.



## 8-soat

**Darsning maqsadi:** yozma nutq mala-kasini o'stirish.

**Vosita:** sabzavotli sho'rva retsepti matnidagi tushirib qoldirilgan o'rnlarni rasmga qarab to'ldirish.

## Kirish

Darsning tashkiliy qismidan so'ng oldingi darsda nima o'tilgani eslatiladi. Oldingi darsda sabzi haqidagi she'rnı yodladik va tutuq belgisi so'zning ma'nosiga ta'sir qilishi haqida eslab oldik. Bugun sabzavotlarga boy sho'rvaning retseptini yozishni o'rganamiz.

## Asosiy qism

Sho'rva bizning milliy ovqatlarimizdan badir. Sho'rva haqida nima bilamiz? U quyuqmi, suyuqmi? Ichida nimalar bo'ladi? Kimdir sho'rva qilayotganda oyisiga yordam bergenmi?

Mana shu savollarga bolalardan javob olin-gach, darslikning 82-beti ochiladi.

**Topshiriq. Bo'sh o'rnlarga yozib, matni to'ldiring.**

Sho'rvari qanday pishirish haqidagi matn berilgan. Rasmda ko'rsatilgan joylarini yozib to'ldirishingiz kerak. Matnni yozishdan oldin avval uni o'qib chiqamiz.

Matnni o'qituvchining o'zi o'qib beradi. Bo'sh qoldirilgan o'ringa kelganda bolalarga murojaat qiladi. Birinchi rasmda nima ko'rsatilgan?

Piyoz, demak, sho'rvari tayyorlash uchun go'sht solingen suv qaynab, ustidagi ko'pigi olingandan keyin, unga piyoz solish kerak.

Ikkinci rasmda nima ko'rsatilgan? (Xuddi shu tarzda har bir rasm bolalardan so'rab chiqiladi). Matn oxirigacha o'qib beriladi.

Endi mashq daftaringin 35-betini ochib, darslikdagi matnni ko'chiramiz. Bo'sh joyga rasmlardagi ketma-ketlikka qarab, nima solnishini yozib chiqamiz.

Namuna: Keyin piyozni to'g'rab soling. Undan keyin sabzi solinadi. Sabzidan keyin sholg'omni solasiz. So'ng sarimsoq solinadi. Keyin pomidor, keyin esa bulg'or qalampiri solasiz.

Bolalardan aynan shu ko'rinishda matn talab qilmaslik kerak. Bola qanday tushunsa, yozsin, bolaga erkinlik berish zarur.

Mashq bajarib bo'lingach, o'qituvchi tekshirib, har biriga rag'batlantiruvchi munosabat bildiradi.



# XOTIRAM KUCHLI BO'LSIN DESANGIZ

**Nutqiy mavzuning maqsadi:** o'quvchilarda -roq qo'shimchasini qo'llash ko'nikmasini rivojlantirish; ularni -li hamda -siz so'z yasovchilari bilan tanishtirish, matn asosida savol tuzish; o'quvchilarning x va h undoshlarining talaffuzi va imlosiga oid ko'nikmalarini rivojlantirish.

**XOTIRAM KUCHLI  
BO'LSIN DESANGIZ**

Birgalikda "Alifbo zanjiri" o'yinini o'ynang.  
O'yin qoidalari:

O'yin zanjir tarzida tashkil qilinadi. O'yinda hamma ishtiroy etadi.

Birinci o'quvchi: "Men do'kondan asal sotib oldim", – deydi. Ikkinci o'quvchi ham shu gapni takrorlaydi, faqat asal o'rniqa B harfidan boshlanuvchi biron narsani aytdi. Chunki alifboda A harfidan keyin B harfi keladi. Masalan: "Men do'kondan ba-liq sotib oldim". O'yin shu tarzda davom etadi. Kim tartibda adashib ketsa, o'sha yutqazgan bo'ladi.

① Sizningcha, bu o'yin davomida qaysi qobiliyatingiz ko'proq qo'l keldi?  
② Diqqatni jamlash, kuchli xotira, eslab qolish deganda nimalarni tushunasiz?  
③ O'yinni muhokama qiling. Quyidagi savollarga birgalikda javob izlang:

83

✓ O'yinda kimlar tezroq javob berdi?  
✓ Kimlar kattaroq narsa sotib olganini aytdi?  
✓ Kimlar kichikroq narsa sotib olganini aytdi?

## 1-soat

**Darsning maqsadi:** o'quvchilarda -roq qo'shimchasi haqida tasavvur paydo qilish, qiyoslash vositasi sifatida qo'llanishini o'rnatish.

**Vosita:** "Alifbo zanjiri" o'yini.

## DARS JARAYONI

### Kirish

Tashkiliy qismdan so'ng o'qituvchi nutqiy mavzu nomini e'lon qiladi. O'quvchilarni mavzuga olib kirish uchun alifbo tartibi qanday ekanini so'radi. O'quvchilar yakka yoki jo'r bo'lib javob berishlari mumkin.

### Asosiy qism

#### "Alifbo zanjiri" o'yini.

Darslikning 83-betida keltirilgan qoidalar asosida "Alifbo zanjiri" o'yini tashkil etiladi. Barcha sinf o'quvchilari o'z gapini aytib bo'l-gach, ularga quyidagi savollar bilan murojaat qilinadi?

#### 1. Sizningcha, bu o'yin davomida qaysi qobiliyatingiz ko'proq qo'l keldi?

O'quvchilar turli javoblarni berishi kutiladi. Ammo eng to'g'ri javob xotira va tezkorlik hisoblanadi. O'quvchilardan shu javob chiqquncha savol hammadan so'raladi. To'g'ri javob chiqmasa, o'qituvchining o'zi to'g'ri javobni aytadi.

#### 2. "Diqqatni jamlash", "kuchli xotira", "eslab qolish" deganda nimalarni tushunasiz?

Ushbu savolni imkon qadar ko'proq o'quvchidan so'rash tavsiya etiladi. O'quvchilar dan aniq to'g'ri javob kutilmaydi. O'qituvchi javoblarni umumlashtirib to'g'ri javobni e'lon qiladi.

**Eslatma:** to'g'ri javobni e'lon qilgach, kim-larning to'g'ri javobga yaqin kelgani yoki kim-larning javobini to'g'ri deb qabul qilish mumkinligini ham aytib keting.

#### 3. O'yinni muhokama qiling, quyidagi savollarga birgalikda javob izlang:

##### a) o'yinda kimlar tezroq javob berdi?

O'quvchilar kim tezda javob berganini aytishlari kerak bo'ladi. U bir necha kishi bo'lishi mumkin. Agar o'quvchilar aslida sekinroq javob bergan o'qituvchining ismini ham aytishsa, bunday emasligini, aslida u tez javob bermanini tushuntirish lozim.

##### b) kimlar kattaroq narsa sotib olganini aytdi?

O'quvchilar orasidan kimlar hajman katta narsalar sotib olganini topish lozim. Bunda sonning ko'pligi, narsaning og'irligi emas, hajmning kattaligi nazarda tutilmoxda.

##### d) kimlar kichikroq narsa sotib olganini aytdi?

O'quvchilar orasida kimlar hajman kichik narsalar sotib olganini topish lozim. Bunda sonning kamligi, narsaning yengilligi emas, hajmning kichikligi nazarda tutilmoxda.

**Savollar tugadi.** Endi o'quvchilarga quyidagi qoidani tushuntirish mumkin:



*Ikki narsani o'zaro qiyoslaganda so'zga-roq qo'shimchasini qo'shish mumkin. Masa-lan, katta – kattaroq, tez – tezroq. Akmal ham-madan tezroq javob berdi. Nodira sotib olgan narsa menikidan kattaroq.*

Qoidani tushuntirgach, o'quvchilardan misol tariqasida so'z va u qatnashgan gap tuzishlari so'raladi. Imkon qadar ko'proq o'quvchi qam-rab olinishi zarur. Qoidada berilgan namunaviy gaplardan tashqari o'qituvchi ham ikki narsani qiyoslashga oid misollar bilan o'quvchiga yor-dam berishi mumkin.

## 2-soat

**Darsning maqsadi:** o'quvchilarda matn-da ochiq ifodalangan ma'lumotni topa olish ko'nikmasini rivojlantirish, yodning ixtiro qili-nishi hamda uning xotiraga foydasi haqi-da ma'lumot yetkazish.

**Vosita:** yodning ixtiro qili-nishi haqidagi matn va unga oid savollar.



Yod – odam uchun eng kerakli moddal-lardan biri. Yod moddasi dengiz suvlari va o'simliklarda ko'p uchraydi. Shuning uchun dengiz mahsulotlarini tez-tez yeb turish kerak.

Agar sizning tanangizda yod yetishmasa, buqoq kasalligiga chalinasiz. Xotirangiz ham **kuchsizlashib** qoladi. Shifokorlar yodni xoti-raning dorisi deb ham atashadi.

Osh tuzining qadog'iqa qarasangiz, "Yod-langan" degan yozuvni ko'rasiz. Bu **yodli** tuz deganidir.

Esda tuting, yodni o'zingizcha ishlatmang, chunki uning ko'pi **zaharli** hisoblanadi.

Baxtiyor Sherallyev

85

## DARS JARAYONI

### Kirish

Tashkiliy qismidan so'ng o'quvchilarni mav-zuga olib kirish uchun o'qituvchi darslikning 84-betida berilgan savollarni so'raydi:

- Xotira kuchli bo'lishi uchun nima qilish ke-rak deb o'ylaysiz?
- Kuchli xotira qanday foyda keltiradi?

## Asosiy qism

### O'qib tushunish.

O'quvchilar bir yoki ikki gapdan o'qigan hol-da matnni o'qib chiqishadi. Bir o'quvchi o'qiyotgan vaqtida qolgan hamma matnni kuzatib turishi talab qilinadi. Bunda *kuzatib turing, men istagan o'quvchidan davom ettirishni so'rayman* deb ogohlantirish berish va amalda ham shunday qilish yaxshi samara beradi.

Matn 2–3 marta qayta o'qib bo'lingach topsiriqlarga o'tiladi.

### Yozma mashq

O'quvchilar mashq daftarining 36-betidagi 1-topshiriqni bajaradilar. Darslikning 86-beti-da berilgan gaplardan qaysi biri matnga ko'ra to'g'ri ekanini aniqlash va to'g'ri gaplarni ajratilgan joyga namunadagi kabi ko'chirish lozim.

### To'g'ri javoblar:

*Yodning kashf etilishiga tasodif sabab bo'lgan – to'g'ri.*

*Dengiz mahsulotlarida yod moddasi uchramaydi – noto'g'ri.*

*Yod xotirani kuchsiz qiladi – noto'g'ri.*

*Shifokorlarning aytishicha, yod xotiraning dorisi – to'g'ri.*

*"Yodlangan" so'zi "yodli" so'zi bilan bir xil ma'noga ega – to'g'ri.*

*Yodlangan osh tuzida yod moddasi bo'ladi – to'g'ri.*

O'quvchilar yozib bo'lgach, o'qituvchi to'g'-ri javoblarni e'lon qiladi, har kim o'z javobini tekshirib oladi. Xato javoblar nima uchun xato ekanini o'qituvchi matn orqali isbotlab beradi.

## 3-soat

**Darsning maqsadi:** o'quvchilarga -li hamda -siz qo'shimchalari orqali so'z ya-sashni tushuntirish, ushbu qo'shimchalar ni kontekstda to'g'ri qo'llashni o'rgatish, o'quvchilarni qo'shimchalar qo'shish orqali yangi so'z yasash mumkinligi haqidagi xu-losaga olib kelish.

**Vosita:** -li va -siz qo'shimchasini qo'shib sifat yasash mumkin bo'lgan so'zlar



## DARS JARAYONI

### Kirish

Tashkiliy qismidan so'ng o'qituvchi o'quvchilarni mavzuga olib kirish uchun xattaxtaga rangli va rangsiz so'zlarini yozadi hamda ikkala sining ma'nosidagi farq haqida o'quvchilar bilan bahs-munozara o'tkazadi.

### Asosiy qism

#### O'ylab ko'ring.

O'quvchilar bunda darslikning 87-betida rangli chiziqlar ichida berilgan so'zlarning har biriga -li hamda -siz qo'shimchalarini qo'shish hamda ularning ma'nosida qanday o'zgarish bo'lganini tushuntirib berishga urinishlari lozim. O'quvchilardan aniq to'g'ri javob kutilmaydi. O'qituvchi oxirida 87-betdagi qoidani tushuntirish orqali javoblarni umumlashtirib qo'yadi.

**Eslatma:** *to'g'ri javobni e'lon qilgach, kim-larning to'g'ri javobga yaqin kelgani yoki kim-larning javobini to'g'ri deb qabul qilish mumkinligini ham aytib keting.*

**Eslatma:** *shu vaqtgacha o'quvchilar ikkita qoidani o'rgandilar. Ulardan ushbu qoidalarni yoddan aytib berishlarini so'rash taqiqlanadi.*

#### Yozma mashq

#### So'zlarga -li hamda -siz qo'shimchasini qo'shish.

O'quvchilar mashq daftarining 36-betidagi 2-topshiriqni bajarishlari lozim. Bunda ular darslikning 87-betidagi so'zlardan foydalanshadi. Shu so'zlarga -li yoki -siz qo'shimchasi ni qo'shib ko'rishadi va ularni qatnashtirib gap tuzishadi. Har bir o'quvchi ikkita so'zni tanlab, unga -li va -siz qo'shimchalarini qo'shib gap tuzishi lozim. Ya'ni bir o'quvchi ikki so'zning ikki xil shakliga gap tuzadi.

O'quvchilar topshiriqni bajarayotganda ularni kuzatish, xato va kamchiliklarni o'rnida to'g'rilash lozim. Birinchi yozib bo'lgan o'quvchilardan o'z gaplarini o'qib berishini so'rash mumkin.

### 4-soat

**Darsning maqsadi:** o'quvchilarda eshitgan so'zları orasidan tushunmaganlarını yozish hamda ma'nosini lug'atlardan izlash, savollarga javob berishda matnga tayanimish, matn asosida savol tuzish, o'tgan

zamonda sodir bo'lgan voqeani tasvirlash ko'nikmasini shakllantirish.

## DARS JARAYONI

### Kirish

Tashkiliy qismidan so'ng o'qituvchi o'quvchilarni mavzuga olib kirish uchun quyidagi savollarni beradi:

- *Shohrux Rahmonov yoki Davronbek Turdiyev haqida eshitganmisiz?*

- *Xotirasni kuchli odamlar qanday bo'ladi deb o'ylaysiz?*

- *Voqealarni, raqamlarni, o'qigan kitoblarinigizni yaxshi eslab qolishni istaysizmi? Nega?*

**Tushuntirish:** Shohrux Rahmonov hamda Davronbek Turdiyev xotirasni eng kuchli shaxslardan. Ular turli darajadagi musobaqalarda O'zbekiston sharafini himoya qiladi.

### Asosiy qism

#### Tinglab tushunish.

**Muhim.** O'qituvchi taqdim qilingan audioni ovoz kuchaytirgich orqali qo'yib eshittirishi lozim. Lekin turli xil texnik sabablar bilan buning imkoniyati bo'lmaganda, o'qituvchining o'zi adabiy til normalariga amal qilgan holda, ravon va yetarlicha baland ovozda matnlarni o'qib berishi ham mumkin.

O'quvchilarga "Mukammal xotira egasi" matni eshittiriladi.

**Har kim ham xotiraning imkoniyatlaridan yetarlicha foydalana olmaydi. Xotiraning bor kuchidan foydalana olish esa kishiga ustunlik beradi. Ana shunday yo'nalishda ish olib borayotgan hamyurtlarimizdan biri yosh olim Shohrux-Mirzo Rahmonovdir. Uning xotirani o'rganish – mnemonika borasidagi tadqiqotlari butun dunyo mutaxassislarining qiziqishiga sabab bo'immoqda...**

- Men bolaligimdan ajodolarimizning buyuk kashfiyotlari va ularning betakror quvvai hofizasiga, xotira imkoniyatlariga qiziqib kelganman, shu bois miya imkoniyatlaridan to'liq foydalanish haqida bosh qotirib kelaman.

Shohrux mamlakatimizdan yetishib chiqqan ilk mnemonist bo'ldi. Ayni paytda u "Feysbuk" (Facebook) ijtimoiy tarmog'iда Mnemonika.uz sahifasini yuritmoqda. Sahifa orqali xotirani mustahkamlashning turli usullarini o'rganish mumkin.

Shohruxning o'zi ham kuchli xotiraga ega. U besh daqiqa ichida 200 ta sonni, bir daqiqa-

da hech narsani qog'ozda qayd qilmasdan 20 ta so'zni eslab qoladi. Bu esa unga darslarni tez, oson va samarali o'zlashtirishda katta yordam beradi.

Uning fikricha, mnemonika inson uchun juda foydali, ayniqsa, axborot asrida insonlarda axborotni tez qabul qilish va saqlash juda katta ahamiyat kasb etadi.

Shohrux-Mirzo bu boradagi bilim va ko'nikmalarini boshqalar bilan ham bo'lishishni istaydi. Uning "Mukammal xotira yoxud miyangiz qobiliyatlarini qayta kashf qiling" nomli asari bugun ko'pchilik kitobxonlarni o'ziga jalb etib ulgurgan.

Shuningdek, uning ikkinchi kitobi "So'z yodlash san'ati" ham o'quvchilar qo'liga yetib boradi.

Ayni paytda Shohrux-Mirzo xalqaro auditorlik tashkilotida faoliyat yuritadi. Xotirani mustahkamlash borasida Xitoy, Turkiya, Shvetsiyada o'tkazilgan championatlarda ishtirok etgan.

Matn o'quvchilarga 2 marta eshittirilgach, savol-javoblarga o'tish mumkin.

### **1. Sizningcha, mnemonist qanday odam?**

Mnemonika kurslariga qatnaydigan bolallardan tashqari birorta o'quvchi bu savolning javobini bilishi ehtimoldan uzoq. Ushbu savol o'quvchilarga ma'lumotni yetkazish maqsadida qo'yilgan. Ya'ni o'qituvchi bir necha o'quvchidan ushbu savolga javob so'ragach, o'zi to'g'ri javobni aytadi hamda mnemonist kim ekani haqida tushuncha beradi:

Mnemonist – so'zi mnemonika so'zi bilan o'zakdosh. Xotirasi favqulorra kuchli, yoki xotirasini ko'p mashq qildirish orqali narsa-buyumlar joylashuvni, sonlarning tartibsiz joylashgandagi ketma-ketligi, katta hajmili ma'lumotlar, hattoki butun boshli kitoblarni so'zma-so'z eslab qola oladigan odam mnemonist deyiladi. Aslida har kim mnemonist bo'lishi mumkin, buning uchun xotirani juda ko'p mashq qildirish kerak.

2. Audiomatndagi qaysi so'zlarni tushunmadingiz? Ularni daftaringizga yozing. O'qituvchidan so'zlarning ma'nosini so'rang.

Ushbu savol ko'rinishidagi topshiriq o'quvchilarga lug'at bilan ishlashni o'rgatish maqsadida ishlab chiqilgan. O'quvchilar o'zlarini tushunmagan so'zlarini aytadilar yoki yozib ko'rsatadilar. Shundan keyin o'qituvchi "keelinglar, avval o'zimiz so'zning ma'nosini qidirib ko'ramiz, topolmasak, keyin men aytib beraman" deydi. Shundan so'ng, o'quvchilarga darslikning 102-betini ochish aytildi. Shu sa-

hifadan lug'at boshlanadi. Lug'atdan hamma o'zi yozgan so'zni qidiradi.

O'quvchilar bu amalni bajargach, o'qituvchi topilmagan so'zlarni o'qishni so'raydi. Har bir so'zning izohini o'quvchilarga tushuntiradi. O'qituvchining o'zi ham o'quvchilar ko'z o'ngida lug'atdan foydalangani ma'qul.

Mobil telefonlar uchun elektron lug'atlarning havolalari:

- <https://play.google.com/store/apps/details?id=uz.savodxon.izoh>
- <https://play.google.com/store/apps/details?id=com.dictionary.lugat>

Veb – sayt ko'rinishidagi lug'atlar:

- <https://savodxon.uz/izoh>

So'zlar tushuntirib bo'lingach, keyingi topshiriqqa o'tiladi.

**Quyidagi savollarga javob berish davomida fikringizni audiomatndagi ma'lumotlar bilan isbotlang.**

Ushbu topshiriqqa ko'ra, o'quvchilarga 3 ta savol beriladi. Ushbu savollar matndagi ma'lumotlarning o'zgartirilgan yoki boshqa shaklda aytilgan ko'rinishi hisoblanadi. O'quvchilar ushbu ma'lumotlarni audiomatnda eshitganlari bilan taqqoslay olishlari lozim. O'quvchi ushbu savollarga ha yoki yo'q deb javob bersa ham, qabul qilinadi, lekin u o'z javobini audiomatn orqali isbotlashi kerak bo'ladi.

### **1. Shohrux Rahmonov 5 daqiqa ichida 500 ta so'zni eslab qola oladimi?**

Ushbu savolning javobi yo'q. Bu javobni berish uchun o'quvchi matnning quyidagi gaplari ni tushungan bo'lishi lozim:

*Shohruxning o'zi ham kuchli xotiraga ega. U besh daqiqa ichida 200 ta sonni, bir daqiqa da hech narsani qog'ozda qayd qilmasdan 20 ta so'zni eslab qoladi.*

### **2. Xotiraning kuchli bo'lishi darslarni yaxshi o'zlashtirishga yordam beradimi?**

Ushbu savolning javobi – ha. Bu javobni berish uchun o'quvchi matnning quyidagi gaplari ni tushungan bo'lishi lozim:

*Bu esa unga darslarni tez, oson va samarali o'zlashtirishda katta yordam beradi.*

### **3. "So'z yodlash san'ati" kitobini kim yozgan?**

Ushbu savolning javobi – Shohrux Rahmonov. Bu javobni berish uchun o'quvchi matnning quyidagi gaplari ni tushungan bo'lishi lozim:

*Shuningdek, uning ikkinchi kitobi "So'z yodlash san'ati" ham o'quvchilar qo'liga yetib boradi.*



## Qiziqarli mashg'ulot

Audiomatndagi ma'lumotlar asosida 2 ta savol tuzishga urinib ko'ring. Savollaringizni yozib, partadoshingizga bering.

Ushbu topshiriqqa ko'ra o'quvchilar yuqorida matn asosida o'zлari savol tuzadilar. O'qituvchining o'zi bitta namuna ko'rsatib bergach o'quvchilar o'z savollarini tuzishga kirishadilar. O'ylab olishlari uchun o'quvchilarga 3 minut vaqt beriladi. O'quvchilar istasa yozma, istasa og'zaki tarzda o'z savollarini partadoshiga beinishi mumkin. Partadoshi esa javob beradi.

**Eslatma:** ushbu topshiriqning yuki biroz og'ir. Shuning uchun bu topshiriqni hamma bajarishi shart emas, hammadan savol tuzishni qat'iy talab qilmang. Savol tuza olmagan o'quvchi boshqalarning savoliga javob bersin.

### Yozma mashq

**"Xotiramda qolgan voqeа"** mavzusida matn tuzing. Matningizda quyidagi ma'lumotlar bo'lsin:

1. Ushbu voqeа qachon sodir bo'lgani.
2. Voqeа nima uchun yodingizda qolgani.
3. Voqeа sabab nimalarni his qilganingiz.

O'qituvchi darsga tayyorlanish vaqtida ushbu topshiriq uchun matn tuzib oladi. Shu topshiriqqa kirishishlardan oldin namuna sifatida o'qib beradi.

**Eslatma:** tuzgan matningiz o'quvchilar uchun tushunarli, qo'shma gaplardan xoli, qiziqarli bo'lsin. Ta'limiyl maqsadni ko'zlaganining uchun voqeani to'qishingiz ham mumkin.

**Muhim:** o'quvchilarning yozganlarini yi-g'ib oling va darsdan so'ng sinchiklab tek-shiring (qizil rangli ruchkada). Ushbu tek-shirish keyinchalik yordam beradi.

### 5-soat

**Darsning maqsadi:** o'quvchilarga x va h tovushlarining talaffuzdagi farqli jihatlarini tushuntirish, namuna asosida so'zlarni o'zgartirib, she'rni qayta yozish, rasmlar va so'zlarni o'zaro moslashtirish ko'nikmalari ni rivojlantirish.

**Vosita:** "H"ning aytganlari she'ri, rasmalar.

## DARS JARAYONI

### Kirish

Tashkiliy qismdan so'ng o'quvchilar darsga kirishib olishlari uchun o'qituvchi xattaxtaga to'rtta so'z yozadi: shox, shoh, xiyla, hiyla. O'qituvchi o'quvchilardan ushbu so'zlarda qanday farq ko'rayotganini so'raydi. O'quvchilar javobini eshitgach, har bir so'zning ma'nosi tushuntirib beradi:

**shox** – o'simlik yoki daraxtning tanasidan o'sib chiqadigan qismi. Ba'zi hayvonlarning boshidan o'sib chiqadigan a'zo ham shox deyiladi. Qaysi hayvonlarning shoxi bor?

**shoh** – podshoh, qiro.

**xiyla** – ma'lum darajada, ancha, ko'pgina.

**hiyla** – nayrang, aldash, firibgarlik.

Shundan so'ng darsning asosiy qismiga o'tiladi.

Audiomatndagi ma'lumotlar asosida 2 ta savol tuzishga urinib ko'ring. Savollaringizni yozib, partadoshingizga bering.

3. "Xotiramda qolgan voqeа" mavzusida matn tuzing. Matningizda quyidagi ma'lumotlar bo'lishiga e'tibor qaratating:

- ① ushbu voqeа qachon, qayerda sodir bo'lgani;
- ② voqeа nima uchun yodingizda qolgani;
- ③ voqeа sabab nimalarni his qilganingiz.

#### "H"NING AYTGANLARI

Bormanmi, yo'qmanmi?

Menga qara, hoy o'quvchi,  
Topshiriqqa qulq sol-chi.  
Birin-ketin so'zlar kelar,  
Oxirida bo'sh joy bo'tar.



So'lzarda bor bo'lsam, BOR de,  
Yo'q bo'lsam-chi, albat, YO'Q de.

Baho, bahor, Bahora  
Hatto, anhor, mahorat  
Axloq, xabar, xabardor  
Xorij, xola, xaridor

63

89

### Asosiy qism

O'quvchilardan darslikning 89-betini ochishlari hamda "H" ning aytganlari she'rini ovoz chiqarmay o'qib olishlari so'raladi.

O'quvchilar o'qib olgach, o'qituvchining o'zi she'rni x va h undoshlarining talaffuziga e'tibor bergen holda, ravon va ifodali tarzda o'qib beradi. She'r o'qish davomida o'quvchilardan qatorlarni kuzatish, so'zlarni qanday talaffuz



qilinayotganiga e'tibor qilib turish so'raladi. She'rda 7-, 8-, 9-, 10-qatorlar oxirida bo'sh joy mavjud. O'qituvchi she'rning shu joyiga kelgan to'xtaydi. She'r matnidagi topshiriqqa ko'ra, -o'sha qatordagi so'zlarda "h" tovushi bo'lsa -BOR deb, yo'q bo'lsa -"YO'Q" deb jo'rovozda javob berishlari kerak bo'ladi.

**Eslatma:** she'rni ikki marta o'qib berishingiz ham mumkin.

She'r o'qib berilgach savol va topshiriqlarga o'tish mumkin:

**1. She'rni o'qituvchingizdek o'qishga harakat qiling.**

O'quvchilardan bir nechtasidan she'rni ovoz chiqarib o'qib berish so'raladi.

**2. h va x tovushlarining talaffuzida qanday farqni sezyapsiz? Tushuntirishga harakat qiling.**

**Eslatma:** o'quvchi ushbu tovushlarning farqlarini to'liq tushuntirib berishi shart emas, undan bu – bo'g'iz undoshi, bunisi – chuqr til orqa kabi izohlarni talab qilmang. Shunchaki bittasini aytganda sal tomoq qirilyapti, unisida bunaqa bo'lmayapti desa ham, yetarli.

**3. 7–10-qatordagi so'zlarning qanday yozilishini eslab qoling.**

O'quvchilardan she'r matniga qarashni va 7-qatorda qanday so'zlar borligini aniqlashni so'rash hamda bittadan o'quvchiga xattaxtaga shu so'zlardan birini yozib berishni buyurish lozim. Har bir qatorda uchtadan so'z bor, shunda jami 12 ta o'quvchi xattaxtaga so'z yozadi. O'quvchilarga shu so'zlarning yozilishini yaxshilab eslab qolishlari kerakligini aytish lozim.

### Yozma mashq

**Mashq daftaringizga "X"ning aytganlarini sarlavhali she'r yozing. Uning shaklini yuqoridaq she'rga o'xshatishingiz mumkin.**

Bunda o'quvchilar she'rning 7–10-qatorlaridagi so'zlarni takror ko'chirmasliklari, o'zlarini bilgan va "h" yoki "x" ishtirok etgan so'zlarni yozishlari kerak.

O'quvchilar she'rni mashq daftariga yoki o'zlarining boshqa daftariga yozishlari mumkin.

O'quvchilar she'rni yozib bo'lgach, bir necha o'quvchidan yozgan she'rini o'qib berishi so'raladi. Qolgan o'quvchilar BOR yoki YO'Q so'zini aytib turishi kerak bo'ladi.

Yozib ulgurmagan o'quvchilarga she'rni

uyda yakunlab kelish topshirig'i berilishi mumkin.

**Yozma mashq. Rasmlı diktant.**

Darslikning 90-betida rasmlar berilgan. O'quvchilar shu rasmida nima ko'rayotgan bo'lsa, o'shani mashq daftarining 37-betidagi 5-topshiriq uchun ajratilgan joyga yozishlari kerak.

## 6-soat

**Darsning maqsadi:** o'quvchilar eshitgan so'zini to'g'ri yoza olishi, tovushlar va harflarning o'zaro moslashuvini yaxshiroq anglashlariga erishish. O'quvchilarda ko'p bosqichli ko'rsatmalarni tushunish ko'nikmasini rivojlantirish.

**Vosita:** "Qulog'imga ayt" o'yini.

## DARS JARAYONI

### Kirish

Tashkiliy qismidan so'ng o'qituvchi o'tgan darsda o'z she'rini o'qib berishga ulgurmagan o'quvchilardan she'rlarini o'qib berishni so'radi. Qolganlar kerakli o'rinda BOR yoki YO'Q deb turishlari kerak bo'ladi.

Shundan so'ng darsning asosiy qismiga o'tish mumkin.

### Asosiy qism

**Yozma mashq.**

**Do'stlaringiz va sinfdoshlaringizning ismi hamda familiyasida "h" yoki "x" tovushi qatnashganmi? Ularni yozing.**

O'quvchilar sinfdoshlari, do'stlari, oila a'zolarining ism va familiyalarini o'laydilar hamda h yoki x tovushi borlarini yozadilar. Bunda o'quvchilarga ushbu ikki tovush qatnashmagan ism va familiyalarni yozish shart emasligi tushuntiriladi.

**Eslatma:** o'quvchilar yozgan so'zlarni tekshirib, xato va kamchiliklarni bartaraf qilishlari ga ko'maklashing.

**"Qulog'imga ayt" o'yini.**

O'yin shartlari va o'tkazilish tartibi darslikning 91-betida batafsil tushuntirilgan. O'quvchilarning qoidalarga hamda tartibga amal qilishini nazorat qiling.



## 7-soat



- ① She'rn ni o'qituvchingizdek o'qishga harakat qiling.
- ② "H" va "x" tovushlarining talaffuzida qanday farqni sezyapsiz? Tushuntirishga harakat qiling.
- ③ 7–10-qatordagi so'zlarning qanday yozilishini eslab qoling.



4. Mashq daftaringizga "X"ning aytganlari" sarlaviali she'r yozing. Uning shaklini yuqorida she'rga o'xshatishingiz mumkin.



5. Rasmi li diktant.



90

## Xulosa

Bir soatlik dars davomida nimalar o'tilganini bolalardan qisqacha so'rab olish, ularning javoblarini to'ldirish bilan darsga xulosa yasaladi.

Darsning oxirida keyingi soatda nima qilinishi haqida aytish muhim: *avvalgi darslarning birida yozgan matnimiz – "Xotiramda qolgan voqeasi" dagi xatolarni to'g'rilaymiz.*

**Darsning maqsadi:** o'zini o'zi tahrir qilish, xatolarni to'g'rilash ko'nikmalarini rivojlantirish.

**Vosita:** o'quvchi yozgan va o'qituvchi tekshirgan "Xotiramda qolgan voqeasi" matni.

## DARS JARAYONI

### Kirish

Tashkiliy qismidan so'ng o'qituvchi o'quvchilarga bugungi qilinadigan ishni tushuntiradi:

Sizlar "Xotiramda qolgan voqeasi" matnini yozib bergen edingiz. Men uni yaxshilab tekshirib, xatolarini qizil rangli ruchkada belgilab qo'ydim. Endi sizlar o'sha xatolaringizni to'g'rilab matnni qayta yozishingiz kerak.

### Asosiy qism

#### Yozma mashq.

Ushbu dars to'liq yozma bajariladi. O'quvchilar o'qituvchi tomonidan tekshirilgan matnni mashq daftaringning 38-betida ajratilgan joyga qayta ko'chirishlari lozim. Bunda o'quvchilar avvalgi xatolarini takrorlamaslikka e'tibor qaratishlari kerak bo'ladi.

# O Q T E R A K M I , K O ' K T E R A K ?

**Nutqiy mavzuning maqsadi:** o'quvchilarning sport va harakatli o'yinlar bilan bog'liq tasavvurlarini kengaytirish, mazkur mavzu doirasida ishlatalidigan so'z, so'z birikmalarini va gaplarni to'g'ri tushunish va to'g'ri qo'llay olish bilan bog'liq nutqiy ko'nikmalari ustida ishlash. Og'zaki va yozma nutq, tinglab tushunish va o'qib tushunishga oid nutqiy ko'nikmalarini rivojlantirish.

## DARS JARAYONI

### Kirish

Tashkiliy qismidan so'ng o'qituvchi bugungi darsda yangi mavzu boshlanganligini, uning nomi “Oq terakmi, ko'k terak?” ekanligini aytib, ushbu mavzu bilan bog'liq mavjud tasavvurlarni savol-javob yordamida aniqlab oladi. Quyidagi savollar bilan murojaat qilish mumkin:

1. “Oq terakmi, ko'k terak?” o'yini bilan tanishmisiz? Uning qoidalari haqida gapiring.

2. Nima deb o'ylaysiz, ushbu mavzu ostida biz nimalar haqida suhbatlashamiz?

3. Milliy o'yinlar sizlarni qiziqtiradimi?

Ushbu savollar o'quvchilarni dars jarayoniga olib kirish uchun beriladi, o'qituvchi o'quvchilarning erkin holda javob berishlari uchun imkon berishi, ularni diqqat bilan tinglashi, og'zaki nutqini kuzatib turishi lozim.

Shundan so'ng o'quvchilarning e'tibori darslikda berilgan rasmlarga qaratiladi.

### Asosiy qism.

Darslikda berilgan rangli rasmlar asosida suhbat tashkillashtiriladi. O'quvchilar rasmni diqqat bilan tomosha qiladilar, rasmda qanday milliy o'yinlar tasvirlanganligini og'zaki tushuntirib beradilar. Rasmlarni tasvirlash jarayonida o'qituvchi har bir boladan o'z fikrini izohlab berishni so'rashi kerak.


### Darslikdagi savollar beriladi.

1. Kurash. 2. Ko'pkari, uloq. 3. Bekinmachoq. 4. Arqon tortish.

1-savolda o'quvchilardan rasmdagi o'yin nomlarini topish so'ralgan. Javob berish jarayonida har bir javobning izohi so'raladi, ya'ni “Nima uchun aynan kurash?” yoki “Nima uchun ushbu rasmda ko'pkari tasvirlangan deb o'ylaysiz?” singari qo'shimcha savollar beriladi.

2-savolda esa o'quvchilardan qo'shimcha o'yin nomlarini aytish so'ralgan. Savolga javob berish jarayonida javoblarda imkon qadar harakatli o'yinlarning nomlari berilishiga alohida e'tibor qaratish, shu mazmundagi javobni olishga yo'naltirib borish lozim.

3-savolda esa o'quvchilar o'zlari o'ynaydigan o'yinlar haqida gapirib berishlari kerak. Bunda o'quvchilar qo'shimcha ravishda o'zlari o'ynaydigan o'yinlarning qoidalari haqida ham ma'lumot berishlari mumkin.



### 1-soat

**Darsning maqsadi:** rasmlar asosida o'quvchilarning og'zaki nutqini shakllantirish, milliy o'yin nomlarini ifodalovchi nutqiy birikmalar bilan tanishtirish, ulardan foydalanishga o'rgatish.

**Vosita:** milliy o'yinlar bilan bog'liq bo'lgan rangli rasmlar asosida savol-javob, rasm asosida gap tuzib yozish mashqlari.



Shundan so'ng rasmida berilgan o'yinlar ning nomlari mashq daftariga yoziladi.

### **Yozma mashq.**

#### **So'zlardan foydalanib 4 ta gap tuzing.**

Darslikda berilgan so'zlardan foydalanib gap tuziladi. Ushbu jarayonda o'quvchilardan avval mavzuga oid so'zlardan og'zaki nutqda gap tuzish so'raladi. So'ng ushbu gaplarni yozishni aytish mumkin. Gaplarni tuzish jarayonida so'zlarni ketma-ketlikda bog'lay olishga, tinish belgilardan o'rini foydalana olishga alohida e'tiborni qaratish zarur.

## **2-soat**

**Darsning maqsadi:** matn yordamida o'quvchilarning yozma va og'zaki nutqini rivojlanтириш, matn hamda tasvirlarni o'zaro moslashtira olishga oid nutqiy ko'nikmalarini rivojlanтириш.

**Vosita:** matn, matn asosida suhbat, rasm-larni matnda berilgan ma'lumotlar bilan bog'lay olish mashqlari.

## **DARS JARAYONI**

### **Kirish**

Tashkiliy qismdan so'ng o'qituvchi bugun "Lanka" o'yini haqidagi ma'lumotlar bilan tanishilishini aytadi. Mavzu haqidagi mavjud tasavvurlarni aniqlash maqsadida quyidagi savollar bilan murojaat qiladi:

1. "Lanka" o'yini haqida eshitganmisiz?
2. Ushbu o'yn haqida nimalarni bilasiz?
3. Uni kimlar o'ynaydi?
4. Siz ham shu o'ynni o'ynaganmisiz?

### **Asosiy qism.**

Suhbatdan so'ng o'quvchilar darslikda berilgan matnni diqqat bilan bir necha marta o'qiylilar.

Matnni o'qish jarayonida o'qituvchi o'quvchilar nutqida uchragan kamchiliklarni o'zi uchun qayd etib boradi. Matn to'liq o'qib bo'lingach, kamchilikka yo'l qo'ygan o'quvchilarning xatolari tuzatiladi. Shundan so'ng o'qituvchi matnni qayta o'qib beradi. **Matn o'qib berilgach, darslikdagи savollar beriladi.**

1-savolga javob berish jarayonida o'quvchilar "lanka" o'ynini yana qanday atash mumkinligi haqida fikr bildirishlari kerak. O'yn qoidalari va harakatlariga asoslangan holda "Qarabtep", "Tepki" yoki shunga o'xshash nomlarni tavsiya qilishi mumkin. Shuningdek, ushbu o'yining harakatlari, unda ishtiroy etadigan vositalar va

maqsadi asosida uni yana qanday atash mumkinligini ijodiy topshiriq sifatida berish mumkin. O'quvchilar o'zları ijod qilgan holda o'yinga yangicha nom topishlari ham mumkin.

2-savolga javob berishda o'quvchilar lanka o'yini asosan kuz faslida o'ynalishini aytadilar. Nima uchun kuzda o'ynalishi tushuntiriladi. Kuzda hosil bayrami arafasida shunday o'ynilar tashkillashtirilganligi aytildi. Shuningdek, bu o'yn qadimda xalqimiz orasida Navro'z bayramlari va xalq sayllarida o'ynalganligi ham qo'shimcha ma'lumot sifatida aytib o'tiladi.

3-savolga javob berishda o'quvchilarning o'qib tushunish darajasi sinovdan o'tkaziladi. O'quvchilar matn mazmuniga asoslangan holda ushbu savolga javob berishlari mumkin. Savolga javob berishda "to'g'ri nafas olishni o'rganadi" tariqasida berilgan ma'lumotlarni aynan savolga javobni ifodalashi uchun "nafas yo'llarini chiniqtiradi" singari holatda aytish kerakligi tushuntiraildi. Qolgan javoblar ham yurak, oshqozon singari aynan tana a'zolarini bildiruvchi so'zlar bilan ifodalishiga e'tibor qaratiladi.

4-savolda "lanka" qo'yning bir parcha junli terisiga metall parchasini mahkam bog'lab yasalishi tushuntiriladi. O'qituvchi ushbu savolga javob topishda bolalarga yordam beradi. Monitor orqali uning ko'rinishini rasmlar orqali tushuntirib berishi ham mumkin.

5-savolda "lanka" o'ynining xalq o'yini deb atalashiga izoh berish so'raladi. Buning uchun o'qituvchi xalq o'ynlari haqida ozgina ma'lumot berib, keyin "lanka" o'yini o'zbek xalqining milliy o'ynlaridan biri ekanligini tushuntirishi kerak.

6-savolga javob berishda o'quvchilar YUNESKO haqida eshitgan bo'lishlari, ammo uning qanday tashkilot ekanligini bilmasliklari mumkin. O'qituvchi YUNESKO haqida qo'shimcha ma'lumot berib ketadi.

YUNESKO – Birlashgan Millatlar Tashkilotining maorif, fan va madaniyat masalalari bilan shug'ullanuvchi tashkiloti, xalqaro hukumatlararo tashkilot.

Bugungi kunda ushbu o'yn juda ko'p davlatlarda yangi nom ostida o'ynalishi haqida qo'shimcha ma'lumot beriladi. Futbol o'ynida ham ayrim harakatlar lanka o'yining harakatlariga mos kelishi tushuntiriladi.

Suhbat davomida o'qituvchi lanka o'yining qanday o'ynalishini, bu o'yn ko'proq oldingi zamonalarda o'ynalganini, ammo hozirgi kunda ham bu o'ynni o'ynash juda qiziqarli ekanligini aytadi. O'quvchilarda ushbu o'ynni o'ynashga qiziqish uyg'otadi.

**Yozma mashq.****Rasmalarga mos ma'lumotlarni matndan topib yozing.**

Ushbu mashqni bajarish uchun o'qituvchi avval rasmdagi narsalarning nomini so'radi. Shundan so'ng ushbu narsa nomlari bilan bog'liq ma'lumotlar matnning qaysi qismida berilganligini aniqlash uchun matnni qayta o'qish so'raladi. Berilgan matnning ikkinchi xatbosida ushbu rasmlar bilan bog'liq ma'lumotlar keltirilgan. Har bir rasm qaysi ma'lumot bilan bog'liqligi alohida-alohida so'ralgandan so'ng, ushbu ma'lumotlarni daftarga yozish so'raladi. Gaplarni yozish jarayonida o'quvchilar hussixat qoidalariga asoslangan holda ko'chirishlari kuzatilib, nazorat qilib boriladi.

**3-soat**

**Darsning maqsadi:** o'quvchilarning tinglab tushunish, yozma va og'zaki nutq bilan bog'liq nutqiy ko'nikmalarini shakllantirish, sport o'yinlariga oid so'z, so'z birikmalari ni bilan tanishtirish, ularni og'zaki va yozma nutqda qo'llashga oid mashq va topshiriplar ustida ishlash. Berilgan audiomatn orqali matnni qismlarga ajratish, berilgan savollarga asosli javoblarni bera olishga o'rgatish.

**Vosita:** audiomatn, matn asosida suhbat, savol-javob, gap tuzib yozish mashqlari.

**DARS JARAYONI****Kirish**

Tashkiliy qismdan so'ng bugungi darsda sport o'yinlari haqidagi matn bilan tanishish aytildi. O'quvchilarni mavzuga olib kirish uchun quyidagi savollar bilan murojaat etiladi.

1. Sport o'yinlari deganda qanday o'yinlar nazarda tutiladi?
2. Nima uchun odamlar sport o'yinlari bilan shug'ullanadi?
3. Siz qanday sport o'yinini o'ynashni bila-siz?
4. Sport o'yinlari ustasi bo'lgan championlar haqida nimalarni bilasiz?

Suhbatdan so'ng o'quvchilarga audiomatni diqqat bilan tinglash kerakligi aytildi.

**Asosiy qism.**

Audiomatn eshittiriladi. Agar imkon bo'lmasa, o'qituvchi o'zi baland ovozda ifodali o'qib eshittiradi.

**Shaxmat** – ikki kishilik mantiqiy o'yin. Bu o'yin Hindistonda paydo bo'lgan. O'yindan maqsad – raqib shohini mot qilish. 64 ta katakli taxtada o'ynaladi. Shaxmat donalari oq va qora rangda bo'ladi. Shaxmatda musobaqa paytida ma'lum sondagi yurishlar qilinishi uchun vaqt belgilanadi. Bu o'yin aqlni charxlaydi.

**Futbol** – sport o'yinidir. Bu o'yinda ikki ta jamoa bellashadi. Har bir jamoada o'nta o'yinchi va bitta darvozabon bo'ladi. O'yindan maqsad to'pni raqib darvozasiga kiritish. O'yin to'g'ri to'rtburchak shaklidagi maydonda o'tkaziladi. Futbol o'yini 90 daqiqa davom etadi. 45 daqiqadan so'ng jamoalar o'rin almashishadi. Darvozaga eng ko'p to'p kiritgan jamoa g'olib bo'ladi.

1. Futbolni necha kishi o'ynaydi?
2. Bu o'yin qayerda o'ynaladi?
3. Futbol o'yinida g'olib qanday aniqlanadi?



1. Xokkey qayerda o'ynaladi?
2. Xokkeyda nechta jamoa bellashadi?
3. Xokkey nima yordamida o'ynaladi?



1. Tennis nima yordamida o'ynaladi?
2. Tennis qanday o'yin?
3. Bu o'yinning salomatligimizga qanday foydasi bor?



4. Mashq daftaringizda berilgan so'zlar dan foydalab, to'rtta gap tuzing.

**Xokkey** – qishki sport turlarining eng mashhuri hisoblanadi. Ushbu o'yin muz ustida o'ynaladi. Xokkeyda sportchilar ikki guruha bo'linadi. Har bir jamoada 11 kishi bo'ladi. O'yinchilar maxsus kiyimlar kiyishadi. Muz ustida tayoqcha yordamida to'p surishadi. Shaybani raqib jamoasining darvozasiga kiritish lozim.

**Tennis** – sport o'yinidir. Ikki kishi yoki ikki juftlik orasida o'ynaladi. O'yinchilar to'rli raketka bilan rezina to'pchanini raqibining maydoniga urib tushirishlari kerak. Olimpiya o'yinlari qatoriga kiritilgan. Bu o'yin "Qiollar o'yini"



deb ham ataladi. Tennisni muntazam o'ynash ko'z uchun doimo foydali hisoblanadi.

Matn diqqat bilan tinglangach, o'quvchilar e'tibori darslikda berilgan rasmlarga qaratiladi.

Quyidagi savollar beriladi:

1. Rasmlarni diqqat bilan kuzating.
2. Ushbu matn nima haqida?
3. Ushbu matnda nechta sport turi haqida so'z boradi?

Shundan so'ng darslikdagi savollar asosida matnning har bir qismi bo'yicha suhbat olib boriladi.

Har bir savol o'quvchida ma'lum bir ko'nikmaning qay darajada shakllanganligini sinovdan o'tkazish hamda uni rivojlanterish bilan bog'liq holda berilgan. O'quvchilar ushbu savollarga javob berishda matndagi esda qolgan ma'lumotlarni qayta takrorlashlari kerak bo'laadi. Agar o'quvchilar matn uchun berilgan savollarga javoblarni berishda qiyalsalar, o'qituvchi matnni qismlarga ajratib, qayta qo'yib eshittirishi mumkin.

O'quvchilar ushbu javoblarni berishda aniq faktlarga asoslanish kerakligini tushunib olishlari kerak.

Shundan so'ng daftardagi mashq bajariladi.

### **Yozma mashq.**

### **So'zlardan foydalanib 4 ta gap tuzing.**

### **Shaxmat, futbol, tennis, xokkey.**

Gap tuzishda matnda berilgan ma'lumotlardan foydalanish so'raladi. Bunda o'quvchilar sport o'yinlari haqidagi ma'lumotlarni o'zar o'rgatish, shunga ko'ra ularni yozishlari nazorat qilinadi. Gap tuzib yozishga qiyonalayotgan o'quvchilar bilan avval og'zaki suhbat quriladi.

### **4-soat**

**Darsning maqsadi:** milliy xalq o'yinlari bilan bog'liq tasavvurlarni kengaytirish, og'zaki va yozma nutqda xalq o'yinlari bilan bog'liq so'z, so'z birikmalarini qo'llashga o'rgatish, qofiyadosh so'zlar, ularning she'r matnida qo'llanishining ahamiyatini tushuntirish.

**Vosita:** milliy xalq o'yinlari nomlari keltirilgan she'r matni bilan tanishish, qofiyadosh so'zlarni aniqlash va ularning ahamiyatini tushuntirish mashqlari.

## **DARS JARAYONI**

### **Kirish**

O'qituvchi tashkiliy qismda bugungi darsda milliy xalq o'yinlari haqidagi she'r bilan tanishishni aytib o'tadi. She'r matni bilan tanishishdan oldin quyidagi savollar bilan murojaat etadi:

1. Qanday milliy xalq o'yinlarini bilasiz?
2. Siz ulardan qaysi birlarini o'ynagansiz?
3. Birorta milliy xalq o'yinining qoidalar haqida gapirib bera olasizmi?

Ushbu savol-javob yordamida o'quvchilar yangi mavzuga olib kirladi, milliy xalq o'yinlari haqidagi tasavvurlar aniqlanadi.

### **Asosiy qism**

**"Meshpolvonning o'yinlari"** she'rini avval o'qituvchi o'qib beradi. O'qish jarayonida o'quvchilar she'rning o'qilishiga e'tibor beradilar. Shundan so'ng 5–8 nafar o'quvchidan ushbu she'rni qayta o'qishni so'rash mumkin.

She'r matni o'qib berilgach, darslikdagi savollar beriladi.

69

 MESHPOLVONNING O'YINLARI



Katta bo'lib qoldik endi,  
Bizga bopi – eshakmindi.  
Bilmayman deb jahlim qo'zma,  
Axir, mashhur quloqcho'zma.  
– Kam emasdир ulog'ing'dan,  
O't chaqnaydi qulog'ing'dan.  
Hammasini qiyoslab ko'r,  
**Mo'ri-mo'ri** o'yini zo'.  
Bordir yana **bekinmachoq**,  
Eng qaltisi – **urshapaloq**.  
Bo'shang qizni qilar qoqvosh  
**Hakalakam** minan to'ptosh.  
O'yanaganlar **oq-ko'k** terak  
Chopa olar naq pirpirak.  
E, bularni kim bilmabdi –  
Bu dunyoda tug'ilmbabdi.

*Anvar Obidjon*

1 She'rda qaysi o'yin nomlari keltirilgan?  
2 Ushbu o'yinlardan qaysilarini o'ynagansiz?  
3 Ayting-chi, "minan" so'zi to'g'ri qo'llanganmi?  
4 She'rni yod oling.

Ushbu savollarga javob berishda o'quvchilar she'rda olgan taassurotlarini ifodalashi muhim hisoblanadi.

1-savolga javob berishda she'rda keltirilgan o'yin nomlari birma-bir sanalishi kerak.



O'quvchilarning e'tibori she'r matnida ajratib ko'rsatilgan so'zlarga qaratiladi. Har bir o'yin nomi aytiganda ushbu o'yin bilan bog'liq qisqa savol-javob o'tkaziladi. Masalan, "Bu o'yin haqida eshitganmisiz?", "O'yining qoidalari haqida nimalarni bilasiz?" kabi savollar bilan murojaat etiladi. Ushbu savollarga javob berish, o'quvchilarning javoblarini tasdiqlash yoki ularga qo'shimcha ma'lumot berish uchun o'qituvchi darsga ushbu o'yinlar haqidagi ma'lumotlar bilan tanishgan holatda kirishi, ulardan ayrimlari uchun qo'shimcha rangli rasmlar olib kelish mumkin.

2-savolda esa o'quvchilar o'zлari o'ynagan o'yinlar haqida gapiradilar. Avval she'r matnida berilgan o'yinlardan qaysilarini o'ynashlari haqida gapirib beradilar. Ayrim darsda faol ishtirok etmayotgan o'quvchilardan esa o'zлari uchun tanish o'yinlarni qanday o'ynashlari haqida so'rab baholash mumkin.

3-savolga javob berishda "minan" so'zi shoirning so'z qo'llash uslubi bilan bog'liqligini, ushbu so'z shevaga oid so'z ekanligini aytib o'tishi kerak. Buning uchun o'qituvchi sodda misollar yordamida shevaga oid so'zlarni aytib o'tadi, ana shundan so'ng "minan" so'zining aslida "bilan" ekanligini aytib, uning she'rдagi vazifasiga to'xtaladi.

She'rni yod olish topshirig'i uyga vazifa sifatida beriladi.

### **Yozma mashq.**

#### **She'r matni asosida quyidagi so'zlarni moslashtirib yozing.**

Mashhur o'yin – quloqcho'zma.

Eng zo'r o'yin – mo'ri-mo'ri.

Eng qaltisi – urshapaloq.

Meshpolvonga mos o'yin – eshakmindi.

Ushbu topshiriqni bajarish orqali o'quvchilarda o'qish savodxonligi bilan bog'liq ma'lumotlarni izohlash ko'nikmasi shakllantiriladi. O'yinlarga berilgan qisqa ta'riflarning hammasi ham she'r matnidan aynan olinmaganligi uchun o'quvchilar ushbu topshiriqni bajarishga qiynalishlari mumkin. Shu o'rinda o'qituvchi ushbu ta'riflarni moslashtirish uchun ularning mashqdagi ifodasi va she'rдagi ifodasini o'zaro taqqoslab yordam ko'rsatishi kerak. Masalan, eshakmindi o'yini bizga bop tarzida ta'riflangan, o'qituvchi biz so'zining kimga ishora qilayotganligini o'quvchilardan so'raydi, shu tariqa ushbu so'zga mos keluvchi o'yin nomi aniqlanadi.

**"Meshpolvonning janglari" she'rдagi ohangdosh so'zlarni topib yozing.**

Keyingi topshiriq ham yozma topshiriq bo'lib, ushbu topshiriqni bajarish orqali o'quvchilarga she'rda qofiyadosh so'zlardan foydalishga oid bilimlar beriladi. O'quvchilar she'r matnidagi qofiyadosh so'zlarni aniqlashi va uni daftarga ko'chirishlari kerak bo'ladi. Mashqni bajarish oldidan o'qituvchi qofiyadosh so'zlar haqida, ularning vazifasi haqida og'zaki ma'lumot berishi kerak. Ayrim namunalarni keltirib o'tishi kerak.

1. Bekinmachoq – urshapaloq.
2. Ko'r – zo'r.
3. Oq-ko'k terak – naq pirpirak.
4. Ulog'ingdan – qulog'ingdan.
5. Bilmabdi – tug'ilmbabdi.
6. Jahlim qo'zma – quloqcho'zma.
7. Qoqvosh – to'ptosh.

O'quvchilarga uyga vazifasi sifatida kattalarning ko'magi bilan istalgan she'rдagi qofiyadosh so'zlarni topib yozib kelish topshirig'ini berish mumkin.

## **5-soat**

**Darsning maqsadi:** sport o'yinlari bilan bog'liq tasavvurlarni kengaytirish, og'zaki va yozma nutqda sport o'yinlari bilan bog'liq so'z, so'z birikmalarini qo'llashga o'rgatish. Matnlarni ravon va ifodali o'qish, matnda ochiq holatda berilgan ma'lumotlarni aniqlash, matn yuzasidan berilgan savollarga javob berish bilan bog'liq o'qib tushunish malakalarini rivojlantirish. Joy nomlari, ularning yozma nutqda ifodalaniishi bilan bog'liq bilimlarni berish.

**Vosita:** sport o'yinlari, shaxmat haqidagi suhbat matni, matn asosida ochiq holda berilgan ma'lumotlarni aniqlash, ularni turli shaklda ifodalash, joy nomlarini aniqlash va ularning yozma nutqdagi ifodasi bilan bog'liq mashqlar.

## **DARS JARAYONI**

### **Kirish**

O'qituvchi tashkiliy qismidan so'ng bugungi darsning mazmuni haqida ma'lumot beradi. Darsda shaxmat o'yinining ahamiyati, shu mavzudagi suhbat matni bilan tanishilishini aytadi.

Suhbat matnini o'qishga kirishishdan oldin quyidagi savollar bilan murojaat etadi.



1. Shaxmat qanday o'yin?
2. Shaxmat o'ynash uchun nimalar kerak bo'лади?
3. Siz ham shaxmat o'ynashni bilasizmi?
4. Shaxmat o'yini bilan bog'liq musobaqa-larni kuzatganmisiz?

Ushbu savollar o'quvchilarning shaxmat haqidagi tasavvurlarini aniqlashtirishga yordam berib, o'qituvchi ularni berish jarayonida yana ham aniqroq javoblarni olish uchun o'quvchilarga qo'shimcha savollar bilan murojaat etishi mumkin.

### Asosiy qism.

O'quvchilarning e'tibori darslikda berilgan rasmga qaratiladi.

**Dialogni o'qing.**

**Gazeta muxbirni**

- Shaxmat o'ynashni qachon boshlagansiz?
- Besh yoshimda boshlaganman.
- Shaxmatni kimdan o'rgangansiz?
- Dadam o'rgatganlar.
- Birinchi katta yutug'ingiz qaysi bo'lgan?
- O'zbekiston championatida oltin medal olganman.
- Qaysi mammalatlarda bo'lgansiz?
- Eron, Rossiya va Ruminiyaga borganman.
- Ustozingiz kim?
- Ustozim – Shahobiddin Hamroqulov.
- Tengdoshlarigizga qanday maslahat bera olasiz?
- Shaxmat o'ynang, u aqalingizni charxlaydi.

98

1. Rasmda kimlarni ko'ryapsiz? Ular kimlar?
2. Gazeta muxbirining vazifasi nima?
3. Chempion qiz qanday musobaqada qatnashgan deb o'ylaysiz?
4. Rasmda berilgan shaxmat donalarining nomlarini bilasizmi?

Ushbu savollarga javoblar berilgach, suhbat matnini o'quvchilar bir necha marta o'qib beradi. Bunda o'qituvchi ayrim o'quvchilardan gazeta muxbiri sifatida, ayrim o'quvchilardan esa chempion qiz sifatida foydalanishi mumkin.

Shundan so'ng yozma topshiriq bajariladi.

### Yozma mashq. Matn asosida quyidagi jadvalni to'ldiring (jadval mashq daftarida).

Ushbu topshiriq o'quvchilarda berilgan axborotlarni jadval ko'rinishida ifodalash bilan bog'liq nutqiy ko'nikmani shakllantirishga qaratilgan. O'quvchilar har bir berilgan savolga javobni matndan aniqlaydi hamda uni berilgan jadvalga joylashtiradi.

### Topshiriq. Matnda ishtirok etgan joy nomlarini yozing.

Ushbu topshiriqni bajarish jarayonida o'quvchilarga avval joy nomlari deganda nima tushunilishi aytildi va joy nomlariga misollar aytildi. Ularning bosh harf bilan yozilishi tu-shuntiriladi. Suhbat matni tarkibida bosh harflar bilan berilgan har bir so'z tahlil qilinadi. Massalan, "Shaxmat" so'zi nima uchun bosh harf bilan yozilgan?" yoki "Shahobiddin Hamroqulov" so'zları nima uchun bosh harf bilan yozilgan?" singari qo'shimcha savollarni berish orqali bosh harfada berilgan so'zlar taqqoslanadi.

Shundan so'ng suhbat matni tarkibidagi joy nomlarini aniqlash so'raladi. O'quvchilar joy nomlarini aniqlaganlaridan so'ng, ularni daftarga ko'chiradilar.

### 6-soat

**Darsning maqsadi:** sport o'yinlari bilan bog'liq tasavvurlarni kengaytirish, og'zaki va yozma nutqda sport o'yinlari bilan bog'liq so'z, so'z birikmalarini qo'llashga o'rgatish, yozma nutq malakalarini shakllantirish. Berilgan rasmdagi voqealarga hodisani tasvirlab matn yozishga o'rgatish.

**Vosita:** berilgan rangli rasmlar asosida suhbat, matn yaratish topshiriq'i.

## DARS JARAYONI

### Kirish

O'tilgan mavzu doirasidagi fikrlar umumlashtiladi hamda quyidagi topshiriq beriladi.

### Asosiy qism

**Rasmlardagi voqealarga qarab hikoya yozing. Ularning ketma-ketligiga e'tibor qarating.**

O'quvchilarning diqqati darslikdagi rasmalar hamda berilgan ma'lumotlarga qaratiladi. O'quvchilar mustaqil holda tanishib chiqadilar. Shundan so'ng o'qituvchi savollar bilan murojaat qiladi:

1. Rasmida kimlar tasvirlangan?
2. Bolalar o'ynayotgan o'yining nomini aytинг.
3. 1-rasmida qanday jarayon aks etmoqda?
4. 2-rasmda-chi?
5. 3-rasmni siz qanday tasvirlaysiz?
6. Bolalarga ism tanlang. Ularni yozma nutqda qanday ifodalaysiz?

Ushbu topshiriqni bajarishdan ko'zlangan asosiy maqsad nutqiy mavzu doirasida egalangan bilim hamda ko'nikmalarini ifodalab berish sanaladi. O'quvchilar topshiriqni bajarish jarayonida ijodiy tafakkurini namoyon qila olish hamda yozma nutq malakalarini egallahsha yo'naltirib boriladi. O'quvchilar matn yozish jarayonida rasmlarning ketma-ketligiga alohida ahamiyat berishlari zarur. Imkon qadar har bir rasm uchun bittadan gap yozishlari kerak. Bolalarga ism tanlash ularni yozma nutqda ifodalashda qulaylikni yuzaga keltiradi.

Mazkur topshiriq orqali ijodiy matn tuzish, matn mazmuniga mos sarlavha tanlash, bosqalarning fikrini anglash va unga munosabat bildira olish kabi jihatlarga urg'u beriladi.

## 7-soat

**Darsning maqsadi:** o'quvchilarning sog'liq bilan bog'liq fikrlarini umumlashtirish, o'quvchilarning anglash ko'nikmalarini rivojlantirish, mavzu bilan bog'liq tasavvurlarini kengaytirish.

**Vosita:** oldindan tanish bo'lgan matnga oid savollar asosida suhbat, so'zlarga qo'shimcha qo'shishda ro'y beradigan tovush o'zgarishlari bilan tanishtirishga oid mashqlar.

## DARS JARAYONI

### Kirish

O'qituvchi bugun bo'lim yuzasidan takrorlash darsi o'tilishini o'quvchilarga aytadi va oldingi mavzu doirasidagi fikrlarni suhbat asosida umumlashtiradi hamda quyidagi topshiriqni bajarish kerakligini aytadi.

### Asosiy qism

#### Ular odamlarga qanday foyda keltiradi?

Ushbu savolga javob berishga kirishidan oldin o'qituvchi o'quvchilarning e'tiborini rasmga qaratadi. O'quvchilar rasmida nimalar tasvirlanganini aytganlarida "Rasmda berilgan narsalar bilan bog'liq qanday ma'lumotlar yoddingizga tushdi?" deb so'raydi va o'tilgan mavzularni yodga olishni aytadi.

Shundan so'ng darslikda berilgan savollar asosida suhbat olib boriladi.

Birinchi savolga javob berish jarayonida "Sabzavotlar nima deydi?" mavzusidagi audiomatn o'quvchilar yodiga solinadi. O'quvchilar eslarida qolgan ma'lumotlarni birin-ketin aytib beradilar.

Sabzining foydali jihatlari: tarkibida A, B, C, D, E vitaminlari bor, immunitetni kuchaytiradi. Ko'rish qobiliyatini yaxshilaydi.

Bulg'or qalampiri: xotirani kuchaytiradi, uyqusizlik va kamqonlikda yordam beradi.

Baqlajon: kaliy, kalsiy, temir va natriy moddalarini mavjud.

Pomidor: yurak va oshqozon uchun foydali, qondagi qand miqdorini me'yorlashtiradi.

Sarimsoq: immunitetni kuchaytiradi, yaxshigina daromad manbai.

Ikkinci savol esa "Xotiraning dorisi" matnidan olingen bo'lib, ushbu matn mazmuni asosida savolga javob berish mumkin.

Mushuk kamyogarning stoli ustidagi kimyoziy moddalarni to'kib yuborganligi, natijada siyohrang ko'lmakchadan yod moddasi kashf qilinganligi hamda yod moddasining yetishmasligi buqoq kasalligi va xotiraning pasayishiiga sabab bo'lishi yodga olinadi.

Uchinchi savol "Lanka" matnidagi ma'lumotlarni yodga olishni taqozo etadi.

Ushbu savollarga javob berish jarayonida o'quvchilarning og'zaki nutqi kuzatiladi. Berilayotgan javoblar imkon qadar asosli bo'lishiga alohida e'tibor qaratish zarur. Agar o'quvchi ushbu savollar bilan bog'liq matn mazmunini eslay olmasa, boshqa o'quvchilardan yordam olishi mumkin. Buning uchun o'qituvchi ularga qo'shimcha savollar bilan murojaat etib boradi. Savollarni shunday yo'naltirib borishi kerakki, o'quvchilar yuqorida berilgan savolga mos keluvchi javobni aytishlari, uni asoslab berishlari lozim. Shundan so'ng keyingi topshiriqni bajarishga kirishish mumkin.

#### Yozma mashq.

**Berilgan so'zlarga -im qo'shimchasini qo'shib yozing.**



Ushbu topshiriq o'quvchilarga qo'shimcha qo'shilishi natijasida so'z asosida tovush o'zgarishlari ro'y berishi mumkinligini tushuntirish bilan bog'liq. O'qituvchi ushbu topshiriqni bajarish uchun avval xattaxtada ayrim namunalar yordamida ushbu hodisani tushuntiradi. Yozma nutqda **q** tovushining **g'** tovushiga o'zgarishini aytadi. Shundan so'ng o'quvchilar avval so'zlarga og'zaki ravishda qo'shimchani qo'shib, ularda ro'y berayotgan o'zgarishlarni anglab oladilar. Shundan so'ng ushbu o'zgarishlar asosida so'zlarni daftarlariiga yozishlari kerakligi so'raladi. Ba'zi o'quvchilar topshiriqni xattaxtada bajarishlari zarur.

### Berilgan so'zlarga -li va -siz qo'shimchasini qo'shib yozing.

Ushbu topshiriqni bajarish uchun ham avval o'qituvchi **-li** va **-siz** qo'shimchalarining vazifasini tushuntiradi, **-li** va **-siz** qo'shimchalari ishtirok etgan so'zlar ma'lum bir belgiga ega-lik yoki ega emaslikni darslikda berilgan so'z-

lardan tashqari misollar keltiradi. O'quvchilar mavzuni to'liq anglaganligiga ishonch hosil qilgach, darslikda berilgan so'zlarning ayrimlariga og'zaki ravishda ushbu qo'shimchalar qo'shiladi. O'quvchilar xattaxtaga yozadi. Qolgan so'zlar ham shu tariqa ham xattaxtaga, ham mashq daftariga yozib boriladi.

### **-li va -siz qo'shimchalari bor so'zlar qatnashgan beshta gap tuzing.**

Har bir o'quvchi daftariga shunday so'zlar ishtirok etgan gaplarga misollar yozadi. Ushbu jarayonda o'qituvchi o'quvchilarning yozma savodxonligiga, so'zlarni bir-biri bilan bog'lay olishi, tinish belgilardan o'z o'rnila foydalana olishiga alohida e'tibor qaratadi. Gap tuzib yozishga qiynalayotgan o'quvchilar bilan alohida shug'ullanadi. Og'zaki savol-javob yordamida ularga topshiriqni bajarishda ko'maklashishi mumkin.

## ERTAKDAGI QAHRAMON

### Ushbu mavzudagi bo'limning maqsadi:

Ertak syujeti va tiliga tahliliy yondashuvni rivojlantirish.

Ertak janri bilan bog'liq lisoniy ifodalarni qo'llash malakasini rivojlantirish.

### 1-soat

#### Darsning maqsadi:

Bolada shu vaqtgacha shakllangan ertaklar mavzusi doirasida bilim va tajribani faollashtirish

#### Vosita:


O'zbekiston kontekstida ma'lum va mashhur bo'lgan ertak qahramonlari, ertak syujetini eslatish.

Mazkur tushunchalar ustida umumiy-xususiy mansublik aloqalariga oid mashqlar bajarish.

## DARS JARAYONI

### Kirish

Darsning tashkiliy qismidan so'ng bolalariga "Bugungi mavzumiz "Ertakdagi qahramon" deb nomlanadi" deb aytildi. Shu joyda mavzuni sinf taxtasiga yozish yoki proyektorda (yoki smartbordda) yozilganini ko'rsatish bolalarda o'qish malakasini rivojlantirishga xizmat qiladi.



## Asosiy qism

“Demak, sizlar bilan ertaklar, ulardagi qahramonlar haqida gaplashamiz. Siz qanday ertaklarni bilasiz?” deb bolalarga murojaat qilinadi. Sinfdagisi 4–5 ta o‘quvchining javobini eshitgach, kitobni ochib, mavzuning birinchi mashqidagi rasmlarga e’tibor qaratishni so‘rash kerak.

### Rasmlarga qarang. Savollarga javob beriring.

Har bir rasmga alohida to‘xtalib, quyidagi savollar beriladi:

1. Bu qahramonning ismi nima?
2. U qaysi ertakdan?
3. Zumrad qanday qiz? U nima uchun yaxshi?
4. Qimmat qanday qiz? Uning qanday harakatlarini to‘g’ri emas deb o‘ylaysiz?
5. To‘g’rivoy bilan Egrivoy ertagida nima bo‘ladi? To‘g’rivoy va Egrivoy ismlarining ma’nosi nima?
6. Ajdar qanday hayvon? U haqida qaysi ertaklarda eshitgansiz?
7. Laylakvoy qaysi ertak qahramoni? Ertakning nomi nima uchun “Ur, to‘qmoq” deb qo‘yilgan?
8. Qaysi qahramonlar o‘zbek xalq ertaklari ga tegishli ekanligini qanday bildingiz? Qahramonlarning kiyimlari qanday farq qiladi?

74



**1** Rasmdagi qahramonlarni tanisizmi?  
**2** Ularning ismi nima?  
**3** Ular qaysi ertakning qahramoni?  
**4** Ularning qaysilari o‘zbek xalq ertaklari qahramonlari?

Ertak – xalq to‘qigan badiiy asar. Hali kitob yo‘q vaqtida odamlar bir-birlariga ertaklar aytib berishgan. Bir kishi birovdan eshitgan ertagini bosqqa kishiga so‘zlab bergan. Shu yo‘l bilan ertaklar avloddan avlodga o‘tgan. Har bir xalqning o‘z milliy ertaklari bor. “Zumrad va Qimmat”, “To‘g’rivoy bilan Egrivoy”, “Uch og‘ayni botirlar” o‘zbek xalq ertaklaridir.

Ertak qahramoni – ertakdagi voqealar ketma-ketligini belgilang.  
**7**

So‘ng darslikdagi savollar beriladi.

Mazkur savollar bolaning hali birinchi sinfligini hisobga olgan holda faqat asosiy ma’lumotni aks ettiradi. Shuningdek, bola darslikni

darsdan oldin yo keyin o‘zi o‘qib ko‘rishi nazarida tutilganligi uchun savollar hamma rasmga umumiy ravishda tegishli qilib shakllantirilgan.

Bu savollarga iloji boricha hamma o‘quvchidan javob olishga harakat qilish kerak. Garchi 35-40 ta bolaning har biri bittalab javob berishiha imkon bo‘lmasa-da, bolalar shu savollar haqida o‘ylab ko‘rishiha erishish juda muhim. Masalan, bunda savolni o‘rtaga tashlab, bir safar qo‘l ko‘targanlardan, ikkinchi safar qo‘l ko‘tarmaganlardan so‘rash mumkin.

Og‘zaki savol-javobdan so‘ng ertak tushunchasining ta’rifini avval bolalarga o‘qitish kerak. Keyin o‘qituvchining o‘zi aynan o‘shta’rifni og‘zaki aytib berishi lozim. O‘quvchilarning tushunganiga ishonch hosil qilgach, ulardan ertak nomiga misol aytishlarini so‘rash kerak.

Undan keyin ertak qahramoni tushunchasiga berilgan ta’rifni o‘qitish va og‘zaki tushuntirish kerak. Shundan so‘ng ertak qahramonlariha misol aytishni so‘rash mumkin. Bunda bolalar umumiy javob berishlari mumkin. Avvalgi savollardagiday har biri alohida javob berishi shart emas, chunki bu yerda maqsad bolaning ma’lumotni qabul qilganligiga ishonch hosil qilishdir.

### Topshiriq. Rasmardagi qahramonlar ismi va ertak nomini to‘g’ri ko‘rsating.

**1-mashq.** Bu mashq darsda shungacha o‘tilganlarni mustahkamlashga qaratilgan. Unda ertak qahramonining rasmiga qarab avval uning ismini topish, keyin ertakning nomini topish so‘raladi. Bularning hammasi darslikda berilgan bo‘lib, o‘quvchilarni o‘zaro moslashtirishi kerak (8-bet).

**Topshiriq. “Zumrad va Qimmat” ertagi-dagi voqealar ketma-ketligini belgilang. Daftaringizga yozing.**

**2-mashq.** Darsning shu qismigacha bolallarda ertak degan umumiy tushuncha hamda ertak qahramoni degan umumiy tushuncha faollashtirildi. Navbatdagi qadam mazkur faollashuvni mustahkamlash bo‘lib, unda bolaga ma’lum bo‘lgan ertak syujetini eslash so‘raladi. Bu “Zumrad va Qimmat” ertagi bo‘lib, o‘zbek bolalariga yaxshi tanish. Mashqda ertakdagi syujetni aks ettiruvchi rasmlar aralash holda berilgan, o‘quvchi ularning tartibini aniqlashi kerak (9-bet). Bunda siz bolalardan “Zumrad va Qimmat” ertagi qanday boshlanishini so‘rashingiz mumkin. Asli ertak quyidagicha boshlanadi:

“Bir bor ekan, bir yo‘q ekan, bir chol bor ekan. Uning Zumrad ismli qizi bor ekan. Chol



*bir qizi bor ayolga uylanibdi. Qizining ismi Qimmat ekan. O'gay ona Zumradni yoqtirmas ekan. Eng og'ir ishlarni unga buyurar, qarg'ab, urarkan. O'zining qizini juda yaxshi ko'rarkan, doim uni maqtagani maqtagan ekan. Zumrad aqli, chiroyligi va muloyim qiz ekan. Qimmat esa unga hech ham o'xshamas ekan. U tantiq, qo'pol va dangasa ekan. Kun bo'yи ovqat yer, bo'lar-bo'lmasga urisharkan".*

Bola ayrim narsalarni tushirib aytishi tabiiy, ammo hamma aytadigan narsa Zumradning chaqqonligi va Qimmatning danganaligi haqidagi gapdir, chunki ertak shu ziddiyat ustiga qurilgan. Ayni shu joyiga yetganda bolalardan shunga mos rasm qaysiligini topish so'raladi. Javobi – G rasm. Unda Zumradning ish qilayotgani, Qimmatning esa dam olayotgani tasvirlangan. Demak, bolalar mashq daftarini ochib, birinchisiga G deb yozishlari kerak.

Ertakning syujetini eslashda davom etib, ikkinchi rasmni ham belgilab ko'rsatgach (E), bolalardan qolganini mustaqil bajarishni so'rash kerak. Bajarib bo'lgach, butun sinf birgalikda tekshirib chiqishi kerak.

Mashq kaliti:

1 – G 2 – E 3 – B 4 – A 5 – D 6 – F

## 2-soat

### Darsning maqsadi:

Audiomatnni tinglash jarayonida tafsilotlarga diqqat qilish, audiomatnda ishlatilgan turli so'z va birikmalar, gaplarga e'tibor qilish ko'nikmasini rivojlantirish.

### Vosita:

"Serkaboboning hiylasi" ertagini eshitish.

Ertakda ishtirok etgan qahramonlarni farqlash.

Ertak mazmuni yuzasidan berilgan savollarga javob topish.

Ertakda qo'llangan va notanish bo'lgan til birliklari bilan mashqlar bajarish.

## DARS JARAYONI

### Kirish

Darsning tashkiliy qismidan so'ng bolalarga avvalgi darsda boshlangan "Ertakdagi qahramon" mavzusi davom etishini ma'lum qilib, o'tgan darsda nimalar qilganlarini eslatish lo-

zim. Eslatish uchun bolalarga quyidagicha savollar berish mumkin:

Biz o'tgan darsda nima haqida gaplashdik?

Qanday ertaklarni esladik?

Ertak o'zi nima ekan?

Qanday ertak qahramonlarini bilamiz?

O'tgan darsdan beri kimdir yangi ertak o'qidi yoki eshitdimi?

Dars jarayonidan kelib chiqib bu savollar boyitilishi mumkin.



"Serkaboboning hiylasi" deb nomlangan ertakni tinglang.



3. Berilgan rasmlar ichidan eshitgan ertagingizdagi qahramonlarni belgilab chiqing. Daftarga ularning nomini yozing.



10

### Asosiy qism

So'ng "Bugun "Serkaboboning hiylasi" degan ertakni birgalikda eshitamiz. Nima deb o'ylaysiz, Serkabobo qanday hayvon?" deb so'rash mumkin. Sinfdan to'g'ri javob chiqmasa, uning echki ekanligi aytildi. "Demak, ertagimiz echki haqida ekan. Uni diqqat bilan eshitamiz."

**Topshiriq. "Serkaboboning hiylasi" deb nomlangan ertakni tinglang.**

### SERKABOBONING HIYLASI

Bor ekan-da, yo'q ekan, och ekan-da, to'q ekan, bir zamonda bir qari Serka bo'lib, uning mingdan ortiq bolalari bor ekan. Serkaboboning bolalari har doim keng yaylovda o'tlab yurishar ekan. Bir kuni bir Bo'ri paydo bo'lib qolibdi. U toshlar orasidan mo'ralab:

– Bay-bay-bay, hammasi bir-biridan semiz ekan. Bugun bitta uy topay, kunduzlari jum yotay, kechalarli ovga chiqay, – debdi o'ziga o'zi.

Bo'rining bu niyati echkilarga ma'lum bo'lib qolibdi. Echkilar Serkaboboning uyiga yig'ilishib, majlis qilishibdi. Majlisda Arslonning oldiga borib, undan yordam so'rashga kelishihibdi. Arslonning yoniga borish uchun bir echki bilan Serkaboboni vakil qilib tayinlashibdi.

Ertasiga Serkabobo bilan echki Arslonning uyiga qarab yo'l olishibdi. Arslonning uyiga salom berib kirishibdi.

-Nima ish bilan keldingiz? – deb so'rabi Arslon.

Serkabobo yig'lamsirab, arz qilib, bo'lgan gapni aytibdi.

Arslonning ko'zları yonib o'rnidan turibdi va:

– Qani, o'sha bo'rini menga ko'rsatinglar, uni o'zim jazolayman, – debdi.

Echkilar uni o'z joylariga boshlab ketishayotgan ekan, bo'rining o'zi ularning oldidan chiqib qolibdi.

Arslon bo'rini tutib o'ldiribdi va bu ishi uchun ikkita echkini haydab ketibdi. Ketar ekan, Serkaboboga qarab:

– Har kuni menga bittadan echki olib kelasan, agar olib bormasangiz, bir kechada ham-mangizni o'ldiraman! – debdi.

Ertasiga Serkabobo hech narsa bilmagan-day bir o'zi Arslonning oldiga boribdi. Buni ko'rgan Arslon g'azablanib:

– Nega quruq kelding, qani menga olib ke-ladigan echking? – debdi.

Serkabobo:

– Yo'lda bir arslon sizga olib kelayotgan echkini olib qo'ydi. Shuning uchun oldingizga quruq keldim, – debdi.

– Qanday arslon ekan, o'shani menga ko'r-satib qo'y!- debdi Arslon g'azablanib.

Serkabobo Arslonni bir quduqqa boshlab boribdi va "Shu – o'sha arslonning uyl", deb quduqni ko'rsatibdi. Arslon pastda o'z aksini ko'rib echkini olib qo'yan arslon shu deb o'y-lab, o'zini quduqqa tashlabdi va suvga cho'kib o'libdi. Serkabobo boshliq echkilari esa yana tinch yashayverishibdi.

Audiomatn tugagach, bolalar 3-topshiriqni bajarishlari kerak (10–11-betlar).

**Topshiriq. Berilgan rasmlar ichidan eshitgan ertagingizdagи qahramonlarni belgilab chiqing. Daftarga ularning nomini yozing.**

Topshiriq sharti o'qituvchi tomonidan quyidagiCHA tushuntirilishi maqsadga muvofiq:

Biz "Serkaboboning hiylasi" ertagini tingladik. Unda qanday qahramonlar ishtirot etdi? 3-topshiriqda bu ertakda ishtirot etgan va ishtirot etmagan hayvonlarning rasmi berilgan.

Qani, qaysi hayvonlar "Serkaboboning hiylasi" ertagida bor edi, birgalikda topaylik-chi!

**Topshiriq kaliti:** echki, sher, bo'ri.

Bundan so'ng ertak mazmuni bo'yicha darslikning 11-betida berilgan savollarga o'tiladi:

Savollarni bolalarga birma-bir o'qitib, javob berishlarini so'rash lozim. Bunda savolga o'qigan bolaning o'zi javob berishi unda o'qish davomida diqqatli bo'lish, yaxshiroq tushunish ko'nikmasini shakllantiradi.

Savollarning javoblari quyidagi mazmunga mos bo'lishi lozim:

1. Serkaboboning bolalari yaylovda yashar edi.

2. Bo'ri echkilarni ovlamoqchi/yemoqchi bo'ldi.

3. Echkilar bo'ri haqida arslonga aytib berishdi.

4. Arslon bo'rini o'ldirdi.

5. Echkilarni bo'ridan qutqargani uchun arslon har kuni 1 ta echki berishni talab qildi.

6. Serkabobo arslonning oldiga yolg'iz o'zi bordi.

7. Serkabobo yo'lda boshqa bir arslon unga olib kelayotgan echkilarni yeb qo'yanini aytди.

8. Arslon quduqda o'z aksini ko'rib, bu echki aytgan o'sha arslon bo'lsa kerak deb o'yladi.

9. Ertak Serkaboboning arslonni aldab, ya'ni hiyla ishlatib mag'lub qilgani haqida. Shuning uchun "Serkaboboning hiylasi" deb nomlangan.

10. Ertakdagji asosiy qahramon Serkabobo, chunki u o'z bolalarini avval bo'ridan, keyin esa arslondan qutqardi. Ertakda aytilgan voqealar uning harakati sababli amalga oshdi.

### 3-soat

Darsning maqsadi:

so'z ma'nolari haqidagi tasavvurlarni ri-vojlantirish

#### Vosita:

"Serkaboboning hiylasi" ertagi kontekstida *hiyla* so'zining lug'aviy ma'nosi, *mo'ra-  
lamоq*, *ma'lum bo'lmoq*, *vakil qilib say-  
lamоq*, *yo'l olmoq*, *yig'lamsiramoq*, *ko'zi  
yonmoq*, *adabini bermoq*, *haydab ketmoq*,  
*quruq kelmoq*, *g'azablanmoq* kabi so'z va  
so'z birikmalarining qanday ma'no ifoda-  
lashini tushunish.



## Kirish

Darsning tashkiliy qismidan so'ng bolalarga oldingi dars yuzasidan savollar beriladi:

1. O'tgan darsda nima qilgandik? Qanday ertakni eshitdik?

Bolalardan to'g'ri javobni olgach, o'qituvchining o'zi yoki biror o'quvchi ertak nomini sinf taxtasiga yozishi maqsadga muvofiq.

2. "Serkaboboning hiylasi" ertagini kim gapirib beradi?

Bitta boladan ertakni to'liq eshitish mumkin yoki 3-4 ta bolaga bo'lib-bo'lib ayttirish mumkin. Bu dars o'tlayotgan sinfda va vaziyatda qaysi biri samaraliroq bo'lishi mumkinligidan kelib chiqib, hal qilinishi kerak.

**Rasmarga qaysi sarlavha mos? Ko'rsating.**

Tulkining hiylasi      Ovchining hiylasi  
Bo'g'irsoqning hiylasi      Serkaboboning hiylasi

Meni yema, senga qo'shiq aytib beraman

Qulog'im yaxshi eshitmaydi, qo'shig'ingni burnimga chiqib ayt

Quduqda yashaydigan bir arslon sizga olib kelinayotgan echkini yeb qo'ydi

12

## Asosiy qism

Ertakni eslab olgach, darslikning 12-beti ochilib, undagi mashq bajariladi.

**Topshiriq. Rasmlarga qaysi sarlavha mos? Ko'rsating.**

O'qituvchi mashqda rasm hamda to'rtta sarlavha berilganligini, qaysi sarlavha qaysi rasmga mosligini topish kerakligini tushuntiradi.

Dastlab mashqning sharti o'quvchi tomonidan o'qiladi: "Rasmlarga qaysi sarlavha mos? Ko'rsating"

O'qituvchi qaysi rasmga qaysi sarlavha mosligini topish uchun avvallo rasmlarda nima tasvirlanganini tushunish kerakligini aytadi. Shunga asoslangan holda bolalardan birinchi rasmda nima tasvirlangani so'raladi. Quyidagi cha savollarni berish mumkin:

1. Rasmda nima tasvirlangan?
2. Rasmda kim bor?
3. Rasmda qanaqa joy aks etgan?
4. Rasmda qanday voqeа tasvirlangan?
5. Birinchi rasmda kim xursand? Nima uchun?

6. Ikkinci rasmda kim xafa-yu kim xursand? Nima uchun?

Bolalardan savollarga aniq javob olingach, o'qituvchi dastlabki ikki rasmni xulosalashi lozim.

Demak, bu ikkala rasmda bo'rining ovchi qo'yan qopqonga tushgani tasvirlangan. Ovchi qopqonga go'sht qo'ydi, bo'ri esa go'shtning tagida qopqon borligini bilmasdan, uni olib yemoqchi bo'ldi va qopqonga tushdi. Endi mana shu rasmga yuqorida yozilgan sarlavhalardan qaysi birini qo'yamiz?

Javob: Ovchining hiylasi.

Navbatdagi rasmlar "Bo'g'irsoq" ertagidan olingan. Ayqli rasmga qaraymiz. Bu rasmda Bo'g'irsoqning gapi ham yozilgan ekan. Uni o'qiyimiz.

Rasm ichida yozilgan gap o'quvchiga o'qitiлади: meni yema, senga qo'shiq aytib beraman.

Bolalar, siz hammangiz "Bo'g'irsoq" ertagini juda yaxshi bilasiz. Bo'g'irsoq ayiqqa shunday degandan keyin nima bo'ladi?

o'quvchilardan to'g'ri javob olingach, o'qituvchi tasdiqlaydi. "To'g'ri, bo'g'irsoq ayiqni qo'shiq bilan aldab, qochib ketadi. Endi aytin-chi, yuqoridagi sarlavhalardan qaysi biri bu rasmga mos keladi?"

Javob: Bo'g'irsoqning hiylasi.

Keyingi rasmda tulki va Bo'g'irsoq tasvirlangan. Unda tulkining gapi ham yozilgan. Qani, u gapni o'qiylik-chi.

Rasm ichida yozilgan gap o'quvchiga o'qitiлади: Qulog'im yaxshi eshitmaydi. Qo'shig'ingni burnimga chiqib ayt

Nima uchun tulki Bo'g'irsoqdan burniga chiqishni iltimos qilyapti? Rostdan ham uning qulog'i yaxshi eshitmaydimi? Shundan keyin nima bo'ladi? Demak, bu rasmga qaysi sarlavha mos ekan?

Javob: Tulkining hiylasi.

Oxirgi rasmlarda echki va arslonni ko'rib turibmiz. Echkining gapi ham yozilgan.

Rasm ichida yozilgan gap o'quvchiga o'qitiлади: "Quduqda yashaydigan bir arslon sizga olib kelinayotgan echkini yeb qo'ydi".

Shundan keyin nima bo'ldi? Arslon echkining gapiga ishonib quduqqa sakradi. Bu rasmga qaysi sarlavha mos ekan?

Javob: Serkaboboning hiylasi.

Hamma rasmlarga mos sarlavha qo'yilgach, o'qituvchi xulosalaydi:

Mana, siz "hiyla" so'zining ma'nosini tushunib oldingiz.

Endi darslikdagi navbatdagi mashqqa o'tiladi (13-bet).

**Topshiriq. Ikki ustundagi gaplarni solishtiring. Ular o'rtasidagi farqni tushuntiring.**

Mashq shartida "Ikki ustunidagi gaplarni solishtiring. Ulardagi farqni aniqlang" deyilgan.

Ushbu mashqda o'qituvchi bolalar ikkala gapdagi qaysi so'z yo birikma farqli ekanini aytgach, ikkala so'z o'rtasidagi farq nimada ekanligini so'raydi. Bolalarning javobidagi noto'liq joylarini o'qituvchi to'ldiradi. Mashqning maqsadi - ertak matnida qo'llangan so'zlarning ma'nosini haqida to'g'ri tasavvur hosil qilish.

Ertakda qo'llangan ifoda	Muqobili	Ma'nodagi farqi
Bo'ri toshlar orasidan mo'ralabdi.	Bo'ri toshlar orasidan qarabdi.	Mo'ralamoq so'zi qarash harakatini ifodalaydi, biroq <i>mo'ralash</i> biror to'siq orqasidan yo orasidan qarashni bildiradi.
Bo'rining niyati echkilarga ma'lum bo'lib qolibdi.	Echkilar bo'rining niyatini bilib qolibdilar.	Biror narsa haqida ma'lum bo'lishi – biror narsa haqida bilish degani. Faqat "ma'lum bo'lish" deganda o'sha narsa haqida qanday bilib qolingga haqida aytilmaydi.
Arslonning yoniga borish uchun bir echki bilan Serkaboboni vakil qilib tayinlashibdi.	Arslonning yoniga echkilarning arzini yetkazish uchun bir echki bilan Serkabobo boradigan bo'libdi.	<i>Vakil</i> - boshqa odamning xohishini uning o'rniga yetkazuvchi odam.
Serkabobo bilan echki arslonning uyiga yo'l olishibdi.	Serkabobo bilan echki arslonning uyi tomon ketishibdi.	<i>Yo'l olmoq</i> – biror joyga borish uchun o'sha to-monga yurishni bildiradi.
Serkabobo yig'lamsirab, bo'lgan gapni aytibdi.	Serkabobo yig'la-ganday bo'lib, bo'lgan gapni aytibdi.	<i>Yig'lamsirab</i> – yig'lagisi kelgan, ammo hali yig'lashni boshlamagan holatni bildirish uchun ishlataladi.
Arslonning ko'zları yonib o'rnidan turibdi.	Arslon jahli bilan o'rni-dan turibdi.	<i>Ko'zları yonmoq</i> – odamning jahli chiqqanda-gi qarashi olov yonganiga o'xshatiladi, shuning uchun "jahli chiqdi" demasdan, yana ham aniqroq va ta'sirliroq aytish uchun "ko'zları yondi" deyiladi.
O'sha bo'rining adabini beraman!	O'sha bo'rini jazolayman!	<i>Adabini bermoq</i> – bir odam boshqa odamga yoq-maydigan ish qilsa, o'sha ish unga yoqmaganini baqirish, urishga o'xshagan harakatlar bilan tushuntirishni bildiradi.
Arslon ikkita echkini hay-dab ketibdi.	Arslon ikkita echkini olib ketibdi.	<i>Haydar ketmoq</i> – biror jonzotni oldida yurg'izib olib ketmoq.
Nega quruq kelding?	Nega echkisiz kelding?	<i>Quruq kelmoq</i> – hech narsasiz kelish, bir narsa olib kelmaganlik. Suvsiz, quruq yerda hech narsa o'smaydi, shuning uchun hech narsa yo'q deyish uchun "quruq" so'zi ishlatalgan.
Arslon g'azablanibdi	Arslonning jahli chiqib-di.	<i>G'azablanmoq</i> so'zi "jahli chiqmoq" bilan bir xil ma'noni ifodalaydi. Faqat "g'azablanmoq"da jahli qattiqroq chiqqani anglashiladi.

### **Topshiriq. Berilgan so'zlardan mosini yozib gaplarni to'ldiring.**

Bu mashq ertak mazmunini va yangi o'zlashtirilgan so'zlarni mustahkamlashga qaratilgan. Unda *hiyla*, *yaylovda*, *qutulib*, *echkilarni*,

*ikkitadan*, *bo'ridan*, *niyatidan*, *arslonga* so'zlarini kerakli o'rnlarga qo'yish so'raladi. Avval shu so'zlarni o'qitib, ertakda qanday vaziyatda ishlatalganini bolalar bilan eslab olish maqsadga muvofiq. Bunda so'zning ma'nosini nima



ekanligini, bu narsa ertakda qayerda kelganini savol qilib berish kerak. Darsning borish xarakteridan, o'quvchilarning bilim va faoliy dorasidan kelib chiqib mashqni yo doskada sinf bilan birligida bajarish, yoki o'quvchilarning o'ziga mustaqil bajartirish mumkin.

Mashq kaliti:

1. Serkaboboning bolalari yaylovida yashardi.
2. Bir kuni bo'ri paydo bo'lib, echkilarni yemoqchi bo'ldi.
3. Echkilar bo'rining niyatidan xabar topdi.
4. Echkilar arslonga arz qilishdi.
5. Arslon echkilarni bo'ridan qutqardi.
6. Arslon o'z xizmari evaziga har kuni bittadan echki berishlarini talab qildi.
7. Serkabobo arslonni hiyla bilan mag'lub qildi.
8. Echkilar bo'ridan ham, arslondan ham qutulib, tinch yashay boshladi.

#### 4-soat

**Darsning maqsadi:** Bolada she'riy matni tushunish, ohang va ifodalash usulining nasrdan farqli ekani haqidagi tasavvurlarini boyitish

**Vosita:** Abdurahmon Akbarning "Jonli savatcha" she'riy ertagini ifodali o'qish, berilgan savollarga javob berish.

#### Kirish

Darsning tashkiliy qismidan so'ng bolalarga "Ertakdagi qahramon" mavzusi davom etayotgani aytildi, o'tgan darslarda ertaklar haqida olingen bilimlar qisqa ravishda eslatib o'tildi. Ertak vositasida yangi o'rganilgan so'zlarning ma'nosi haqida savol-javob qilish maqsadga muvofiq.

Avvalgi darsda berilgan "hiyla", "mo'ralamoq", "ma'lum bo'imoq", "vakil qilib saylamoq", "yo'l olmoq", "yig'lamsiramoq", "ko'zi yonmoq", "adabini bermoq", "haydar ketmoq", "quruq kelmoq", "g'azablanmoq" kabi so'z va so'z birkimlarining ma'nolarini bolalardan so'rab, birrov eslatib o'tish kerak.

Bu savol, javobdan maqsad bolalarga so'z ma'nosini yodlatish EMAS! Shunchaki bola o'tgan darsda qabul qilgan ma'lumotlarni uning xotirasida qayta faollashtirishga, unga yana bir bor e'tibor qilishiga erishishdir.

4. Berilgan so'zlardan mosini yozib gaplarni to'ldiring.

"Jonli savatcha" she'riy ertagini o'qing.

#### JONLI SAVATCHA

Shundoq o'rmon chetida, o'tloq bo'yida Chiroyli bir savatcha yotar qarovsiz. Bandi pishiq va nafis, tuxumi ham bor, Bunaqasin, ehtimol, ko'rmagansiz siz.



Ichidagi oq tuxum bir payt qimirlab, Tumshug'ini chiqardi sho'x jo'ja shodon. Hayrat bilan olamga boqib turganda Bo'yni qisilib qoldi, qarang, nogahon.



14

79

#### Asosiy qism

Shundan so'ng bevosita yangi mavzuni boshlash mumkin. Bu darsda o'qiladigan ertak she'riy ertak ekanligini aytish kerak. Shu o'rinda bolalardan "Nima deb o'ylaysizlar, she'riy ertak biz shu paytgacha bilgan ertakdan nimasib bilan farq qiladi?" deb so'rash orqali bolani fikrlashga undash kerak. Bir-ikkita boladan fikr olgach, ertakning nomini doskaga yozish kerak.

**Topshiriq. "Jonli savatcha" she'riy ertagini o'qing.**

O'qituvchi avval o'zi she'riy ohangga rioxaliga holda ertakni o'qib berishi lozim.

Keyin bolalarga 4 qatordan bo'lib o'qitish mumkin. o'qib bo'lgach, bolalarga tushunganini gapirtirish zarur. Bolalar ertakni o'z tilidan hikoya qilib berishlariga erishish kerak. 3-4 ta bolani gapirtirgach, matn ostidagi berilgan savollar beriladi.

Oxirgi savolda ertakdagi asosiy qahramon masalasida bolalar jo'ja va chumoli o'tasida ikkilanishi mumkin. Shunda o'qituvchi chumolining faolligiga, muammoni hal qilganiga bolalarning e'tiborini qaratishi kerak. Xususan, "Ertakdagi muammo nima edi?", "Uni kim hal qildi? Qanday hal qildi?" kabi savollar orqali bunga erishish mumkin.

**O'zingiz mustaqil ertak to'qishga harakat qiling. Ertakning nomi nima bo'ladi?**

## Ertakda qanday qahramonlar ishtirok etadi?

Daftarda bu mashqni bajarish uchun joy ham ajratilgan. Bu mashqning maqsadi bolaning ertak to'qishga harakat qilib ko'rishiga erishish. Ertakni qat'iy mezonlar bilan tekshirmaslik maqsadga muvofiq. Bola o'z ertagida ertakning biror elementini, masalan, boshlanish qismidagi "bor ekan-da, yo'q ekan"ni qo'llasa ham, shuning o'zi katta yutuq. Bu mashqda boladan badiiy saviyasi yuqori ertak talab qilinmaydi! Bolaning har qanday harakatini rag'batlantirish maqsadga muvofiq. Bu mashq mavzuning oxiridagi dars uchun tayyorgarlik vazifasini o'taydi. Agar dars soati davomida vaqt yetmasa, buni vazifa sifatida uyga berish kerak.

### 5-soat

#### Darsning maqsadi:

Aytishida tovush orttirilishi, tovush tu-shishi, tovush o'zgarishi ro'y beradigan holatlar bilan bolani tanishtirish, shunday hodisalarga nisbatan hushyorlikni tarbiyalash.

80

#### Vosita:

"Serkaboboning hiylasi", "Jonli savatcha" ertaklari matnida uchragan shunday fonetik hodisalar bo'yicha mashqlar bajarish.

### Kirish

Darsning tashkiliy qismidan so'ng bolalarga o'tgan darsda o'tilgan mavzu eslatiladi. "Jonli savatcha" ertagini mazmuni yuzasidan savollar bilan murojaat qilinadi. Xususan, "Biz siz bilan "Jonli savatcha" ertagini o'qidik, u nima haqida edi? Savatchaning ichida nima bor edi? Keyin nima bo'ldi?" kabi savollarni berish mumkin.

### Asosiy qism

Keyin bugungi darsning maqsadi bayon qilinadi:

Bolalar, mana, siz o'qishni bilib oldingiz, harflarni tanisiz, so'zlarni o'qiy olasiz. Odam tilni birinchi galda gapirish uchun ishlataladi. Endi siz o'qishni o'rgangandan keyin bildingizki, yozganda ham tildagi tovushlar, so'zlar ishlataladi. Ba'zan so'zlarning aytishi yozilishidan farq qiladi. Masalan, **qant** deb aytamiz,

lekin **qand** deb yozamiz; **maktap** deb aytamiz, **maktab** deb yozamiz. Bunday so'zlarning yozilishida diqqatliroq bo'lishimiz kerak.

Shu o'rinda so'zlarning yozma shaklini doskaga yozish zarur.



- 1 Kapalak nima uchun jo'jaga yordam bera olmad? Chumchuq-chi?
- 2 Chuvalchangning maslahati nima uchun foyda bermadi?
- 3 Chumoli qanday qilib jo'jaga yordam berdi?
- 4 Siz jo'jaga qanday yordam bergan bo'laddingiz?
- 5 Jo'janing ornida bo'lganiningdiza siz nima qilar edingiz?
- 6 Ertakdagagi asosiy qahramon kim? Nima uchun



5. O'zingiz mustaqil ertak to'qishga harakat qiling. Ertakning nomi nima bo'ladi? Ertakda qanday qahramonlar ishtirok etadi?



6. Berilgan gaplardan to'g'ri yozilganlarini belgilang.



- So'zlarga **-ga** qo'shimchasini qo'shing. Tovushlardagi o'zgarishga ahamiyat bering.

Chumol + ga = chumoliga

Quduq + ga = quduqqa

Kapalak + ga = kapalakka



16

#### Topshiriq. Berilgan gaplarning to'g'ri yozilganini belgilang.

Daftarning 46-betidagi mashqda bir gap ikki marta berilgan. Ular faqat bitta harfga farq qiladi. To'g'ri yozilgan qator belgilanishi kerak. Mashqni har bir bola o'zi mustaqil bajarishi maqsadga muvofiq. Bola kitobdan bemalol foydalansin. Mashqning maqsadi bolaning bilimi baholash emas, balki bolaga shu so'zlardagi tovush o'zgarishlarini o'rgatish, xolos. Mashqni hamma bajarib bo'lgach, birgalikda muhokama qilib, to'g'ri javoblar aytib ketiladi. Mashq kaliti:

1. Serkabobo arslonga **arz** qildi.
2. Bir kuni bir Bo'ri paydo bo'lib qolibdi.
3. – Nega quruq kelding? – **debd**i Arslon.
4. Arslon o'zini quduqqa tashlabdi.
5. Yetib keldi zum o'tmay do'stlarin boshlab.
6. Ahillikda, birlikda, haq rost, ko'pdir gap.

Bolaga mazkur tovush o'zgarishlarining sababini tushuntirishga urinish kerak emas, bolada shunday hodisa borligi haqida tasavvur hosil qilishning o'zi yetarlidir. Boladan ZINHOR jarangli tovushlarning jarangsizlashuvi nima, tovush tushishi nima, deb SO'RAMASLIK KERAK.



Endi -ga qo'shimchasining turli tovush bilan tugagan so'zlarga qo'shilgandagi o'zgarishi tushuntiriladi.

Bolalar, derazaga qarang. Endi eshikka qarang, deb aytish va bu harakatni bajartirishga erishish kerak. Ketidan savol berish kerak: Birinchi aytganimda siz qayerga qaradingiz? Ikkinci aytganimda-chi?

Bolalarning javobini doskaga yozish darkor.

Derazaga.

Eshikka.

Bu ikkala so'zda qo'shimcha ishlatalgan, shundaymi? U qaysi qo'shimcha?

Bolalarning javobidan so'ng -ga/ka qo'shimchasining tagiga chizib qo'yish kerak. Bu ikkala bitta qo'shimchami?

Bolalarning javoblarini tinglagach, ikkovida ham bir xil harakat, ya'ni o'sha narsa tomonga qarash harakati bajarilgani bu ikkala shakl bitta qo'shimcha ekanligi va eshik so'zi k tovushi bilan tugagani uchun -ga qo'shimchasining birinchi tovushi k tovushiga moslashib qolishi aytilishi kerak.

Darslikning 16-betidagi misol o'qitiladi. Darslikda berilgan misollarni aynan doskaga ham yozib, butun sinfga birgalikda o'qitish mumkin.

Hamma so'zga -ga qo'shimchasi qo'shila-yotgani, so'zga qo'shilgandan keyin so'z oxi-ridagi tovushga moslashib o'zgarayotganiga e'tibor qaratish kerak.

Shundan so'ng daftarning 46–47-betlarida mashq bajartiriladi.

### **Topshiriq. Quyidagi so'zlarga -ga qo'shimchasini to'g'ri qo'shing.**

Bolalar mustaqil bajarishi muhim. Mashqni bajarish jarayonida darslikning 16-betidagi ma'lumotdan foydalanishi zarur ekanligini ta'kidlash lozim.

Mashq bajarib bo'lingach sinf bilan umumiyy ravishda tekshiriladi. Mashqning kaliti:

1. Chumchuq + ga – chumchuqqa.
2. Kapalak + ga – kapalakka.
3. Arslon +ga – arslonga.
4. Chumoli +ga – chumoliga.
5. Jo'ja +ga – jo'jaga.
6. Quduq+ga – quduqqa.
7. O'tloq+ ga – o'tloqqa.
8. Savat+ ga – savatga.

## **6-soat**

**Darsning maqsadi:** she'riy matn haqida dastlabki nazariy tushunchani berish.

**Eslatma:** "nazariy" so'zi bu yerda o'qituvchiga tushuntirish uchun ishlataldi. Bolaga

nazariy, nazariya so'zlari aytilmaydi, so'ralmaydi ham.

**Vosita:** Bir mazmunning ham she'riy, ham nasriy ifodasini o'qib tushunish va she'rdagi qofiyadosh so'zlarni topish orqali.

## **Kirish**

Darsning tashkiliy qismidan so'ng bolalardan o'tgan mavzu haqida esida qolganlari so'raladi. Bola o'tilgan hamma narsani yoddan bilishi shart emas. Ayrim so'zlarning aytilishi va yozilishi farq qilishini bir-ikkita misol bilan eslab qolgan bo'lsa yetarli. Shuningdek, jo'naliш kelishigining **k** va **q** bilan tugagan so'zlar da qanday o'zgarishini so'rash va bolalarning to'g'ri javob berishiga erishish lozim.

## **Asosiy qism**

Shundan so'ng darslikning 17-betidagi gap va she'riy parcha bolalarga o'qitiladi.

**Topshiriq. Yashil va sariq rangda ajratilgan gaplarni solishtiring. Ularning farqiga e'tibor bering.**

3-4 bolaga o'qitilgach, ularga quyidagi savollar bilan murojaat qilinadi:

Siz o'qigan birinchi va ikkinchi parcha nima haqida?

Bu savolga berilgan javoblarda ikkala matnda ham bitta ma'lumot haqida gap ketayotganligiga e'tibor qaratish kerak. Bolalarning javoblari bitta xulosaga birlashtiriladi: demak, bu ikkala matn ham bitta narsa haqida.

Endi ayting-chi, ular nimasi bilan farq qiladi?

Bolalardan har qanday kichik farqqa oid javoblarni qabul qilish kerak. Bu javoblar qatorlar soni haqida bo'ladimi yo so'zlar soni haqida bo'ladimi – hamma javoblarga rag'batlantiruvchi munosabat bildirish zarur.

**Topshiriq. Quyidagi ta'riflarning qay biri yashil, qay biri sariq rangdagi gaplarga mos ekanini ayting.**

Keyin pastda berilgan ta'rif o'qitiladi: bir-birimiz bilan gaplashganda ishlatalidan gaplarga o'xshaydi.

O'qilgach, bolalardan so'raladi: bu gap yuqorida o'qigan ikkita matndan qaysi biriga to'g'ri keladi? Ulardan qaysi bira biz har kuni gaplashadigan gaplarga o'xshaydi?

Keyin ikkinchi ta'rif o'qitiladi: Hamma qatori bir xil ohangda o'qiladi. Qatorlar oxirida aytishi o'xshash so'zlar ishlatalgan.



Yana bolalarga savol bilan murojaat qilinadi: bunisi-chi, qaysi biri haqida deb o'ylaysiz? Sariq rangda berilgan matnning ikkinchi va to'rtinchi qatorining oxirida qanday so'z kelyapti? (qarovsiz - ko'rmagansiz) Ular ohangdoshmi?

Bolalardan javob olingach, "mana siz oddiy matn bilan she'rnинг farqi nimada ekanligini yaxshiroq tushunib oldingiz" deyiladi.

Keyingi mashqni bolalar bilan birlgilikda doskada bajargan ma'qul. Mashqning sharti biroz noodatiy bo'lgani uchun bolalar uni mustaqil bajarishga qynalishi mumkin.

Keyingi bajaradigan mashqimiz ham "Jonli savatcha" ertagi asosidagi mashq. Unda siz kitobni ochib, ertakni o'qib, berilgan so'zlarni shoir qanday ta'riflaganini topishingiz kerak.

### **Topshiriq. Berilgan so'zlarga ertakda keltirilgan mos ta'rifni topib yozing.**

Namuna sifatda "savatcha" so'ziga "chiroyli" ta'rifi keltirilgan. Endi kitobimizni ochib (darslikning 14-beti), o'qib ko'ramiz:

*Shundoq o'rmon chetida, o'tloq bo'yida  
Chiroyli bir savatcha yotar qarovsiz.*

Ko'rganingizdek, muallif (shoir) savatchani chiroyli deb aytyapti. Endi qolgan so'zlarga qanday ta'rif berilganini qidiramiz.

She'rnii o'qishni davom ettiramiz:

*Bandi pishiq va nafis, tuxumi ham bor,  
Bunaqasini ehtimol ko'rmagansiz siz.*

Bu yerda *bandi* deganda savatchaning bandi nazarda tutilgan. Qanaqa ekan savatchaning bandi?

Bolalardan og'zaki javob olgach, doskaga bir o'quvchini chiqarib yozdiriladi.

Savatchaning bandi – pishiq va nafis.

Ertakni o'qishni davom ettiramiz:

*Ichidagi oq tuxum bir payt qimirlab,  
Tumshug'ini chiqardi sho'x jo'ja shodon.*

Jo'ja qanaqa ekan? Bolalardan og'zaki javob olgach, doskaga boshqa bir o'quvchini chiqarib yozdiriladi.

Jo'ja – sho'x.

Endi bizda chumchuq va chumoli so'zlari goldi. Bu so'zlar ishtirok etgan qatorlarni o'qiyamiz:

*Uchib kelib qandaydir bir esli chumchuq,  
Uraverdi tumshug'in tuxumga tinmay.*

Chumchuq qanaqa chumchuq ekan? Og'zaki javob olingach, yana bir o'quvchi doskaga chiqarib yozdiriladi:

Chumchuq – esli.

Endi chumoli bor qatorlarni o'qiyamiz:

*Bu qandayin gap axir, bu qandayin gap?*

Nahot yordam berolmas "tutqun"ga hech kim?

Ini tomon yo'l olgan ziyorak chumoli Turib qoldi jo'janing qarshisida jim.

Ziyorak so'ziga urg'u berib o'qish maqsadga muvofiq. "Chumoli qanaqa chumoli ekan?" deb bolalardan so'raladi va javob olingach, buni ham doskada yoziladi:

Chumoli – ziyorak.

### **Topshiriq. Berilgan so'zlarning ohangdoshini ertakdan toping.**

Keyingi mashq ham she'riy ertak asosida. Unda qofiyadosh so'zlarni topish so'raladi. "Jonli savatcha" ertagini har bir to'rtligida ikkinchi va to'rtinchi qator oxirida kelgan so'zlar qofiyadosh ekanligini bolaga aytish, tushuntirish, birinchi to'rtlikni o'qib eshittirib, qarovsizsiz so'zlar ohangdosh ekanligini aytish kerak.

Mashq kaliti:

Qarovsiz – siz.

Shodon – nogahon.

Yorib – horib.

Qarab – mo'litarab.

Tinmay – bilmay.

Kim – jim.

Boshlab – gap.

### **Yakuniy qism**

Dars oxirida bolalarga keyingi darsda kitob yasashlarini, rangli qog'oz, oq qog'oz, qaychi, yelim, rangli qalam olib kelishlari lozimligini aytish zarur.

## **7-soat**

**Darsning maqsadi:** bolalarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirish

**Vosita:** o'zlar to'qigan ertak uchun kitobcha yasash, rasm tanlash yoki chizish.

### **Kirish**

Darsning tashkiliy qismidan so'ng bu dars "Ertakdag'i qahramon" mavzusining oxirgi darsi ekanligi aytildi. Bu mavzu doirasida qanday ertaklar haqida gaplashilganini bolalardan so'rash mumkin.

### **Asosiy qism**

Darsda (hafta kuni bilan aniqroq aytilsa, maqsadga muvofiq) sizlar o'zingiz ertak to'qig'andingiz. Bugun ana shu ertak asosida kitob yaratamiz.



**O'zingiz to'qigan ertak uchun kitobcha yasang. Quyidagi savollar asosida kitobni qanday yasashni rejalashtiring:**

(Biror ertak kitobni qo'lga olib, gaplar mazmuniga mos ravishda ko'rsatib turish zarur). Bilasiz, kitoblar muqova va bir necha betdan iborat bo'ladi. Ertak kitoblardan matndan tashqari rasmlar ham joy oladi.

Ertagingiz asosida qanaqa kitob yaratishni xohlaysiz, avval o'ylab ko'ring. Bunda sizga darslikda berilgan savollar yordam beradi, deb darslikning 18-betidagi savollarning har birini alohida o'qitib, har bir savoldan keyin 4-5 ta o'quvchidan javob olish muhim. Hamma savollarga javob olib bo'lingach, bolalarga kitob yasashni boshlash mumkinligi aytiladi.

Tayyor kitob turli rasmlar bilan bezatiladi.

Oxirida "kitobni yana qanday bezatishni

xohlardingiz?", deb o'quvchilarning o'zlariga erkinlik berish mumkin.

Bu darsda muhimi – bolani ijoddan bezdirmaslik. Unga har bir bosqichda xayrixohlik bilan rag'batlantirib turish. Rag'batni ma'lum shaklda berish shart emas, munosabatning o'zi yaxshi bo'lsa, yetarli, bola buni his qiladi.

### Yakuniy qism

Agar dars davomida ulgurilmasa, uyda tutgatishga ruxsat beriladi. Keyingi darsda albatta hammaning kitobchasini ko'rib chiqib, ularning har biridan nimasinidir (o'ziga xos nimasinidir) maqtab qo'yish shart. Har bir bola o'ziga xos ravishda maqtovga munosib ekanligini his qilsin.

## BIRINCHI KITOBI

### Nutqiy mavzuning maqsadi:

Bolada kitoblar bilan yaqindan tanishtrish, kitoblarga nisbatan ijobjiy munosabatni shakllantirish asnosida unda kitob o'qish, bilim olishga rag'batni kuchaytirish. Kitob tushunchasiga bog'liq til birliklari bilan tanishtirish.

**BIRINCHI KITOBI**

Rasmagi nima? Siz ularning birortasini oldin ko'rganmisiz? Ularda nima haqida yozilgan deb o'ylaysiz?

Rasmida qanday joy tasvirlangan? U yerda nima qilish mumkin? Siz ulardan biortasida bo'lganmisiz?

### 1-soat

**Darsning maqsadi:** Bolalarda kitob bilan bog'liq taassurotlarini faollashtirish, kitoblar haqidagi tasavvurlarini rivojlantirish.

**Vosita:** kitoblarning turlari haqida ma'lum berish, kitob bilan bog'liq: kutubxona, kitob do'konи kabi joylarlar haqida savol-javob qilish.

### Kirish

Darsning tashkiliy qismidan so'ng oldingi darsda "Ertakdag'i qahramon" mavzusini tutganlarini ayтиб o'tish lozim. Oxirgi darsdag'i kitob yasash mashg'uloti haqidagi taassurotlarini so'rash kerak. Bunda quyidagi savollar bilan murojaat qilish mumkin:

1. Kitob yasash sizga yoqdimi?
2. Qaysi ish sizga eng ko'p yoqdi?
3. Qaysi biri eng qiyini bo'ldi?

### Asosiy qism

Bolalarning kitob yasash mashg'uloti haqidagi taassurotlarini xulosalab, kitob yaratish oson ish emasligiga o'zları ishonch hosil qilgani so'raladi. Yangi mavzu tanishtiriladi:

Bugun sizlar bilan "Birinchi kitobim" mavzusini boshlaymiz (mavzu doskaga yoziladi). O'qigan yoki rasmlarini tomosha qilgan birinchi kitobingizni eslay olasizmi? U qanaqa kitob edi?

Ushbu savollarga Iloji boricha ko'proq o'quvchidan javob olinadi.

Keyin bevosita darslikdagi rasmlarga qaraladi. Unda darslik, badiiy adabiyot, ensiklopediya, lug'at, qo'llanmalarning rasmi berilgan.

### **Topshiriq. Rasmdagi nima? Siz ularning birortasini oldin ko'rganmisiz? Ularda nima haqida yozilgan deb o'ylaysiz?**

Bolalarga quyidagi savollar bilan murojaat qilinadi:

Rasmda nima tasvirlangan?

Ular bir-biridan nimasi bilan farq qiladi?

Siz bu kitoblarning qaysilarini ko'rgansiz?  
Qayerda ko'rgansiz?

Masalan, rasmda birinchi turgan kitobdan qachon va nima uchun foydalanamiz? Uni qachon ochib o'qiyimiz?

Bolalardan matematika darsida, mактабда, dars paytida kabi javoblar olingach, "biror-bir dars uchun ishlataladigan kitoblar darslik deyiladi" deb aytib, doskaga *darslik* so'zi yoziladi.

Keyingi kitob-chi? Uni nima uchun o'qiyimiz?  
Siz shunga o'xshagan kitob o'qiganmisiz?

Bolalardan javob olingach, "turli ertak, hikoya, she'r, qissa, roman kabilalar chop etilgan kitoblar badiiy kitoblar deyiladi", deb *badiiy kitob* birikmasi doskaga yoziladi. "Badiiy so'zida ikkita *i* ketma-ket kelishiga e'tibor bering. Talaffuzda ham farqlanadi. Masalan, *zamonaviy, tarixiy* kabi so'zlarda bitta *i* yoziladi, lekin *badiiy, tabiiy* so'zlarida ikkita *i* ketma-ket keladi" deb tushuntirib ketiladi. Lekin bu ma'lumot bolalardan qayta so'ralmaydi, ya'ni bola buni yod olishi kerak emas.

Keyingi kitobning ustiga "Bolalar ensiklopediyasi" deb yozilgan. Siz bunday kitoblarni ko'rganmisiz? Ensiklopediyalarda dunyodagi har xil narsalar haqida ma'lumot beriladi. Narsalarning nomlari alifbo tartibida joylashtirilgan bo'ladi.

Doskaga *ensiklopediya* so'zi yoziladi.

Keyingi kitobning muqovasiga nima deb yozilgan?

Bolalardan javobni olgach, "bunday kitoblarda nima yozilgan bo'ladi?" deb so'raladi. Bolalardan javob olgach, ularni umumlashtirib "lug'atlarda biz ishlataladigan so'zlarning boshqa bir tilda, masalan, ingliz, arab yo rus tilida nima deyilishi yozilgan bo'ladi. Unda ham so'z-

lar alifbo tartibida beriladi" deyiladi.

Rasmdagi oxirgi kitobning muqovasiga nima deb yozilibdi?

Bolalar o'qib bergach, "bu kitobda nima yozilgan deb o'ylaysiz?" deb so'raladi.

Bolalardan javob olingandan keyin tushuncha beriladi. "Har xil narsalarni ishlatganda yoki ko'chada yurganda o'ziga zarar yetkazib qo'ymasligi, masalan, yiqilib tushmasligi, qo'lini kesib olmasligi uchun nimalar qilish kerakligi yozilgan bo'ladi. Bunday mazmundagi kitoblar qo'llanmalar deyiladi".

Qo'llanma so'zi doskaga yoziladi. Bu so'zda *I* harfi ikkita yozilishiga diqqat qaratiladi. So'zni ikkita *I* ni ta'kidlab talaffuz qilib ko'rsatib beriladi, bolalarga ham talaffuz qildiriladi.

1. Kitobning turini toping.

2. Kitob turini bildiruvchi so'zlarni yozing.

Kitob tarixi haqidagi matnni tinglang.

Ossuriya – hozirgi Iroq hududida bo'lgan qadimgi davlat.

20

### **Rasmda qanday joy tasvirlangan? U yerda nima qilish mumkin? Siz ulardan biror-tasida bo'lganmisiz?**

Keyin pastdagи rasmlarga o'tiladi. Bolalar dan rasmda nima tasvirlangani so'raladi.

Birinchi rasmda kitob do'koniga tashqi va ichki tarafidan ko'rsatilgan. Ikkinci rasmda esa kutubxonasi. Bolalardan quyidagilar so'raladi:

Siz kitob do'koniga borganmisiz? Siz yashaydigan joyda qayerda kitob sotiladi? Sotunda qanaqa kitoblarni ko'rgansiz? Qaysi kitobni olgansiz yoki olgingiz kelgan?

Kutubxonaga kirganmisiz? Kutubxonada nima qilinadi? Maktab kutubxonasiga a'zomisiz? Shu soatning oxirida maktab kutubxonasi-



ga borib, kichik ekskursiya uyuşdırish mumkin. Maktab kutubxonasi dagi kitoblar, kutubxona tartib-qoidalari bilan qisqacha tanishish va a'zo ham bo'lish maqsadga muvofiq.

### 1. Kitobning turini toping.

Endi daftardagi mashqlar bajariladi. Birinchi soat uchun ikkita mashq berilgan.

1-mashqda *darslik*, *badiiy adabiyot*, *ensiklopediya*, *lug'at*, *qo'llanma so'zlari* o'ttada yozilgan va atrofida kitoblarning rasmi berilgan. Bolalar har bir so'zni mos rasm bilan chiziq orqali tutashtirib chiqishlari kerak. Namuna siyatida ensiklopediya so'zi va kitobi birlashtirib ko'rsatib berilgan. Bolalarga shartlar yaxshilab tushuntirilgach, ularning har biri mashqni mustaqil bajaradi.

### Kitob turini bildiruvchi so'zlarni yozing.

2-mashqda esa *darslik*, *badiiy adabiyot*, *ensiklopediya*, *lug'at*, *qo'llanma so'zlarining harflari* chalkashtirib berilgan. Bolalar harflarni to'g'ri joylashtirib, so'zni yozishlari kerak. Avval namuna tushuntiriladi. Buning uchun mashqda berilgan *btoik* harflari doskaga yozilib, harflarni alohida-alohida o'qib berib, "bu harflar qanday so'zni hosil qilishi mumkin?" deb so'raladi. *Kitob* so'zi aytalgach, doskaga *btoik* harflarining to'g'risiga avval **k** harfi yoziladi, yozilgach, *btoik* dagi **k** ning ustiga chizib, o'chirib qo'yiladi. Shu tartibda hamma harflar o'rniغا qo'yib yozib ko'rsatib beriladi.

Birinchi mashqda ushbu so'zlar yozilgan. Bola undan bemalol foydalansin. Ushbu mashqdan maqsad bolalar so'zning og'zaki va yozma shakli o'tasidagi aloqani yaxshi o'zlashtirishlaridir. O'quvchi bu so'zlarni birinchi marta ishlatajotgan, yozma shaklini birinchi marta ko'rayotgan bo'lishi mumkin. Shuning uchun undan shu zahoti qaramasdan turib to'g'ri yozishni talab qilish to'g'ri bo'lmaydi.

### 2-soat

**Darsning maqsadi:** audiomatnni tinglash jarayonida tafsilotlarga diqqat qilish, audiomatnda ishlatalgan turli so'z va birikmalar, gaplarga e'tibor qilish ko'nikmasini rivojlantirish.

**Vosita:** kitoblar tarixi haqidagi audiomatnni eshitish va matn mazmuni bo'yicha berilgan savollarga javob berish.

### Kirish

Darsning tashkiliy qismidan keyin bolalarga "Birinchi kitobim" mavzusi o'tgan darsda boshlanganligi, unda kitoblarning turlari haqida ma'lumotga ega bo'lingani eslatiladi. "Birinchi kitobim" mavzusi doskaga yozib qo'yiladi.

Bugungi darsimizda kitoblarning tarixi bilan tanishamiz. Kitoblar qachon paydo bo'lgan, birinchi kitoblar qanaqa bo'lgan – mana shular haqida bilib olamiz.

Audiomatnni qo'yib berishdan oldin bolalar ga quyidagi savollar beriladi:

Qadimda qog'oz bo'lmanan. Nima deb o'ylaysiz, kitoblar bo'lganmi?

Qog'oz bo'lmasa, nimaga yozish mumkin?  
Siz qog'ozdan boshqa qandaydir boshqa buyumga yozib ko'rghanmisiz?

Bolalarning javoblari eshitilgach, "Mana, hozir "Loy va qog'oz kitoblar" degan matnni eshitib, kitoblarning yaratilishi haqida bilib olamiz" deylidi.

### Topshiriq. Kitob tarixi haqidagi matnni tinglang.

Audiomatn qo'yib beriladi. Agar eshittirish imkonni bo'lmasa, o'qituvchining o'zi baland ovozda, ifodali o'qib berishi kerak.

Audiomatn

### LOY VA QOG'ÖZ KITOBLAR

Kitob o'qigan vaqtindan boshqa olamlarga sayr qilasiz. Bir gal Kenja botir kabi ajdaho bilan jang qilasiz. Yana bir gal Zumrad kabi o'rmonda adashib qolasiz. Demak, kitob sizga boshqa odam bo'lib yashab ko'rish imkonini beradi. Olamning sir-u sinoatlariga olib kiradi.

Qadimda odamlar loy va tosh kabi narsalarga yozishgan. Chunki u vaqtida hali qog'oz ixtiro qilinmagan-da. Masalan, ossuriyaliklar yumshoq loyni xamir kabi yoyib so'ng ustiga yozishgan. Loy bo'lagi oftobda quritilgan. Tarixda loydan yasalgan kitoblardan iborat kutubxonalar bo'lgan.

Xitoya esa kitob bambuk o'simligiga yozilgan. Bambukning tekis tanasi yozish uchun qulay edi. Yozuv bitilgan bambuk bo'laklari ip bilan bir-biriga bog'langan. Shunday qilib bambukli kitob hosil bo'lgan.

Qadimgi misrliklar bo'lsa to'rtburchak tosh bo'laklariga o'yib yozishgan. Keyinroq Xitoya qog'oz ixtiro qilinadi. Shu tariqa biz biladigan kitoblar paydo bo'lgan.

Audiomatnni sinfning holati, darajasidan kelib chiqib, 2 yo 3 marta eshittirish mumkin.

Eshitilgan matn yuzasidan bolalar qanday ma'lumotlarni tushunganini bilish muhim. Shuning uchun bolalardan birinchi umumiy mazmun haqida so'ragan ma'qul.

Matn nima haqida ekan?

Nimalarni bilib oldingiz?

Matnda siz bilmagan so'zlar ham bor ekanmi?

Matnda ossuriyaliklar, bambuk so'zları ishlatilgan. Mana shu so'zlar bolaga tushunarsiz bo'lishi mumkin.

Shuning uchun bolaga tushuntirib o'tish kerak: Ossuriya – hozirgi Iroq davlati o'rnda bo'lgan qadimgi davlat. Ossuriyaliklar esa shu davlat hududida yashagan odamlar.

Bambuk - qamishga o'xshagan o'simlik. Tansasi silliq, ichi bo'sh bo'ladi.

So'ng darslikdagi to'rtinchı savol beriladi:

Qadimgi kitoblar qanday narsalardan qilin-gan?

Bunda bola eshitgan matni asosida loy, bambuk va tosh bo'laklaridan kitoblar qilinganini aytishi kerak.

Loy kitoblar qanday yasalgan ekan?

Matnga asoslangan holda, o'quvchi loyning xamirga o'xshatib yoyilib, keyin unga yozib, of-toba quritilganini aytishi kerak.

Bambuk kitoblar-chi?

Javobda bambuk bo'lagiga yozilganligi bambuklar ip bilan bir-biriga bog'langanligi aytishi kerak.

Hozirgi kitoblar nimadan qilinadi?

Qog'ozdan qilinishi, shuningdek, kompyuter yoki smartfon, planshetda o'qish mumkin bo'lgan elektron kitoblar ham borligi aytib o'tishi kerak.

### **Topshiriq. Rasmdagilarning qaysi biri loy kitob, qaysi biri bambuk kitob va qaysi biri tosh kitob?**

Endi bolalarning e'tibori darslikning 21-betidagi rasmga qaratiladi. Rasmda tasvirlangan narsalarning qaysi biri loy kitob, qaysi biri bambuk kitob, qaysi biri tosh kitob ekanligi so'raladi?

Rasmda birinchi bambuk kitob, keyin loy kitob va pastda tosh kitob aks etgan.

### **Topshiriq. Quyidagi davlatlarda qaysi kitob turlari ilk bora qo'llangan?**

Shundan keyin mashq daftarinining 49-beti-

dagi 3-mashq bajariladi. Har bir kitob to'g'risiga qaysi davlatda ishlatilgani yozilishi kerak. Buning uchun matnni yana bir marta o'qib/ qo'yib eshittirish kerak.

### **Yakuniy qism**

Biz bugun sizlar bilan "Birinchi kitobim" mavzusini davom ettirib, eng birinchi kitoblar qanday yaratilgani haqida, ularning turlari haqida ma'lumotga ega bo'ldik. Keyingi darsda ham ushbu mavzuni davom ettiramiz. Unda "Bilmasvoyning sarguzashtlari" kitobi haqida suhbatlashamiz.

### **3-soat**

#### **Darsning maqsadi:**

Bolada o'qish savodxonligini, o'qib tushunish malakasini rivojlantirish, matnlar haqidagi tasavvurini boyitish

#### **Vosita:**

"Varaqjonga rahmim kelgan" degan sarlavhali matn, unda aks etgan "Bilmasvoyning sarguzashtlari" kitobidan olingen taassurotlarning bayoni, matn yuzasidan berilgan savollarga javob berish

### **Kirish**

Darsning tashkiliy qismidan so'ng, o'tgan darslarda "Birinchi kitobim" mavzusining o'tilganini aytib, mavzu doskaga yoziladi. O'tgan darslarda kitob turlari va kitobning paydo bo'lish tarixi o'rganilgani eslatiladi, qadimda qanday usulda kitoblar chop etilgani so'raladi.

Navbatdagi darsda birinchi o'qigan kitob haqida suhbatlashish aytildi.

Bolalarga quyidagi savollar bilan murojaat qilinadi:

Siz o'zingiz mustaqil kitob o'qiganmisiz?

U qanday kitob edi?

Siz nimani his qilgansiz?

Agar bolada bu savollarga tasdiqlovchi javob bo'lmasa, shu darslar davomida qaysi matn yo qaysi mavzu ularda qanday taassurot qoldirgani haqida so'rash mumkin.

Masalan, nisbatan yaqinda o'tilgan mavzu "Ertakdag'i qahramon" mavzusida "Jonli savatcha" ertagi yuzasidan taassurotlarini so'rash mumkin.



22

## Asosiy qism

Bugun sizlar bilan "Bilmasvoyning sarguzashtlari" kitobini o'qigan qizning taassurotlari haqida yozilgan matnni o'qiyimiz. Avval men sizni "Bilmasvoy va do'stlarining sarguzashtlari" kitobi bilan tanishtiraman.

Kitobning o'zini ko'rsatish maqsadga muvofiq, agar kitob yo'q bo'lsa, kitobning rasmini ko'rsatish kerak.

"Bilmasvoy va do'stlarining sarguzashtlari" bolalar uchun yaratilgan ertak-qissa.

Uni rus yozuvchisi Nikolay Nosov yozgan. Mazkur ertak-qissa Bilmasvoy ismli bola va uning o'rtoqlari haqida. Bu asar rus tilida yozilgan, uni o'zbek tiliga taniqli bolalar shoiri Po'lat Mo'min tarjima qilgan. Po'lat Mo'minning ham rasmini ko'rsatib o'tish mumkin. Asar asosida ishlangan multfilm ham bor. (multfilmning you-tubedagi manzili: <https://www.youtube.com/watch?v=u8t6MV2x0dE>)

Hozir o'qiydigan matnimizda mana shu asar haqida gap boradi. Matnning sarlavhasi "Varaqjonga rahmim kelgan" (darslikning 23-beti). Sarlavha doskaga yozilishi maqsadga muvofiq.

Varaqjon – ushbu ertak-qissadagi qahramonlardan biridir.

1-savolga javob berishda muallif birinchi kitobini o'qiganda 5 yoshda bo'lganligiga e'tibor qaratiladi. Qo'shimcha ravishda "Siz ne-

cha yoshingizda o'qishni o'rgandingiz?" deb so'rash mumkin.

2-savolga javob "Bilmasvoy va do'stlarining sarguzashtlari" javobi bo'lishi kerak. 3-savolga javobda kitobni muallifning buvisi olib berganligi aytildi. 5-savolga javoban Varaqjoni es-hakka aylantirib qo'yishi aytildi.

6- va 7-savollarga bolalar erkin, o'z tajriba-sidan kelib chiqqan holda javob berishlari muhim. Agar bola hali o'zi mustaqil kitob o'qiman bo'lsa, undan multfilm yoki bolalar uchun badiiy film haqida so'rash mumkin. Uni javob berishga, kitob/multfilm/badiiy filmdan olgan taassurotlarini eslab gapirib berishga undash kerak. Oxirgi ikkita savolga hammadan javob olishga intilish kerak. Bu o'qituvchiga o'quv-chilarni darsga, o'qish jarayoniga yanada qiziqтирishga imkon beradi. o'quvchi esa o'ziga qaratilgan e'tiborni his qilib, o'qishga rag'bat oshadi.

## 4-soat

**Darsning maqsadi:** Audiomatnni ting-lash jarayonida tafsilotlarga diqqat qilish, audiomatnda ishlatilgan turli so'z va birikmalar, gaplarga e'tibor qilish ko'nikmasini rivojlantirish.

**Vosita:** "Bilmasvoy va do'stlarining sarguzashtlari" ertak-qissasidan olingan par-chadagi dialog, uning mazmuni yuzasidan savollarga javob berish, so'zlarning qo'llanishi bo'yicha mashq bajarish.

## Kirish

Darsning tashkiliy qismidan so'ng "Birinchi kitobim" mavzusi davom etayotgani aytilib, o'tgan darsda nima o'tilgani esga olinadi. "Varaqjonga rahmim kelgan" matni yuzasidan savol-javob qilinadi. "Bilmasvoy va do'stlarining sarguzashtlari" kitobini o'qigan qizchaning Varaqjonga nega rahmi kelgan edi?" savoliga berilgan javobdan keyin bugungi darsda "Bilmasvoy va do'stlarining sarguzashtlari" kitobining aynan o'sha qismi bilan tanishamiz, deb aytildi.

## Asosiy qism

Doskaga "Bilmasvoy va do'stlarining sarguzashtlari" ertak-qissasining nomi yozib qo'yiladi. Uni kim yozgani, o'zbek tiliga kim tarjima qilgani savol-javob asosida eslatib o'tiladi.

## “Bilmasvoy va do’stlarining sarguzashtlari” kitobidan parcha tinglang.

Endi sizlar bilan “Bilmasvoy va do’stlarining sarguzashtlari” ertak-qissasidan parcha eshitamiz. Audiomatn qo’yib beriladi, qo’yib eshittirish imkon bo’lmasa, o’qituvchi o’zi o’qib beradi:

### Bilmasvoy Quyosh shahrida

Nikolay Nosov

Haqiqatan ham uy juda katta edi. Bilmasvoy boshini ko’tarib qaragan edi, boshidagi qalpog’i tushib ketdi. U yerga engashib, qalpog’ini olmoqchi bo’lgandi, to’satdan kutilmagan hodisa ro’y berdi. Xuddi shu paytda Varaqjon ismli mitti bola ko’chada kitob o’qib ketayotgandi. Varaqjon uyida ham, ko’chada ham, o’tirgan yoki yotganida ham, tippa-tik turganida ham va hatto yurganida ham kitob o’qiy oladigan kitobxonlardan edi.

U kitobga chalg’ib, Bilmasvoyna urilib yiqilib tushdi. Bilmasvoyni ham yiqitib yubordi. Shunda Bilmasvoyning boshiga uning oyog’i tegib ketdi.

- Ana, halitdan boshimga chiqa boshlashdi!
- deb baqirdi Bilmasvoy. – Eh, eshak!
- Kim eshak? Men eshakmanmi? – dedi o’rnidan turayotib Varaqjon.
- Bo’lmasa kim? – deb baqirdi Bilmasvoy.
- Fikringizga qo’shila olmayman, – dedi odob bilan Varaqjon. – Eshak to’rt oyoqli, uzun quloqli hayvon...
- O’sha to’rt oyoqli hayvon siz-da!
- Yo’q, ehtimol, sizdarsiz o’sha to’rt oyoqli hayvon!
- Men to’rt oyoqli hayvon ekanmanmi? – deb tutaqib ketdi Bilmasvoy. – Kim to’rt oyoqli hayvon ekanini sizga ko’rsatib qo’yaman.
- Qani, ko’rsating-chi, ko’rsating-chi!
- Ko’rsataman.
- Gapingiz yolg’on! Ko’rsata olmaysiz!
- Hah, mening gapim yolg’onmi? – deb baqirdi Bilmasvoy alam qilganidan bo’g’ilib. U shu zahoti sehrli tayoqchasini silkitib: – Shu pakana bolaning eshakka aylanib qolishini istayman! – deb baqirdi.
- Yana nima... – deganicha boshqa gapirolmay qoldi Varaqjon.

U: “Yana nimalarni istaysiz”, – demoqchi edi-yu, ammo shu zahoti eshakka aylanib, dumini likillatgancha yo’lkadan shataloq otib ketdi. Qo’lidan tushirib yuborgan kitobcha yo’lka o’rtasida qolaverdi.

Toshkent: G’afur G’ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1987. Po’lat Mo’min tarjimas, 167-bet.

Matnni 2-3 marta eshittirish mumkin.

Shundan so’ng mashq daftarinining 49–50-betlarida berilgan test savollari ishlanaadi.

### Topshiriq. To’g’ri javoblarni belgilang.

Bolalar avvaldan muqobil javobli testni ishlash tajribasiga ega bo’lmasa, o’rgatiladi. Bunda har bir savol o’qilib, har bir javob ham o’qilib, oxirida to’g’ri javob yuzasidan bolalardan fikrlarini so’rab, keyin belgilanadi.

1. Varaqjon urilib ketganida Bilmasvoy nima qilayotgan edi?

- A. Uyni tomosha qilayotgandi.
- B. Yerdan qalpog’ini olish uchun engashgandi.
- C. Kitob o’qiyotgan edi.

2. Bilmasvoy Varaqjonni nima deb haqorat qildi?

- A. Varaq-paraq.
- B. Echki.
- C. Eshak.
- D. Bilmasvoy Varaqjonni qanday qilib eshakka aylantirdi?
- A. Sehrli tayoqcha bilan.
- B. “Kuf-suf” bilan.
- C. Sehrli kitob bilan.

Javoblar: 1-B; 2-D; 3-A.

Shundan so’ng darslikda berilgan savollar yuzasidan savol-javob qilinadi. Bunda savollarni bolalarning o’ziga o’qitib, keyin og’zaki javob olgan maqsadga muvofiq. Har bir savolga kamida 4-5 o’quvchi javob berishiga erishish kerak.

Har bir savol bolaning fikrlashiga, badiiy asarni his qila olish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan. Shuning uchun bolalardan bir xil javob kutmaslik kerak. Bolalarning har bir javobi rag’batlantirish zarur.

Keyingi mashq (darslikning 24-beti) bolaning so’zlarga nisbatan hushyorligini oshirishga xizmat qiladi.

### Berilgan parchadagi qaysi so’zlar Bilmasvoy Varaqjonni jahl ustida eshakka aylantirganini bildiradi?

– Hah, mening gapim yolg’onmi? – deb baqirdi Bilmasvoy alam qilganidan bo’g’ilib. U shu zahoti sehrli tayoqchasini silkitib: – Shu pakana bolaning eshakka aylanib qolishini istayman! – deb baqirdi.

Bu mashqni bolalar bilan birgalikda bajarish kerak. Bolaga mustaqil qildirish ham, o’qituvchining o’zi topib berishi ham samarali bo’lmaydi. Aksincha, birga o’qib, har bir so’zga alohida to’xtalib, jahl chiqqandagi holatni bil-



dirayotgan so'zlar birgalikda aniqlanishi kerak. Bola buni intuitiv ravishda biladi, faqat o'sha bilganiga diqqat qilishga o'rgatiladi.

Javob:

Hah, mening gapim yolg'onmi? – deb baqirdi Bilmasvoy alam qilganidan bo'g'ilib. U shu zahoti sehrli tayoqchasini silkitib: – Shu pakan-a bolaning eshakka aylanib qolishini istayman! – deb baqirdi.

Bolalarga yo'naliш berish uchun quyidagi savollardan foydalanish mumkin:

"Hah" so'zini biz qachon ishlatamiz?

Birinchi gapni o'qiganimizda biz nimani bilib oldik? Bilmasvoyning baqirganini bildik. Odam qachon baqiradi? Nega baqiribdi? Unga alam qilibdi. Alam qilganidan bo'g'ilib ketibdi. Sizda shunaqa holat bo'lganmi hech? Alam qilganda bo'g'ilishni his qilganmisiz?

Demak, mana shu so'zlardan biz Bilmasvoyning jahl ustida Varaqjonni eshakka aylantirib qo'yanini bildik.

## 5-soat

**Darsning maqsadi:** Bolada yozma savodxonlikni, matn yaratish ko'nikmasini rivojlantirish

**Vosita:** "Birinchi kitobim" mavzusi doira-sida matn yozish.

## Kirish

Darsning tashkiliy qismidan so'ng oldingi darsda o'tilgan mavzu eslatiladi. "Bilmasvoy va do'stlarining sarguzashtlari" kitobidan Varaqjonning eshakka aylantirilgani haqida o'tgan darsda o'qilgan qism yuzasidan savol-javob qilinadi. Bugun ham "Birinchi kitobim" mavzusi davom ettirilishi eslatilib, bugun har bir o'quvchi o'zining tajribasi haqida gapirishi aytildi.

## Asosiy qism

Doskaga "Birinchi kitobim" mavzusi yozildi.

Bir necha darsdan beri sizlar bilan shu mavzuda gaplashyapmiz. Bugun har biringiz o'zingiz birinchi o'qigan kitob haqida aytib berasiz.

Darslikning 24-betida berilgan savollar asosida o'quvchilar ilk o'zlarini birinchi o'qigan kitoblarini haqida gapiradi.

1. Birinchi o'qigan kitobingiz qaysi?
2. U kitobni sizga kim bergen?
3. Kitobni kim yozgan?

4. Undagi qaysi voqeа esingizda qolgan?  
Bu savollar o'qituvchiga asosiy maqsadini ko'rsatish uchun tuzilgan, sinfning vaziyati, darajasidan kelib chiqib, o'qituvchi samarani ta'minlaydigan qo'shimcha savollarni ham berishi mumkin.

Mazkur savollarga hamma o'quvchidan, juda bo'lmaganda, fikrini bildirishda yordam-ga ehtiyoji bor deb hisoblagan o'quvchilarning hammasidan javob olishga intilish kerak.

Hammani gapirtirib bo'lgach, mashq daftaring 50-betida berilgan mashq bajariladi.

 5. Bo'sh o'rirlarni to'ldirib yozing.

 **KITOB**

Hamma uchun barobar Hotamitoy kitoblar.  
Suratlari xilma-xil,  
Mazmunga boy kitoblar.

Qo'shiq to'la,  
She'r to'la –  
Qiziq-qiziq kitoblar.  
O'qiganni tortuvchi  
Bag'i issiq kitoblar.

Kitoblarning ichida  
Qissa, doston yashaydi.  
"O'nak olgin mendan", deb  
Mard qahramon yashaydi.

*Po'lat Mo'min*



25

## Topshiriq. Bo'sh o'rirlarni to'ldirib yozing.

Uni avval o'qituvchi yaxshilab tushuntirishi lozim.

Bu mashqda matn qolipi berilgan. Uning ayrim joylari bo'sh qoldirilgan. Mana shu bo'sh joylarga har bir o'quvchi o'z tajribasidan kelib chiqib so'zlar, birikmalar yozishi kerak bo'ladi.

Avval mashq matnini bolalarga o'qitish zarur. Qaysi so'zdan keyin bo'sh o'ren qoldirilgan bo'lsa, unga alohida to'xtalib, u yerga nima yozish mumkinligi haqida bolalardan fikr so'rash kerak. Birinchi gapda bo'sh joy oxirida -ning qo'shimchasi, undan keyin esa qo'shtirnoq belgisi turibdi. Biz "Varaqjonga rahmim kelgan" matnida shunga o'xshagan gap o'qigan edik. Unda "Birinchi o'qigan kitobim Nikolay Nosovning "Bilmasvoy va do'stlarining sarguzashtlari" kitobi bo'lgan". Demak, birinchi bo'sh



o'ringa kitobning muallifini, ikkinchi bo'sh o'ranga esa uning nomini yozamiz.

Xuddi shu tarzda har bir gap bo'yicha bolalar bilan avval o'qib, u yerga nima yozish haqidagi gaplashiladi. "Varaqjonga rahmim kelgan" matni namuna sifatida xizmat qilishi lozim.

Birinchi o'qigan kitobim \_\_\_\_\_ ning \_\_\_\_\_

"\_\_\_\_\_ " kitobi bo'lgan. O'shanda \_\_\_\_\_ yosh edim. Bu kitobni menga \_\_\_\_\_ sovg'a qilgandilar. Kitob rangli rasmlari \_\_\_\_\_, harflari \_\_\_\_\_ yozilgan, juda qiziqarli edi. U \_\_\_\_\_ to'g'risida edi.

Bu kitobdan eng esimda qolgani \_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_ bilan bog'liq voqeа. \_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

Mashqni hamma yozib bo'lgach, o'qituvchi xatolarni tekshirib, tushuntirib berishi lozim.

## 6-soat

### Darsning maqsadi:

Bolada o'qish savodxonligini, o'qib tushunish malakasini rivojlantirish, she'r haqidagi tasavvurini boyitish, she'rni ifodalni o'qish ko'nikmasini rivojlantirish, qofiyadosh so'zlarni farqlash ko'nikmasini rivojlantirish, she'rdagi badiiyatni tushunish ko'nikmasini rivojlantirish

**Vosita:** Po'lat Mo'minning "Kitob" she'ri.

### Kirish

Darsning tashkiliy qismidan keyin o'tgan darsda nima o'tilgani eslatiladi. "Birinchi kitobim" mavzusi davom ettirilib, har bir o'quvchi o'z tajribasini matn shaklida yozgani eslatiladi.

Bugungi darsda ushbu mavzu doirasida "Kitob" she'ri o'rganilishi e'lon qilinadi.

### Asosiy qism

Bugun sizlar bilan taniqli bolalar shoiri Po'lat Mo'minning "Kitob" she'rin o'tamiz. Siz Po'lat Mo'min nomini avval ham eshitganmidingiz?

Bolalar "Bilmasvoy va do'stalarining sarguzashtlari" kitobini Po'lat Mo'min tarjima qilgani haqidagi ma'lumotni eslashlari nazarda tutilgan. Birinchi savol berilganda bolalar eslay olmasa, ularga eslatish uchun qo'shimcha savollar beriladi:

Biz qanday asar haqida o'qidik? Bilmasvoy va do'stalarining sarguzashtlari o'zi qaysi tilda yozilgandi? Uni kim tarjima qilgandi?

Demak, mana shu shoirimiz yozgan she'rnini bugun o'qib o'rganamiz.

She'rni avval o'qituvchi ifodalni qilib o'qib berishi zarur.

So'ng bolalarga o'qitiladi. She'r o'n marta cha o'qitilgach, uning tagidagi savollarga o'tiladi. Savollarni o'quvchilardan biri o'qib, 3-4 o'quvchi javob berishi maqsadga muvofiq.

1. Kitobni o'qigan har bir bola unda yozilgan hamma narsani bilib oladi. Nima deb o'ylaysiz, shuning uchun kitobni hotamtoy deyish mumkinmi?

Birinchi savol o'qilgandan keyin Hotamtoy kimligini bolalarga tushuntirish kerak. Hotamtoy – hech kimdan hech narsasini qizg'anmanigan kishining ismi ekanligi, u haqida rivoyatlar borligini aytib o'tish kerak. Boshqalarga narsasini qizg'anmay beradigan kishilar xalq tilida Hotamtoy deyilishi ham ta'kidlanadi.

2. Kitoblarning bag'ri rostdan ham issiq bo'ladimi? Siz kitob o'qiganingizda uning bag'ri issiqligini his qilganmisiz?

Bu savoldan maqsad bolaga taassurotlarni ifodalashni o'rgatish. Kitob o'qigandagi maza qilish sovqotib issiq uyga kirganda maza qilishga o'xshash ekanligini tushuntirishdir.

3. Kitobdan ertakni o'qir ekansiz, siz undagi voqealarni tasavvur qilasiz. Tasavvuringizda bo'g'irsoq qo'shiq aytadi, quyon gapiradi. Shuning uchun kitobdagagi ertak, qissa va dostonlarni "yashaydi" deb aytish mumkinmi?

Bu savoldan maqsad tasavvurni jonlantira olgani uchun kitobdagagi qahramonlarga nisbatan yashaydi so'zi qo'llanayotganini anglatishdir.

Mazkur savollarga javob berarkan, bolaning har bir javobini, garchi u o'qituvchining nazdida maqsaddan uzoq javob bo'lsa ham, rag'bat-



lantirish va uni maqsadga tomon yo'naltirishga yordam beradigan qo'shimcha savollar va gaplar bilan yordam berish lozim.

Savollarga javob berib bo'lingach, mashq daftarining 51-betidagi mashq bajariladi.

#### Topshiriq. She'rдagi ohangdosh so'zlar-ni yozib chiqing.

Unda she'rдagi ohangdosh so'zlar yozishi kerak. Namuna ham berilgan. U namuna-

ni she'rning birinchi bandini o'qib, hotamitoy va boy so'zlari ohangdosh ekanligi, ulardan keyin qo'llangan kitoblar so'zi esa takror qo'llanganini aytib o'tish kerak. Qolgan ikki juft so'zni bolalar mustaqil topishlari maqsadga muvofiq.

Mashq kaliti: hotamitoy – boy, qiziq – issiq, doston – qahramon

## MEHMON BO'LISH YAXSHI-DA!

**Nutqiy mavzuning maqsadi:** o'quvchilarning mehmondorchilik va u bilan bog'liq tasavvurlarini kengaytirish, mazkur mavzu doirasida ishlataladigan so'z, so'z birikmlari va gaplarni to'g'ri tushunish va to'g'ri qo'llay olish bilan bog'liq nutqiy ko'nikmalar ustida ishlash. Og'zaki va yozma nutq, tinglab tushunish va o'qib tushunishga oid nutqiy ko'nikmalarini rivojlantirish.

oid nutqiy ko'nikmalarini rivojlantirish, nar-sa nomlarini bildiruvchi so'zlarga oid bilimlar bilan tanishitirish.

**Vosita:** mehmondorchilik bilan bog'liq rangli rasmlar asosida savol-javob qilish, mehmondorchilik bilan bog'liq shaxsiy taj-ribasini so'zlab berish.

91

## DARS JARAYONI

### Kirish

Tashkiliy qismdan so'ng o'qituvchi bugungi darsdan yangi mavzu boshlanganligini, uning mavzusi "**Mehmon bo'lisch yaxshi-da**" ekanligini aytib, o'quvchilarga "Siz ham mehmonga borganmisiz?", "Mehmon bo'lisch sizga yoqadimi?", "Mehmon kutish-chi?", "Uyingizga mehmonlar tez-tez kelib turadimi?", "Siz ularni qanday kutib olasiz?" singari faollashtiruvchi savollar beriladi. Shundan so'ng o'quvchilar e'tibori ushbu mavzu bilan bog'liq holda darslikda berilgan rasmlarga qaratiladi. O'quvchilarga rasmi diqqat bilan kuzatib olish uchun bir necha minut vaqt beriladi.

### Asosiy qism

O'qituvchi rasmlarni yaxshilab kuzatib bo'lgan o'quvchilarga darslikdagi savollar bilan murojaat qiladi.

Mazkur savollarga iloji boricha ko'proq o'quvchidan javob olinishi kerak. Agar biror savolga berilgan javobda o'quvchining fikri yetarlicha ochib berilmasa, o'qituvchi uni ochishga xizmat qiladigan qo'shimcha savollar berishi kerak.

**MEHMON BO'LISH YAXSHI-DA**

Rasmlarga qarang. Savollarga javob bering.

- 1-rasmda oila a'zolari nima qilishyapti?
- 2 Sizningcha, ular qanday kunni nishonlamochki?
- 3 Mehmonga kimlar keldi?
- 4 Mehmonlar mezbonaga nima sovg'a qilishdi?
- 5 Sizningcha, dasturxon atrofida nimalar haqida gaplashishdi?
- 6 Mehmon qanday kutib olinishi kerak?
- 7 Sizga mehmon kutish yoqadimi yoki mehmonga borishmi?

Daftardagi mashqni bajaring.

### 1-soat

**Darsning maqsadi:** rasmlar asosida o'quvchilarning og'zaki nutqini shakllantirish, mehmondorchilik bilan bog'liq so'z, so'z birikmlari va ulardan foydalanishga

1-savolda oila a'zolarining nomlarini so'rash, undan keyin ularning nima qilayotganligini aytish so'raladi. Oila a'zolari haqidagi tasavvurlar aniqlashtirib olinadi. Masalan, "Oila a'zolariga kimlar kiradi?", "Siz oilada necha kishisiz?" singari qo'shimcha savollar beriladi.

2-savolga javob berish uchun esa o'quvchilarning e'tibori boshqa rasmlarga ham qaratilishi kerak. "Tug'ilgan kun" deya to'g'ri javobni bergen o'quvchiga "Siz buni qayerdan bildingiz?" mazmunidagi savol beriladi. O'quvchilar o'z fikrlarini tasvirlar yordamida asoslaydilar.

3-savolga javob berish jarayonida o'quvchilar rasmida tasvirlangan voqealar asosida javob beradilar. Agar o'quvchilar qahramonlarni qanday atashni bilmasa, o'qituvchi ularga yordam berishi mumkin. Masalan, *sinfdoshlar, mahalladoshlari, qo'shnilar, do'stlari, qarindoshlari* singari so'zlarni eslatib turishi kerak.

4-savolda o'quvchilar darslikda berilgan rasmga e'tiborni qaratadilar. Rasmda ayiqcha sovg'a sifatida berilganligini aytishlari lozim. Shu o'rinda o'qituvchi agar "Siz bu bolaning o'r-nida bo'lganingizda nima sovg'a qilgan bo'lar edingiz?" yoki "Tug'ilgan kuningizga nima sovg'a olishni xohlaysiz?" kabi savollarni berib, o'quvchilarning tug'ilgan kun haqidagi tasavvurlarini aniqlashtirib olish mumkin. Yana ikki o'quvchi o'tasida tabriklash jarayonini o'tkazish mumkin. Bunda tabrik jarayonida qanday tilaklardan foydalanish kerakligi o'rgatiladi.

5-savol esa har bir boladan ijodiy fikrleshni talab etadi. O'quvchilar o'z fikrlarini shaxsiy tajribalari asosida so'zlashga harakat qiladilar. O'qituvchi esa ularni yo'naltirib aslida mehmonorchilikda suhabat qanday mavzularda bo'lishi kerakligini o'quvchilarga tushuntirib boradi. Oxirgi savolda o'quvchilar mehmon kutib olish odobi haqida gapiradilar, o'qituvchi esa ushbu fikrlarni yo'naltirib, mehmon kutish bilan bog'liq odoblar haqida qo'shimcha ma'lumotlarni berib ketadi.

### Yozma mashq.

#### Dasturxonga qo'yiladigan narsalarning nomini yozing.

Ushbu topshiriqni bajarishdan avval mavzu yuzasidan suhabat olib boriladi. Bunda har bir alohida mahsulot nomini aytgan o'quvchi ushbu mahsulotning nomini xattaxtaga chiqib yozishini so'rash kerak. So'zlar soni 10-15 taga yetganida o'quvchilar ushbu so'zlar qanday so'roqqa javob berishini so'rashi va shu o'rinda narsa nomini bildiruvchi so'zlar haqida ma'lumot berib o'tishi maqsadga muvofiq sa-

naladi. O'quvchilar xattaxtada yozilgan so'zlar ni daftarlari ko'chirib olishlari kerak.

## 2-soat

**Darsning maqsadi:** o'quvchilarning mehmonorchilik bilan bog'liq tasavvurlarini kengaytirish, berilgan matn yordamida mehmonorchilik odobi, ushbu jarayonda qo'llanladigan nutqiy birliklarni o'rgatish, o'qib tushunish malakasini rivojlantirish, qo'shma so'zlar, ularning hosil bo'lishi haqida tushuncha paydo qilish.

**Vosita:** mehmonorchilik odobi haqidagi matn, matn asosida suhabat, qo'shma so'zlarni hosil qilishga oid topshiriq.


**Dasturxonga qo'yiladigan narsalarning nomini yozing.**

Narsaning nomini bildirgan so'zlarga **nima?** deb so'roq beramiz. Masalan: **non, daraxt, kitob.**


**MEHMON BO'LISH ODOBİ**

Xadicha mehmonga borishni juda yaxshi ko'radi. U ko'pincha ota-onasi bilan bobosinikiga boradi. Ularni ko'rgan bobosi ham xursand bo'ladi. Mehmonlar uchun **tuzalgan** dasturxon **noz-ne'matlarga** to'lib ketadi. Bobosining aytishicha, **mehmono'stlik** – xalqimizga xos odat.



## DARS JARAYONI

### Kirish

Tashkiliy qismidan so'ng o'qituvchi bugungi darsda "Mehmon bo'lisch odobi" haqidagi matn bilan tanishishni aytadi. Matnni o'qishga kirisishdan oldin quyidagi savollar asosida suhabat tashkillashtiriladi.

1. *Rasmga qarang, unda kimlar tasvirlangan?*
2. *Ushbu rasmning matnga qanday aloqasi bor deb o'ylaysiz?*



### 3. Mehmon bo'lish odobi haqida nimalarни bilasiz?

Ushbu savollar yordamida o'quvchilarning mavzu bilan bog'liq mavjud tasavvurlari faol lashtiriladi. Rasmda berilgan holatni tasvirlash so'raladi, o'quvchilar rasmdagi qahramonlar ning nomlarini aytadilar, ularning ayni vaqtagi holati, ya'ni bobo va nabiralar uchrashganlari dan xursand ekanligi, ular nimalar haqida so'z-lashayotgan bo'lishi mumkinligi haqida ma'lumot berishga harakat qiladilar.

Suhbatdan so'ng matnni o'qishga tayyorlanish aytiladi.

## Asosiy qism

Darsning asosiy qismida o'quvchilar berilgan matnni qismlarga ajratgan holda ifodali o'qiydilar. Matnni o'qish jarayonida o'qituvchi o'quvchilar nutqida uchragan kamchiliklarni o'zi uchun qayd etib boradi. Matn to'liq o'qib bo'lingach, kamchilikka yo'l qo'ygan o'quvchilarning xatolari tuzatiladi. Shundan so'ng o'qituvchi matnni qayta o'qib beradi. **Matn o'qib berilgach, darslikdagi savollar beriladi.**

Ushbu savollarga javob berish jarayonida o'quvchilarning o'qib tushunish bilan bog'liq malakalari rivojlantiriladi.

1-savolga javob berishda o'quvchilar matnda ochiq holatda berilgan ma'lumotlarni aniqlashlari kerak bo'ladi.

2-savolga o'quvchi o'z tasavvurlari va kuzatuvlari asosida javob beradi. Imkon qadar ko'proq o'quvchi ushbu savolga javob berishi kerak. Nima uchun dasturxonadagi narsalar noz-ne'mat deb atalishi ham so'raladi va kerakli tushunchalar beriladi.

3-savolga o'quvchilar matn mazmuniga va o'z tasavvurlariga asoslangan holda javob berishga harakat qiladi. O'qituvchi mehmondo'stlik bilan bog'liq jarayonga xos bo'lgan sifatlarning imkon qadar ko'proq o'chib berilishiga erishishi kerak. Masalan, mehmondo'stlik bu – mehmonlarni iliq kutib olish, taomlantirish, ularni xafa qilmaslikdir. O'qituvchi shu kabi bir nechta qoidalarni bolalarga eslatishi kerak.

4-savolga javoblar matnda ochiq holda berilgan, o'quvchilar ularni birma-bir sanab berishlari hamda unga qo'shimcha qilishlari so'raladi. Quyidagi javoblar beriladi.

1. Odobli bola dasturxonga o'tirishdan avval, albatta, qo'llarini yuvadi.

2. Yoshi kattalardan oldin dasturxonga qo'l uzatmaydi.

3. Ovqatni o'ng qo'l bilan o'z oldidan yeydi.

4. Luqmani shoshilmay, og'izni yumib chaynash kerak.

5-savolda esa o'quvchilar lug'at bilan ishlaydilar. Matn tarkibida ajratib ko'rsatilgan so'zlarga e'tibor qaratiladi, darslik oxirida berilgan lug'at yordamida ular ma'nolari izohlanadi.

6-savolga javob berish uchun o'quvchilar o'z shaxsiy kuzatuvlari asosida javob beradilar. Agar o'quvchilar bobo-buvisi bilan bog'liq hech qanday ma'lumotni aytib bera olmasalar, "Sizlar oilangiz bilan ko'proq kimlarnikiga mehmonga borasiz?", "Mehmonga borishda oyingiz sizga qanday qoidalarni eslatib qo'yadilar?" singari qo'shimcha savollar bilan murojaat etish kerak. Oxirgi savolga javob berish asnosida qo'shma so'zlar haqida ilk tushunchalar beriladi. Ushbu so'z xattaxtada tahlil qilinadi.

### Yozma mashq.

#### Rasmlar asosida yangi so'zlarni hosil qiling.

O'quvchilar berilgan rasmlar asosida qo'shma so'zlarni hosil qilishlari kerak.

Topshiriqni bajarish jarayonida o'quvchilar ushbu so'zlarning qo'shib yozilishini va ikki so'zning o'zaro birikuvidan yangi ma'nodagi so'z hosil bo'lishini tushunib olishlari kerak. Buning uchun o'qituvchi har bir so'zni alohida tahlil qilib berishi so'raladi. Masalan, "Ot – nima? –hayvon, qulqoq nima? – insonning tana a'zosi. Ulardan nima hosil bo'ldi "otquloq", o'simlik nomi. U shakl jihatidan otning qulog'iga o'xshaydi" singari tahlillar olib borilishi kerak.

O'quvchilar ushbu so'zlarni ham xattaxtaga, ham mashq daftarlariга yozib boradilar.

## 3-soat

**Darsning maqsadi:** berilgan mavzuda suhbat qilish, suhbat uchun kerakli so'zlarni, so'z birikmalarini tanlab gap tuza olish, savollar berish, ularga javob berish bilan bog'liq nutqiy ko'nikmalarni shakllantirish, ularni yozma nutqda ifodalashga o'rgatish.

**Vosita:** berilgan mavzuda suhbat, uni yozma ifodalash mashqlari.

## DARS JARAYONI

### Kirish

O'quvchilar bilan berilgan bo'lim mavzusi va o'tilgan dars bilan bog'liq suhbat o'tkaziladi. Bugungi darsning umumiyligi mazmuni so'zlab beriladi. O'qituvchi o'quvchilarga o'tilgan darsda qanday mazmundagi matn bilan tanishganlarini eslatib o'tadi. Bir necha o'quvchi ushbu matnni qayta so'zlab berishga tayyorlanadi. Matn qismlarga bo'lingan holda bir necha murotoba qayta so'zlab beriladi. O'qituvchi o'quvchilarning nutqini eshitib ko'rgach, matnni qayta mazmunli va ifodali tarzda so'zlab berishi mumkin.

### Asosiy qism

**"Mehmon bo'lish odobi"** matni asosida partadoshingiz bilan dialog tuzing. Biringiz bobo, biringiz nabira bo'ling. Darslikdagi savollar beriladi.

O'quvchilarga partadoshlari bilan birlgilikda dialog tuzishi kerakligi tushuntiriladi. Buning uchun o'quvchi namuna sifatida darslikda berilganlardan foydalanish kerakligini aytadi. Ushbu topshiriqni bajarish jarayonida o'qituvchi kim avval salom berishi, topshiriqda berilgan nutqiy birliklar qanday insонning (yoshi ulug', mezbon, mehmon, kichik yoshdag'i insон) nutqida uchrashi mumkinligiga alohida to'xtalishi lozim.

*Dialog yozish jarayonida har bir gap yangi satrdan chiziqcha bilan yozilishi eslatiladi.*

Dialog matni taxminan shunday mazmunda bo'lishi mumkin:

- Assalomu alaykum.
- Vaalaykum assalom.
- Ahvollaringiz yaxshimi?
- Rahmat, bo'talog'im. Sizlar ham yaxshi yetib keldinglarmi?
- Rahmat, bobojon! Sizni sog'inib ko'rgani keldik.
- Xush kelibsizlar!

Agar o'quvchilar dialog tuzishga qiyalsalar, o'qituvchi yuqoridagi kabi dialogni chala holatida doskada namoyish etishi yoki doska ga yozib ko'rsatish ham mumkin.

**Yozma mashq.**  
**Bo'g'in ko'chirish qoidasiga ko'ra yozing.**

Dasturxonga	Das-tur-xon-ga
Mehmono'stlik	Meh-mon-do'st-lik

Bobosining	Bo-bo-si-ning
Odobi	Odo-bi
Unutmaydi	Unut-may-di

O'qituvchi o'quvchilarga bo'g'in ko'chirish qoidalarini eslatadi. Shu o'rinda o'qituvchi o'quvchilarga bo'g'inga ajratish va ko'chirishning farqi borligini aytadi. Agar bo'g'in bir unli tovushdan iborat bo'lsa, uning bir o'zini birinchi satrda qoldirish mumkin emasligini tushuntiradi. Ushbu holatni mashqda berilgan so'zlardan boshqa so'zlar misolida tushuntirishi mumkin. Masalan, *oila*, *uka*, *ozoda* singari so'zlar misolida xattaxtada tushuntirib beriladi.

### 4-soat

**Darsning maqsadi:** o'quvchilarda mehmonorchilik mavzusi bilan bog'liq holatda berilgan tasvirlar va matnni o'zaro moslashtira olish, uni og'zaki va yozma nutqda ifodalay olish bilan bog'liq nutqiy ko'nikmalarni rivojlantirish, so'z va gaplarni o'zaro bog'lovchi vositalarning vazifasini tushuntirish, ulardan og'zaki va yozma nutqda maqsadli foydalanishga o'rgatish.

**Vosita:** ertak matni asosida berilgan rangli rasmlar, rasmlar uchun qisqa ta'riflar, shular asosida ertak matni yaratish topshiriqlari.

 Rasmili ertak.

**G'ALATI ZIYOFAT**

① O'rmonda qizg'anchiq ola quyon yashagan ekan.

② Ola quyon pishirayotgan sho'rvanining hidi tiprikanning ishtahasini ochib yuboribdi.

③ Kirmsammikin?

④ Quyon qanday kutib oldi?

⑤ Yumronqoziq ham mehmonga keldi.

⑥ Quyon jahl qilib, oshxonadagi pashshalar bilan baqirib urisha boshladи.

⑦ Mehmonlar ketib qolishdi.

⑧ Quyon kelib qarasa, mehmonlar ovqatga qo'l urmabdi.

33



## DARS JARAYONI

### Kirish

O'qituvchi tashkiliy qismni uyushtirib bo'lganidan so'ng bugungi darsda juda qiziqarli ijodiy ish bajarilishini aytadi. Ushbu darsda o'quvchilar berilgan rasmlarni o'zaro bog'lagan holda ertak yaratishlari kerakligi aytildi. O'quvchilarga rasmlarni diqqat bilan kuzatish uchun 3 daqiqa vaqt beriladi.

### Asosiy qism

O'quvchilar rangli rasmlarni diqqat bilan kuzatib bo'lganlaridan so'ng quyidagi savollar bilan murojaat qilinadi:

1. Biz tuzmoqchi bo'lgan ertakda nechta qahramon ishtirot etadi? Ular qaysilar?
2. Ertakning mavzusiga e'tibor bering, g'aлати ziyofat qanday bo'lishi mumkin? Siz ertakni nima haqida deb o'ylaysiz?

O'quvchilar ushbu savollarga javob berishlari jarayonida rasmlarni qay darajada idrok eta olganliklarini aniqlab olish mumkin. Ertakning nima uchun g'alati ziyofat ekanligi o'quvchilar tomonidan ijodiy firkagan holatda aytildi. O'qituvchi "g'alati" so'ziga izoh berib, uning odatiy emasligini, odatdan tashqari narsalar, voqealar, insonlarga nisbatan ishlatalishini misollar asosida tushuntiradi. G'alati ziyofat qanday bo'lishi mumkinligini so'raydi.

Ushbu savollar asosida suhbat tashkillashirilgach, rangli rasmlar uchun berilgan izohlarni o'qish so'raladi. O'quvchilar ushbu izohlarni o'qib beradilar.

Shundan so'ng o'qituvchi o'quvchilarga ushbu rasm va ularga berilgan izohlar yordamida ertak tuzish kerakligini aytadi. Buning uchun o'qituvchi quyidagi savollar bilan murojaat etib, o'quvchilarni muayyan izchillik asosida ertak matni tuzishga o'rgatadi.

1. Bir bor ekan, bir yo'q ekan, bir o'rmonda nima yashagan ekan?
2. O'rmondag'i ola quyon qanday ekan?
3. Kunlarning birida ola quyon nima pishiribdi?
4. Ola quyonning uyi oldidan o'tib ketayotgan tipratikan nimani sezib qolibdi?
5. Shundan so'ng tipratikan nima haqida o'ylashni boshlabdi?
6. Tipratikanni quyon qanday kutib oldi?
7. Yumronqoziq qayerdan paydo bo'lib goldi?
8. Quyon mehmonlar oldida o'zini qanday tuta boshladidi?

9. Quyonning mehmonlari nima uchun ketib goldi?

10. Nima deb o'ylaysiz, quyon to'g'ri ish qildimi? Aslida mehmonorchilikda mehmonlar oldida urishish mumkinmi?

Ushbu savollarga javob berish yordamida o'quvchilar ertak tuzadilar. O'qituvchi har bir savolga javob berish jarayonida rasmlarga diqqat qilishni, ular asosida javob berish lozimligini eslatib turishi kerak.

### Yozma mashq.

Rasm asosida tuzgan ertagingizni yozing. Unda "mehmono'st", "ochko'z", "xontaxta", "lekin", "yoki" so'zlaridan foydalaning.

O'quvchilar og'zaki savol-javob asosida tuzilgan ertakni yozadilar. Berilgan so'zlardan foydalanish uchun esa o'qituvchi namuna sifatida ushbu so'zlar ishtirot etgan ertak matniga mos keladigan ayrim gaplarni sinf taxtasiga yozib qo'yishi mumkin. Masalan:

*Tipratikan quyonning mehmono'stligini sinash maqsadida uning eshigini taqillatibdi.*

*Avvaliga quyon mehmonlarni yaxshi kutib olibdi, lekin oshxonadagi pashshalar bilan baqirib urisha boshlagani mehmonlarga yoq-mabdi.*

Shu o'rinda o'qituvchi "lekin", "yoki" so'zlar so'z va gaplarni bir-biriga bog'lashi haqida ma'lumot berib, sinf taxtasida yozilgan misol asosida uni tushuntirishga harakat qiladi.

### 5-soat

**Darsning maqsadi:** o'quvchilarning mehmonorchilik bilan bog'liq tushunchalarini umumlashtirish, o'quvchilarning anglash ko'nikmalarini rivojlantirish, mavzu doirasidagi tasavvur qila olish imkoniyatlarini oshirish. Qofiyadosh so'zlar, ularning she'r matnidagi ahamiyati haqida ma'lumot berish.

**Vosita:** she'r matni, she'r matni asosida suhbat, qofiyadosh so'zlarni aniqlash bilan bog'liq topshiriq.

## DARS JARAYONI

### Kirish

Tashkiliy qismidan so'ng o'qituvchi mehmonorchilik bilan bog'liq barcha o'tilgan mavzular bo'yicha olingan bilimlarni umumlashtiradi, ular yuzasidan qisqa savol-javob o'tkazadi. Ushbu darsda mehmonorchilik bilan bog'liq she'r bilan tanishishni aytadi. Darslikda berilgan she'r matni audio shaklda qo'yib eshittiriladi.

### Asosiy qism

Audomatnni eshitish jarayonida o'quvchilarga diqqat bilan quloq solish kerakligi aytildi. O'quvchilarning tushunish darajasiga qarab audiomatn bir necha marta qo'yib eshittirilishi mumkin. She'rni eshitib bo'lishgach, darslikdagi savollar beriladi.

1-savolga javob berish jarayonida o'quvchilar she'rning umumiylarini haqida gapiradilar, sekin-astalik bilak she'r matnida ifodalangan mehmonorchilik odobi bilan bog'liq qoidalar esga olinadi.

2-savolda mehmonlar eshikni taqillatib kelishi haqidagi ma'lumot aytildi. Shu o'rinda o'quvchilardan "Sizlarnikiga ham mehmon kelganda eshikni taqillatib keladimi?", "Siz ularni qanday kutib olasiz?", "Nima uchun mehmonlar eshikni taqillatib kelishi kerak?" mazmuni dagi qo'shimcha savollar beriladi.

3-savolda avval she'r matni asosida javoblar tinglanadi, keyin esa har bir o'quvchi o'z fikrini qo'shimcha qilishi kerakligi so'raladi. Mehmonni kutib olishdan to kuzatishgacha bo'lgan jarayonda nimalar qilish kerakligi, qanday so'zlar aytishli kerakligi, qanday qilib ularning ko'nglini olish mumkinligi muhokama qilinadi. O'qituvchi imkon qadar o'quvchilardan javob olishga erishishi lozim.

4-savolda esa mehmonlarga dasturxon solinishi, "oling-oling" deya mulozamat qilish kerakligi aytildi. Ushbu so'zlar qaysi paytda aytishli, nima uchun bunday deyish kerakligi so'raladi.

She'r matnida qo'llangan "jildirmaymiz", "arimaydi", "bag'ri ochiq" kabi so'zlarning izohi avval o'quvchilardan so'raladi. O'quvchilar o'zlar bilganicha ushbu so'zlarning izohini aytadilar, shundan so'ng o'qituvchi so'zlarning izohini she'r matni bilan bog'liq holatda tushuntirishga harakat qiladi. Ushbu so'zlar ishtirokida og'zaki gaplar tuzish so'raladi.

5-savolda "jildirmaymiz" so'zining ma'nosi haqida gapiriladi.

Jildirmoq – 1. Harakatga keltirmoq, yurgizmoq. 2. Uzoqlashtirmoq, yiroqlashtirmoq. *Bemor oldidan bir qadam ham jilmang, - dedi shifokor.*

Shu o'rinda o'qituvchi ushbu so'z "qimirlatmoq", "qo'zg'atmoq", "o'z joyidan boshqa joyga o'tkazmoq" so'zlar bilan ma'nodosh ekanligini aytadi. She'r matnida nima uchun aynan shu so'z qo'llanganligini tushuntiradi.

6-savolda esa "arimaydi" so'zining ma'nosi aniqlash so'ralgan.

Arimoq – borligi ketmoq, yo'qolmoq. *Keksalar bor xonardonlardan baraka arimaydi.* Ushbu so'z izohi berilgandan so'ng, uning ma'nosi she'r matni bilan bog'lanadi. She'rda ushbu so'z "ketmaydi" ma'nosida qo'llanganligi aytildi.

7-savolda "bag'ri ochiq" so'zining izohi so'ralgan.

Ushbu so'z "bag'rikeng" so'zi bilan ma'nodosh ekanligi aytildi. *Mening bobom juda bag'ri ochiq insonlar.* Bag'ri ochiq insonlar qanday bo'lishi haqida gapiriladi. So'ng o'quvchilardan "Sizlar yana kimlarni "bag'ri ochiq" inson deb ta'riflay olasiz?" deb so'raladi.

8-savolda o'quvchilar qahramonning mehmono'stligini baholaydi, shu asosda o'zlar haqida gapiradilar. O'z oilasida mehmonlarga bo'lgan munosabat haqida qisqa so'zlab beradi. Ayrim o'quvchilar o'z sinfdoshlarinikida mehmonda bo'lganliklarini, uni qanday kutib olishganini ham gapirishlari mumkin. Ushbu suhbat bir necha nafar o'quvchi bilan olib borilishi maqsadga muvofiq.

4. Rasm asosida tuzgan ertagingizni yozing. Unda "mehmono'st", "ochko'z", "xontatta", "lekin", "yoki" so'zlaridan foydalaning.

"Lekin", "yoki" – bular so'z va gaplarni bir-biriga bog'lashga xizmat qiladi.



She'rni tinglang.

Eshigimiz taqillaşa,  
Deymiz: – Mehmon!  
Hozirdanoq mehmonlarga  
Biz mehribon.  
Dasturxonni yasatamiz:  
– Oling-oling!  
Kech kirsa-ku, jildirmaymiz:  
– Yotib qoling.  
Bizning uydan doim mehmon  
Arimaydi.  
Bag'ri ochiq kishilar hech  
Qarimaydi.



### Yozma mashq.

#### She'rdagi ohangdosh so'zlarni ko'chiring.

Ushbu topshiriqni bajarish orqali o'quvchi-larga she'lda qofiyadosh so'zlardan foydalanishga oid bilimlar beriladi. O'quvchilar she'r matnidagi qofiyadosh so'zlarni aniqlashi va uni daftarga ko'chirishlari kerak bo'ladi. Mashqni bajarish oldidan o'qituvchi qofiyadosh so'zlar haqida, ularning vazifasi haqida eslatib, oldin ham ma'lumot bergen namunalar keltirib o'tishi kerak. O'qituvchi qofiyadosh so'zlar haqidagi ma'lumotlarni aytganidan so'ng, quyidagi so'zlarni aytadi, o'quvchilar ularga qofiyadosh so'zlar topib aytadilar.

Masalan, *tog'*, *bog'bon*, *oila*, *qadrdon singari*.

She'r matnida quyidagi qofiyadosh so'zlarni aniqlaydilar va daftarlariga yozadilar.

Mehmon – mehribon

Oling-oling – yotib qoling

Arimaydi – qarimaydi.

Qo'shimcha ravishda o'quvchilarga uyga vazifa sifatida kattalarning ko'magi bilan istalgan she'lda qo'llangan qofiyadosh so'zlarni topib yozib kelish topshirig'ini berish mumkin.

### 6-soat

**Darsning maqsadi:** o'quvchilarning mehmonorchilik bilan bog'liq tushunchalarini umumlashtirish, o'quvchilarning anglash ko'nikmalarini rivojlantirish, mavzu doirasidagi tasavvurlarini yozma nutq orqali ifodalash.

**Vosita:** mehmonga borish odoblari yozma ifodalash topshiriqlari.

## DARS JARAYONI

### Kirish

O'tilgan mavzu doirasidagi fikrlar umumlashtiriladi, o'quvchilarga o'rganganlari yuzasidan savollar beriladi. Ushbu darsda mehmonga borish odoblari haqida suhbatlashish aytildi, o'quvchilarning diqqati darslikda berilgan rangli rasmlarga qaratiladi. Ularni kuzatish uchun vaqt beriladi.

### Asosiy qism

O'qituvchi avval ushbu rasmlar asosida suhbat qurib, mehmonga borish odobi haqida o'quvchilardan fikr so'raydi.

*Birinchi rasmga e'tiboringizni qarating, unda nimalar tasvirlangan?*

Rasm asosida suhbat quriladi, mehmonga borishdan oldin qanday tayyorgarlik ko'rish kerakligi og'zaki aytildi.

*Ikkinci rasmda qaysi payt ifodalangan? Mehmonda bo'lgan vaqtda o'zini qanday tutish lozim?*

O'quvchilar ushbu savolga ham o'rganganlari asosida javob beradilar.

*Uchinchi rasmda qanday jarayon ko'rsatilgan, mehmondan qaytayotganda nimalar deyish kerak?*

O'quvchilar mezbonga minnatdorlik bildirishni aytadi, unga qo'shimchalar qiladilar.

Ushbu suhbatdan so'ng o'quvchilarga ushbu uchala jarayonga mos odoblarni daftarga yozish kerakligi aytildi.

Mehmonga borishdan oldin	Mehmonda bo'lgan vaqt	Mehmondan qaytayotganda
Ozoda kiyinish	Ochko'z bo'imaslik	Rahmat aytish
Yuz-qo'llarni yuvish	Kattalardan oldin taomlanmaslik	Mezbonni mehmonorchilikka chaqirish
Yaxshi kayfiyatda bo'lish	Ko'p gapirmaslik	Yaxshi tilaklar aytish


O'quvchilar shu va shunga o'xshash qoidalarini daftarlariga yozadilar. Har bir o'quvchi o'z tasavvuri yordamida ushbu topshiriqni bajardi. O'qituvchi esa ularni yo'naltirib, qo'shimcha savollar asosida mashqni bajarishlariga yordam berib turishi kerak.

**Mehmonorchilik yakunida qanday tilaklar bildiriladi? 3 ta tilak yozing.**

Ushbu topshiriq ham yozma bajariladi, bunda o'quvchilar mehmonorchilikda aytildigan uchta tilakni yozishlari kerak. O'qituvchi yozilayotgan gaplarning mazmuniga, o'quvchilarning husnixatiga, tinish belgilardan foydalana olishiga alohida ahamiyat berishi lozim.

# SHE'R BO'LADIGAN SO'ZLAR

Ushbu bo'limning maqsadi: bolaning badiiyatni tushunish, tilning estetik imkoniyatlarini farqlay olish ko'nikmasini rivojlantirish.



98

## 1-soat

**Darsning maqsadi:** so'zlarning tovush tarkibini farqlash ko'nikmasini rivojlantirish; so'zlarning shakli va ma'nosi haqidagi tasavvurlarini kengaytirish.

**Vosita:** hayoti davomida qo'llagan so'zlarini ichidan qofiyadosh so'zlarni eslatish, Iqbol Mirzoning shakli bir xil, ma'nosi har xil so'zlarga asoslangan ikkiliklarini o'qitish.

## Kirish

Darsning tashkiliy qismidan so'ng oldingi darsda yakunlangan mavzu eslatiladi. O'tilgan mavzu yuzasidan savol-javob qilinadi. Bugundan yangi mavzu boshlanishi aytildi. Mavzu nomi – "She'r bo'ladicgan so'zlar" doskaga

yoziladi. Bolalarni mavzuga olib kirish uchun qisqacha savol-javob qilinadi:

Siz bog'chada, matabda she'rlar yodlagansiz, o'qigansiz. Ayting-chi, she'rlar nimasi bilan oddiy gaplardan farq qiladi?

Bolalar bergen javoblarga rag'batlantiruvchi munosabat bildirib, umumlashtiriladi.

## Asosiy qism

Kitobning 38-beti ochiladi.

**Topshiriq. Rasmlarga qarang. Narsalarning nomini ayting. Aytishi o'xshash bo'ilgan so'zlarni toping.**

Rasmlarga diqqat qilish so'raladi. Har bir narsanining nomi bolalardan so'raladi.

Rasmida beshik, oy, eshik, kamalak, pul, bola, toy, kapalak, osh, lola, tosh, gullarning rasmlari berilgan.

Endi har bir so'z boshqatdan aytilib, unga ohang jihatdan yaqin so'zni topish so'raladi. Bolalar og'zaki javob berishlari kerak.

Oy – toy; kamalak – kapalak; osh – tosh; eshik – beshik; lola – bola; gul – pul

Keyin mashq daftарining 55-betidagi 1-mashq bajariladi.

**Topshiriq. Aytishi o'xshash so'zlarni toping.**

Unda yuqoridagi so'zlar berilgan bo'lib, qofiyadoshini topib, chiziq bilan birlashtirib chiqish kerak bo'ladi. Bu mashqni har bir bola mustaqil bajarishi maqsadga muvofiq.

1-mashqdan keyin yana daftardagi 2-mashq bajariladi.

**Topshiriq. Avvalgi mashqdagagi so'zlarining bir-biridan farq qiladigan harfini yozing.**

Bu mashqda so'zlarning qanday tovushlarga farq qilishi topilishi kerak. Uni doskada bajargan ma'qul.

Avvalo, namuna doskaga yozib, o'qituvchi tomonidan tushuntiriladi:

Kapalak – kamalak.

Bu ikkala so'zning bitta harfidan tashqari hamma harfi bir xil. Qani aytinglar-chi, qaysi harf farqli?

Bolalardan javob olingach, farq qiluvchi harflar so'zlarning to'g'risiga yoziladi: p-m.



Ikkinchchi namunaga o'tiladi: oy – toy  
Bu so'zlarda-chi? Qaysi harf farqli?

Avvalgi *kapalak* – *kamalak* so'zlarida harflar soni ham bir xil edi. Bu misolda esa harflar soni bittaga farqli. Qaysi birida ko'proq? To'g'ri, toy so'zida.

Lekin e'tibor qilinglar, *kapalak* va *kamalak* so'zlarini necha bo'g'indan iborat?

Oy va toy so'zlarini-chi?

Demak, harflar soni farq qilsa ham, bo'g'inlar soni bir xil bo'lganida so'zlar ohangdosh bo'la oladi.

Mashqning qolgani bolalarni doskaga chiqarib, bajartiriladi. Har bir so'z jufti yozdirilib, qaysi harfga farq qilishi aniqlanib, harflar soni teng yoki teng emasligi ham boladan so'raladi.

Eshik – beshik – b – harflar soni teng emas

Osh – tosh – t – harflar soni teng emas

Gul – pul – g/p – harflar soni teng

Bola – lola b/l – harflar soni teng

Bu mashqlar bajarib bo'lingach, Iqbol Mirzoning ikkiliklaridan namunalar o'qiladi.

### **Topshiriq. She'rlarni o'qing. Nima haqidagi aytiganini o'z so'zlarining bilan tushuntiring.**

Dastlab bir ikkilikni o'qituvchi o'zi o'qib beradi:

#### **Askar jayrachalar qo'shig'i**

*Buyruq bersa otamiz,*

*Nayzamizni otamiz!*

Bu nima degani, nimani tushundingiz?

Bolalardan o'z so'zi bilan aytishi kutiladi. Otamiz buyruq bersa, biz nayzamizni otamiz (kimgadir, nimagadir).

Keyin ikkala qatorda bir xil bo'lgan so'zni doskaga yozish kerak: otamiz. Ikkala qatorda ham bir xil yoziladi, bir xil o'qiladi, lekin birinchisida oila a'zosini, ikkinchisida harakatni bildiradi deb tushuntiriladi.

#### **Tulkixonning ukasiga dashnomi**

*Qanaqa betartibsiz!?*

*Dumimga bet artibsiz!*

Bu nima degani? Bolalar o'z so'zi bilan tushuntirishlari kerak. Tulkixon dumiga bet artgani uchun ukasiga tanbeh berib, betartib ekansiz deganini tushuntirish kerak.

So'ng ikkala qatorda bir xil bo'lgan so'zni doskaga yoziladi: betartibsiz, bet artibsiz.

Birinchisi betartibsiz – tartibsiz ekansiz degani; ikkinchisi esa ajratib yoziladi: bet artibsiz – yuzingizni artibsiz degani.

#### **Chuvalchangning hayrati**

*Ota-onam timmay yer,*

*Tugab qolmasmikan yer.*

Buni ham o'qib bergach, bolalardan niman tushunganlari so'raladi. Chuvalchang "otanonam yerni doim yeydi, tugab qolmasmikan" degan mazmundagi javob kutiladi.

Qaysi so'z bir xil ekanligi bolalardan so'rab, doskaga yoziladi. Birinchi yer yeydi degani ekanligi, ikkinchi yer, tuproq ma'nosida ekanligi tushuntiriladi.

#### **Tulkixonning simyog'ochdagи laylakka iltimosi**

*Ko'ryapsanmi deyman tush?*

*Hov laylak, sal pastroq tush!*

Oxirgi ikkilik ham o'qituvchi tomonidan o'qib beriladi va mazmuni bolalardan so'raladi. Tulki simyog'och tepasida turgan laylakka: "Tush ko'ryapsanmi, pastroq tush" debdi, degan mazmunda javob berishi kutiladi. Qaysi so'z bir xil ekanligi bolalardan so'raladi va doskaga yoziladi.

Birinchi tush inson uxlaganda ko'radigan tushni bildirishi, ikkinchisi esa tepadan pastga tushish harakatini anglatishi tushuntiriladi.

So'ng mazkur ikkiliklar o'quvchilarga o'qitiladi.

## **2-soat**

**Darsning maqsadi:** Bolalarda she'rdagi tasvirlarni, badiiyatni tushunish ko'nikmasini rivojlantirish.

**Vosita:** Shukur Sa'dullaning "Bahor kel-di" she'ridagi mazmunni rasmda aks ettilish.

## **Kirish**

Darsning tashkiliy qismidan so'ng, oldindi darsda "She'r bo'ladigan so'zlar" mavzusini boshlangani, unda qofiyadosh so'zlar, ularning o'xshash va farqli tomonlari o'rganilgani, shaklli bir xil so'zlarning ma'nosi qanday farqlanishi borasida mashqlar bajarilgani eslatiladi. Bungun mavzuni davom ettirgan holda she'r tinglashlari va shu she'r asosida rasm chizishlari aytildi.

## **Asosiy qism**

Sizlar bilan bahor haqida she'r eshitamiz. Undan oldin, keling, bahor haqida gaplashamiz.

Bahor qanday fasl?

Unda tabiatda qanday o'zgarishlar bo'ladi?

Odamlar bahor paytida qanday ishlar qili-shadi?

Bahorda qanday bayramlar nishonlanadi?  
Sizga bahor yoqadimi?

**She'rlarni o'qing. Nima haqida aytilganini o'z so'zlarizing bilan tushuntiring.**

Askar jayrachalar qo'shig'i  
Buyruq bersa otamiz,  
Nayzamizni otamiz!

Tulkixonning ukasiga dashnomi  
Qanaqa betartibsani!  
Dumimga bet artibsani!

Chuvalchangning hayrati  
Ota-onam tirmay yer,  
Tugab qolmasmikan yer?!

Tulkixonning simyog'ochdagi  
laylakka iltimosi  
Ko'ryapsanmi deyman tush?  
Hov laylak, sal pastroq tush!

*Iqbol Mirzo*

**Shukur Sa'dullaning "Bahor keldi" she'rini diqqat bilan tinglang.**

She'rni eshitganingizda nimalarni tasavvur qildingiz? Tasavvurlaringiz ifodalangan rasm chizing.

39

100

Ushbu savollarga iloji boricha ko'proq bolalardan javob olishga intilish kerak. Savollar vositasida bolaning xotirasidagi bahor haqidagi ma'lumotlar va taassurotlar faollahashadi. Bu esa she'rni yaxshiroq tushunishga zamin yaratadi.

Savol-javobdan so'ng she'r yo audiofayldan qo'yib, yo o'qib eshittiriladi.

**Topshiriq. Shukur Sa'dullaning "Bahor keldi" she'rini diqqat bilan tinglang.**

She'r 2–3 marta eshittiriladi.

**Topshiriq. She'rni eshitganingizda nimalarni tasavvur qildingiz? Tasavvurlaringiz ifodalangan rasm chizing.**

Shundan so'ng bolalarga she'rni eshitib, tushunganlari asosida rangli rasm chizib berishlari so'raladi. Rasm chizishda bolalarni erkin qo'yish, shoshiftimaslik muhim. Bola erkin ijod qila olsin. Rasmni chizib bo'lgach, har bir boladan nima chizgani haqida so'rash, chizgan rasmi haqida gapirib berishga undash lozim.

### 3-soat

**Darsning maqsadi:** she'rda o'xshash, badiiyatni tushunish ko'nikmasini rivojlantirish.

**Vosita:** Shukur Sa'dullaning "Bahor keldi" she'rni yuzasidan mashqlar bajarish.

### Kirish

Darsning tashkiliy qismidan so'ng, oldindi darsda Shukur Sa'dullaning "Bahor keldi" she'rini eshitib, rasm chizganlari eslatiladi. Rasm chizish orqali o'quvchilar she'rni qanchalik tushunganlarini ko'rsatganlari aytib o'tiladi. Bugungi darsda mazkur she'rni endi o'qib ko'rishlari va yana ham yaxshiroq tushunishga yordam beradigan mashqlar bajarishlari aytildi.

### Asosiy qism

Doskaga she'rning sarlavhasi yoziladi. o'tgan darsda chizgan rasmi haqida gapirib berishga ulgurmaganlardan o'z rasmlarini tassirlab berish, unda she'rda aytilgan qaysi ifodalar mavjudligi so'raladi.

#### Topshiriq. She'rni o'qing. Berilgan rasmlarga mos keluvchi qatorlarni toping.

Shundan so'ng Shukur Sa'dullaning "Bahor keldi" she'rni o'quvchilar tomonidan o'qiladi. She'rni 5–6 o'quvchi o'qigach, darslikning 41-betidagi rasmlarga e'tibor qaratiladi.

Har bir rasmda nimani ko'rayotganlari va u she'rda qaysi qatorda aks etgani so'raladi.

Birinchi rasm bo'yicha:

Rasmda kim aks etgan?

Uning kiyimi, bezaklari qanday?

Bu rasm she'rda qaysi qatorga to'g'ri keladi?

(Tolbargak taqib qizlar)

Tolbargak so'zini sind tushunmasa, qizning boshidagi tolbargak ekanligi, u bahor faslida tol daraxting shoxlaridan yasalishi tushuntiriladi.

Ikkinci rasm bo'yicha:

Rasmda nima aks etgan?

U qanday rangda?

Bu rasm she'rda qaysi qatorga to'g'ri keladi?

(Bog'da qizil lolalar)

Uchinchi rasm bo'yicha:

Rasmda nima aks etgan?

Ular qanday kayfiyatda?

Bu rasm she'rda qaysi qatorga to'g'ri keladi?

(Chumolilar yayrashar)



To'tinchi rasm bo'yicha:  
Rasmda nima aks etgan?  
U qanday kayfiyatda?  
Bu rasm she'rdagi qaysi qatorga to'g'ri ke-ladi?  
(Tog' bag'rida qo'zilar ma'rab o'tga cho'zi-lar)

Beshinchchi rasm bo'yicha:  
Rasmda nima aks etgan?  
U qanday rangda?  
Bu rasm she'rdagi qaysi qatorga to'g'ri ke-ladi?  
(Daraxtlar taqdi marjon)

Oltinchi rasm bo'yicha:  
Rasmda nima aks etgan?  
U qanday rangda?  
Bu rasm she'rdagi qaysi qatorga to'g'ri ke-ladi?  
(Sho'x bulbullar sayrashar)



Har bir rasm haqida aytib bo'lingach, darslikning 42-betidagi savollarga o'tiladi:

1. "Daraxtlar taqdi marjon" deganda nimani tushundingiz?

Bu savolda bolaning nimani tushunganligi ga urg'u beriladi. Shoir "daraxtlar taqdi marjon" deganda daraxtlarning gullaganini nazarda tutganini tushunish lozim. Bolani to'g'ri yo'naltirish uchun "daraxtlar taqdi marjon" deganda qanaqa daraxt ko'z oldingizga keldi? deb so'rash mumkin.

2. Shoir nimani marjon taqishga o'xshat-gan?

Bu savoldan maqsad o'xshatishni bola ang-lashidir. Daraxtlarning gullari mayda, barglari yumaloq shaklga ega bo'lganidan marjonga o'xshab ketishiga e'tibor qaratiladi.

3. "Yulduz boqar miltirab" deganda nimani tushundingiz?

Bu savoldan maqsad bolalarga she'rlarda narsa-buyumlarga inson, jonzot sifatlari nisbat berilishi mumkinligini anglatish. Bu qoida sifatida yoki nazariy ma'lumot sifatida berilmaydi. Bola ishlatalayotgan so'zlarning nima maqsadda qo'llanayotganiga diqqat qilsa va tushunsa bo'ldi. Yulduz osmon jismi sifatida inson yoki hayvon kabi qaray olish xususiyatiga ega emasligi, inson ko'zida ham nur ko'ringani uchun (ya'ni ko'z boshqa a'zolariga nisbatan yaltirab turadi) qarash harakatini yulduzga nisbat berib ishlatalayotgani tushuntirishi kerak.

4. Bahorda bog'lar bizni rostdan ham kutadimi?

Bu savoldan ham maqsad bolaga badiiyati ni tushuntirish. Bunda bog'lar tirik inson yoki jonzot emasligi, ular mohiyatan hech kimni kutmasligi aytildi. Birovni kutish deyilganda uning kelganidan xursand bo'lish kayfiyatiga ishora qilinayotgani aytilishi kerak, ya'ni bog'ga borganda odamning kayfiyati shunday yaxshi bo'ladiki, xuddi bog' ham uni kutayotganday.

#### **Topshiriq. Gaplarni moslashtirib yozing.**

Mashq daftarining 56-betidagi mashq bajariladi. Unda she'rdan olingan qatorlar to'g'risiga tepada berilgan gaplardan mosini yozib chiqish kerak. Bu mashqdan maqsad bolaga she'rdagi badiylashgan ifoda bilan so'zlashuv uslubidagi ifoda o'rtasidagi mushtarak va farqli jihatlarni his qildirish, farqlashni o'rgatish.

Bu mashqni har bir bola o'zi mustaqil bajarishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Birinchi namuna o'qituvchi tomonidan o'qib, tushuntirib beriladi.

She'nda "*Keldi bahor*" deb yozilgan. *Biz odatda gaplashganimizda nima deb aytamiz?* deb savol berilishi bolalarga mashq maqsadini aniqroq tushunishga yordam beradi.

Mashqning tepasida biz odatda gaplashganimizda qo'llaydigan gaplar berilgan, pastdagi jadvalda esa she'rdagi jumlalar berilgan. Tepadagi gaplardan qaysi biri mazmunan jadval qatoridagi jumlagaga mos bo'lsa, o'shaning to'g'risiga yoziladi.

Mashqning javobi:

Keldi bahor	Bahor keldi
Erib bitdi oppoq qor	Oppoq qor erib bitdi
Uchib keldi qushlarjon	Qushlar uchib keldi
Suvlar oqar shildirab	Suvlar shildirab oqadi

Demak, she'rda ohangga riosa qilish uchun so'zlarning ketma-ketligi odatda gaplashadigan gaplarimizdan farqli bo'lishi mumkin ekan.

#### 4-soat

##### Darsning maqsadi:

She'rni tushunish, unda qo'llangan badiy vositalarni anglash malakasini rivojlantirish.

**Vosita:** Anvar Obidjonning "Tekinxo'r" she'ri

#### Kirish

Darsning tashkiliy qismidan so'ng, o'tgan darsda Shukur Sa'dullaning "Bahor keldi" she'ri o'rganilgani, unda bahorni qanday tasvirlanganligi tahlil qilingani eslatib o'tiladi. O'tgan dars yuzasidan quyidagi savollarni berish mumkin:

Daraxtlarning gullaganini shoir nimaga o'xshatgan edi?

Tolbargak nima edi?

Nima uchun chumolilar bahorda yayraydi?

Bog'lar bahorda bizni nima uchun kutadi?

Bolalardan savollarga javob olinib, umumlashtiriladi. Demak, o'tgan darsda she'r tilning chiroylilagini ko'rsatadigan matn ekan, deb xulosa yasaladi. Bugungi darsda ham she'r haqidagi mavzuni davom ettirish aytib o'tiladi.

#### Asosiy qism

Bugun sizlar bilan Anvar Obidjonning "Tekinxo'r" she'rin o'qiymiz.

Sarlavha doskaga yoziladi.

She'rni o'qib berishdan oldin bolalarga savollar beriladi:

1. Tekinxo'r degan so'zning ma'nosini bilsizlarmi?

Bir nechta boladan so'rab, keyin umumlashtiriladi: mana hozir shu sarlavhali she'rni o'qib, yana uning ma'nosini haqida o'ylab ko'ramiz.

**Topshiriq.** Anvar Obidjonning "Tekinxo'r" she'rin tinglang. Ohangiga e'tibor bering.

She'r ifodali o'qib beriladi. She'rni o'qishda turoqni bildirib o'qigan ma'qul. Har bir qator 4 bo'g'indan iborat, har ikki bo'g'inda ohangning pasayib-ko'tarilishi ro'y beradi. She'rdagi ritmnini bolaga his qildirish kerak.

Bu she'rda *qumursqa* va *uvoq* so'zлari ishlataligan ekan, bu so'zlarning ma'nosini bilamizmi?

Qumursqa – chumoli.

Uvoq – ushoq.

O'qituvchi she'rni kamida 2 marta o'qib berishi kerak. So'ng o'quvchilarga o'qitadi.

**Topshiriq. Anvar Obidjonning "Tekinxo'r" she'rin eshitganingiz kabi o'qing.**

O'quvchilar ohangga riosa qilib o'qishlariga erishish kerak. She'r har bir o'quvchiga o'qitiladi. Shundan so'ng, darslikning 44-betidagi savollarga javob beriladi.

5. Ushoqni kim topdi?

Bolalar ushoqni chumoli topganini aytishlari kutiladi.

6. Chumoli ushoqni nima qilayotgan edi?

Chumoli ushoqni tortib ketayotgan edi.

7. Chumchuq nima qildi?

Chumchuq ushoqni yeb qo'ydi.

8. Nima deb o'ylaysiz, chumoli ushoqni qayonna olib ketayotgan edi?

*Uyasiga, iniga, uyiga* kabi so'zlar bilan javob berishi kutiladi.

9. She'r nima uchun "Tekinxo'r" deb nomlangan?

Chunki ushoqni chumoli topgan edi, chumchuq kelib, chumoli topgan tayyor ushoqni yeb qo'ydi. Chumoli mehnat qilib, uni qayerdandir tortib kelayotgandi, chumchuq esa birovning ushog'ini yeb qo'ydi. Tekinxo'r deyilganda so'zda chumchuq nazarda tutilgan.

44-betidagi keyingi mashqqa o'tiladi.

**Topshiriq.** "Tekinxo'r" she'rining mazmu ni berilgan matnni o'qing. Savolga javob bering.

Unda she'rning nasriy bayoni berilgan. Umatt o'quvchilarga o'qitiladi. 2-3 ta o'quvchi o'qigach, pastdag'i savolga o'tiladi. Savolni o'qituvchining o'zi o'qib bergani ma'qul.

Savol o'rtaga tashlanadi va bolalardan she'rni yana bir o'qib, savolga javob topish so'raladi.



Javobi: "terga botib tortdi uzoq" qatoridan chumoli ushoqni qiynalib tortib ketayotgani ni bilsa bo'ladi. Odamga biror ishni bajarish qiyin bo'lsa, u ko'p kuch sarflaydi, ko'p kuch sarflaganda esa terlaydi. Odam issiqdan ham terlaydi, to'g'ri. Ammo u boshqa vaziyat, hozir deyarli o'zining og'irligiga teng bo'lgan ushoqni tortib ketayotgan chumoli haqida gap borayotgan ekan, uning terga botgani ushoqni tortish unga oson bo'lmanini bildiradi.

#### TEKINXO'R

Qumursqavoy  
Topib uvoq,  
Terga botib  
Tortdi uzoq.

Chumchug kelib  
Sekingina,  
Yutdi-qo'ydi  
Tekingina.

Anvar Obidjon



43

#### 5-soat

**Darsning maqsadi:** tilning badiiy va so'zlashuv uslubini ajrata olish ko'nikmasini rivojlantirish, so'z va birikmalarning uslubiy o'ziga xosliklarini anglash ko'nikmasini rivojlantirish.

**Vosita:** Po'lat Mo'minning "Non olib keldim" she'ri va u asosidagi mashqlar.

#### Kirish

Darsning tashkiliy qismidan so'ng, o'tgan darsda nima o'tligani eslanadi. Buning uchun bolalarga quydagicha savollar berish mumkin:

O'tgan darsda qanaqa she'r o'qidik?

U nima uchun "Tekinxo'r" deb nomlangandi?

Chumoli she'rda qanday so'z bilan berilgandi?

Non ushog'i-chi?

Bugun esa sizlar bilan Po'lat Mo'minning "Non olib keldim" she'rini o'qiyimiz.

#### Asosiy qism

Doskaga she'rning sarlavhasi yoziladi. She'rni o'qishdan oldin bolalarga savollar bilan murojaat qilish maqsadga muvofiq:

Uyingizda non yopiladimi yoki sotib olinadimi?

Siz hech non olib kelganmisiz?

Qayerdan olib kelgansiz? Qayerlarda non sotiladi?

Non sotiladigan joy (novvoyxona, do'kon) sizning uyingizdan uzoqdamni?

Nonga borsangiz, yo'lda nimalarni ko'rish mumkin?

Bu savollarga bolalardan javob olgach, she'r haqida gapiriladi.

Bu she'rda bir bolakayning birinchi marta nonga o'zi mustaqil borib kelganligi haqidagi taassurotlarini o'qiyimiz (darslikning 45-beti).

O'qituvchi she'rni ohangga, qofiyadosh so'zlarga e'tibor qilgan holda avval o'zi o'qib eshittiradi. So'ng bolalarga o'qittiradi. Nechta bolaga o'qitishni sinfdagi bolalarning darajasi dan kelib chiqib o'qituvchining o'zi hal qilgani ma'qul.

Keyin she'r mazmunini tushunganlikni tekshirish uchun mashq daftарining 56-betidagi topshiriq bajariladi.

103

**Topshiriq.** She'r asosida berilgan gaplarning to'g'ri yoki noto'g'ri ekanini aniqlang.

O'qituvchi mashqning sharti va namunani tushuntirib beradi. Namunada berilgan gap "she'r qahramoni do'kondan non olib keldi". O'qituvchi bu gapni doskaga yozadi.

She'r qahramoni – bu bola, u do'kondan non olib keldimi – yo'qmi? She'rda "Olib keldim issiq non" degan gap bor, demak, bu gap to'g'ri va uning oldiga to'g'ri belgisini qo'yamiz.

Mashqdagi keyingi gaplarni bolalarni bit-tadan doskaga chiqarib yozdirish, to'g'ri-noto'g'riligini yuqorida aytilgani kabi sinf bilan birgalikda aniqlab, belgilash kerak.

She'r asosida quyidagi gaplarning to'g'ri yoki noto'g'riligini toping. To'g'ri gaplarning oldiga , noto'g'risining oldiga  belgisini qo'ying.

She'r qahramoni do'kondan non olib keldi.

Non sovib qolgandi.

Mashqning javobi:

She'r qahramoni yo'lda kuchukka tosh otibdi.

- u qaytimni yo'qotib qo'yibdi.
  - u yo'lda ancha narsani ko'ribdi.
  - u do'konga bir o'zi boribdi.
- Bu mashqni bajarib bo'lgach, mashq daftariagi keyingi topshiriqqa o'tiladi.

### **She'r qahramoniga ism qo'ying. She'r-dagi voqeani o'z so'zlarining bilan yozing.**

Topshiriqda she'r-dagi voqeani o'quvchilar o'z so'zlari bilan yozish so'ralgan. Buning uchun avval 2-3 ta bolaga she'r-dagi voqeani gapirtirish kerak. Bu yozishga yordam beradi.

Bolalardan taxminan shunday matn kutiladi:

*Bir bola bor ekan, uning ismi Otabek ekan.  
Bir kuni ularning uyiga mehmon kelibdi. Shunda unga onasi non olib kelishni aytibdi. Otabek bir o'zi, ko'cha chetidan yurib non do'koniga boribdi. Yo'lda unga kuchuk uchrabdi. Otabek kuchukdan qo'rquamabdi. To'g'ri ketaveribdi. Kuchuk ham unga indamabdi. Otabek do'kondan to'rtta non olibdi. Sotuvchi unga qaytim beribdi. Otabek qaytimni cho'ntagiga solib qo'yibdi. Uyga kelib, nonni onasiga beribdi.*

Ammo boladan aynan shunday matn talab qilmaslik kerak. Ayrim tafsilotlar tushib qolishi va aksincha, boshqa tafsilotlar qo'shilishi ham mumkin. Bolaning har qanday ijodkorligi rag'batlanitirilishi kerak.

Yozib bo'lishgach, bir nechta o'quvchidan yozgan matnnini o'qib berishni so'rash mumkin. Lekin o'qituvchi hamma o'quvchining yozgan matnnini o'qib chiqishi va ularga rag'batlantiruvchi munosabat bildirishi shart.

### **6-soat**

**Darsning maqsadi:** matnlarga nisbatan tahviliy yondashuv ko'nikmasini rivojlantirish.

**Vosita:** she'r haqida dastlabki nazariy ma'lumot, qofiya atamasi.

### **Kirish**

"She'r bo'ladigan so'zlar" mavzusini 5 soat o'tdik. O'tgan darsda sizlar bilan Po'lat Mo'minning "Non olib keldim" she'rini o'qidik. Undagi voqeani o'z tilimizda hikoya qilishni o'rgandik. Oldingi darsni eslatish uchun quyidagi savollarni berish mumkin:

"Non olib keldim" she'rida qanday voqeas tasvirlangan?

She'rning nimasi sizga yodqi, she'r nimasi bilan esingizda qoldi?

Bugun "She'r bo'ladigan so'zlar" mavzuning 6-soati va bu soatda sizlar bilan she'r boshqa matnlardan nimasi bilan farq qilishi haqida gaplashamiz.



Savollarga javob bering.

- 1 Ushoqni kim topdi?
- 2 Chumoli ushoqni nima qilayotgan edi?
- 3 Chumchuq nima qildi?
- 4 Nima deb o'ylaysiz, chumoli ushoqni qayqqqa olib ketayotgan edi?
- 5 She'r nima uchun "Tekinxo'r" deb nomlangan?



"Tekinxo'r" she'rining mazmuni berilgan matnni o'qing. Savolga javob bering.

Chumoli ushoq topib, uni qynalib olib ketayotgan edi. Shu payt chumchuq kelib, ushoqni yeb qo'ydi.



Chumoli ushoqni tortishda qynalganini she'r-dagi qaysi qatorдан bilish mumkin?



44

### **Asosiy qism**

Doskaga "She'r" deb sarlavha yoziladi. "She'r bo'ladigan so'zlar" mavzusida biz qanday she'rlar bilan tanishdik?

U she'rlar oddiy gaplardan farq qiladimi? Qaysi biri chiroyliroq? Qaysi biri odamga ko'proq yoqadi?

Bu savollar bolani fikrleshsga, o'ylashga undash uchun beriladi. Bunda aniq bir xil javob kutilmaydi.

Keyin darslikning 46-betida berilgan she'r haqidagi ta'rif o'qiladi.

**Topshiriq.** She'r haqida berilgan ma'lumotni o'qing.

Bu qoidani o'qigach, bolalarga aytasiz:

Kelinglar, buni biror she'rda tekshirib ko'ramiz. Masalan, Anvar Obidjonning "Tekinxo'r" she'rining to'rt qatorini doskaga yozib tahlil qilamiz.

Qumursqavoy

Topib uvoq,

Terga botib

Tortdi uzoq.

She'rning nimasi sizga yozish uchun biror o'quvchini chiqarish mumkin. Yozib bo'lingach, bolalarga:



“Endi uni bo‘g‘inlarga ajratamiz” deb aytadi.  
Avval bolalar bilan birgalikda og‘zaki ravishda bo‘g‘inlarga ajratiladi:

Qu-murs-qa-voy

To-pib u-voq,

Ter-ga bo-tib

Tort-di u-zoq.

Doskадagi birinchi qatorni o‘qituvchining o‘zi tik chiziq bilan bo‘g‘inlarning ajratilishini belgilab beradi. Keyin bir bolani chiqarib, qolgan qatorlarning bo‘g‘inlarini ajratishni so‘raydi. Hamma qator ajratilib bo‘lingach, harbir qatordagi bo‘g‘inlarning soni sanab chiqiladi.

Har bir qator 4 bo‘g‘indan iboratligiga bolalar o‘zлari ishonch hosil qilishlari kerak.

Keyin ohangdosh so‘zlarni topish so‘raladi. Ohangdosh so‘zlarni topish avvalgi darslarda ham o‘tilgani uchun bu bolalarga qiyinchilik tug‘dirmasligi kerak.

Hamma qator emas, balki ikkinchi va to‘ritinchi qatorlar ohangdosh so‘zlar bilan tugaishi aytib o‘tiladi. 2-qatordan uvoq, 4-qatordan uzoq so‘zlarining tagiga chiziladi.

**Topshiriq.** She’riy parchani o‘qing. Topshiriqni bajaring.

Har bir qator necha bo‘g‘indan iborat ekanini aniqlang.

Qofiyadosh so‘zlarni toping.

Darslikda berilgan “Bahor keldi” she’ri ham shunga o‘xshab butun sinf bilan birgalikda doskaga yozib tahlil qilinadi.

Kel-di ba-hor, gul ba-hor, -7

E-rib bit-di op-poq qor, -7

U-chib kel-di qush-lar-jon, -7

Da-raxt-lar taq-di mar-jon, -7

Mashq daftaring 57-betidagi topshiriqni bolalar mustaqil bajaradi.

**Topshiriq.** She’rning qatorlari necha bo‘g‘indan iboratligini toping. Qofiyadosh so‘zlarining tagiga chizing.

### Baliqchining qo‘sиги

Anvar Obidjon

Nor o‘-ti-rar gir-g‘oq-da, -7

Ik-ki ko‘-zi qar-moq-da. -7  
As-ta ay-tar a-shu-la: - 7  
“Meh-mon-ga kel, a-ku-la!” -7

### Yakuniy qism

Mana, bugun she’rlarning boshqa matnlardan farqi nimada ekanligini bilib oldik. She’rni tahlil qilishni o‘rgandik. Sizlar bilan “She’r bo‘ladigan so‘zlar” mavzusi o‘tayotganimizda Shukur Sa’dullaning “Bahor keldi”, Anvar Obidjonning “Tekinxo‘r”, Po‘lat Mo‘minning “Non olib keldim” she’rlarini o‘qib o‘rgandik. Keyingi darsga o‘zingiz xohlagan she’rni yod olib kelishingiz kerak.

**Topshiriq.** “She’r bo‘ladigan so‘zlar” mavzusida siz bir nechta she’rni tingladingiz, o‘qidingiz. Shu she’rlardan o‘zingizga yoqqanini yod oling.

### 7-soat

**Darsning maqsadi:** bolaning so‘z boyligini oshirish, so‘zning tovush tarkibini farqlash ko‘nikmasini rivojlantirish.

**Vosita:** she’rni yoddan aytish.

### Kirish

Bugun “She’r bo‘ladigan so‘zlar” mavzusiga yakun yasaymiz. O‘tgan darsda she’r yod olib kelishingizni aytgandim. Demak, bugun ham mangizdan she’r eshitamiz.

### Asosiy qism

#### Yod olgan she’ringizni aytib bering.

Har bir boladan she’r eshitishdan oldin undan qaysi she’rni yodlaganini, nima uchun shu she’rni tanlaganini so‘rash maqsadga muvofiq.

Hamma bolalarning yod olgan she’rlari diqqat bilan tinglanadi, har bir bola rag‘batlanadir.

# SANAMALAR

**Nutqiy mavzuning maqsadi:** qofiya, sanama, topishmoq borasida o'quvchilarning tushunchalarini kengaytirish; rasmlar va matnlarni o'zaro moslashtira olish, she'r syujetini, undagi o'xshatishlarni tushunish ko'nikmasini rivojlantirish; o'yinlardan oldin saralash maqsadida aytildigan sanamalar va o'zin davomida aytildigan sanamalar bilan tanishtirish; topishmoq topishda qo'llash mumkin bo'lgan usullarni o'rgatish.



## 1-soat

**Darsning maqsadi:** o'quvchilarda rasmda tasvirlangan voqeani hayotiy tajribalari bilan moslashtirish, matndagi ma'lumotlarни o'z ma'lumotlariga o'zgartira olish ko'nikmalarini rivojlantirish; oy nomlari, ularning fasllarga taqsimoti va ularda amalga oshiriladigan odatiy ishlar haqida fikr yuritishga undash.

**Vosita:** rasm hamda she'r.

## DARS JARAYONI

### Kirish

Tashkiliy qismidan so'ng o'qituvchi nutqiy mavzu nomini e'lon qiladi. O'quvchilarni mavzuga olib kirish uchun tanaffus paytida yoki mahallada o'rtoqlari bilan qanday o'ylarni o'ynashini so'rash mumkin.

### Asosiy qism

#### Savollarga javob.

O'quvchilardan darslikning 47-betida (2-qism) berilgan rasmga qarash, unda nima tasvirlanganini taxmin qilib ko'rish so'raladi. Shundan so'ng quyidagi savollar beriladi?

#### 1. Rasmda qaysi o'zin tasvirlangan?

Ushbu rasmda "Oq terakmi, ko'k terak?" o'zini tasvirlangan, bolalar bir-birlarining qo'llini ushlab turibdi.

#### 2. Bu o'zin qanday o'ynaladi?

O'quvchilar ushbu savolga bittadan ma'lumot aytsalar ham yetarli. Ya'ni har bir o'quvchi o'zining bitta qoidasi yoki tartibini aytishi kifoya. O'qituvchi oxirida javoblarni umumlashtirib, o'yinni o'ynash tartibini aytib beradi.

#### 3. O'zin davomida qanday she'r aytildi?

O'quvchilar "Oq terakmi, ko'k terak?" o'zini aytildigan she'rni eslashlari va aytib berishlari kerak bo'ladi. Bunda bir o'quvchi she'rni boshidan oxirigacha bilishi qat'iy talab emas.

#### Yozma mashq.

##### 1-topshiriq.

Ushbu topshiriq mashq daftarinining 58-betida joylashgan. Unda "Oq terakmi, ko'k terak?" o'zini davomida aytildigan she'r namunasi berilgan. Topshiriqqa ko'ra o'quvchilar 3- hamda 4-qatorlarini o'zgartirishi kerak bo'ladi. She'ring 3-qatori *Eng a'luchi maktabda bo'lsa*, *Eng aqli maktabda deb o'zgartirish mumkin*. She'ring 4-qatori *Bizga Alisher kerak bo'lsa*, *Bizga Komila kerak deb o'z sindoshlaridan birining ismini qo'yib yozishi lozim*.

**Eslatma:** o'quvchilarga yana ham tushunarli va oson bo'lishi uchun mashqni o'zingiz og'zaki bajarib bering, lekin sizning aytgani ngizni qaytarib yozish mumkin emasligini eslatib o'ting.



## O'qish va tushunish.

### She'rni o'qish davomida bo'sh o'rinxlariga oy nomlarini qo'ying.

O'quvchilar bilan avvalroq oy nomlari o'rnilgan. Endi o'quvchilar o'sha bilimlarini eslashlari va boshqa vaziyatda qo'llashlari kerak. Darslikning 48-betida (2-qism) "Oylar kelar ketma-ket" she'ri mavjud. Undagi oy nomlari atay tushirib qoldirilgan. O'quvchilar she'rdagi nuqtalar o'rniga mos oy nomini qo'yib o'qishlari kerak bo'ladi. Topshiriq yana ham tushunarli bo'lishi uchun o'qituvchi birinchi to'rtlikni o'qib berishi tavsiya etiladi.

## 2-soat

**Darsning maqsadi:** o'quvchilarning qofiya borasidagi tushunchalarini kengaytirish, she'r syujetini hamda ochiq aytigan ma'lumotni tushunish ko'nikmasini rivojlantirish.

**Vosita:** raqamlar, raqamlar qatnashgan she'r.

**OYLAR KELAR KETMA-KET**

Kel, sanaymiz – turma chet,  
Oylar kelar ketma-ket:  
.....  
O'ynaymiz qorbo'ronlar.

..... bersa darak,  
Pishar somsa, sumalak.  
..... ham yaxshi, ham yomon  
Axir bor-da imtihon!

....., ..... so'ng,  
Hamma ishlar bo'lar o'ng.  
.....ni olamiz,  
Biz mabtagba boramiz.

....., ..... boq –  
Atrof bo'lar zarg'aldoq.  
Kel, sanaymiz – turma chet,  
Oylar kelar ketma-ket...  
*Dilnavoz Najimova*

48

## DARS JARAYONI

### Kirish

Tashkiliy qismdan so'ng o'quvchilarni mavzuga olib kirish uchun o'qituvchi qofiya nima

ekanini eslatishdan boshlashi yoki o'quvchilardan qofiya haqida nima bilishlarini so'rashi mumkin, chunki o'quvchilar bilan avvalgi darslarda qofiya haqida suhbatlashilgan. O'qituvchi o'sha suhbatlarni eslatishi va qofiya haqidagi tushunchalarni o'quvchilar ongida qayta jonlantirib olishi lozim.

### Asosiy qism

#### Raqamlarga qofiyadosh bo'la oladigan so'zlarni aytning.

Darslikning 49-betida (2-qism) birdan o'n-gacha bo'lgan raqamlar va ularga qofiyadosh bo'la oladigan so'zlar berilgan. Mashq shartiga ko'ra, o'quvchilar raqamlar va so'zlarni qofiyadoshlik asosida moslashtirishlari kerak bo'ladi. Ushbu topshiriqni namuna asosida og'zaki yoki xattaxtada yozma shaklda bajarishtumumkin. Eng ma'qul yo'llardan biri – o'quvchilarni uch guruhga ajratish va guruh a'zolari birlashib bajarishini so'rash. Bunda o'quvchilar moslashtirishni guruhda muhokama qilib oladilar hamda guruh a'zolari bittadan raqamga bittadan qofiyadosh so'zni aytib chiqadi. Keyingi guruh ham shu tarzda javob beradi.

**Eslatma:** guruhga ajratish yo'llidan foydalanganda o'quvchilarning javobi o'xshash bo'lishi mumkinligini tushuntiring, ya'ni "men aytmoqchi edim, narigi guruh aytib qo'ydi" degan tushuncha shakllanishiyo'q qo'y mang.

**Muhim:** o'quvchilar ba'zi qofiyalarni xato tanlashlari mumkin. O'quvchiga xatosini tushuntiring va javobini to'g'rilashiga imkon bering.

### O'qish va tushunish.

Darslikning 50 – 51-betlarida (2-qism) Kav-sar Turdiyevaning "Raqamlar bo'ylab sayohat" she'ri berilgan. O'qituvchi oldin shu she'ni ravon, ifodali, adabiy til normalariga amal qilgan holda o'qib beradi. Keyin o'quvchilarga bir banddan (4 qator dan emas, bir banddan) o'qitadi. She'r o'quvchilar tomonidan 2 marta o'qib bo'lingach, unga oid savol-javoblarga o'tiladi.

#### 1. She'rda aytishicha, dunyoda nimalar bitta ekan?

**To'g'ri javob:** Oy, Quyosh, vatan hamda ona. O'quvchilar she'rning o'sha qismini o'qib berishlari emas, aynan bitta deb sanalganlarining nomini aytib bersalar kifoya.

## 2. Nima uchun ikkining bahosi dakki, de-yilmoqda?

O'quvchilar katta ehtimol bilan dakki so'zini bilmasligi mumkin. O'qituvchi ushbu so'zning ma'nosini tushuntiradi:

**dakki – xato ish, yomon qiliq uchun aytildigan gap, so'kish, tanbeh berish.**

O'quvchilar **dakki** so'zining ma'nosini bilib olgach, she'r matniga tayangan holda javob berishlari mumkin. Ya'ni o'quvchilar ikki olish bu dakki olish bilan bir xil ekanini anglashlari lozim.

## 3. She'rdagi yo'lchiroq nima?

O'quvchilar svetoforning nimaligini bilishlari aniq, lekin she'lda svetofor so'zi o'rniga uning o'zbekcha muqobili – *yo'lchiroq* ishlataligan. She'rning uchinchi bandidagi kalit jumlalar (So'zlar yo'lchiroq – menga uch chiroq: – Qizil, sariq, ko'k, Boshqa rangim yo'q) orqali to'g'ri javobni topishlari kerak bo'ladi.

## 4. She'rda to'rt raqami bilan bog'liq qanday voqealar tilga olingan?

O'quvchi bu savolga javobni to'liq berishi shart emas, ya'ni har bir o'quvchi bittadan voqeani aytib bersa ham yetarli bo'ladi.

## 5. A'llochiga yo'ldosh bo'ladigan raqam qaysi ekan?

O'quvchilar katta ehtimol bilan esh so'zining ma'nosini bilmasligi mumkin. O'qituvchi bu so'zning ma'nosini tushuntiradi:

**esh – o'rtoq, sherik, yo'lda birga sherik bo'ladigan, yo'ldosh.**

Shundan so'ng o'quvchilar savolning javobini topishlari mumkin.

### Yozma mashq.

#### 2-topshiriq.

Ushbu topshiriq mashq daftaring 58-betida joylashgan. Unga ko'ra, o'quvchilar daftarda ajratilgan o'ringa "Raqamlar bo'ylab sayo-hat" she'ridagi qofiyadosh so'zlarni yozishlari kerak. O'qituvchi namuna sifatida bir-ikkita so'z yozib beradi. O'quvchilar kamida 4 ta juftlik yozishlari kerak bo'ladi. Shundan so'ng, ularidan yozganlarini o'qishni so'rash, xatolari bo'lsa tushuntirib, to'g'rilashga imkon berish lozim.

## 3-soat

**Darsning maqsadi:** o'quvchilarning qofiya borasidagi tushunchalarini kengaytirish, qofiya yasash ko'nikmasini rivojlantirish.

**Vosita:** rasmlar, tana a'zolari nomi.

## DARS JARAYONI

### Kirish

Tashkiliy qismidan so'ng o'quvchilarni mavzuga olib kirish uchun o'qituvchi xattaxtaga ikkita so'z yozadi va o'quvchilardan nega shu so'zlarni yonma-yon yozganini topishni so'raydi, bunda o'tgan darslarda o'rgangan narsalarimiz qo'l kelishini aytadi. Xattaxtaga yoziladigan so'z qofiyadosh bo'lishi lozim: ona – xona yoki qalam – alam kabi.

### Asosiy qism

#### Partadoshingiz bilan bajaring.

O'quvchilarga topshiriqning shartlari yaxshilab tushuntiriladi:

Bolajonlar hozir sizlar bilan ajoyib o'yin o'yaymiz, navbat bilan so'z aytamiz, partadoshingiz esa o'sha so'zga qofiyadosh so'z aytishi kerak bo'ladi. Kim to'g'ri aytса, unga qarsak chalamiz. Kelishdikmi?

O'quvchilardan "Ha" javobini olgach, o'yinni boshlash mumkin.

**Eslatma:** o'yinni boshlashdan oldin o'quvchilarning o'yin tartibini tushunganligini aniqlash uchun savol bering. Tushunishmagan bo'lsa, yana ham sodda shaklda qayta tushuntiring.



Ortiqcha rasmlar bildirgan so'zlar nega qofiyadosh emas?

3. Mashq daftaridagi topshiriqni bajaring.

Sanamalar odatda biror o'yinni boshlab olish uchun ishlatalidi.



## Qiziqarli topshiriq.

### Qaysi rasm ortiqcha?

Darslikning 53-betida (2-qism) uch qator rasm berilgan. Har bir qatorda 3 tadan rasm bor. O'sha rasmlarda tasvirlangan narsa-bu-yumming nomi aytilsa ikkitasi qofiyadosh, bittasi ortiqcha chiqadi. O'quvchilar o'sha ortiqcha rasmni topishlari kerak. Buning uchun o'quvchilarni uch guruhga bo'lib qo'yib topshiriq berish (har bir guruhga bir qator) yoki umumiylig' zaki muhokama qilish mumkin.

### Savol.

### Ortiqcha rasm bildirgan so'zlar nega qofiyadosh emas?

1-qatordagi ortiqcha rasm – tovuq. Qofiyali so'zlar ayiq – qayiq. Bunda ayiq va qayiq bitta tovush bilan farq qilib turibdi, qolgan tovushlarning joylashuv o'rni ham bir xil, lekin tovuqda faqatgina bir tovush o'xshaydi. Ana shuning uchun u qofiyadosh emas.

**Eslatma:** o'quvchi aynan shunaqa ta'rif berishi kutilmaydi. O'quvchi o'z fikrini aytadi. Uning fikri umuman mantiqqa zid bo'l-gandagina xato hisoblanadi.

2-qatordagi ortiqcha rasm – qo'y. Qofiyali so'zlar: oy – soy. Bunda ham yuqoridagi tartib amal qilgan.

3-qatordagi ortiqcha rasm – kit. Qofiyali so'zlar: sut – tut. Bunda ham yuqoridagi tartib amal qilgan.

### Yozma mashq.

### 3-topshiriq.

Ushbu topshiriq mashq daftaringin 60-betida joylashgan. Mashq daftarida ikki ustun ajratib qo'yilgan. Tana a'zolarining rasmi berilgan. O'quvchilar chap ustunga tana a'zolari nomini, o'ng tomonga esa ularga qofiyadosh istalgan so'zni yozadilar. O'quvchi namuna sifatida xattaxtada bitta tana a'zosi uchun qofiyadosh so'z yozib beradi.

**Eslatma:** o'quvchilar topshiriqni bajara-yotganda sinfni aylanib yurib xato va kam-chiliklarni o'rnila tushuntirib, to'g'rilab ketishni unutmang.

### 4-soat

**Darsning maqsadi:** o'quvchilarning sanama borasidagi tushunchalarini kengaytirish, o'yindan oldingi va o'zin davomidagi sanamalar bilan tanishtirish.

**Vosita:** sanamalar matni va rasmlar.

## DARS JARAYONI

### Kirish

Tashkiliy qismidan so'ng o'qituvchi o'quvchilarni mavzuga olib kirish uchun quyidagi savollarni beradi:

- *Mahallada o'rtoqlaringiz bormi? Ular bilan qanday o'yinlarni o'ynaysizlar?*
- *Qaysi o'yinni o'ynashda bir, ikki, uch kabi sanashlardan foydalanish mumkin?*

### Asosiy qism

#### Sanamalar.

O'qituvchi o'quvchilarga sanama nima ekanini haqida qisqacha aytib beradi:

**Sanama** – *biror o'yinni boshlash yoki uni davom ettirish uchun qo'llanadigan sanoq usuli. Ilgari ota-bobolarimiz, momolarimiz yoshliklari o'yinda kimning qanday vazifada bo'lishini aniqlab olish uchun sanamalardan foydalanganlar. Bu oddiy bir, ikki, uch, to'rt, besh deb sanashdan ko'ra ancha qiziqarliroq bo'lgani uchun shunday qilishgan.*

Shundan so'ng o'quvchilarga darslikning 54-betidagi (2-qism) rasmlarga qarash aytildi. O'quvchilardan shunday sanamalarni bilish yoki bilmasliklari aniqlanadi. Darslikning shu betida berilgan ma'lumotlarni yaxshilab o'qib ko'rish, keyin nima tushunganlarini aytib berish so'raladi. Darslikdagi ko'rsatmalarga amal qilishning o'zi kifoya.

**O'qituvchining namunaviy nutqi.** "Bunga 100% amal qiling" deyishdan yiroqmiz.

*Bolajonlar, bu sanamaning o'yin oldidan qo'llanishi edi. Endi sanamaning o'yin ichida, o'yinni o'ynash davomida qo'llanishini ko'rib chiqamiz. Darsligimizning 55-betini ochamiz:*

1. U yerda qaysi o'yin tasvirlangan?
2. "Bekinmachoq" o'yinida sanaganmisizlar? Qanday sanaganini kim aytib bera oladi?
3. Kim sanashini aniqlash uchun qanday usuldan foydalangansizlar?
4. Sanamalar o'yining qaysi qismlarida qo'llanishi mumkin ekan? Misollar aytamiz.

### 5-soat

**Darsning maqsadi:** o'quvchilarning topishmoq borasidagi tushunchalarini kengaytirish, tez aytishlar orqali bola nutqini ravonlashtirish.

**Vosita:** topishmoqlar va ularga mos rasmlar, tez aytishlar.

## DARS JARAYONI

### Kirish

Tashkiliy qismidan so'ng o'quvchilarning darsga kirishib olishlari uchun o'qituvchi quydagi savollarni beradi:

1. Siz topishmoq aytishsa topa olasizmi?
2. Qanday topishmoqlarni bilasiz?
3. Topishmoqqa javob topish nimasi bilan qiziq?

### Asosiy qism

#### O'qish va tushunish.

Topishmoqning javobini toping.

O'quvchilar darslikning 56-betida berilgan she'riy topishmoqni o'qishlari hamda ularga javob topishlari kerak. Bunda o'qituvchi bu she'riy topishmoq ekani, she'riy topishmoqda javob ko'pincha savolga qofiyadosh bo'lishini tushuntiradi.

Javoblar: Axir u saxovatli, qadrondan **boboquyosh**.

Mag'rur, yuksak, viqorli, Axir u **tog'dir qorli**.

**Eslatma:** o'quvchilarga "quyosh" so'zining o'zi ham to'g'ri javob ekani, lekin unda she'nda biroz kamchilik bo'lib qolishi, yuqorida berilgan qatorlardagi bo'g'inlar soniga mos bo'lishi uchun eng to'g'ri javob boboquyosh ekanini tushuntiring.

#### Topishmoq vaqtி.

O'qituvchi o'quvchilardan birma-bir topishmoq so'rab chiqadi. Hamma o'zi bilgan topishmoqni aytadi. Qolganlar unga javob topishga urinib ko'radi. Topishmoq vaqtி 5 daqiqa davom etsa yetarli.

#### O'qish va tushunish.

O'quvchilar darslikning 57- hamda 58-betidagi topishmoqlarni o'qiydilar. Topishmoqlar yonida rasmlar berilgan. O'sha rasmlarda javoblar yashiringan. O'quvchilar shu rasmlarни topishmoqlar bilan moslashtirishlari va javob topishlari lozim. Topshiriq og'zaki tarzda bajariladi.

Ushbu topshiriqda yakka yoki guruh bo'lib ishslash usulidan foydalanishingiz mumkin.

#### Tez aytish.

O'qituvchi darslikning 59-betidagi tez aytishlarni aytib beradi. O'quvchilar o'qituvchining ortidan umumiy xor tarzda takrorlaydilar. Shunday qilib, tez aytishlar tugagach o'qituvchi navbat bilan bir nechta o'quvchini turg'izib tez aytishlarni qayta so'raydi.

**Eslatma:** xor tarzda aytilayotganda e'tiborsiz o'tirgan yoki tengdoshlariga yetib ololmayotgan o'quvchilardan birinchi navbatda so'rang.



#### Vazifa.

Ushbu darslikda uyga vazifalar berish nazaarda tutilmagan, lekin o'quvchining ota-onasi, yaqinlarini ta'limga qiziqtirish, bola bilan ko'proq vaqt o'tkazishini ta'minlash, o'quvchida tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantirish maqsadida quyidagicha topshiriqlar ham kiritilgan.

**Uyingizdagи kattalardan qanday sana-malar, topishmoqlar, tez aytishlar bilishlari ni so'rang. Ularni daftaringizga yozib oling.**

O'quvchilarga uyda nima qilishlari kerakligi qayta tushuntiriladi.

### 6-soat

**Darsning maqsadi:** o'quvchilarning topishmoq borasidagi tushunchalarini kengaytirish, topishmoqlarning javobini topishni o'rgatish.



**Vosita:** topishmoqlar.

## DARS JARAYONI

### Kirish

Tashkiliy qismidan so'ng o'qituvchi o'quvchilardan topishmoq nima ekanini so'raydi? O'zi ikki-uchta topishmoq aytib bolalarni mavzuga olib kiradi.

### Asosiy qism

#### O'qish va tushunish.

Darslikning 59- va 60-betlaridagi ko'rsatmalarga amal qilgan holda darsni tashkillash tavsiya etiladi.

#### Yozma mashq.

#### 4-topshiriq.

O'quvchilar mashq daftaringning 61–62-betlarida berilgan topishmoqlarni topishlari kerak bo'ladi.

Bundan tashqari, o'quvchilardan qaysi so'zlarga qarab topishmoqning javobini topib olganliklarini belgilashlari talab etiladi. O'sha so'zning ostiga chizib qo'yish mumkinligi tushuntiriladi.

**Javoblar (tartib bo'yicha):** *qor, yulduzlar, chaqmoq, qo'ziqorin, asalari, baliq.*

### 7-soat

**Darsning maqsadi:** qofiya, sanama, topishmoq borasida o'quvchilarning tushunchalarini kengaytirish, mavzu davomida o'rjanilgan bilimlarini amalda sinash.

**Vosita:** o'quvchilar o'z oila a'zolaridan to'plab kelgan sanama, tez aytish, topishmoqlar.

## DARS JARAYONI

### Kirish

Tashkiliy qismidan so'ng o'qituvchi o'quvchilarga bugun bajariladigan ishni tushuntiradi:

*Bolajonlar esingizda bo'lsa o'tgan darslar ning birida topshiriq bergan edim. Uyingizda-gi kattalardan qanday sanamalar, topishmoqlar, tez aytishlar bilishlarini so'rang. Ularni daftaringizga yozib oling.*

*Bugun shu topshiriqning davomini o'yin tarzida bajaramiz.*



4. Mashq daftaringizdagi topshiriqni bajaring.



Rangli qog'ozlardan qizil va yashil doira-chalar kesib oling.

1 Oldinroq sizga uydagi kattalardan sanama, topishmoq hamda tez aytishlar so'rab, yozib kelish topshirilgan edi. Har biringiz navbat bilan bittadan namuna o'qib bering.  
 2 Sinfdoshlaringiz topishmoqlarni topib, tez aytishlarni aytib ko'ssin.  
 3 Topishmoqni topa olganga yashil, tez aytishni ayta olganga qizil doirachani tutqazing.  
 4 Yakunda kim ko'p doiracha to'plasa, o'sha g'olib bo'ladi.

111

61

### Asosiy qism

#### Doirachalar yasash.

O'quvchilarga qizil va yashil rangli qog'ozlarni olib ulardan doirachalar yasash topshiriq'i beriladi. Doirachalar juda katta bo'lishi shart emasligi tushuntiriladi. Ajratilgan vaqt 5 daqqaqqa.

#### O'yin qismi.

Darslikning 61-betidagi ko'rsatma asosida darsni tashkil qiling.

**Eslatma:** o'quvchilarning javoblari to'g'ri bo'lishini, ular navbat va munozara odobiga rioya qilishlarini kuzatib boring.

# OY YERDAN KATTAMI?

**Nutqiy mavzuning maqsadi:** o'quvchilarning osmon jismlari bilan bog'liq tasavvurlarini kengaytirish, mazkur mavzu doirasida ishlatalidigan so'z, so'z birikmalari va gaplarni to'g'ri tushunish va to'g'ri qo'llashiga erishish, lug'at boyligini oshirish, rasm asosida hikoya tuzish ko'nikmasini shakllantirish.

## DARS JARAYONI

### Kirish

Tashkiliy qismidan so'ng o'qituvchi bo'lim hamda nutqiy mavzu nomini e'lon qiladi. O'quvchilarni mavzuga olib kirish uchun quyidagi savol bilan murojaat qilish mumkin: "Aytin-chi, osmonda nimalarni ko'rish mumkin?"

### Asosiy qism.

**1-topshiriq. Rasmga qarang. Quyosh tizimidagi sayyoralar nomini ovoz chiqarib o'qing.**

Darslikda quyosh tizimidagi sayyoralarning rasmi va nomlari berilgan. O'quvchilarga berilgan sayyora nomlarini birma-bir o'qitish lozim. So'zlar takror kelsa ham, har bir o'quvchiga o'qitish maqsadga muvofiq.

Rasm bilan tanishib bo'lgach, darslikdagi savollar beriladi.

Mazkur savollar iloji boricha ko'proq o'quvchidan javob olinishini talab qiladi. O'quvchi javob berishda rasmga tayanadi.

1-savolda quyosh tizimi nima ekanligini aytib berish so'rangan. Bu savolga o'quvchining rasmdan olgan ma'lumotlari asosida javob berishi nazarda tutilgan. O'quvchilarning javoblarini umumlashtirib, quyosh tizimi haqida izoh berish maqsadga muvofiq.

**Izoh: quyosh tizimi** – quyosh ta'siri maydoni ichida harakatlanuvchi osmon jismlari.

2-savolga o'quvchilarning rasm asosida aniq javob berishi nazarda tutilgan. Ya'ni o'quvchilar quyosh tizimidagi eng katta sayyora qaysi ekanligini aytib berishi kerak. Rasmga e'tibor bersak, javob: Jupiter.


3-savolga o'quvchidan "yulduz" javobi kutiladi.

4-savolga o'quvchidan "oy" javobi kutiladi.

5-savol orqali o'quvchining lug'at boyligi tekshiriladi. Bunda o'quvchi osmonda qanday jismlar borligini aytib berishi lozim. Masalan, sayyora, asteroid, yulduz, oy, quyosh kabi.

6-savolda o'quvchilardan osmonni yana qanday nomlar bilan atalishini aytib berishi so'rangan. O'quvchilar bu savolga javob topishga qiynalsa, izoh berish maqsadga muvofiq.

**Javob:** osmonni samo, ko'k, fazo deb ham ataymiz.



### 1-soat

**Darsning maqsadi:** o'quvchilarning o'z fikrini ifodalashda xabar, so'roq va buyruq ohangidan foydalana olishi bilan bog'liq mashq va topshiriqlar ustida ishslash.

**Vosita:** osmon jismlariga oid rasmlar asosida suhbat; mavzu asosida tayyorlangan mashq va topshiriqlar.



**Yozma mashq.**

**1-topshiriq. Quyosh tizimidagi sayyoralar nomini tartibi bo'yicha yozing. Ularni ovoz chiqarib o'qing.**

Mazkur topshiriq daftarida bajariladi. Bunda o'quvchilardan rasmda berilgan chizmani tu-shungan holda sayyorlar nomini ketma-ketlikda yozib berishi so'raladi.

**Javob:** Merkuriy, Venera, Yer, Mars, Yupiter, Saturn, Uran, Neptun.

Mashqni bajarib bo'lgach, o'quvchilarning har biriga yozgan so'zlarini o'qtish kerak.

**2-topshiriq. Berilgan savollarga to'liq javob yozing.**

Bu topshiriq mashq daftarida bajariladi. Mashq daftarida uchta savol berilgan. O'quvchilar savollarni mustaqil o'qib, ularga rasm asosida to'liq javob yozishi lozim.

**Javob:**

1. Quyosh tizimida 8 ta sayyora bor.
2. Eng katta sayyora –Yupiter.
3. Yer Quyosh tizimidagi uchinchi sayyoradir.

Mashqni bajarib bo'lishgach, har bir o'quvchining topshiriqni qanday bajarganligini tek-shirish kerak. Buning uchun javoblarni xattaxta yoki proyektorda ko'rsatgan holda o'qib berish maqsadga muvofiq.

## 2-soat

**Darsning maqsadi:** o'quvchilarning osmon jismlari bilan bog'liq tushunchalarini kengaytirish, audiomatn ustida ishlash, o'quvchilarning eshitib tushunish ko'nikmalari rivojlantirish, mavzu doirasida lug'at boyligi, yozma savodxonligini oshirish.

**Vosita:** audiomatn, unga oid mashq va topshiriqlar.

## DARS JARAYONI

### Kirish

Darsning tashkiliy qismidan so'ng o'quvchilar bilan o'tilgan dars mavzusiga oid qisqa savol-javob o'tkazish mumkin. O'quvchilarni audiomatnni eshitish jarayoniga tayyorlash lozim.

### Asosiy qism

O'quvchilarga "Yerning yo'ldoshi" audiomatni eshittiriladi (*imkon bo'lmaganida, o'qtuvchi uni baland ovozda ifodali o'qib beriladi*):

### Audiomatn:

Oy har doim Yerning atrofida aylanib turadi. Go'yo Yerimiz uni ko'rinas arqon bilan tutib olgandek. Bu "ko'rinas arqon" aslida *tortishish qonuni* deb ataladi. Magnit toshi temir bo'lagini o'ziga tortgandek, Yer ham Oyni tortib turadi. Qo'rwmang, u Yerga qulab tushmaydi. Sababi Oy katta tezlikda uchadi. Fizika qonunlari shunaqa, buni yuqori sinflarda bilib olasiz.

Oy – Yerning tabiiy yo'ldoshi. U Yerdan ancha kichkina. Agar Yerimizni katta bir qop deb tasavvur qilsak, bu qopning ichiga 50 ta Oy joylashadi.

Oy bizning sayyoradan unchalik uzoqda emas. Zamonaviy fazo kemalari Oyga bir zumda yetib boradi.

1969-yili amerikalik fazogirlar Neil Armstrong va Bazz Oldrin "Apollon-11" kemasida Oyga uchib borishgan. Ular Oy sathida bir kun qolib, so'ng yana Yerga qaytishgan.

"Mening galaktikam" kitobidan.

"Yerning yo'ldoshi" audiomatnini tinglang.



- 1 Oy qaysi sayyora atrofida aylanadi?
- 2 Yer Oyni qanday ko'rinas kuch bilan o'ziga tortadi?
- 3 Oy nima uchun Yerga qulab tushmaydi?
- 4 Oy sayyoramizdan qanchalik kichkina? Misol bilan tushuntiring.
- 5 Odamlar Oyga ilk bor qachon parvoz qilgan?
- 6 Oyga qaysi fazo kemasida uchishgan?
- 7 Ilk bor Oyga qo'ngan fazogirlarning ismi nima?



Audiomatn eshittirilgach, darslikdagi savollar beriladi.

Mazkur savollar iloji boricha ko'proq o'quvchidan javob olinishini talab qiladi.

**Javob:**

Oy qaysi sayyora atrofida aylanadi?	Yer atrofida
Yer Oyni qanday ko'rinas kuch bilan o'ziga tortadi?	tortishish qonuni

Oy nima uchun Yerga qulab tushmaydi?	sababi oy katta tezlikda uchadi
Oy sayyoramizdan qanchalik kichkina? Misol bilan tushuntiring.	u Yerdan ancha kichkina. Agar Yerimizni katta bir qop deb tasavvur qilsak, bu qopning ichiga 50 ta Oy joylashadi.
Odamlar Oyga ilk bor qachon parvoz qilgan?	1969-yilda
Oyga qaysi fazo kemasi-da uchishgan?	"Apollon-11"
Ilk bor Oyga qo'ngan fazogirlarning ismi nima?	Neil Armstrong va Bazz Oldrin

Eng yaxshi gap tuzgan o'quvchilar rag'batlantiriladi.

### 3-soat

**Darsning maqsadi:** o'quvchilarning osmon jismi bilan bog'liq tushunchalarini kengaytirish, matn ustida ishslash, o'qib tushunish ko'nikmalarini rivojlantirish, -dosh qo'shimchasi bilan yangi so'z hosil qilishni o'rgatish, harf birikmasini tushuntirish, mavzu doirasida lug'at boyligi, yozma hamda o'qish savodxonligini oshirish.

**Vosita:** matnga oid mashq va topshiriqlar.

Bundan so'ng, darslikda berilgan topshiriqlar bajariladi.

- ✓ **Osmon, samo, fazo, koinot, ko'k, borliq, olam so'zlarining ma'nosi haqida o'ylang.**
- ✓ **So'zlarning ma'nosini sinfda muhokama qiling.**
- ✓ **Ma'nosi bir-biriga o'xshash so'zlar ni ko'rsating.**

Mazkur topshiriq orqali o'quvchining lug'at boyligi tekshiriladi. Xattaxtaga osmon, samo, fazo, koinot, ko'k, borliq, olam so'zlarini yozib qo'yib, har bir o'quvchidan ularning ma'nosi so'raladi. Javoblar tinglanib so'zlar muhokama qilinadi.

**Izoh:** *Yer ustida gumbaz shaklida ko'rinish turgan moviy fazo – osmon deyiladi. Uni samo, fazo, koinot, ko'k, borliq, olam kabi boshqa nomlar bilan ham ataymiz. Ularning ma'nosi bir xil.*

Bu so'zlarning ma'nosi o'quvchilarga izohlab berilgandan so'ng, mashq daftaridagi yozma topshiriq sharti bilan tushuntiriladi.

#### Yozma mashq.

**1-topshiriq. Osmon, samo, fazo, koinot so'zlarining ayrimlari ishtirok etgan uchta gap tuzing.**

Mazkur topshiriq mashq daftarida bajariladi. O'quvchilar osmon, samo, fazo, koinot so'zları ishtirokida uchta gap tuzishlari lozim. Bu topshiriq orqali o'quvchilarning so'zlarini bog'lab gap tuzishi va yozma savodxonligi tekshiriladi.

Mashq bajarilgach, har bir o'quvchidan yozgan gaplarini o'qib berishi so'raladi.

O'quvchilarning berilgan so'zlarini o'rinni qo'llagan, gaplarining mazmuni hamda yozma savodxonligi tekshirilib, xato va kamchiliklari bartaraf etib boriladi.

- ✓ *Osmon, samo, fazo, koinot, ko'k, borliq, olam so'zlarning ma'nosi haqida o'ylang.*
- ✓ *So'zlarning ma'nosini sinfda muhokama qiling.*
- ✓ *Ma'nosi bir-biriga o'xshash so'zlarni ko'r-sating.*

**2. Osmon, samo, fazo, koinot so'zlarining ayrimlari ishtirok etgan uchta gap tuzing.**

#### YERNING YO'LDOSHI

Oy har doim Yerning atrofida aylanib turadi. Go'yo Yerimiz uni ko'rinnmas arqon bilan tutib turadigandek. Bu "ko'rinnmas arqon" aslida torishish kuchi deb ataladi. Magnit temir bo'lagini o'ziga tortgandek Yer ham Oyni tortib turadi. Qo'rqmang, u Yerga qulab **tushmaydi**. Sababi



## DARS JARAYONI

### Kirish

Darsning tashkiliy qismidan so'ng bolalarga quyidagi savol bilan murojaat qiling: *Ayting-chi, Oy nega Yer atrofida aylanadi?*

Bu savolga javob olgach, "*Yerning yo'ldoshi*" matnini ovoz chiqarmay ichlarida o'qishlarini so'rash kerak. Har bir o'quvchi matnni mustaqil ravishda o'qishini nazorat qilish maqsadga muvofiq.



## Asosiy qism

O'quvchilar matnni o'qib bo'lgach, darslikdagi savollar beriladi.

### Javob:

1-savolda o'quvchi nima uchun Oy Yerning yo'ldoshi ekanligini aytib berishi kerak. Bu savolga o'quvchi matn mazmunini tushungan holda umumiy xulosa chiqarib, Oy Yerning atrofida harakatlanishi, Yer Oyni tortib turgani uchun Oy Yerning yo'ldoshi ekanligini aytib berishi lozim.

2-savolda o'quvchilar *tabiiy* bilan *sun'iy* so'zlarining ma'nosini farqlab berishi hamda tabiiy yo'ldosh va sun'iy yo'ldosh deyilganda nima nazarda tutilganini aytib berishi zarur.

Ushbu savolga o'quvchilardan to'liq javob olinmasa, ma'lumot beriladi.

3-savolda o'quvchi yo'ldosh so'zining qanday ma'no anglatishini aytib berishi lozim. Bu savolni birinchi berish ham mumkin. O'quvchilar javobini tinglagach, yo'ldosh so'zini izohlab berish maqsadga muvofiq.

*Izoh:* yo'ldosh – hamroh degan ma'noni bilsirdi. Uning yana bir ma'nosini bor, biror yulduz atrofida harakat qiluvchi osmon jismini ham yo'ldosh deb ataymiz. Masalan, Oy – Yerning yo'ldoshi.

4-savolda o'quvchilardan yo'l + dosh, parta + dosh, sinf + dosh so'zlarining bir-biriga o'xshash jihatlarini aytib berish so'ralsin. Agar o'quvchilar javob topishsa qiyalsa, to'g'ri javobga yo'naltiradigan quyidagi savollar beriladi:

1. Yo'l nima degani? Yo'ldosh-chi?
2. Yoningizdagи bolani nima deb ataysiz? Nima uchun?
3. Sinfdagи bolalar sizga kim bo'ladi? Negalarni bunday ataymiz?
4. – dosh qo'shimchasi ishtirok etgan yana qanday so'zlarni bilasiz?

5-savolga o'quvchi mustaqil fikrlab javob berishi lozim. Ya'ni u fazogir bo'lganda qayerlarga uchishini aytib berishi kerak.

### Yozma mashq.

1-topshiriq. "Yerning yo'ldoshi" matnidagi ajratib ko'rsatilgan so'zlarni yozing.

Mazkur topshiriq mashq daftarida bajariladi. O'quvchilar "Yerning yo'ldoshi" matnidan ajratib ko'rsatilgan so'zlarni topib yozishlari lozim.

**Javob:** *tortishish, qo'rqmang, tushmaydi, uchadi, yo'ldoshi, kichkina.*

Mashq bajarilgach, har bir o'quvchidan yozgan so'zini o'qib berishi so'ralsin.

2-topshiriq. Harflar birikmasining tagiga chizing.

Mazkur topshiriq 1-topshiriqning davomi bo'lib, o'quvchi yozgan so'zlaridan harflar birikmasini aniqlashi hamda ularning tagiga chizishi zarur.

**Javob:** *tortishish, qo'rqmang, tushmaydi, uchadi, yo'ldoshi, kichkina.*

O'quvchilar yozib bo'lgach, topshiriq birgalikda tekshiriladi. Ushbu so'zlar xattaxtaga yoziladi va harf birikmalari tagiga chiziladi. So'ng, o'quvchidan nima uchun bu so'zlar harf birikmasi deb atalishi so'ralsin.

O'quvchilar javob berib bo'lgach, harf birikmasiga umumlashtirib izoh beriladi.

**Izoh:** *alifbomizda uchta harf birikmasi bor. Bular: sh, ch, ng. Bu harflarni ayrim so'zlarda birga talaffuz qilamiz. Ya'ni ularni s va h emas – sh; c va h emas – ch; n va g emas – ng deb aytamiz. Masalan, shahar, chiroyli, bodring.*

**3-topshiriq. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarni bo'g'inlab, chiziqcha bilan yozing.**

Mazkur topshiriq mashq daftarida bajariladi. O'quvchilar "Yerning yo'ldoshi" matnidagi ajratib ko'rsatilgan so'zlarni bo'g'inlarga bo'lib, ko'chirib yozishlari lozim.

**Javob:** *tor-ti-shish, qo'rq-mang, tush-may-di, u-cha-di, yo'l-do-shi, kich-ki-na.*

Mashqlar bajarib bo'lingach, xatolar ustida ishlanadi. Nima uchun xato yoki to'g'ri ekanligini avval o'quvchilar, zarurat sezilsa, o'qituvchi izohlab beradi.

## 5-soat

**Darsning maqsadi:** she'r matni ustida ishlash, o'quvchilarning o'qib tushunish ko'nikmalarini rivojlantirish, mavzu doirasida lug'at boyligi, yozma hamda o'qish savodxonligini oshirish.

**Vosita:** she'r matni, unga oid mashq va topshiriqlar.

### Kirish

Tashkiliy qismidan so'ng o'quvchilarni mavzuga olib kirish uchun o'qituvchi quyidagi savol bilan murojaat qilishi mumkin: "Ayting-chi, Oyning shakli qanday?"

## Asosiy qism

**1-topshiriq. She'rni ifodali o'qing.**

O'quvchilar she'r muallifi bilan tanishtiriladi. O'quvchilarning diqqati jamlangan holda she'rni ifodali qilib baland ovozda o'qib berish lozim.

She'rnı bir marta o'qib berilgandan so'ng, o'quvchilarga ovoz chiqarmay ichlarida o'qish uchun vaqt beriladi.

She'rnı o'qib bo'lishgach, darslikdagi savollar so'raladi.

O'quvchilardan yakka tartibda navbatma-navbat javoblar eshitiladi.



Shundan so'ng o'quvchilar "Oyni o'g'irlashdi" komiksi bilan tanishtiriladi.

Komiks bir marta o'qib berilgandan so'ng, o'quvchilarga rollar bo'lib beriladi hamda navbatma-navbat o'qitiladi.

Bu jarayonda o'quvchilarning og'zaki nutqi, rolga kirib o'qib berishlari, sinfdoshlari bilan munosabatga kirishish mahorati tekshiriladi.

## 6-soat

**Darsning maqsadi:** matn tarkibidagi ayrim so'zlarni tahlil olib borish, qayta hikoya qilib berish. Matn mazmuni ustida ishslash, ushbu matnning xulosasi va g'oyasi yuzasidan yozma matn yaratish.

**Vosita:** rasm va matn.

## DARS JARAYONI

### Kirish

Darsning tashkiliy qismidan so'ng o'qituvchi o'quvchilar bilan o'tilgan dars mavzusiga oid qisqa savol-javob o'tkazishi mumkin. O'quvchilarni dars jarayoniga tayyorlash lozim.

### Asosiy qism

**1-topshiriq. Rasmga qarab Oyning vazifalarini haqida gaplar tuzing.** Mazkur topshiriq mashq daftarida bajariladi. Darslikda rasm berilgan. Ushbu rasm "Oyni o'g'irlashdi" komiksiiga asoslanadi. O'quvchilar rasmga qarab gap tuzishi kerak.

O'quvchilarga gap tuzish topshirig'ini berishdan oldin "Oyni o'g'irlashdi" komiksiiga oid quyidagi savollar bilan murojaat qilish maqsadga muvofiq:

1. Nega tun bo'lsa ham qorong'i tushmadi?
2. Bolalar nega kasal bo'lib qolishdi?
3. Oyni kimlar o'g'irlashdi?
4. Oy bo'limasa, tabiatda qanday o'zgarish bo'ladi?
5. Sayyoramizni kometalardan nima himoya qilib turadi?
6. Yer nega sekin aylanib qoldi?
7. Oy bo'limasa, vaqtlar ham o'zgarib ketadi?
8. Nega fasllarning o'rni almashib ketishi mumkin?

1-savol o'quvchilardan she'r matni asosida xulosa chiqarib javob berishni talab qiladi. Ya'ni o'quvchilar tong otishi bilan yulduzlarning g'oyib bo'lishi, Oyning ko'rinxmay qolishi kabi hodisalarini aytib berishi kerak.

2-savolga o'quvchilar kuzatishlari asosida javob beradi. O'quvchi "Osmon uzra oy suzar, Yulduz safini buzar" misralari orqali Oy chiqqan joyidan harakatlanib, Quyosh chiqadigan tarafga kelishi, ya'ni Oy doimo harakatda bo'lishini aytib bera olishi zarur.

3-savolda o'quvchilar she'r matni asosida Quyosh chiqqanda Oy g'oyib bo'lishi, Quyosh nuri hamma yerni yoritishini aytib berishi lozim.

4-savolda o'quvchidan she'r va og'zaki nutqning farqi so'ralgan. Bu savol orqali o'quvchining she'r haqidagi tushunchalari tekshiriladi.

5-savolda o'quvchilardan she'r matnidagi so'zlar bilan tanishgan holda she'r yozganda nimalarga e'tibor qaratilishi kerakligini aytib berish talab qilinadi. Bunda sarlavha qo'yish, ohangdosh so'zlardan foydalanish, narsalarni bir-biriga o'xshatish kerakligini aytib o'tishi nazarda tutilgan.



9. Oyning yo'q bo'lib qolishi hayvonlarga zarar keltiradimi?


10. Bolalar Oyni qanday qilib joyiga qaytarishdi?

O'quvchilar bilan savol-javob asosidagi suhbat yakunlangandan keyin ularga 77-sahifadagi rasm ko'rsatiladi. Rasmni xattaxta yoki proyektorda ko'rsatish maqsadga muvofiq.

O'quvchilarga ushbu rasm asosida mashqdaftariga hikoya yozish topshirig'i beriladi.



4. Rasmga qarab Oyning vazifalari haqida gaplar tuzing.



77

## 7-soat

**Darsning maqsadi:** o'quvchilarning osmon jismlari bilan bog'liq tushunchalarini umumlashtirish, mavzu doirasida matn yaratish olish ko'nikmalarini rivojlantirish.

**Vosita:** rasm, mavzu doirasida suhbat va yozma matn yaratish.

## DARS JARAYONI

### Kirish

Darsning tashkiliy qismidan so'ng o'quvchilar bilan o'tilgan dars mavzusiga doir qisqa savol-javob o'tkazish mumkin. So'ng, o'quvchilarni matn yozish jarayoniga tayyorlash lozim.

### Asosiy qism

#### 1-topshiriq. Rasmlarga qarab kichik hikoya yozing.

O'quvchilarning diqqat-e'tiborini rasmlarga qaratib quyidagi savollar bilan murojaat qilish kerak.

5. Bolalar nima qilishyapti?
6. Ular birgalikda nima yasashyapti?
7. Bu raketami? U bizga nima uchun kerak?
8. Raketa qayerga uchdi?
9. Bola qayerga kelib qoldi?

Ushbu savollarga o'quvchilardan javob olib bo'lgach, ulardan rasmlarda tasvirlangan jaryonlarni bog'lab matn tuzish so'raladi.

Matnni yozishdan oldin, o'quvchilarni o'zaro muhokamaga chorlab, partadoshlari bilan birgalikda fikr almashishlariga imkon yaratib beriladi.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlarni o'qib berib, o'quvchilarga matn yozishga ruxsat beriladi. Mashqni bajarib bo'lishgach, matnning mazmuni, o'ziga xosligi, imlosi, gaplarning tuzilishi, o'quvchining so'z qo'llash malakasini tekshirib baholashingiz kerak.



# SIZ BUNI BILASIZMI?

**Nutqiy mavzuning maqsadi:** o'quvchilarning olam, atrof-muhit bilan bog'liq tasavvurlarini kengaytirish, ularning mazkur mavzu doirasida ishlataladigan so'z, so'z birikmalari hamda gaplarni to'g'ri tushunish va to'g'ri qo'llashiga erishish, lug'at boyligini oshirish.



118

## 1-soat

**Darsning maqsadi:** mavzu yuzasidan og'zaki suhbat uyuştirish, o'z fikrini ifodalashda xabar, so'roq va buyruq ohangidan foydalana olishga doir mashq va topshirilalar ustida ishlash.

**Vosita:** qiziqarli ma'lumotlar bilan bog'liq rasmlar asosida suhbat; mavzu asosida tayyorlangan mashq va topshirilalar.

## DARS JARAYONI

### Kirish

Tashkiliy qismidan so'ng o'qituvchi bo'lim hamda nutqiy mavzu nomini e'lon qiladi. O'quvchilarni mavzuga olib kirish uchun quyidagi savol bilan murojaat qilish mumkin: "Ayting-chi, Yer sharining ko'rinishi qanday?" Sinfdag'i 4–5 nafar bolaning javobi eshitilgach, kitobni ochib, mavzuning birinchi topshirig'ini boshlash mumkin.

### Asosiy qism

#### 1-topshiriq. Rasmga qarang. Savollarga javob bering.

Darslikda qiziqarli ma'lumotlar bilan bog'liq rasm hamda ularga izoh keltirilgan.

Rasm bilan tanishib bo'lgach, o'quvchilar rasm yonidagi izohni o'qishadi.

O'quvchilar qiziqarli ma'lumotlar bilan tanishgandan so'ng, darslikdagi savollar beriladi.

Mazkur savollar iloji boricha ko'proq o'quvchidan javob olinishini talab qiladi.

1-savolda o'quvchidan nimalarni bilishga qiziqishi so'ralgan. Bunda o'quvchi erkin fikrlab, bilmagan narsalari haqida aytishi lozim. Bu jarayonda o'quvchiga bilmagan narsalari to'g'risida ma'lumot topish uchun tavsiyalar beriladi. (internet manzili, kitobdan izlab topish va yoshi katta oila a'zolaridan so'rab ma'lumotga ega bo'lish kabj).

2-savolda o'quvchilar odamlarning olam haqida ko'proq bilishga intilishi har bir narsa ning qanday paydo bo'lganligi, murakkab tuzilganligi va uning ortidagi qiziqarli ma'lumotlarga ega bo'lishi kabi jarayonlarni aytib berishi lozim.

3-savolda o'quvchilardan "bilimli" va "bilimsiz" odam qanday bo'lishini farqlab berish so'ralgan. Bunda ular bilimli odamlar ko'p bilimlarga ega bo'lishi, bilmagan narsalarini ham izlab topib o'rganishi va shu jihatlari bilan dangasa, bilimsiz odamlardan farq qilishini aytib berishi nazardautilgan.

### Yozma mashq.

**1-topshiriq. Berilgan gaplarning to'g'ri yoki noto'g'ri ekanini keltirilgan ma'lumotlar yordamida aniqlang.**



Mazkur topshiriq mashq daftarida bajariladi. Bunda o'quvchilar rasm hamda berilgan ma'lumotlar asosida gaplarni to'g'ri yoki noto'g'riga ajratadi.

Mashqni bajarib bo'lgach, o'quvchilarning har biriga yozgan so'zlarini to'g'ri va noto'g'riga ajratib o'qitish kerak.

**2-topshiriq. Quyidagi so'zlarni talaffuz qiling va yozing: Yupiter, avtomobil, plastik, kompyuter, tonna.**

Ushbu topshiriq mashq daftarida bajariladi. Yuqorida berilgan so'zlar har bir o'quvchiga o'qtiladi.

Shundan so'ng so'zlar, baland ovozda bir marta o'qib beriladi va o'quvchilardan ularni mashq daftarlariiga yozish so'raladi.

Topshiriq bajarilgandan keyin, har bir o'quvchining topshiriqni qanday bajarganligi tekshiriladi.

## 2-soat

**Darsning maqsadi:** o'quvchilarni ko'zoy-nakning paydo bo'lishi haqida ma'lumot bilan tanishtirish, matn ustida ishslash, o'quvchilarning o'qib tushunish ko'nikmalari rivojlantirish, mavzu doirasida lug'at boyligi, yozma hamda o'qish savodxonligini oshirish.

**Vosita:** matnga oid mashq va topshiriqlar.

## DARS JARAYONI

### Kirish

Darsning tashkiliy qismidan so'ng bolalarga quyidagi savol bilan murojaat qiling: Ayting-chi, ko'zoynak odamlarga nima uchun kerak?

Bu savolga bolalardan javob olgach, ular dan "Ko'zoynakka qadar" matnini ovoz chiqarmay ichlarida o'qishni so'rang.

### Asosiy qism

O'quvchilar matnni o'qib bo'lgach, darslikdagi savollar beriladi.

#### Javob:

1-savolda o'quvchi tarixda ko'zoynakning qanday ko'rinishlari bo'lganligini aytib berishi lozim. Bu savolga matn mazmunini tushungan holda umumiy xulosa chiqarib javob berishi talab qilinadi.

2-savolda o'quvchi matnda keltirilgan ma'lumotlar asosida ko'zoynak nimadan yasalganligini aytib berishi lozim.

3-savolga o'quvchi matndan olgan xulosalar asosida erkin fikrlab javob berishi kerak. Ya'ni o'quvchilar bu savol orqali hamma narsaning tagida bilim yotishini, biror narsani ixtiro qilish uchun ko'plab bilim, tajriba kerakligini tushunib yetishi nazarda tutilgan.



119

### Yozma mashq.

**1-topshiriq. Matn asosida bo'sh o'rinalarini to'ldiring.**

Mazkur topshiriq mashq daftarida bajariladi. Unda "Ko'zoynakka qadar" matnidan olin-gan parcha berilgan bo'lib, parchadan ayrim so'zlar tushirib qoldirilgan.

**Javob:** Shisha idishlar ko'zoynak vazifikasi ni o'tagan. Idishning ichi suv bilan to'ldirilgan. Keyinroq shishadan linzalar yasalgan. Ular ni qo'l bilan tutib turish uchun dastagi ham bo'lgan. Bundan tashqari burunga yoki ko'z soqgasiga qotiriladigan g'aroyib ko'zoynaklar ham ishlataligan. Lekin eng qulay ko'zoynak quloqqa taqiladigani bo'lib chiqqan.

Javoblar xattaxta yoki proyektorda ko'rsatilib, tekshiriladi. Ushbu jarayonda o'quvchining yozma savodxonligi ham o'rganilib, xato va kamchiliklar bartaraf etilishi lozim.

**2-topshiriq. Berilgan so'zlarni mos us-tunga yozing.**

Bu topshiriq mashq daftarida bajariladi. O'quvchilar mashq daftaridagi so'zlarni tarix, bugun va kelajak nomli ustunlarga bo'lib yozishlari kerak.

Yozishni boshlashdan oldin, o'quvchilarga tarix, bugun va kelajak so'zlari haqida izoh berish maqsadga muvofiq.

**Javob:**

Tarix	Bugun	Kelajak
O'tmish	Hozir	Erta
Qadim	Shu on	Indin
Tunov kuni	Ayni payt	

O'quvchilar so'zlarni yozib bo'lgach, topshiriq birgalikda tekshiriladi hamda xatolar ustida ishlanadi. Nima uchun xato yoki to'g'ri ekanligini avval o'quvchilardan, zarurat sezilsa, o'qituvchi tomonidan izohlab beradi. Ushbu so'zlar xattataga yoziladi va so'zlarni ma'nolariga ko'ra farqlab olishlari uchun o'quvchilarga o'qitiladi.

### 3-soat

**Darsning maqsadi:** o'quvchilarning qiziqarli ma'lumotlar bilan bog'liq tushunchalarini kengaytirish, matn ustida ishslash, uni amalda sinab ko'rish, o'quvchilarning matnni tushunish ko'nikmalarini rivojlantirish, mavzu doirasida lug'at boyligi, yozma savodxonligini oshirish.

**Vosita:** matn, rasm va unga oid mashq va topshiriqlar.

## DARS JARAYONI

### Kirish

Darsning tashkiliy qismidan so'ng o'quvchilar bilan oldingi dars mavzusiga oid qisqa savol-javob o'tkazish mumkin. O'quvchilarni mavzuga olib kirish uchun quyidagi savol bilan murojaat qilinadi: "Ayting-chi, ko'zni aldash mumkinmi?"

Sinfdag'i to'rt-besh bolaning javobi tinglangandan so'ng, darsning asosiy qismiga o'tiladi.

### Asosiy qism

#### Qiziqarli mashg'ulot.

Mazkur topshiriqni bajarishda har bir o'quvchi o'zi bilan olib kelgan oq karton, rangli qalam, qaychi va rezinani parta ustiga qo'yadi. O'quvchilarga ajoyib buyum yasashlari aytildi. Ular buyumni yasash tartibini ketma-ketlikda o'qiydi.

Ma'lumotlarni o'qib bo'lishgach, ulardan matn asosida buyum yasash so'raladi. Mashg'ulot davomida o'quvchilar matnni qayta o'qib borishlari mumkin.

Bu jarayonda asosiy e'tibor o'quvchining matnni o'qib tushunish, matndagi ma'lumotlar asosida xulosa chiqarib, amalda qo'llay olishiga qaratiladi.

O'quvchilar buyumlarni yasab bo'lishgach, birgalikda ularni harakatga keltiring. Eng yaxshi yasalgan buyumni aylantirib o'quvchilarga ko'rsating va darslikdagi savollar beriladi.

**Javob:**

1-savolga o'quvchi o'z kuzatishlari asosida javob beradi. Ya'ni o'quvchi ma'lumotlar asosida amalda uni bajarib ko'rdi. Endi qo'llidagi shu jarayon qanday bo'layotganini og'zaki nutqida ifodalab berishi lozim.

2-savol 1-savolga bog'liq holda beriladi. O'quvchi amaldagi jarayon qanday sodir bo'la-yotganini tushuntirib o'tadi.

3-savolda o'quvchilar amalda sinab ko'rgan holatlarini yana nimalarda kuzatganligini aytib berishi kerak. Masalan, mashina g'ildiraklari ham teskari aylangandek ko'rindi.

4-savolda o'quvchilar "Ko'z qo'rroq, qo'l botir" maqoldidan qanday xulosa chiqarganliklarini aytib berishi lozim. Bunda ular qo'lida yasab ko'rib, amalda ko'zni aldash mumkinligini kuzatgan jarayonlarini misol qilib ko'rsatsa bo'ladi.

**Eslatma:** o'quvchidan javobda keltirilgan ma'lumotlarni aynan aytib berishi talab qilinmaydi. U ushbu ma'lumotni tushungan holda, mazmun chiqarib aytib bera olishi zarur.

O'quvchilar javob berib bo'lgach, qanday qilib ko'zni aldash mumkinligi, bu qanday sodir bo'lganligi 84-sahifada keltirilgan ma'lumotlar asosida tushuntirib beriladi.

### 4-soat

**Darsning maqsadi:** o'quvchilarning qalam so'zi paydo bo'lishi bilan bog'liq tushunchalarini kengaytirish, matn ustida ishslash, o'qib tushunish ko'nikmalarini rivojlantirish, chetdan o'zlashgan so'zlar haqida ma'lumot berish, mavzu doirasida lug'at boyligi hamda o'qish savodxonligini oshirish.

**Vosita:** mavzu bilan bog'liq matn va unga oid topshiriqlarni bajarish, matnning asosiy g'oyasi haqida suhabat qurish.



## DARS JARAYONI

### Kirish

Darsning tashkiliy qismidan so'ng bolalarga quyidagi savol bilan murojaat qiling: *Ayting-chi, qalam qanday paydo bo'lgan deb o'ylaysiz?*

Bu savolga bolalardan javob olgach, "Qalamga qadar" matnni ovoz chiqarmay ichlari o'qishlarini aytish lozim. Har bir o'quvchi matnni mustaqil ravishda o'qishini nazorat qilish maqsadga muvofiq.

Gap shundaki, qadimda neft qotishmasidan qalam sifatida foydalanishgan. U xuddi toshga o'xshar edi. Hozirda qalam ishlab chiqarishda grafit degan toshdan foydalaniлади. Bu tosh ko'mirga o'xshab ketadi. U yer ostidan qazib olinadi.

"*Ixtirolar sarguzashti*" kitobidan

- ① "Karandash" so'zining o'zbekcha ekanini qanday bilib olamiz?
- ② Qalamni nega "qoratosh" deb atashgan?
- ③ Nima deb o'ylaysiz, nega "qoratosh" so'zi rus tilida "karandash" bo'lib qolgan?

#### SAYOHATCHI SO'ZLAR BILAN TANISHING!



O'zbek tilida Russ tilida  
yo'g'urt yogurt (йогурт)



O'zbek tilida Russ tilida  
tustag'on stakan (стакан)



O'zbek tilida Russ tilida  
o'tuk ulyug (ультюг)



O'zbek tilida Russ tilida  
kerpich kirpich (кирпич)

85

### Asosiy qism

O'quvchilar matnni o'qib bo'lgach, darslikdagi savollar beriladi.

#### Javob:

1-savolga o'quvchilar "karandash" so'zi o'zbekcha so'z ekanligini tushuntirib berishlari lozim. Bu savolga o'quvchi matn mazmunini tushungan holda umumiyl xulosa chiqarib, "karandash" so'zi o'zbek tilidagi "qora" va "tosh" so'zlarining birikishidan hosil bo'lgani va ruslarning "qoratosh" so'zini "karandash" deb talaffuz qilishidan vujudga kelganligini aytib berishi lozim.

2-savolga o'quvchi matnga tayangan holda qalamni nega qoratosh deyishlarini aytib berishi lozim.

3-savolga o'quvchilar matn hamda hayotiy kuzatishlari asosida javob berishlari lozim.

Ayrim so'zlarni talaffuz qilganda boshqa til vakillari unga yaqin bo'lgan undoshni talaffuz qilishi, masalan q va k undoshlari talaffuz jihatdan bir-biriga yaqin bo'lganligi uchun, ular talaffuzda o'r'in almashadi.

Bu jarayonda bergen javoblari orqali o'quvchilarning o'qib tushunish malakalarini tekshirib, og'zaki nutqda yo'l qo'ygan xato va kamchiliklarini tuzatib, baholab borish lozim.

Bundan so'ng qiziqarli ma'lumot o'quvchilarga tushuntiriladi. Bu jarayonda xattaxta va proyektorda sayohatchi so'zlar ko'rsatiladi hamda o'quvchilarga ushbu so'zlarining qanday paydo bo'lganligi hamda nima uchun sayohatchi so'zlar deb atalishi tushuntiriladi.

#### Izoh:

1. *Bu – yogurt. Uni doim sevib iste'mol qilamiz. Bu so'z eski turkiy tilda yog'rut, ya'ni yag'ya, yog'rut – qurut so'zlaridan olingen bo'lib, qimiz, sut, yog' yoki qatiq, qurut degan ma'nolarni bildiradi. Yogurt turkiy tillardan rus tiliga o'zlashib, hozir shu shaklda faol qo'llanmoqda.*

2. *Bu – stakan. Eski o'zbek tilimizda tus-tag'on deb atalib rus tiliga stakan tarzida o'zlashgan. Bu so'z qimiz ichadigan idish ma'nosi anglatgan.*

3. *Bu dazmol. Uni utyug deb ham ataymiz. Bu so'z ham rus tiliga bizning tilimizdan o'zlashgan bo'lib, avvallari bobo-buvilarimiz maxsus idishga o't yoqib, cho'g'ini solgan hamda issiq holatida kiyimlarni tekislashgan. Ushbu qurilma o'tuk deb atalib, rus tiliga utyug tarzda o'zlashgan.*

4. *Bu – g'isht. Undan uy qurganimizda foydalananamiz. Bu buyumni qadimda bobolari-miz kerpich deb atashgan. Bu so'z ham rus tiliga kerpich shaklda o'zlashgan, g'isht forscha!*

Ko'ryapsizmi, ayrim so'zlarimiz rus tiliga o'zlashgan hamda hozirda bizga talaffuzlari o'zgargan holda yetib kelgan. Bu juda qiziq jarayon, ayrim so'zlar bir tildan ikkinchi tilga ko'chib o'tishi mumkin. Masalan, kompyuter so'zini biz ingliz tilidan oлганмиз. Bunday so'zlarni sayohatchi so'zlar deb ayta olamiz.

Bu so'zlar tushuntirib bo'lingach, mashq daftariga ko'chiriladi.

O'quvchilar yozib bo'lgach, har bir o'quvchi dan yozgan so'zini o'qib berishi so'raladi.

### 5-soat

**Darsning maqsadi:** o'quvchilarning gururning paydo bo'lishi bilan bog'liq tushunchalarini kengaytirish, matn ustida ishslash,

o'qib tushunish ko'nikmalarini rivojlantirish, so'roq so'zlarni qo'llashni o'rgatish, mavzu doirasida lug'at boyligi hamda o'qish savodxonligini oshirish.

**Vosita:** mavzu bilan bog'liq matn va unga oid topshiriqlarni bajarish, matnning asosiy g'oyasi haqida suhbat qurish.



Ayrim so'zlar bir tildan ikkinchi tilga ko'chib o'tishi mumkin. Masalan, "kompyuter" so'zini biz ingliz tilidan olganmiz.



5. "Sayohatchi so'zlar"ni ko'chirib oling.

#### GUGURTGA QADAR

Eng qadimgi odamlar olov yoqishni bilishmagan. Ularغا olovni tabiatning o'zi sovg'a qilgan. Yashin tushgan vaqtida daraxtlarga o't ketadi. Odamlar esa yonayotgan daraxt shoxini olib qochishgan. Keyin gulxan yoqishgan. Bir odam gulxanni tun-u kun qo'riqlab, o'chib qolmasligiga javob bergan. Shu tariqa gulxan oyalar, yillar davomida o'chmagan.

Keyinchalik, odamlar gugurtin ixtiro qilishdi. Hozir olov yoqish juda oson ish. Biroq xavfsizlik qoidalarini hamma ham bilarmikan!?

"Ixtiolar sarguzashti" kitobidan

86

## DARS JARAYONI

### Kirish

Darsning taskiliy qismidan so'ng bolalarga quyidagi savol bilan murojaat qiling: *Ayting-chi, gugurt qanday paydo bo'lgan deb o'ylaysiz?*

Bu savolga bolalardan javob olgach, "Gugurtga qadar" matnni ovoz chiqarmay ichlarida o'qishlarini aytish lozim. Har bir o'quvchi matnni mustaqil ravishda o'qishini nazorat qilish maqsadga muvofiq.

### Asosiy qism

O'quvchilar matnni o'qib bo'lgach, darslikdagi savollar beriladi.

#### Javob:

1-savolga o'quvchilar hayotiy kuzatishlari asosida javob berishlari lozim. Bunda olov tuyfayli mazali taomlar yeyishi, issiq uyda o'tirishi, qorong'ida yorug'lik nur taratishini aytib bera olishi lozim.

2-savolga o'quvchi olov bilan bog'liq xafsizlik qoidalari borligini aytib berishi kerak. Bu jarayonda o'quvchi fikrini to'ldirgan holda, gaz hidi chiqqan, benzin va portlovchi moddalar bor joyda olov yoqish taqiqlangani aytildi. Bunday holat inson salomatligiga katta zarar keltirishi bilan bog'liq misollar keltiriladi.

3-savolga o'quvchilar nima uchun olov yoqish taqiqlanganini aytib berishi kerak. Bolalarning olov o'ynashi yomon oqibatlarga olib kelishini tushuntirish lozim.

Bu jarayonda o'quvchilarning bergen javoblari orqali ularning o'qib tushunish malakalari tekshirilib, og'zaki nutqda yo'l qo'yan xato va kamchiliklari tuzatilib, baholab borilishi lozim.

Bundan so'ng, yozma mashq bajariladi.

### Yozma mashq.

#### Matn bilan bog'liq topshiriqlarni bajaring.

#### 1-topshiriq. Berilgan gaplardagi qaysi so'zlarning yozilishida xatolik bor?

Mazkur topshiriq mashq daftarida bajariladi. Bunda "Gugurtga qadar" matnidan olingen uchta gap berilgan bo'lib, ushbu gaplardan ayrim so'zlar tushirib qoldirilgan. O'quvchilar xato yozilgan so'zlarni aniqlab, ushbu gaplarni to'g'rilab ko'chirib yozishlari lozim.

#### Javob:

- Qadimgi odamlarga olovni tabiatning o'zi sovg'a qilgan.
- Yashin tushgan vaqt daraxtlarga o't ketadi.
- Qadimgi odamlar yonayotgan daraxt shoxini olib qochib, gulxan hosil qilishgan.

#### 2-topshiriq. Berilgan gaplardagi bo'sh o'rirlarni "nima?" so'rog'iiga javob bo'luvchi so'zlar bilan to'ldiring.

Mazkur topshiriq mashq daftarida bajariladi. Bunda "Gugurtga qadar" matnidan olingen uchta gap berilgan bo'lib, ushbu gaplardan ayrim so'zlar tushirib qoldirilgan. O'quvchilar matndan *nima?* so'rog'iiga javob bo'luvchi so'zlarni aniqlab, matn mazmuniga moslab qo'yishlari lozim.

#### Javob:

- Yashin tushgan vaqtida daraxtlarga o't ketadi.
- Bir odam gulxanni tun-u kun qo'riqlab, o'chib qolmasligiga javob bergan.

• Keyinchalik odamlar gugurtni ixtiro qilishdi.

#### 3-topshiriq. Berilgan gaplarni o'qing. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarga qanday so'roq berish mumkin? Yozing.

Mazkur topshiriq mashq daftarida bajariladi. Bunda "Gugurtga qadar" matnidan olingen



gaplar berilgan. O'quvchilar ajratib ko'rsatilgan so'zlarga so'roq berib, ushbu so'roq so'zlarini yozishlari lozim.

#### Javob:

- **Ularga olovni tabiatning o'zi sovg'a qilgan. Nimaning?**
- **Hozirda olov yoqish – juda oson ish. Qachon?**
- **Odamlar esa yonayotgan daraxt shoxini olib qochishgan. Nima qilishgan?**

O'quvchilar yozib bo'lgach, topshiriq birgalikda tekshiriladi hamda xatolar ustida ishlaniadi. Nima uchun xato yoki to'g'ri ekanligi avval o'quvchilardan so'raladi, zarurat sezilsa, o'qituvchi tomonidan izohlab beriladi. Ushbu so'zlar xattaxtaga yoziladi hamda so'zlarini ma'nolariga ko'ra farqlab olishlari uchun o'quvchilarga o'qitiladi.

## 6-soat

**Darsning maqsadi:** audiomatn tarkibida berilgan ayrim so'zlar tahlilini olib borish, qayta hikoya qilib berish ko'nikmasini rivojlantirish. Matn mazmuni ustida ishslash, ushbu matnning xulosasi va g'oyasi yuzasidan og'zaki suhbat qurish.

**Vosita:** audiomatn hamda u bilan bog'liq mashq va topshiriqlar.



- 1 Aiting-chi, birgina olov tufayli odamlar hayotida nimalar o'zgardi? Ko'proq misollar keltiring.
- 2 Olov bilan bog'liq xavfsizlik qoidalarini bilasizmi? Misolar bilan aytинг.
- 3 Bolalarga mustaqil olov yoqish taqiq-langanini bilasizmi? Nega shunday?



6. Matn bilan bog'liq topshiriqlarni bajaring.



- "Dunyoni o'zgartirgan ixtirolar" audiomatnni tinglang.



## DARS JARAYONI

### Kirish

O'qituvchi darsning tashkiliy qismidan so'ng, o'quvchilar bilan o'tilgan dars mavzusi bilan bog'liq qisqa savol-javob o'tkazishi mumkin. O'quvchilarni audiomatnni eshitish jarayoniga tayyorlash lozim.

### Asosiy qism

O'quvchilarga quyidagi audiomatn eshittiriladi (*imkon bo'lmaganada o'qituvchi baland ovozda ifodali o'qib beradi*).

#### Audiomatn

##### G'ildirak

G'ildirak – insoniyatning eng buyuk ixtiolaridan biridir. G'ildirakning ixtiro qilinishi odamlarning uzog'ini yaqin, og'irini yengil qilgan. G'ildirakli transport – arava esa qishloq va shaharlarning rivojlanishiga sabab bo'lgan. Olimlarning taxminicha, g'ildirak bundan 7 ming yil oldin ixtiro qilingan.

##### Kompas

Ko'rsatkichi doim shimol tarafni ko'rsatib turuvchi bu qurilmani ming yillar oldin xitoyliklar ixtiro qilgan. Kompas ixtiro qilinganidan so'ng Yerning hali inson oyog'i yetmagan yangi huddulari kashf etiladi. Savdogarlar, elchilar va sayyoohlар uzoqdagi davlatlarni yo'lida adashmay topib boradilar. Dengiz yo'llari ochilib, savdo-sotiq yanada rivojlanadi.

##### Elektr toki

Bugun dunyoni elektr tokisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Sababi odamlar foydalanadigan minglab qurilmalar faqat elektr bilan ishlaydi. Elektr tokini faqat bir olim kashf qilmagan. Ammo Uilyam Gilbert, Andre-Mari Amper, Maykl Faradey kabi olimlarning bu borada hissasi katta.

##### Kompyuter

Hisob amallarini bajaruvchi elektron qurilmlari ixtiro qilinganiga hali unchlilik ko'p bo'lmadi. Biroq bugun dunyoni kompyutersiz tasavvur qila olmaymiz. Hozir dunyoda deyarli hamma narsa kompyuterlar ko'magida boshqariladi. Agar barcha kompyuterlar bir vaqtida ishdan chiqsa, dunyoni tanimay qolishingiz mumkin.

O'quvchilar audiomatnni eshitib bo'lgach, darslikdagи savollar beriladi.

Ushbu savollar orqali o'quvchining eshitib tushunish ko'nikmasi tekshiriladi hamda savollarning mohiyati ochib beriladi.

1-savolga o'quvchilar matn mazmunidan kelib chiqib javob beradilar. Ya'ni ular g'ildirakning ixtiro qilinishi qishloq va shaharlarning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatgani, odamlarning uzog'ini yaqin qilganini aytib berishlari lozim.

2-savolga o'quvchilar erkin fikrlab javob berishlari kerak. Ya'ni ular g'ildirak ixtiro qilinma-ganda hozirgi hayot qanday kechishi mumkinligini aytib berishlari zarur.

3-savolga matnda keltirilgan ma'lumotlar asosida aniq javob berishlari lozim. Kompasni xitoyliklar tomonidan ixtiro qilingani aytilgan, shu ma'lumot orqali o'quvchi kompas Xitoya ixtiro qilingan deb aytishi lozim.

4-savolga o'quvchi matn mazmunidan kelib chiqib kompasning ixtiro qilinishi yo'llarni adashmay topib borish imkonini berganligi, yangi hududlar topilishi, dengiz yo'llari ochilib, savdo-sotiq rivojlanishiga sababchi bo'lganligini aytib berishi lozim.

5-savolga o'quvchi hayotiy kuzatishlari va matnda keltirilgan ma'lumotlar asosida elektr tokining hayotimizda tutgan muhim o'rni haqidagi aytib berishi kerak.

6-savolda o'quvchi erkin fikrlab, hayotiy kuzatishlaridan kelib chiqqan holda kompyuter odamlar hayotida nimalarni o'zgartirganini aytib berishi zarur.

Ushbu savollarga imkon qadar ko'proq o'quvchilardan javob olish kerak. Bunda navbat bilan gapirish, bir-birini tinglash, biri-birini takrorlamasliklariga e'tibor qaratiladi. O'quvchilar har bir ishtirok uchun rag'batlantirib boriladi.

### **Yozma mashq.**

#### **Audiomatn asosida berilgan topshiriqlarni bajaring.**

##### **1-topshiriq. Tushirib qoldirilgan harflarni yozing.**

Mazkur topshiriq mashq daftarida bajariladi. Bunda o'quvchilar audiomatn tarkibidan olingan gaplarni o'qishi hamda tushirib qoldirilgan harflarni joyiga qo'yishi lozim.

Javob: **transport, kompas, toksiz, kompyuterlar.**

O'quvchilar mashqni bajarib bo'lgach, har bir o'quvchiga gaplar o'qitiladi. Shu bilan birga mashqlari tekshirib boriladi. Bunda asosiy e'tibor **o** unlisini farqlash, ba'zida **o'** unlisi kabi talaffuz qilinsa ham, asliga ko'ra **o** yozilishini o'rgatishdan iborat.

##### **2-topshiriq. Berilgan ta'riflarga qaysi atama mos kelishini aniqlab yozing.**

Mazkur topshiriq mashq daftarida bajarila-

di. Bunda o'quvchilar jadvalning birinchi ustunida berilgan ma'lumotlarni o'qiydilar va ushbu ma'lumotlarga mos so'zlarni jadvalning ikkinchi ustuniga yozadilar. Bunda so'z berilgan ma'lumotning qarshisiga yozilishi lozim.

### **Javob:**

1. *Elektr toki.*
2. *Kompas.*
3. *G'ildirak.*
4. *Kompyuter.*

#### **3-topshiriq. Quyidagi gaplarning to'g'ri yoki noto'g'ri ekanini berilgan ma'lumotlar yordamida aniqlang.**

Mazkur topshiriq mashq daftarida bajariladi. Bunda o'quvchilar berilgan ma'lumotlar asosida gaplarni to'g'ri yoki noto'g'riga ajratadilar.

Mashqni bajarib bo'lgach, o'quvchilarning har biriga yozgan so'zlarini to'g'ri va noto'g'riga ajratib o'qitish lozim.

### **7-soat**

**Darsning maqsadi:** o'quvchilarning qiziqarli ma'lumotlar bilan bog'liq tushunchalarini umumlashtirish, mavzu doirasida matn yarata olish ko'nikmalarini rivojlantirish.

**Vosita:** mavzu doirasida suhbat va yozma matn yaratish.

## **DARS JARAYONI**

### **Kirish**

Darsning tashkiliy qismidan so'ng o'quvchilar bilan o'tilgan dars mavzusi bilan bog'liq qisqa savol-javob o'tkazish mumkin. So'ng, o'quvchilarni matn yozish jarayoniga tayyorlash lozim.

### **Asosiy qism**

#### **"Men buni yaqinda bildim" nomli kichik hikoya yozing.**

O'quvchilarga savollar bilan murojaat qilish lozim.

1. Yaqinda sizni qanday ma'lumot hayron qoldirdi?
2. U ma'lumotni qayerdan eshitdingiz?
3. Ma'lumot sizga qanday foyda berdi?
4. Ushbu ma'lumotni kimga aytib berishni xohlaysiz? Nima uchun?



Ushbu savollarga o'quvchilardan javob olib bo'lgach, o'quvchilarga matn tuzishlari aytildi.

Mashqni bajarib bo'lishgach, matnning mazmuni, o'ziga xosligi, imlosi, gaplarning tuzilishi,

o'quvchining so'z qo'llash malakasini tekshirib baholashingiz kerak.

## O'QUV YILI OXIRIDA TAKRORLASH

**Darsning maqsadi:** o'tilgan mavzular yuzasidan o'quvchilarning o'qib tushunish, tinglab tushunish malakasini, yozma va og'zaki nutqini tekshirish.

**Vosita:** matn, u bilan bog'liq rasmlar asosida suhbat; mavzu asosida tayyorlangan mashq va topshiriqlar.

**O'QUV YILI OXIRIDA TAKRORLASH**

**ENDI GRIPP BO'L MAYMAN**

**1-qism**

Alisher devorda o'rmlab yurgan g'aroyib maxluqchani ko'rib qoldi. Yaqinlashib qarasa, gripp ekan. Chaqqon bola emasmi, oshxonadan tezda idish olib kelib, grippni qamab qo'ydi.

- Ushlab oldimmi?! Ana endi, singlimni kasal qilganing uchun ta'ziringni beraman!
- U men emas, boshqa gripp edi. Men yaqinda ishgai kirdim, hali ko'p narsani bilmayman, - dedi qo'rabi ketgan maxluqcha.
- Unda bu yerda nima qiliyapsan? - so'radi Alisher qovog'i niuyi.
- Halig... Seni kasal qilgani keluvdim, - dedi gripp.

90

### 1-soat

## DARS JARAYONI

### Kirish

Tashkiliy qismdan so'ng o'quvchilarni mavzuga olib kirish uchun quyidagi savol beriladi: "Ayting-chi, gripp nima?"

Sinfdag'i 4-5 nafar bolaning javobi eshitilgach, kitobni ochib, berilgan matn tanishtiriladi.

### Asosiy qism

O'quvchilarga darslikda berilgan "Endi gripp bo'l mayman" matnining birinchi qismini o'qish aytildi. O'quvchilar matnni mustaqil, ovoz chiqarmay o'qishlari lozim.

O'quvchilar matnni o'qib bo'lgach, guruh bilan birgalikda matn muhokama qilinadi.

### 2-soat

## DARS JARAYONI

### Kirish

Tashkiliy qismdan so'ng o'quvchilardan "Endi gripp bo'l mayman" matnining mazmuni so'raladi.

4-5 nafar o'qituvchining javobi eshitilgach, kitobni ochib, matn yuzasidan berilgan topshiriq bajariladi.

### Asosiy qism

#### 1-topshiriq. Test ishlash.

Darslikda "Endi gripp bo'l mayman" matni yuzasidan test berilgan. O'quvchilar testni yechib, to'g'ri javobni daftarlariiga yozishi lozim. Testning javoblari matnda aks etgan.

O'quvchilar topshiriqni bajarib bo'lgach, "Endi gripp bo'l mayman" matnining ikkinchi qismini mustaqil o'qib, guruh bilan muhokama qiladilar.

### 3-soat

## DARS JARAYONI

### Kirish

Tashkiliy qismdan so'ng o'quvchilardan "Endi gripp bo'l mayman" (2-qism) matnining mazmuni so'raladi.



4-5 nafar o'qituvchining javobi eshitilgach, kitobni ochib, matn yuzasidan berilgan topshiriq bajariladi.

## 5-soat

### DARS JARAYONI

#### Kirish

Tashkiliy qismdan so'ng o'quvchilarni mavzuga olib kirish uchun quyidagi savol beriladi: "Ayting-chi, qizilishtonni nega "o'rmon shifokori" deymiz?"

4-5 nafar o'qituvchining javobi eshitilgach, kitobni ochib, berilgan matn tanishtiriladi.

#### Asosiy qism

Darslikda "Endi gripp bo'lmayman" matnidan olingen parcha berilgan. O'quvchilar gaplarni mazmunan o'zaro moslashtirib aytib berishlari lozim.

O'quvchilar topshiriqni bajarib bo'lgach, "Endi gripp bo'lmayman" matni asosida quyidagi topshiriqlar bajariladi:

**Yozma mashq. Matn asosida berilgan topshiriqlarni bajaring.**

**1-topshiriq. Matndagi qaysi so'zlarni tushunishga qiyonaldingiz? Yozing.**

**2-topshiriq. Maxluq ketishidan oldin do'sti Alisherga qanday tilak bildirdi?**

**3-topshiriq. Sizningcha, "ko'zdan g'oyib bo'lgan" maxluq qayerga ketgan?**

**4-topshiriq. Kasal bo'imaslik uchun nima qilish kerak ekan? 2 ta misol yozing.**

Mazkur topshiriqlar yozma tarzda bajartiriladi. O'qituvchi xattaxtaga ushbu topshiriqlarni yozib qo'yadi va o'quvchilarga topshiriqlarni daftarlariiga ketma-ketlikda bajarishlarini aytadi.

Ushbu topshiriqni o'quvchilar matnga qarab bajarishlari mumkin. Bu topshiriq orqali o'quvchining matn bilan ishslash, matnga munosabat bildirish, kerakli o'rinni topib xulosa keltira olish ko'nikmalari tekshiriladi.

#### 4-soat

### DARS JARAYONI

#### Kirish

Tashkiliy qismdan so'ng o'quvchilarni mavzuga olib kirish uchun quyidagi savol beriladi: "Ayting-chi, qizilishton haqida eshitganmisiz?"

4-5 nafar o'qituvchining javobi eshitilgach, kitobni ochib, berilgan matn tanishtiriladi.

#### Asosiy qism

O'quvchilarga darslikning 94-sahifasida berilgan matnning birinchi qismini o'qish aytildi. O'quvchilar matnni mustaqil, ovoz chiqarmay o'qishlari lozim.

Matn o'qib bo'lingach, guruh bilan birgalikda muhokama qilinadi.

#### Kirish

Tashkiliy qismdan so'ng o'quvchilarni mavzuga olib kirish uchun quyidagi savol beriladi: "Ayting-chi, qizilishtonni nega "o'rmon shifokori" deymiz?"

4-5 nafar o'qituvchining javobi eshitilgach, kitobni ochib, berilgan matn tanishtiriladi.

#### Asosiy qism.

O'quvchilarga darslikning 95-sahifasida joylashgan matnning ikkinchi qismini o'qish aytildi. O'quvchilar matnni mustaqil, ovoz chiqarmay o'qishlari lozim.

Matn o'qib bo'lingach, o'qituvchi yana bir marta o'qib beradi hamda qiziqarli ma'lumot bilan o'quvchilarni tanishtiradi.

So'ng guruh bilan birgalikda matn muhokama qilinadi.

taq... taq..." degan tovushni eshitib qolsangiz, bilingki, bu yerda qizilishton bor. Butun dunyoda ularning 220 dan ortiq turi mavjud. O'zbekistonda esa oqqanon qizilishtonning 2 turi yashaydi.



Ko'pchilik qushlar havoda ucha olgani bilan daraxt tanasi bo'ylab yuqoriga harakatlana olmaydi. Ammo qizilishton daraxt tanasida bemalol yuqoriga harakat qilaveradi. Chunki uning yoq panja barmoqlarining ikkitasi orqaga, ikkitasi esa oldinga qaragan.

"O'rmon shifokori" haqiqatan ham juda foydali qush bo'lib, u bir o'tirishda daraxt tanasidan 1000 tagacha hasharotni terib yeyishi mumkin. Po'stloq ostidagi hasharotlarni terib yeyishda unga uzun va yopishqoq tili ham qo'l keladi.



## 6-soat

### DARS JARAYONI

#### Kirish

Tashkiliy qismdan so'ng o'quvchilardan o'tilgan darsda muhokama qilingan matnning mazmuni so'raladi.

4–5 nafar o'qituvchining javobi eshitilgach, kitobni ochib, matn yuzasidan berilgan topshiriq bajariladi.

#### Asosiy qism

##### 1-topshiriq. Test ishlash.

Darslikda "Qizilishton" matni yuzasidan test berilgan. O'quvchilar testni yechib, to'g'ri javobni daftarlariga yozishi lozim. Testning javoblari matnda aks etgan.

**2-topshiriq. Quyidagi ma'lumotlarning qaysi biri to'g'ri, qaysi bir noto'g'ri ekanini aniqlang.**

Mazkur topshiriq mashq daftarida bajariladi. Bunda matndan olingan gaplar jadvalda berilgan. O'quvchilar gaplarni o'qib, to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini belgilashlari zarur. Topshiriqni bajarishda matndan foydalanishlari mumkin.

Bu topshiriq orqali o'quvchining matndan foydalana olishi, kerakli o'rinni topib, munosabat bildirishi tekshiriladi.

**Javob:** 1. To'g'ri. 2. Noto'g'ri. 3. Noto'g'ri.  
4. To'g'ri. 5. To'g'ri.

O'quvchilar topshiriqni bajarib bo'lgach, berilgan sarlavhalardan birini matn uchun tanlab, qisqacha izohlab berishlari kerak.

## 7-soat

### DARS JARAYONI

#### Kirish

Tashkiliy qismdan so'ng o'quvchilar bilan o'tilgan mavzular bo'yicha qisqa savol-javob qilinadi.

4-5 nafar o'quvchining javobi eshitilgach, kitobni ochib, topshiriq sharti tanishtiriladi.

#### Asosiy qism

##### Yozma mashq.

1-topshiriq. Partadoshingiz bilan suhbat quering. Suhbatni dialog shaklida yozing. Yozuvda

nuqta, so'roq va undov belgilaridan to'g'ri foydalaning.

Darslikda suhbat uchun yo'nalish berilgan. Ya'ni yil davomida o'tilgan mavzularga ishora qiluvchi rasmlar keltirilgan. O'quvchilar partadoshlari bilan mavzu tanlab, shu asosida suhbat tayyorlashlari lozim. Avval suhbat nima haqida bo'lishini maslahatlashadilar. So'ng suhbatni dialog shaklida daftarga yozadilar.

Yozib bo'lishgach, partadoshlari bilan birga rolga kirib aytib berishlari lozim.

O'zaro suhbat jarayoni yakunlangandan so'ng, keyingi topshiriq sharti tanishtiriladi.

2-topshiriq. Ushbu gapdag'i xatolarni toping va to'g'rilab yozing.

Darslikning 99-sahifasida matn berilgan. Ushbu matnning ayrim o'rinalarda xatolik mavjud. O'quvchilar ushbu xatolarni topib, daftarlariiga to'g'rilab yozishi kerak.

Mashqni bajarib bo'lishgach, xattaxtada matn ko'rsatilib, guruh bilan birgalikda xatolar to'g'rilanadi.

## 8-soat

### DARS JARAYONI

#### Kirish

Tashkiliy qismdan so'ng o'qituvchi o'quvchilarga xat yozishlari kerakligini e'lon qiladi. Xat yozishga yo'nalish berish uchun quyidagi savollardan foydalanish mumkin:

Darslikda qanday qahramonlar bilan tanishdingiz?

Qaysi qahramon sizga ko'proq yodqi?

#### Asosiy qism

**Yozma mashq.** Sevimli qahramoningiz yoki yaqin kishingizga xat yozing. Xat yozishni boshlashda berilgan namunalardan foydalanishingiz mumkin.

Darslikda xat yozish uchun namuna berilgan. Unda asosan xatlarda ishlatalidigan so'zlar yozilgan. O'quvchi shu so'zlardan foydalanib, yoqtirgan qahramoni yoki yaqin kishisiga xat yozib berishi lozim.

##### Topshiriq daftarda bajariladi.

O'quvchilar topshiriqni bajarib bo'lgach, bir necha o'quvchiga yozgani o'qitiladi, xato va kamchiliklari to'g'rilanadi.



O'quv nashri

# ONA TILI

## VA O'QISH SAVODXONLIGI

1

O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma

Muharrir *Orifjon Madvaliyev*  
Badiiy muharrir *Sarvar Farmonov*  
Texnik muharrir *Akmal Sulaymonov*  
Musahhhih *Xurshid Ibrohimov*  
Dizayner *Dilmurod Mulla-Axunov*  
Sahifalovchi *Alimardon Aqilov*

Bosishga 02.12.2021-yilda ruxsat etildi. Bichimi 60x84 1/8.  
Arial garniturasi. Kegli 12 shponli. Ofset bosma.  
Shartli bosma tabog'i 14,88. Nashriyot-hisob tabog'i 12,43.  
Adadi \_\_\_\_\_ nusxa. Buyurtma № \_\_\_\_.

"O'zbekiston" MCHJ nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etildi.  
100011. Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.

Telefon: (371) 244-87-55, 244-87-20.  
Faks: (371) 244-37-81, 244-38-10.  
e-mail: [uzbekistan@iptd-uzbekistan.uz](mailto:uzbekistan@iptd-uzbekistan.uz)  
[www.iptd-uzbekistan.uz](http://www.iptd-uzbekistan.uz)